

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO'LIMI
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-9/4
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yaqub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To ‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is ‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug ‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganova, b.f.d., prof.

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go ‘zal Yuldashevna, f.f.f.d., dos.
Ro ‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro ‘zmetov Dilshod Ro ‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San ‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O ‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho ‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O’razboyev G ‘ayrat O’razaliyevich, f-m.f.d.
O’rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultanovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudayberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№9/4 (118), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2024 y. – 199 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

МУНДАРИЖА
FILOLOGIYA FANLARI

Abduraxmanova N. Farmatsevtika nutqi janrida dori vositalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi: leksik-terminologik va kompozitsion-kommunikativ tahlil	5
Akhmedova M.T. Difficulties in translating phraseological units in english and uzbek	7
Aronova M.M. Siyosiy diskursning morfologik xususiyatlari	9
Ataboev A.Dj. Til va ong o'rtaqidagi munosabatlarning ontologik jihatlari	12
Ataboev A.Dj. Til va ongning o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi xususida	16
Avezova D.S. Taxalluslarning semantik xususiyati	20
Aynazarova G.B. Qoraqalpoq va o'zbek tillaridagi shodlik so'zlarini qiyosiy tahlil qilish	25
Azatova G. Xorazm xalq aytimlarining shakllanishi va rivojlanishi xususida	28
Azimova D. Formation of phonetic/phonological units based on strong-weakness of sounds in English and Uzbek languages	31
Baxodirova Sh.B. Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida lakunlar birliklar	34
Boltaboyev F.Sh. Leksik interferensiya tushunchasi, uning mohiyati va kelib chiqishi	39
Bozorova M.A. Genrix Geynening "Germaniya. Qish ertagi" asari yoki ijodkorning xalq oldidagi mas'uliyati haqida	41
Chilmurzayeva M.A. O'zbek va ingliz adabiyoti taraqqiyotida tarixiy roman janri rivojlanish tendentsiyalari	44
Davirova V.Q. Venger olimi Herman Vamberi va o'zbek folklori	46
Ergashev M.R. Terminning ko'p tomonlama tabiatini xususida	51
G'aniyeva T. Ingliz va o'zbek tillarida animatsion mediadiskursda frazeologizmlarning qo'llanilishi va ularning lingvopragmatik jihatlari	53
Hamroyeva N.N. Nutqiy janr va nutqiy akt – nutqiy muloqotning birligi sifatida	58
Hazratqulova E.I., Botirova Sh.I. Zamonaviy tilshunoslikda psixolingvistikating o'rganilishi	61
Iskandarova Sh., Maxmudova N. O'zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar paradigmasi haqida	65
Ismoilova F.A. Diniy terminlar tarjimasidagi muammolar va ularni hal etishdagi yechimlar	67
Jurayeva M.A. Ingliz va o'zbek tillarida reklama tavsifi, uning xususiyatlari	69
Karimova I.B. Tilshunoslikda raqamlarning paydo bo'lishi va bosqichma bosqich rivojlanishi	72
Koziva I.K. Learn nicknames	77
Kuchimova G. Agglyutinativ tillar tizimida tilning morfemika sathiga doir asosiy birliklarning ahamiyati, qo'llanilishi va vazifalari	79
Mamataliyeva X.M. Dunyo tilshunosligida lingvistik maydon konsepsiyalari	82
Matmurodov X. Ranglarni idrok etish psixologiyasi	85
Maxmudov R., Atajonova A. Badiiy matnni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilish tamoyillari	88
Melikova U.B. Koreys tilida sifatlarning yasalishi	91
Nazarova D.I. Yangi davr she'riyati mumtoz janrlarida shaxs kechinmalarining poetik talqini	94
Obobakirova V.V. The origin of nicknames and their distinctive features in dialects	97
Pirmatova O.S. Sholichilik terminlarining birikma tarzida yasalishi	100
Qambarova L. Sensor afaziyaning rus tilshunosligida o'rganilishi	102
Qudratova M.Sh. Asqar Mahkam she'riyatida leksik qatlam va tasviriy-ifodaviy vositalar	105
Raxmanova D.A. Nemis xalq ertaklarining o'zbek tiliga tarjima variantlarining shakllanishi va tarjima masalalari	108
Raxmatullayev Z.H. O'zbek va ingliz adabiyotida o'lim mavzusining yoritilishida yozuvchi ijodiy konsepsiysi	111

Ro'ziyeva N.K. Ingliz tili kommunikatsion diskursida hamkorlik tamoyili hamda xushmuomalalik strategiyasi	114
Saidova R.B. "Majolis un-nafois" tazkirasida she'r va shoirlik xususida mulohazalar	117
Saidova R.B. Adabiyotshunoslikda "she'r va shoirliq" muammolari Abdurauf Fitrat talqinida	122
Sharipova O.X. Ona Vatanga muhabbat tuyg'usi ifodalangan paremalarning lingvokulturologik tahlili	125
Shukurova N. Studying the concept of "family" in english and uzbeki from an ethnolinguistic aspect	128
Sobirova N.U. Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlar tadqiqi	130
Sobirova R.X. Maqollarning janriy xususiyatlari va o'rganilishi masalalari	133
Tagayeva A.R. Influence of anthropocentric approach in linguistics	135
Toshova X.S. Metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlari	138
Toshtemirov E.N. Ingliz tilida antonimik frazeologizmlar va ularning turlari	141
Turg'unov Sh.N. Ingliz va o'zbek tillarida haqorat semantik komponentini aniqlash	144
Tursunova D.A. Lakunaning leksik-semantik xususiyatlari va madaniyatlararo aloqadagi roli	147
Tursunova M. Lingvistik muloqotdagi psixolingvistik va madaniy omillar	149
Umarova I. Isajan Sulton romanlarida ramziylik ifodasi	152
Xaitqulov Z.X. Parallel korpusda kontekstual avtomatlashtirilgan tarjimon dasturlar tizimini yaratish funksiyalari	155
Xashimova Z.I. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari	158
Xoshimjonova Q.N. O'zbek tili leksikogrammatikasi va uning korpusga asoslangan metodologik asoslari	161
Xudoyberdiyeva O.I. Paremiologik birliklarning lingvistik tadqiqi xususida	165
Yigitaliyev U., Umidjonov Sh., Solijon-zoda X. Fonematik ta'riflarning substansional tomonida "shaxs" konseptining ifodalanishi	168
Yuldasheva Sh.A. Rey Bredberining "Piyoda" va Isajon Sultonning "Mega intellekt" hikoyalarida texnokratlashgan olam tasvirida milliy-madaniy motivlar talqini	170
Yulchiyeva D. Ingliz va o'zbek tillaridagi turizm terminlari va ularning tasnifi	174
Yusubova R.N. Badiiy axborot va ijodkor individual yondashuvi	176
Yusupova G. Gender tilshunoslik masalalari: nemis va o'zbek tillari misolida	180
Zaripbayeva N. Assessing english proficiency among medical students: a comprehensive approach	183
Абдушарипова Д. Ўзбек тили лексикасига олмон тилидан ўзлашган айрим сўзлар таҳлили	187
Баҳридинова Д.Б. Умарали Норматов ижодида адабий сухбат жанри	189
Кудайбергенова Г.П. Фонетическая оригинальность использования звуковых аллитераций в лирике К. Рахманова	192
Расулов И.И. Компонентный анализ фразеологизмов русского и узбекского языков	195

UO'K 81/42

**FARMATSEVTIKA NUTQI JANRIDA DORI VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA
YO'RIQNOMA: LEKSIK-TERMINOLOGIK VA KOMPOZITSION-KOMMUNIKATIV
TAHLIL**

N.Abduraxmanova, PhD, katta o'qituvchi, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Mazkur maqola dori vositalarini farmatsevtika nutqi janrlari sifatida qo'llash bo'yicha yo'rqnoma: leksik-terminologik va kompozitsion-kommunikativ xususiyatlari haqida bo'lib, farmatsevtik diskurs, uning shakli, tuzilishi, farmatsevtik diskursning boshqa yo'rqnomalardan farqlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: farmatsevtik diskurs, dori vositalari, yo'rqnoma matni, asosiy diskursiv omillar, iste'molchi, adresat va adresant.

Аннотация. В данной статье речь идет о методических указаниях по употреблению лекарственных средств как жанрах фармацевтической речи: лексико-терминологических и композиционно-коммуникативных особенностях, сведениях о фармацевтическом дискурсе, его форме, структуре, отличиях фармацевтического дискурса от других приведенных методических указаний.

Ключевые слова: фармацевтический дискурс, лекарственные препараты, текст инструкции, основные дискурсивные факторы, потребитель, адресат и адресат.

Abstract. This article deals with guidelines for the use of medicines as genres of pharmaceutical speech: lexical-terminological and compositional-communicative features, information about pharmaceutical discourse, its form, structure, differences between pharmaceutical discourse and other guidelines given.

Key words: pharmaceutical discourse, drugs, instruction text, main discursive factors, consumer, addressee and addressee.

Kirish. Diskursni tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar sirasida T.A.Van Deyk, V.Z.Demyankova, V.I.Karasik, A.A.Kibrik, V.V.Krasniy, Ye.S.Kubryakova, M.L.Makarova, N.I.Formanovskiy, O.S.Issers, O.G.Revzina, Ye.I.Sheygallarning turli darajadagi tadqiqotlarini ta'kidlash joiz. Mazkur olimlarning ishlarida diskurs muammosi yechimlariga turli yondashuvlar prizmasidan qaralgan. Instruksiya kommunikativ makrohosila sifatida (Radziyevskaya, 1986; Agamaliyeva, 2001), matn sifatida (Aleksandrova, 1985; Gladkix, 2005 va 2006) hamda nutqiy janr sifatida (Rextin, 2005; Karmanova, 1993; Gerd, 1980; Yegorov, 1982) o'rganilgan. Yuqoridaq tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, Ye.Yu.Kondrashkina instruktiv matn sanalgan ilmiy-texnik va maxsus matnlarning turli aspekti tavsiflanganligi, ammo tadqiqotchilarning mazkur matnlarning qo'llanish sohasini e'tibordan chetda qoldirishganligini ta'kidlaydi. Instruktiv va ilmiy-texnik matnlar janriy xilmaxillik va uslubiy xoslanish (Rextin, 2005; Karmanova, 1993; Radziyevskaya), kashfiyot formulasi tavsifining o'ziga xosligi (Aleksandrova, 1985), instruktiv diskursning uslubiy-semantik xususiyati (Agamaliyeva, 2001), instruktiv matnlarning tuzilishi va sintaktik xususiyatlari (Gladkix, 2005-2006) nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Adabiyotlar taxlili. Instruktiv matn – diskursning alohida ko'rinishi. O.V.Xoroxordina "Инструкция как тип текста" nomli maqolasida instruksiyani alohida janr deb qaraydi. Mazkur janr bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, mazmuniy asos, instruksiyada fikrni ifodalash / berish usuli, nutqiy realizatsiya natijasi bilan ajralib turadi. Dori vositalarini qo'llash bo'yicha yo'rqnomalarning lisoniy xususiyatlari o'rganilgan ishlar ko'p. L.N.Nosova fransuz tilida farmatsevtik diskursni tadqiq etgan.

Farmatsevtik diskurs tibbiyotga oid diskursning bir ko'rinishi bo'lib, maxsus tayyorgarlik, ma'lum malakaga ega mutaxassislar (shifokor / farmatsevt) hamda iste'molchi (tibbiy bilimga ega bemor) yoki bu sohadan umuman xabardor bo'limgan kishilar o'rtasida bevosita va bilvosita muloqotni tashkil etuvchi diskursdir. Farmatsevtik diskursga xos bo'lgan nutqning eng asosiy belgisi

“axborot berish orqali ishontirish”dan iborat. Bunday axborotlar iste’molchiga o’zi bilmagan ma’lumotlarni taqdim etishi bilan xarakterlanadi. Chunki dori iste’molchisi ishlataladigan mahsulot bilan endi tanishayotgan bo‘ladi. Odatda, dori vositalarini qo’llash bo‘yicha yo‘riqnomalar ushbu dori vositasi bilan birinchi marta tanishish maqsadida o‘qiladi. Boshqa turdag'i yo‘riqnomadan farqli ravishda bunday yo‘riqnomalar ko‘p marta qayta o‘qilmaydi, dastlabki tanishuvdan keyin zarurat tug‘ilganda o‘qish takrorlanishi mumkin.

D.M.Xasanova esa ba’zida farmatsevtik diskurs o‘zida ikki komponentni mujassamlashtirgan deb hisoblaydi. Birinchisi ijtimoiy kontekstda amal qiluvchi lisoniy jarayonning dinamik faoliyatini bo‘lsa, ikkinchisi ushbu faoliyatning natijasidir. Shu sababli farmatsevtik diskursga nisbatan “bog‘li matn” atamasini qo’llash biroz noto‘g’ri, chunki tildagi har bir matn mazmunan bog‘langan matndir.

Tadqiqot metodologiyasi. Og‘zaki farmatsevtik diskurs esa nutq axboroti bilan birga paralingvistik vositalarni ham qamrab oladi. Ritmik, referentiv, semantik (mimika, ma’no anglatuvchi imo-ishoralar), hissiy-bo‘yoq dorlik, suhbatdoshga ta’sir etish vazifasi, illokutiv kuch (imo-ishora, undash, ishontirish) kabilar shular jumlasidan. Paralingvistik vositalar orqali ta’sir etishda yo‘riqnomalar matni emas, odatda, shifokor tomonidan amalga oshiriladi.

Diskurs tushunchasiga yaqin bo‘lgan yana bir tushuncha bor, bu dialogdir. Farmatsevtik diskurs dialog shaklida ham yuzaga chiqadi. Istalgan kommunikativ aktida bo‘lgani kabi, og‘zaki farmatsevtik diskursda ikki asosiy rol – so‘zlovchi (muallif) va adresat bo‘ladi. Odatdag'i diskursiv jarayonda so‘zlovchi va adresat maqomi o‘zgarib tursa, farmatsevtik diskursda so‘zlovchi maqomi bitta shaxsda qolaveradi: shifokor tushuntiradi, bemor tinglaydi, tushunadi. Diskursda (uning katta qismida) so‘zlovchi va tinglovchi maqomi almashib tursa, dialogik diskurs deyiladi, agar so‘zlovchi maqomi o‘zgarmasa, monologik diskurs deyiladi. Bundan kelib chiqadiki, og‘zaki farmatsevtik diskurs monologik diskursdir. Monologik diskursda ham adresat muhim. Monologik diskurs ham dialogning bir qismi, uni ham adresat qabul qiladi, faqt javob qaytarishda faol bo‘lmaydi.

Tahlillar va natijalar. Farmatsevtik diskursning mazmuniy-struktur xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

kompozitsion qism: ekspozitsiya – harakat zaruriyatini asoslovchi, rag‘batlantiruvchi qism; tavsify qism – ko‘rsatmani tushuntiruvchi, sharhlovchi qism;

asosiy yo‘riqnomalar qismi – bu yerda yo‘riqnomalar berish usuli o‘ziga xos ko‘rsatma tonalligi bilan qo’llaniladi, bu butun matnni bir butun sifatida qamrab oladi.

Ta’kidlash lozimki, diskursning mazkur turida shartlanganlik, tushuntirish, izohlash mazmuni ustunlik qiladi. Jarohatlanish, zaharlanish yoki birdan kasallanish insonni ishlash qobiliyatidan to‘satdan mahrum qiladi, bemor tibbiyat xodimiga murojaat qilishga majbur bo‘ladi yoki shifokorgacha bo‘lgan davrda o‘ziga yordam berishiga ehtiyoj tug‘iladi. Shunday paytda tibbiy qo’llanma yordamga keladi[5].

Farmatsevtik yo‘riqnomalar hissiy bo‘yoq va xushmuomalalik tamoyillaridan uzoq bo‘lib, ularda, odatda, uslubiy betaraf so‘z / iboralar ishtirot etadi.

XULOSA. Shunday qilib, instruktiv matndagi intertekstuallik matnlararo o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladigan harakat sifatida izohlanadi[1].

Dori vositalarini qo’llash bo‘yicha yo‘riqnomalar farmatsevtik diskursning nutq natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchining foydalanuvchiga u bilan aloqaning kommunikativ muloqotdagi pragmatik aspektlarini ifodalovchi imperativlik, informativlik, intensionallik kabi asosiy kategoriyalarni ifodalaydi[2]. Boshqa tomonidan qaraganda, tibbiy yo‘riqnomalar nutqiy axborot shakli, u kognitiv, aksioligik va pragmatik funksiyalarga ega. Ular nafaqat obyektiv bilimlarni taqdim etadi, balki u retsipyentning emotsiyalari holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tibbiy yo‘riqnomalarning adekvat tarjimasi quyidagi ekstralolingvistik omillarni qamrab oladi: umumiylilik, aniqlik (ko‘pma’nolilikka yo‘l qo‘ymaslik), standartlilik (stereotip va klishe iboralardan foydalanish), yo‘riqnomalar matnining volyuntativligi. Bularning barchasi tibbiy yo‘riqnomada aytilganlarni bajarishga ishonchni keltirib chiqarishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Кондрашкина Е.Ю. К вопросу о текстосвязывающих категориях в инструктивном тексте / Мир русского слова. – № 3 / 2018. – С. 27-32.

2. Носова Л.Н. Коммуникативно-прагматический потенциал инструкции по применению лекарственных средств в фармацевтическом дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2013.
3. Кондрашкина Е. Ю. Инструктивный дискурс в коммуникативно-прагматическом аспекте // Вестн. Московского гос. обл. ун-та. Русская филология, 2016. – № 5. – 55-62 с.
4. Ван Дейк Т.Д. Язык. Познание. Коммуникация. – М., 1989. 11. Демьянков В.З. Когниция и понимание текста // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2005. № 3. – 5-10 с.
5. Инструкция по охране труда для офисного работника (зао «юринформ в», 2010). URL: <http://www.lawmix.ru/docs/17723>

UDC: 81.2**DIFFICULTIES IN TRANSLATING PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK****M.T.Akhmedova, senior teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan**

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birlklarni tarjima qilish jarayonidagi qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Frazeologik birlklar har bir tilning madaniyati, tarixi va kontekstiga bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri tarjima qilish ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Maqolada madaniy farqlar, tarjima uslublari, semantik o'zgarishlar, grammatik xususiyatlar va tarjimonning madaniy bilimi kabi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, frazeologik birlklarning tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va bu muammolarni bartaraf etish yo'llari haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, tarjima jarayoni, madaniy farqlar, semantika, grammatik xususiyatlar, tarjima uslubi, madaniy muloqot.

Аннотация. В данной статье анализируются трудности в процессе перевода фразеологизмов на английском и узбекском языках. Фразеологические единицы зависят от культуры, истории и контекста каждого языка, и их правильный перевод создает множество проблем. В статье рассматриваются такие факторы, как культурные различия, стили перевода, семантическая вариация, грамматические особенности и культурные знания переводчика. Также высказываются мнения о трудностях, возникающих в процессе перевода фразеологизмов, и путях преодоления этих проблем.

Ключевые слова: фразеологизм, процесс перевода, культурные различия, семантика, грамматические особенности, стиль перевода, культурная коммуникация.

Abstract. This article analyzes the difficulties in the process of translating phraseological units in English and Uzbek languages. Phraseological units depend on the culture, history and context of each language, and their correct translation creates many problems. The article examines factors such as cultural differences, translation styles, semantic variation, grammatical features, and cultural knowledge of the translator. Also, opinions are expressed about the difficulties that arise in the process of translation of phraseological units and ways to overcome these problems.

Key words: phraseological unit, translation process, cultural differences, semantics, grammatical features, translation style, cultural communication.

Introduction. Phraseological units are fixed expressions or combinations of words that convey a specific meaning and are often used as single units in speech or writing. They can include idioms, collocations, proverbs, and set phrases.

Phraseological units are one of the rich and colorful elements of the language, which reflect the meaning, structure and culture of the language. Each phraseological unit preserves the uniqueness of language and culture, historical development and social context. There are many phraseological units in English and Uzbek, each of them has its own meaning and is used in different situations.

Phraseological units are important in language as they enrich communication, provide cultural context, and often have meanings that are not directly deducible from the individual words.[5.49]

Also, phraseological units are often associated with the values, traditions and customs of a particular culture. Each language creates its own expressions based on its historical conditions and social environment. When these expressions are translated into another language, their original

meaning and context may be lost. In order to overcome such problems in the translation process, translators need to have cultural knowledge.

The translation process causes many difficulties in transferring phraseological units to another language. This is because the meaning of phraseological units often does not come from the words they contain. For example, the English expression "spill the beans" means "to reveal a secret", but the direct translation of this expression can be "to spill other things". Such examples show the need to take into account the cultural context in the process of translation of phraseological units.[1.214]

At the same time, semantic changes of phraseological units are also important. Over time, the meaning of phrases can change or take on new meanings. This creates additional difficulties for translators. Translators should translate phraseological units correctly and accurately, taking into account the modern context.

Research methodology. In addition, differences in the grammatical structure of English and Uzbek languages play an important role in the translation of phraseological units. Each language has its own grammatical rules, which make the translator's job even more complicated. For example, passive forms are common in English, while active forms are used more in Uzbek. Such differences, depending on the ability of the translator, require additional efforts to convey the meaning correctly.[6.81]

Therefore, this article is devoted to the in-depth analysis of difficulties in the process of translation of phraseological units in English and Uzbek languages. The article examines factors such as cultural differences, semantic variation, grammatical features, and the translator's cultural knowledge. Opinions are expressed about the difficulties that arise in the translation process and ways to overcome these problems. This increases the chances of correct translation of phraseological units and preservation of cultural context. [7.155]

The process of translating phraseological units in English and Uzbek languages is explained by the following factors:

1. Cultural differences: Every language has its own historical, social and cultural context. Phraseological units often represent concepts specific to a particular culture. For example, the English phrase "kick the bucket" means "to die" in Uzbek, but its original meaning must be understood in the cultural context. If translators do not take these differences into account, the meaning of the phrase can be lost.[2.72]

2. Semantic changes: Over time, the meaning of phraseological units can change or acquire new meanings. This creates an additional challenge for translators, as it is necessary to know the old meaning and understand its use in the new context.

3. Grammatical differences: The grammatical structure of English and Uzbek languages is different from each other. These differences cause problems in the correct translation of phraseological units. For example, passive forms are common in English, while active forms are used more in Uzbek. The translator must take these differences into account and process the phrase accordingly.

4. Dynamic language development: Both languages are constantly evolving. New phraseological units may appear, and old phrases may disappear. Translators need to keep up with these changes and know the expressions used in the modern context.

5. Translator's cultural knowledge: The translator's cultural knowledge and interest in the language are important for the correct translation of phraseological units. Interpreters who are familiar with the culture are able to convey expressions more clearly and accurately.[8. 524]

These factors indicate the relevance of the process of translating phraseological units. In order to overcome the difficulties that arise in the translation process, translators need to have deep knowledge in the fields of culture, semantics and grammar. This makes their work more efficient and helps to establish proper communication between the two languages.

Analysis and results. Studying the difficulties in the process of translating phraseological units in English and Uzbek can lead to a number of useful results. Below are such results:

1. Improving the quality of translation:

- By studying the difficulties, translators better understand the specific meanings and contexts of phraseological units, which increases the quality of their translation.

2. Expanding cultural knowledge:

- An in-depth study of both cultures helps translators understand the connections between language and culture. This enhances mutual understanding.

3. Making the language learning process effective:

- Identifying difficulties in the translation process allows language learners to master phraseological units more effectively. They learn to use expressions in the correct context.

4. Development of lexical and grammatical knowledge:

- Deeper study of lexical and grammatical rules through phraseological units develops translators' language skills.

5. Encourage a creative approach:

- The process of solving problems encourages creative thinking. Translators strive to find new and original solutions.

6. Strengthening communication:[9]

- The correct translation of phraseological units in English and Uzbek languages strengthens the communication between the two languages and develops intercultural relations.

In general, the study of difficulties in the process of translation of phraseological units in English and Uzbek languages is important not only for translators, but also for language learners and intercultural relations. This process helps to gain a deeper understanding of the language and culture, as well as to make communication more effective.

Conclusion. The process of translating phraseological units in English and Uzbek faces many difficulties. These difficulties arise from differences in the lexical and grammatical features of the language, cultural contexts, and the meanings of phraseological units. Successful implementation of this process for translators requires not only good language skills, but also cultural knowledge.

In this article, it was shown that by analyzing the problems encountered in the translation of phraseological units and proposing their solutions, it is possible to improve the quality of translation, strengthen intercultural communication, and make the language learning process effective. As a result, the correct translation of phraseological units plays an important role in improving communication between two languages and bringing cultures closer together. Thus, the process of studying and translating phraseological units in the English and Uzbek languages opens up new opportunities in the fields of linguistics and cultural studies.

REFERENCES:

1. Sulaymonov M. Avlodlar estafetasi. "Tarjima sanati" akolalar tuplami. T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976, 214-betlar.
2. N.Aliyeva "Tarjima muammolari". T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.72b.
3. Y. Федоров А.В. Введение теорию перевода, М., 1953 стр. 139.
4. Jalilova Nilufar Dilshodovna (2019). O`zbek va ingliz tillarida idiomalarni taqqoslashning lingual tahlili. Vestnik nauki i obrazovaniya, (20-2 (74)), 48-52.
5. Safaraliev, Bozor professor; Bakiyeva, Gulandom professor; va Nasrullaeva, professor Nafisa «Ingliz va o`zbek idiomatik iboralarni tekshirishning lingvoultral aspekti», Filologiya masalalari: jild. 2020: Iss. 3.
6. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida fraze birliklarning semantik-grammatik va uslubiy psixologik. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: baholash, dioxroniya materiallari to'plami. - T.: Muhammarr. 2012. – B.81.
7. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English – London: Oxford University Press, 2005. – 155p.
8. Kortmann B., Traugott E. C. Phraseology and Culture in English. Berlin, 2007. 524 p.
9. www.ziyouz.com kutubxonasi.

UO'K:811.512.133'42:811.111'42

SIYOSIY DISKURSNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.M.Asranova, dots., Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Ushbu maqola siyosiy diskursning morfologik xususiyatlari va diskursni tushunish, tahlil qilish nafaqat tilshunoslar, balki til va muloqotni o'rganuvchi boshqa fanlar

vakillari uchun ham muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu maqolada siyosiy diskursning morfologik xususiyatlarni yoritib berish uchun bir qancha siyosiy nutqlardan misollar keltirilgan va ularning tahlili ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy diskurs, morfologiya, sifat, chastota, siyosiy nutq, Inauguratsiya, murojaatnoma, parlament.

Аннотация. В данной статье мы видим, что морфологические особенности политического дискурса, а также понимание и анализ дискурса важны не только для лингвистов, но и для представителей других дисциплин, изучающих язык и общение. Также с целью уточнения морфологических характеристик политического дискурса в данной статье приводятся примеры нескольких политических дискурсов и их анализ.

Ключевые слова: политический дискурс, морфология, качество, частота, политическая речь, инаугурация, обращение, парламент.

Abstract. In this article, we can see that the morphological features of political discourse and the understanding and analysis of discourse are important not only for linguists, but also for representatives of other disciplines that study language and communication. Also, in order to clarify the morphological characteristics of political discourse, this article provides examples of several political discourses and their analysis.

Key words: political discourse, morphology, quality, frequency, political speech, Inauguration, address, parliament.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutq sotsiolingvistik va madaniy fenomen sifatida tadqiq etiladi, bu bizga tilning ijtimoiy vogelikni va madaniy munosabatlarni shakllantirishda tildan foydalanishni anglash imkonini beradi. Diskursni tadqiq etish bizning dunyoni tushunishimiz va ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi botiniy qadriyatlar, me'yor va munosabatlarni ochib beradi. Diskurs va undan foydalanish mexanizmlari hamda mafkurasi, xususan, siyosatshunoslik, media va madaniyatshunoslikda faol o'rganiladi, chunki aynan diskurs vositasida jamoatchilik fikri shakllanadi, stereotiplar yaratiladi va ommaviy auditoriya manipulyatsiya qilinadi.

Mavzuning dolzarbliji. Diskurs- zamonaviy tilshunoslikning asosiy terminlaridan biridir. U odatta, mazmun bir-biriga aloqador bog'liq, yagona muloqot tizimini ifodalovchi matnlar to'plamini ifodalaydi. Diskursning og'zaki va yozma shakllari mavjud, shuningdek, u turli shakl va strukturaga ega bo'lishi mumkin. Diskursning asosiy maqsadi axborot uzatish, tinglovchi fikrini ifodalash yoki uni bir xabarga ishontirishdan iborat.

Diskurs matnga nisbatan keng tushunchani bildiradi, chunki u o'zida faqat alohida fikrni ifodalashni emas, balki o'sha fikr ifodalangan ma'lum bir kontekst (muloqot muhiti)ni ham bildiradi. Mazkur kontekst o'zida ijtimoiy-madaniy, tarixiy va siyosiy omillarni saqlaydi. Bu omillar esa muloqotning yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

Tadqiqot va olingan natijalar. Shavkat Mirziyoyevning inauguratsiya marosimida so'zlagan nutqi ham siyosiy diskursning o'ziga xos bir turini ifoda etadi. Uning nutqidagi murojaat shakllari siyosiy diskursda nutq qaratilgan shaxslarga murojaat usulini ifodalab keladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inauguratsiya marosimidagi nutqida quyidagi murojaat shakllarini qo'llagan (To'liq matndagi barcha murojaat shakllarini keltiramiz):

1. Muhtaram vatandoshlar!
2. Hurmatli Senat a'zolari!
3. Hurmatli Qonunchilik palatasi deputatlari!
4. Xorijiy diplomatik korpus vakillari!
5. Xonimlar va janoblar!
6. Muhtaram tantanali majlis ishtirokchilar!
7. Aziz yurtdoshlar!
8. Hurmatli tantanali marosim qatnashchilar!
9. Qadrli do'stlar!
10. Hurmatli tantanali marosim ishtirokchilar!
11. Qadrli senator va deputatlar!

12. Hurmatli do'stlar!
13. Qadrli yurtdoshlar!
14. Hurmatli anjuman ishtirokchilari!
15. Aziz do'stlar!
16. Aziz va qadrli yurtdoshlarim!

Keltirilgan parchadan ko'rinish turibdiki, Prezident inauguratsiya marosimidagi nutqida 16 marta murojaat shaklidan foydalangan. Mazkur shakllarning mazmuni ham nihoyatda muhim: nutq kimga qaratilganini ta'kidlash maqsadida subyektni aniq ko'rsatgan. Bu so'zlarning ishtirok etish chastotasi quyidagi jadvalda ko'rindi:

1-jadval:

Nº	Nutq qaratilgan subyekt	Chastotasi	Aniqlovchi
1	Vatandoshlar	1	Muhtaram
2	Yurtdoshlar	3	Aziz(1),qadrli(1),aziz va qadrli(1)
3	Do'stlar	3	Qadrli(1), hurmatli(1), aziz(1)
4	Ishtirokchilari	3	Muhtaram(1-sa) tantanali majlis(1-qa), hurmatli(2-sa), tantanali marosim(2-qa)
5	Qatnashchilari	1	Hurmatli(1-sa), tantanali marosim (1-qa)
6	Senat azolari!	1	Hurmatli(1-sa)
7	Qonunchilik palatasi deputatlari!	1	Hurmatli (1-sa)
8	Xorijiy diplomatik korpus vakillari!	1	
9	Xonimlar va janoblar!	1	
10	Senator va deputatlar	1	Qadrli (1-SA)

Inauguratsiya marosimi nutqidagi murojaat shakllari, sifatlovchilari va qo'llanish chastotasi

Ko'rinish turibdiki, *vatandoshlar, yurtdoshlar, do'stlar, ishtirokchilar, qatnashchilar* kabi murojaat shakllari faol qo'llangan. E'tiborli tomoni shundaki, mazkur murojaat shakllari o'zar sinonim: *vatandosh // yurtdosh, ishtirokchi // qatnashchi* kabi. Shuningdek, murojaat shakllari, albatta, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchi bilan kengaygan holda qo'llangan: *muhtaram, qadrli, hurmatli, aziz* kabi. Yuqorida sanalgan, shuningdek, *xonimlar va janoblar* kabi undalmalar marosimning umumiy qatnashchilariga qaratilgan bo'lsa, *Senat a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Xorijiy diplomatik korpus vakillari, senator va deputatlar* kabi undalmalar siyosiy marosimda ishtirok etayotgan mas'ul shaxslarga qaratilgan. Bu esa ularning shaxsi va vazifasi, ularga bo'lgan e'tiborini ta'kidlash, nutqning mazkur subyeklar uchun muhimligini ko'rsatishga ishoradir. Demak, siyosiy nutqlarda nutq qaratilgan shaxs – undalma maxsus ekspressiv vazifa bajaradi. Inauguratsiya marosimida, odatda, so'zlovchi kelajakda bajarishni rejalshtirgan ishlarini sanab berarkan, I shaxs, ko'plik son hamda aniq nisbatdagi kesimlarni qo'llaydi. Masalan:

Xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo'lini yanada qat'iy davom ettiramiz va bu yo'ldan hech qachon ortga qaytmaymiz!

Yangi O'zbekistonni birgalikda albatta barpo etamiz!

«xom ashyodan – tayyor mahsulotgacha» degan tamoyil asosida drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantiramiz.

Shuningdek, inauguratsiya marosimidagi nutqlarda istak mazmunidagi konstruksiyalar alohida o'ringa ega. Siyosiy diskursning kuzatilgan mazkur janrga oid matnlarida tilak, istak mazmunidagi gaplar, albatta, uchraydi. Masalan:

Yangi O'zbekiston timsollaridan biri bo'lgan Senat binosi hammamizga muborak bo'lsin!

Aziz va mo'tabar Vatanimiz hamisha omon bo'lsin!

Xalqimizning baxtu iqbolini, omadini bersin! Barchamizga sihat-salomatlilik, oilaviy baxt, yangi yutuq va zafarlar yor bo'lsin!

Ulug' va pok niyatlarimizni amalga oshirishda Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin!

Bunday konstruksiyali gaplarning o'rni aniq: ular nutqning kirish qismi va eng oxiridan joy oladi. Siyosiy diskurslar ichida murojaatnomalar matnlarining ham o'ziga xos o'rni bor, chunki bunday murojaatnomalar matnida ham o'ziga xos leksik birlik va konstruksiyalar mavjud. Quyida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi" ni tahlilga tortamiz. Mazkur matn

2023 yil 30 aprel kuni mamlakatimizdagi tarixiy voqeа – umumxalq referendumi asosida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiylar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidir.

Mazkur matnda nutq qaratilgan shaxs, ya'ni undalma(lar) murojaatnomalarda bo'lgani kabi "Hurmatli parlament a'zolari, siyosiy partiylar va jamoatchilik vakillari!", "Hurmatli yig'ilish qatnashchilar!", "Aziz vatandoshlar!", "Hurmatli yig'ilish ishtirokchilar!", "Hurmatli yig'ilish qatnashchilar!", "Qadrli yurtdoshlar!" kabi konstruksiyalardan tashkil topadi.

Ko'rinaridiki, siyosiy yetakchilar barcha nutqlarida nutq qaratilgan subyektni tez-tez tilga olib turishadi. Bu esa siyosiy diskurs davomida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqani ushlab turishga xizmat qiladi.

Siyosiy diskursda faol matn janri sanalgan murojaatnama matnlarida tinglovchiga qaratilgan minnatdorchilik fikrlari, albatta, o'rin oladi. Masalan: *samimi minnatdorlik bildiraman, tashakkurlar aytaman*. Bu esa tinglovchida so'zlovchiga nisbatan ijobiy emotsiyani hosil qiladi.

Murojaatnama matnlarida "birgalikda bajarishga ishonch bildirish" ma'nosini ifodalovchi konstruksiyalar I shaxs, ko'plik son, kelasi zamon, aniq nisbat, xabar maylida ifodalanadi. Masalan: *olib chiqamiz, safarbar etamiz, rivojlantiramiz, faol ish olib boramiz, qat'iy davom ettiramiz, yo'l qo'ymaymiz*. Bunday konstruksiyalar (aniqrog'i, morfologik shakllar) siyosiy kuch va birdamlik ma'nosini yashirin ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlilga tortilgan murojaatnama matnida istak, tilak, qo'llab-quvvatlashni so'rash mazmuni quyidagi gaplarda ifodalangan:

1.Ishonchim komil, sizlar bilan, butun xalqimiz bilan ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz. Yangi O'zbekistonni barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, ahil va hamjihat bo'lib, birgalikda quramiz.

2.Mana shunday ulug' maqsad yo'lida hammangizga sihat-salomatlik, yangi yutuq va zafarlar, oilaviy baxt-saodat tilayman.

3.Yaratganning o'zi barcha olijanob ishlarimizda madadkor bo'lsin!

Ishonaman, ishonchim komil kabi leksik birliklar bunday konstruksiyaning asosiy birliklari va tayanch nuqtasi sanaladi.

Xulosa. Parlament va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylovlар natijalariga bag'ishlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi" da ham siyosiy diskurs janrlaridan biri bo'lgan murojaatnomalarga xos xususiyatlar namoyon bo'lgan. Mazkur nutq matni tahlili ko'rsatadiki, murojaatnomalar uchun tipik sanalgan undalmalar mazkur matnda ham ko'p uchragan undalmalar kengaygan, izohlovchisiga ega undalmalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Карасик В.И. О типах дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. / В.И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5-20.

2.Алефиренко Н.Ф. Текст и дискурс. – М.: Флинта, 2012. – 232 с

3.Янгиланган Конституциямиз Учинчи ренессансни барпо этиш йўлида мустаҳкам хукуқий пойдевор бўлиб хизмат килади // 08.05.2023 (Мурожаат санаси: 14.06.2024)

4.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 январдаги Олий Мажлис Конунчилик палатасининг биринчи йигилишидаги нутки // <https://president.uz/uz/lists/view/3303>

5.<https://assembly.coe.int/nw/xml/Speeches/Speech-XML2HTML>

7.<https://uztv.tv/channels/uzbekistan-24>; (Мурожаат санаси: 14.06.2024)

UO'K 81 139

TIL VA ONG O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING ONTOLOGIK JIHATLARI

A.Dj. Ataboev, dots., PhD, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. Ushbu maqola til va ong o'rtasidagi ontologik munosabatlarni o'rganadi, tilning ongli tajribani qanday shakllantirishi, aks ettirishi va o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Tegishli adabiyotlarni ko'rib chiqish, nazariy asoslarni tahlil qilish va empirik topilmalarni muhokama qilish

orgali ushbu tadqiqot til bizning ongli ongimizga qanday ta'sir qilishini va aksincha, har tomonlama tushunishni ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Til, ong, ontologiya, kognitiv fan, fenomenologiya, lingvistik nisbiylik, kognitiv tilshunoslik.

Аннотация. Эта статья исследует онтологические отношения между языком и сознанием, исследуя, как язык формирует, отражает и взаимодействует с сознательным опытом. Просматривая соответствующую литературу, анализируя теоретические основы и обсуждая эмпирические результаты, это исследование направлено на обеспечение всестороннего понимания того, как язык влияет на наше подсознание и наоборот.

Ключевые слова: Язык, сознание, онтология, когнитивная наука, феноменология, лингвистический релятивизм, когнитивная лингвистика.

Abstract. This article explores the ontological relationship between language and consciousness, exploring how language shapes, reflects, and interrelates conscious experience. By reviewing relevant literature, analyzing theoretical foundations and discussing empirical findings, this research aims to ensure that language affects our conscious mind and, conversely, comprehensively.

Keywords: Language, consciousness, ontology, cognitive science, phenomenology, linguistic relativity, cognitive linguistics.

Kirish. Til va ong o'rtaqidagi munosabatlar kognitiv fan, falsafa va tilshunoslikning asosiy mavzusidir. Til ko'pincha ongli fikrlarni ifoda etish vositasi sifatida qaraladi, ong esa tildan mazmunli foydalanish uchun muhim hisoblanadi. Ushbu maqola til va ongning bir-biriga qanday ta'sir qilishini va tashkil etishini tushunishga intilib, ushbu munosabatlarning ontologik jihatlarini o'rganadi.

Adabyotlarni tahlil qilish. Til va ong o'rtaqidagi munosabatni o'rganish bir nechta fanlarni, shu jumladan falsafa, kognitiv fan va tilshunoslik. Asosiy nazariyalar va istiqbollarga quyidagilar kiradi:

Lingvistik nisbiylik (Sapir-Vorf gipotezasi): bu nazariya tilning tuzilishi uning so'zlovchilarining bilimi va dunyoqarashiga ta'sir qiladi, deb ta'kidlaydi. Bu til fikrni va fikrni tilni shakllantiradigan ikki tomonlama munosabatlarni taklif qiladi.

Fenomenologiya: Gusserl va Merleau-Ponti kabi faylasuflar tilning ongli tajribada qanday namoyon bo'lishini o'rganishdi. Fenomenologiya yashagan tajribaga va til bizning voqelikni idrok etishimizni qanday tuzishiga qaratilgan.

Kognitiv Tilshunoslik: ushbu yondashuv til ong ishini qanday aks ettirishini o'rganadi. Kontseptual metafora nazariyasi kabi nazariyalar lingvistik iboralar mujassamlangan tajribalarda qanday ildiz otganligini ta'kidlaydi.

Nevrologiya va psixolingvistika: ushbu sohalardagi tadqiqotlar tilni qayta ishslash va ongli tajribaning neyron o'zaro bog'liqligini o'rganadi, til va ongning o'zaro ta'siri haqida empirik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Usullari. Ushbu maqola birlashtirgan multiditsiplinar yondashuvni qo'llaydi:

Nazariy tahlil: til va ong haqidagi mavjud nazariyalar va falsafiy dalillarni ko'rib chiqish va sintez qilish.

Empirik mulohaza: til va ong o'rtaqidagi empirik munosabatni tushunish uchun kognitiv fan, nevrologiya va psixolingvistika tadqiqotlarini tahlil qilish.

Fenomenologik tahlil: til va ongning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish uchun shaxsiy va subyektiv tajribalar haqida fikr yuritish.

Natijalar. Ongning subyektiv tabiatiga qaramay, til subyektivlikka erishishga imkon beradi, bu jarayonda subyektiv tajriba va ma'nolar mavjud bo'lib, turli sub'ektlar o'rtaSIDA taqsimlanadi. Til aloqasi orqali shaxslararo tushuncha va ijtimoiy voqelikni shakllantirishga hissa qo'shadigan umumiyligi ma'no, tushuncha va kontseptual asoslarni yaratish mumkin.

Til va ong o'rtaqidagi munosabatlarning ushbu va boshqa ontologik jihatlari ushbu ikki asosiy hodisaning chuqur o'zaro bog'liqligini namoyish etadi. Til nafaqat fikrlarni ifoda etish vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki mavjud bo'lgan haqiqatni qurishda faol rol o'yaydi va tajribani tushunish va

talqin qilish usullarini belgilaydi. Ushbu sohadagi ontologik tadqiqotlar turli xil bilim sohalari, shu jumladan, falsafa, tilshunoslik, kognitiv va ijtimoiy fanlar uchun muhim bo'lgan til, ong hamda ularning o'zaro ta'sirini tushunishga muhim hissa qo'shadi.

Ko'pgina zamonaviy nazariyotchilar til va ong o'rtasidagi munosabatni tushunishda mujassamlangan tajribaning muhimligini ta'kidlaydilar. Lingvistik tuzilma va tushunchalar insonning jismoniy tajribasi, uning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri kabi masalalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Martin Xaydegger va Moris Merle-Ponti kabi fenomenologlar tilni nafaqat aloqa vositasi, balki dunyodagi inson mavjudligining asosiy usuli sifatida ham ko'rib chiqdilar. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, til ong va voqelikka tashqi narsa emas, balki bizning mavjudligimiz va dunyo bilan o'zaro munosabatimizning ajralmas qismidir.

10. Til va ijtimoiy ontologiya. Ijtimoiy ontologlar tilning ijtimoiy institut, me'yor va amaliyotlarni yaratish va saqlashdagi rolini o'rganadilar. Til ijtimoiy voqelikni qurishda asosiy element sifatida qaraladi.

11. Til va o'ziga xoslik. Til shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslikni shakllantirish, ifodalash bilan chambarchas bog'liq. Til amaliyoti, dialektlar va nutq uslublarimiz ma'lum ijtimoiy guruh, madaniyatga mansubligimizni aks ettiradi. Shu bilan birga, ushbu identifikatorlarni qurish va saqlashda til ham ishtiroy etadi.

12. Tilshunoslikdagi ontologik burilish. So'nggi o'n yillikda tilshunoslik "ontologik burilish" deb nomlandi, chunki u tadqiqot yo'nalishini tilni mavhum tizim sifatida o'rganishdan inson mavjudligi va dunyo bilan o'zaro ta'sir qilish vositasi sifatida ko'rib chiqishga o'tdi. Ushbu burilish tilning mohiyatini tushunishda kontekst, ijtimoiy amaliyot va madaniy omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Mazkur jihatlar til va ong o'rtasidagi munosabatlar keng ko'lamli ontologik oqibatlarga olib kelishini ta'kidlaydi. Til shunchaki ma'lumot uzatish vositasi emas, balki inson tajribasi, ijtimoiy voqelik va inson mavjudligi jarayonini shakllantirishda tubdan ishtiroy etadi.

Bu sohadagi ontologik tadqiqotlar til, ongning tabiatini va ularning atrofdagi dunyonи qanday qabul qilish, talqin qilish va o'zaro munosabatimizni aniqlashdagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu tushuncha falsafa, tilshunoslik, kognitiv fanlar, antropologiya va ijtimoiy fanlarni o'z ichiga olgan turli sohalarga ta'sir qiladi.

Til va ong o'rtasidagi munosabatlarning epistemologik va ontologik jihatlari inson bilimi, tajribasi va mavjudligining mohiyatini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jihatlar qanday qilib bilim olishimiz, voqelikning mohiyati nimada va til bizning dunyonи idrok etishimiz hamda talqinimizni shakllantirishda qanday ishtiroy etishi haqidagi chuqur savollarga tegishlidir.

Til va ong o'rtasidagi munosabatlarning epistemologik jihatni tilning bilish, fikrlash va bilimlarni shakllantirish jarayonlaridagi roliga tegishli. Til nafaqat fikrlarni ifodalash vositasi, balki tushunchalarni tuzish, mavhumlashtirish va boshqarish imkonini beruvchi vositadir.

Tilning epistemologik rolini tushunish ta'lim, madaniyatlararo aloqa va bilimlarni uzatish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu bilim qobiliyatimiz chegaralari va cheklovlarini anglashga yordam beradi, bu biz o'ylaydigan lingvistik asosga bog'liq bo'lishi mumkin.

Til va ong o'rtasidagi munosabatlarning ontologik jihatni borliq, voqelik va mavjudlik tabiatini haqidagi fundamental savollarga tegishli. Til nafaqat obyektiv voqelikni aks ettiradi, balki uni qurish va talqin qilishda faol ishtiroy etadi.

Lingvistik idealizm kabi ba'zi falsafiy tushunchalarga ko'ra, voqelik obyektiv va mustaqil narsa emas, aksincha til va nutq orqali yaratiladi hamda shakllanadi. Til amaliyotlari, kategoriyalari va tushunchalari atrofdagi dunyonи qanday qabul qilish, talqin qilishni belgilaydi.

Ontologik jihat shaxsiyat masalalariga ham taalluqlidir, chunki til shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslikni ifodalash hamda qurish vositasidir. Til amaliyotimiz va nutq uslubimiz ma'lum ijtimoiy guruh hamda madaniyatlariga mansubligimizni aks ettiradi.

Til va ong o'rtasidagi munosabatlarning epistemologik, ontologik jihatlarini tushunish bilim hamda amaliyotning turli sohalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

1. Falsafa. Ushbu sohadagi tadqiqotlar inson bilimi, tajribasi va mavjudligining mohiyatini, shuningdek, voqelikni idrok etishni shakllantirishda tilning rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. Tilshunoslik. Til va ong o'rtasidagi munosabatni o'rganish tilning funksiyalari, ta'sirini, shuningdek, uning madaniyat hamda tafakkur bilan bog'liqligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Kognitiv fanlar. Ushbu tadqiqotlar insonning fikrlash, idrok etish va axborotni qayta ishslash jarayonlari, shuningdek, ushbu jarayonlarda tilning o'rni haqida ma'lumot beradi.

4. Antropologiya. Tilning ontologik rolini tushunish madaniy xilma-xillikni o'rganish, turli jamoalarning o'ziga xosligi va ijtimoiy amaliyotini shakllantirish uchun muhimdir.

Shatliq: "Baxt" ma'nosini bildiruvchi bu so'z qoraqalpoqlarda eng ko'p uchraydigan quvonch ifodalaridan biridir. U shaxsiy baxtdan umumiylar bayramlarga bo'lgan turli xil kontekstlarda ishlatalishi mumkin.

Quvanish: Bu atama ko'pincha tasodifiy vaziyatlarda ishlataladigan engilroq quvonch yoki qoniqish hissini anglatadi.

Qutlilik: "Baxt" yoki "baxt" deb tarjima qilingan bu so'z odatda rasmiy yoki she'riy kontekstlarda yanada chuqurroq yoki ruhiy quvonch tuyg'usini tasvirlash uchun ishlataladi.

Quanish: "quvonish" degan ma'noni anglatuvchi fe'l, odatda baxtning shaxsiy va ommaviy ifodalarida qo'llaniladi.

O'zbek tilida Shodlik leksikasi

O'zbek tilida quvonchning hissiy ifodasi ham xuddi shunday boy bo'lib, quvonchning turli shiddat va mazmunini bildiruvchi bir necha so'z va iboralar mavjud:

Baxt: "baxt" yoki "omad" degan ma'noni anglatadi, bu so'z odatda shaxsiy quvonchdan yaxshi tilaklargacha turli kontekstlarda qo'llaniladi.

Shodlik: Qoraqalpoq tilidagi "shatliq"ga o'xshab, bu atama bayramlarda tez-tez ishlataladigan umumiylar baxt yoki quvonchni anglatadi.

Quvonch: Qoraqalpoqcha "quanish" kabi bu so'z ham "quvonch" yoki "hursandchilik" ma'nosini bildiradi va baxtning shaxsiy va ommaviy ifodalarida qo'llaniladi.

Hursandlik: Bu atama ijtimoiy vaziyatlarda quvonch yoki shodlik hissini ifodalash uchun ishlataladi.

Ikkala til ham umumiylar ildizlarga ega, bu hujjat hissiy leksikalarida o'xshashliklarga keladi olib. Quvonch (o'zbek) va quanish (qoraqalpoq) kabi so'zlar umumiylar turkiy kelib chiqishini ko'rsatib, quvonchli umumiylar xususiyatlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, shodlik (o'zbek) va shatliq (qoraqalpoq) umumiylar yoki tantanali baxt uchun o'xshash yuborishni ochib beradi. Bu umumiylilarning shuni ko'rsatadiki, har ikki tildagi quvonch ifodalari tarixiy ajralishlarga qarab, ma'lum darajada til va madaniy saqlab qolgan.

Leksik farqlar

O'xshashlar mavjud bo'lsa-da, har bir til o'ziga xos quvonchli leksikasini ishlab chiqdi. Chunonchi, qoraqalpoqcha ma'naviy yoki chuqur shodlikni anglatuvchi qutlilik so'zining hozirgi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'q, bu yerda bunday iboralar ko'pincha baxt (baxt) kabi umumiylar bilan. olinadi. Aksincha, o'zbek tilidagi hursandlik ijtimoiy quvonch uchun tez-tez qo'liga kiritilgan atama bo'lsa, qoraqalpoqlar quvonish kabi boshqa so'zlarni shunga o'xshash kontekstida muvaffaqiyatga erishadi.

Farqlar turli xil madaniy ta'sirlarni aks ettirishi mumkin: qozoq rus madaniyatiga geografik yaqinligi ta'sirida qoraqalpoq tilida o'ziga xos iboralar qolgan, o'zbek tilida esa aholining ko'pligi va tarixiy ta'siri kengroq bo'lganligi sababli ko'proq umumiylashgan emotsiyalarni o'z ichiga olgan.

Idiomatik iboralar va maqollar

Ikkala til ham o'z madaniyatining quvonchli munosabatini aks ettiruvchi idiomatik iboralarga boy. Qoraqalpoq tilida "Shatliqtan qanatlay uchdi" (Sevinish qanotlarida uchdi) kabi iboralar baxtning haddan tashqari ta'sirini ta'kidlaydi. O'zbek tilida "Shodiyona qilish" (quvonchli bayram qilish) jamoaviy bayramlar va umumiylar shodlik onlarini tasvirlash uchun keng tarqalgan.

Qoraqalpoq va o'zbek tillaridagi shodlik ifodalovchi so'zlarning qiyosiy tahlili bu yaqin turkiy tillarning umumiylar til merosini ham, o'ziga xos madaniylarini ham ko'rsatadi. Ikkala til ham baxt va quvonchni etkazish uchun boy lug'atga ega bo'lsa-da, bu so'zlarning intensivligi, ma'nosini va kontekstida sezilarli farqlar mavjud. Quvonch va quanish kabi umumiylar ildizlarning umumiylar turkiy kelib chiqishi va shodlik tushunchalarini aks ettiradi, qoraqalpoqning qutlilik va o'zbekcha hursandlik kabi alohida so'zlar esa har bir tilning o'ziga xos madaniy ta'sirlarga javoban evolyutsiyasini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuningdek, baxt va umumiylar quvonchga nisbatan chuqur madaniy munosabatlarni ochib beradigan idiomatik iboralar va maqollarning muhimligini ta'kidlaydi. Umumiylar hissiy leksika madaniy aloqani anglatadi, lингistik farqlar esa har bir tilni shakllantirgan turli xil ijtimoiy va tarixiy ta'sirlarga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bu qiyosiy tahlil quvonchning qoraqalpoq va o'zbek tillarida lingvistik va madaniy jihatdan qanday ifodalanishi haqidagi tushunchani boyitadi. Shuningdek, u turkiy tillar oilasida emotsiyal ifodani madaniyatlararo tadqiqotlarga hissa qo'shib, emotsiyal tilning kengroq ta'sirlari haqida tushuncha beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev, O. (2022). O'zbek va qoraqalpoq tillarida axborot-kommunikatsiya va maishiy sohaga doir zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(1), 130-133.
2. H.Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. Toshkent, "Fan", 2017-yil, 162-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2023-yil, IV tom 54-bet.

UO'K 078

XORAZM XALQ AYTIMLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI XUSUSIDA

G. Azatova, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm xalq aytimlarining kelib chiqishi va rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek aytim tushunchasining bat afsil izohi, anglatadigan ma'nolari, qo'shiq, o'lan, lapar tushunchalaridan farqi ochib berilgan. Xorazm xalq aytimlarining o'zbek adabiy tili rivojidagi ahamiyatti bir qancha folklor namunalari orqali isbotlangan. Maqola Xorazm xalq aytimlari xususida muayyan tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, nomoddiy meros, xalq og'zaki ijodi, aytim, qo'shiq, o'lan, lapar, saj', sheva, urf-odat, folklor, folklorist.

Аннотация. В данной статье рассматривается возникновение и развитие хорезмийских народных поговорок. Также раскрывается подробное объяснение понятия айтим, его значений и отличие от понятий песня, олан, лапар. Значение хорезмийских народных поговорок в развитии узбекского литературного языка подтверждается рядом примеров фольклора. Статья помогает Хорезм иметь определенное представление о машинах народа.

Ключевые слова: Духовность, нематериальное наследие, народное устное творчество, айтим, песни, лапар, садж, диалект, традиция, фольклор, фольклорист.

Abstract. This article discusses the origin and development of Khorezm folk sayings. Also, a detailed explanation of the meaning of the concept of saying, its difference from the concepts of song, song, lapar is revealed. The importance of Khorezm folk sayings in the development of the Uzbek literary language is proven by several examples of folklore. The article helps to have a certain idea about Khorezm people's cars.

Key words: Spirituality, intangible heritage, folklore, folk song, lapar, saj sheva, custom, folklore, folklorist.

Barchamizga ma'lumki, bashariyat yaralishining ilk davrlaridanoq, uning hayot kechirishi, jismoniy faoliyati uchun dastlab moddiy ehtiyojlar yetakchilik qilib kelgan. Bundan tashqari uning ong-u tafakkuri rivojlanishi, o'zaro muloqotda bo'lishi, turli xil bayram va marosimlar, mehnat va jang vaqtlarida ulardagi ma'naviy ehtiyojga bo'lgan talabning ortib borishi namoyon bo'lgan. Inson qanchalik moddiylikka muhtoj bo'lgani kabi ma'naviy ehtiyoj ham shunchalik ortib boravergan. Bu ikki tushunchani bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, birinchi prezidentimiz Islom Karimov bu tushunchalarni juda chiroqli qiyoslaganlar: "Moddiy va ma'naviy hayot bir qushning ikki qanotidek bo'lib, uning parvoz qilishi uchun har ikkalasi ham o'ta muhimdir" [1]. Ma'naviyat haqida so'z borar ekan, bu borada san'at va madaniyatning, xususan, qadimdan rivojlanib kelayotgan folklor-etnografik merosimizning o'rni naqadar beqiyos ekanligi hammamizga ma'lum.

Barcha moddiy boyliklar asrab-avaylanishga, yuksalish va e'tiborga muhtoj bo'lganidek nomoddiy ne'matlar, xalqning ma'naviy merosi ham g'amxo'rlik va muhofaza qilinishga, rivojlanishga, shuningdek ularni ilmiy o'rganish va kelajak avlodga sof holda yetkazishga ehtiyoji bordir. Shuni hisobga olgan holda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror imzolandi [2]. Ushbu Qarorning samarasi o'laroq bu borada ko'plab amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar qilinmoqda.

Nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan xalq ijodiyoti, folklor qo'shiq ijrochiligi, xalq aytimlari xalqning turmush tarzi, odob axloqi, urf-odatlari, an'analari, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu umidlari, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatini, ahdga vafo, erk-ozodlik uchun kurashdagi mardonavorlikni tarannum etadi [3]. Barcha san'atning rivoji negizida xalq og'zaki ijodi turadi. Xalq og'zaki ijodi — mehnatkash xalq ijodidir. Uning tarixi uzoq o'tmishta borib taqaladi, hatto insoniyat yaralishining ilk bosqichlaridan oq desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, xalq og'zaki ijodining eng qadimiylari janrlaridan biri sifatida qaraladigan — qo'shiqlar yer yuzidagi ilk insoniyat ajdodi Odam Ato tomonidan, o'g'li Hobil vafot etganda ijro etilgan. Ushbu qo'shiq marsiya ko'rinishida bo'lgan. Shu davrlardan buyon qo'shiq insonning doimiy hamrohi, hayot tarzining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Inson dunyoga kelarkan, avvalo, alla deb atalmish mo'jizaviy qo'shiqning so'z va ohang jo'rligiga sehrlanib orom oladi. Buni qarangki, odamzotni so'nggi manzilga ham marhumning yaqinlari o'z dard-u hasratlarini turli xil aytimlar, marsiyalarga jo qilgan holda kuzatib qo'yishadi.

Manbalarda yozilishicha folklor qo'shiqlarini yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab amalga oshirilgan. Mohir tadqiqotchi-tilshunos, etnograf, folklorist olim Mahmud Koshg'ariy uzoq yillar mobaynida turkiy qabilalar istiqomat qiladigan barcha viloyatlarni kezib chiqqan va boy lingvistik, folkloristik va etnografik materiallarni to'plagan. Keng ko'lamli to'plovchilik faoliyati olib borgan ensiklopedist olim o'zining ana shu safarlari chog'ida faqat lug'at uchun lisoniy materiallarni to'plash bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki folklor namunalarini ham yozib olgan. Buni olim quyidagicha yozib o'tadi: "men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida qo'llanilib kelingan she'lardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilar, naql qiluvchilar esa o'z navbatida shu tilda so'zlovchilarga yetkazsin" [4].

Xalq og'zaki ijodi mamlakatimizning har bir hududida turfa xillikni, rang-baranglikni kasb etadi. Respublikamizning har qaysi viloyati o'zining o'zigagina xos bo'lgan urf-odat, an'analariiga ega bo'lgani kabi jozibador, bir-biridan farq qiluvchi folklor namunalariga ham ega. Xususan, Xorazm xalq ijodiyoti o'zining qadimiyligi, serjilo, betakror, kezi kelganda mahzun, o'rni kelganda nihoyatda o'ynoqi bo'lgan ijod namunalari bilan alohida ajralib turadi. Xorazm xalq og'zaki ijodi namunalarini tarkibida vohadagi xalq orasida urf bo'lib, ular bilan birga yashab kelayotgan xalq aytimlari, o'lan, lapar, termalar alohida o'rinni egallaydi. Bu ijod namunalarining shakllanish tarixi uzoq o'tmishta, jumladan, miloddan avvalgi XII-XI asrlarga borib taqaladi. Bundan ming yillar muqaddam dunyo tamaddun eshigini ochgan buyuk bobokalonimiz Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirishicha, "Xorazm vohasiga odamlar miloddan avvalgi 1292-yillarda joylasha boshlaganlar. Shundan 92 yil o'tgach, ya'ni miloddan avvalgi 1200-yilda Xorazmga Kaykovusning o'g'li Siyovush kelgan va afrig'iylar sulolasiga asos solgan. Ular kishilik jamiyatining ilk davrlaridan boshlab o'zlarining boy madaniy va ma'naviy merosiga ega bo'lganlar" [5], deb yozadi.

Xorazm xalq aytimlarida Xorazm vohasigagina xos bo'lgan an'ana va udumlar, boy madaniy meros, qadimiylari tarix, ayricha mentalitet o'z aksini topgan. Shuningdek, bu go'zal ijod namunalari noyob lingvistik tadqiqot manbasi bo'la olishi jihatdan ham g'oyatda ahamiyatlidir. Ayniqsa, ularda qo'llangan betakror va jozibador sheva so'zları folklor namunalarini yanada mukammalroq, chuqurroq tadqiq qilish ehtiyojini tug'diradi. Xususan, qo'llanilgan dialektal qatlama orasida bugungi kunda unutilib ketayotganlari, adabiy tilda muqobili bo'limgan tushunchani anglatuvchi so'zlar ham mavjud.

Masalan: *Baxmal kamzulimni chelda qo'yaman,
Har gun ming metra chopiq uromon.
Urg'on chopiqimni hisob atmasa,
Tabelchini tutib so'to baraman.*

Keltirilgan ushbu to'rtlikda nafaqat vohaning turmush tarzi, maishiy hayot manzaralari, xalq xarakteriga xos bo'lgan soddalik, jaydarilik, borini boricha ko'rsatish xususiyati aks etgan, balki o'g'uz lahjasining Xorazm shevasiga mansub bo'lgan go'zal, "shirali" sheva elementlari ham alohida jozibadorlik kasb etgan.

Xorazm xalq aytimlari haqida gap ketganda "aytim" tushunchasini izohlab ketishimiz maqsadga muvofiqdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Aytim" so'zi quyidagicha izohlangan:

Aytim 1. Aytuvchi narsa (gap, qo'shiq va sh.k)

2. Xonanda ishtirokida ijro etiladigan turli shakl va hajmdagi o'zbek musiqa folklori janrlari (qo'shiq, lapar va b.) [6]

Aytim so'zi ko'pincha qo'shiq atamasi bilan parallel, sinonim sifatida qo'llanadi. Ushbu keltirilgan izohdan shuni anglab olish qiyin emaski, "aytim" garchi "qo'shiq" termini bilan sinonim sifatida qo'llanilsa ham u "qo'shiq"qa qaraganda nisbatan kengroq, umumiyroq ma'noni ifodalaydi. Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qo'shiq shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning izohi she'r, qasida deb ko'rsatilgan. Shuningdek "qo'shiq" so'zini Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida, XII asrda yozilgan Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab" lug'atida ham shu ma'nolarda uchratamiz. Alisher Navoiyning "Mezonul-avzon" va Zahiriddin Muhammad Boburning "Risolayi aruz" asarlarida "qo'shiq" so'zi surud, ayolg'u, lahn, turki, tarona, ashula, o'lan nomi bilan ham tarqalgan, ular qo'shiqning turli janrlarini atash uchun qo'llanilgani bayon qilinadi.

Aytim deganda faqat musiqa jo'rligida ijro etiladigan namunalar emas, balki qo'shiq (laparlar, o'lanlar, alla...) dan tashqari qofiyalilik, ohangdorlikka ega bo'lgan saj'li nutq va jumlalar ham tushuniladi. Yanada tushunarli bo'lishi uchun quyida shunday jumlalardan namunalar keltiramiz:

"Uzoq yashamoqchi bo'lsang, birinchidan, ishliyvar, ishliyvar. Ikkinchidan, oyog'ingda yurganingga, sog'-omon yotib turganiga, "Bismillo" dab nona qo'l urg'aninga shukur at. Domoqingnon ovqat o'tsa, ko'nglinga yoqqonini, dishinga botqonini, ishtaying tortqonini, bollaringdan ortg'onini ye! Halol topsang noningni, ko'p qiynama joningni! Uchinchidan, Qiymildog'on — qorrimos, kasallik dorimos. Besh vaqt tarat, besh vaqt namoz-fizkultura biroz! Do'rtinjidan, Ko'pchilikda o'zingdan getma, ochgo'zlik atma, tumshayib yurma, jadala girma. Guyib gaplasangam, gulibroq gapla! Dardingni doyingo oytmo, soyanga oyt! Na galsa boshinga, Xudoni chog'ir qoshinga!" [7]

Aytimlar tarkibiga qo'shiq, lapar, o'lan, to'rtliklar ham kiradi. Xorazm xalq aytimlari haqida fikr ketganda, ayniqsa, sho'x va o'ynoqi laparlari e'tiborni tortadi. Laparlar xotin-qizlar tomonidan ijro etilib, ularning ijrochilari "xalfa" deb yuritiladi. Xorazm hududida "xalfa" atamasi ikki ma'noda ishlataladi. Birinchisi, diniy kitoblarni o'qiydigan, marosim va mavludlarda rahnamolik qiladigan otimbibilar nazarda tutilsa, ikkinchisi, kuy va qo'shiqlar kuylab yuruvchi ijrochi ayollar tushuniladi. Laparlarni ijro qilish ayollardan gapga chechanlik, so'zga boylik, xalqning an'ana va udumlarini, shuningdek, boy tarixi bo'yicha chuqr bilimga ega bo'lishni talab qilgan.

Xalq aytimlari, qo'shiqlari asrlar davomida mehnat, kurash va ijod jarayonida kishilarni ezgulikka yetaklovchi ilhom manbai bo'lib sanaladi. Musiqa tilsiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo'shiq bilan, musiqa bilan tirik. Kuy-qo'shiqlarsiz hayotning mazmunini, atrofdagi go'zallikni tasavvur etish qiyin. Qo'shiq zavq ehtiyoji, eng go'zal, eng olivjanob orzu va hayotiy g'oya hayqirig'idir.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm xalq aytimlari xalqning hayot tarzi, maishiy hayot ko'zgusi, beqiyos urf-odatlar ifodachisi bo'lib qolmasdan, o'zbek adabiy tilining ajralmas bo'lagi hisoblangan boy va jozibador sheva elementlarining tunganmas xazinasi hamdir. Ularni izlab topish, xalq og'zidan yozib olib toplash, kelajak avlodga sof va boy holida yetkazish bilan birga, ilmiy jihatdan o'rganish, chuqr lingistik tadqiq qilish bu folkloristik namunalarning umrboqiy bo'lishini ta'minlaydi. Unutilib ketayogan sheva so'zleri yoki adabiy tilda muqobili bo'limgan dialektal leksikalar bilan o'zbek adabiy tili xazinasi boyib borsa, ne ajab.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И. Юксак маънавият – егнилмас куч. Тошкент-2008
2. <http://lex.uz//uz/docs/-6713096>

3. Kurbanova U. Folklor qo'shiq ijrochiligi; o'quv qo'llanma. T.: "Turon-iqbol" 2018 — 96-bet
4. Maҳмуд Кошгариј. Девону луготит турк. 1 том. – Тошкент: Фан, 1960. 47 бет.
5. Abu Rayxon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" Toshkent-1968
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent-2021, 1-jild, 59-bet
7. 91 yoshli to'rtko'llik Amat buvadan yozib olingan.

UDC 81'44

FORMATION OF PHONETIC/PHONOLOGICAL UNITS BASED ON STRONG-WEAKNESS OF SOUNDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

D.Azimova, doctoral student, Kokand State Pedagogical Institute, Kokand

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida tovushlarning kuchli va kuchsizligiga qarab fonetik/fonologik birliklarning shakllanishini o'rGANISHGA bag'ishlangan. Muallif fonologik birliklarning shakllanishini tahlil qilishga harakat qiladi, bu erda taranglik qanchalik kuchli bo'lsa, unli ham shunchalik kuchli bo'ladi. Unli tovushning kuchli-zaifligi uning kuchli-zaif pozitsiyalari bilan bog'liq. Unli tovushning kuchli pozitsiyasi, eng avvalo, uning gapda alohida qo'llanishi va so'z vazifasini bajarishidir.

Kalit so`zlar: fonema, kuch, kuchsizlik, unlilar, undoshlar, fonologik vazifa, diftong, trifong, lingvistik birlik, nutq birligi, nutq tovushlari.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению формирования фонетических/фонологических единиц на основе силы-слабости звуков в английском и узбекском языках. Автор пытается проанализировать образование фонологических единиц, где чем сильнее напряжение, тем интенсивнее гласный. Сила-слабость гласного связана с его сильными-слабыми позициями. Сильная позиция гласной – это прежде всего тогда, когда она употребляется в предложении отдельно и когда она выступает в функции слова. Автор исследовал, что слабые гласные связаны со слабыми позициями. Самая слабая позиция – когда гласная утратила свои фонетические свойства.

Ключевые слова: фонема, сила, слабость, гласные, согласные, фонологическая функция, дифтонг, трифтонг, языковая единица, речевая единица, звуки речи.

Abstract. This article devoted to the study formation of phonetic/phonological units based on strong-weakness of sounds in English and Uzbek languages. The author tries to analyze the formation of phonological units, where stronger the tension, the more intense the vowel. Vowel's strength-weakness is related to its strong-weakness positions. A strong position for vowels is first of all when it is used separately in a sentence and when it comes in the function of a word. The author examined that the weak vowels are associated with weak positions. The weakest position is when the vowel has lost its phonetic properties.

Key words: phoneme, strength, weakness, vowels, consonants, phonological function, diphthong, triphthong, language unit, speech unit, speech sounds.

It is known that speech sounds formed on the basis of phonemes have acoustic properties such as strength and weakness. We perceive the loudness of the speech sound as loudness or lowness according to our hearing. Specifically, when we listen to the radio, we ask them to turn it up (louder) or down. In consonants and vowels, strength-weakness occurs in a unique way.

For the pronunciation of vowel phoneme to be strong, the amplitude of the pharynx should be wider (expansion of both sides) and the muscles of the mouth resonator and laryngeal space should be tensed.

The stronger the tension, the more intense the vowel. Vowel's strength-weakness is related to its strong-weakness positions. A strong position for vowels is first of all when it is used separately in a sentence (sentence) and when it comes in the function of a word: Iii! What did you say..., O'o'o'o'! Like it's very good. The second convenient position for pronouncing vowels strongly is when they come before consonants (olim, brother, that), as in cases where the vowel itself forms a separate syllable (like ma - o - rif, mu-o-la-ja) [2; 36-38].

In words such as Surat Tal'at, san'at borrowed from the Arabic language, the vowels in the second syllable are pronounced strongly. The vowels in the first syllable can be pronounced long or short in words such as ra'no, maano.

When vowels are pronounced strongly, the phonological signs that make up it (narrow-wide, labial-unlabial, front/middle/back of the tongue, etc.) are clearly displayed.

Weak vowels are associated with weak positions. The weakest position is when the vowel has lost its phonetic properties. For example, the phoneme I is reduced, very weak, very short, and slow in the first syllable of the word.

Another weak position for vowels is when they occur in closed syllables and at the end of words. In such cases, it is pronounced strongly when it is stressed, and in other cases it is pronounced relatively weakly. For example, out of the three A's in the word **country**, the a on the last syllable is pronounced strong, and the rest are weak.

The possibilities of vowels being pronounced strongly or weakly also depend on their quality (timbre, voice tone, main tone). In particular, in the case of narrow, medium-wide, wide vowels, the narrow vowel can be pronounced weaker than the medium-wide, medium-wide wide vowel.

The reason for this is that the wider the mouth is opened, the more and the higher the volume of the voice can be. This is due to the fact that the wide A has a stronger pronunciation than the narrow I sound. Also, long vowels sound louder (stronger) to the human ear than short vowels.

External (extralinguistic) factors, the intonation of the sentence can also affect the pronunciation of vowels. For example, after the sentence "You didn't come yesterday", the speaker of "Men" says the E sound in the word "me" long and hard to show that he does not agree with the message being told: Meen! like

Zinder, a researcher who conducted research on general phonetics, admits that strength-weakness does not have a phonological function (differentiation of meaning) in any of the world's [7; 65].

The strength-weakness of consonants is related to the place and methods of articulation. For example, plosive vowels are stronger than glides. Also, in turn, both blasters and gliders have strengths based on ranking within their group. Accented sounds are stronger than unaccented sounds. Because they contain a lot of sounds and their tense, intense pronunciation is perceived by the sense of hearing (ear) as a loud sound compared to the silent ones.

Consonants also have strong-weak positions like vowels. Strong consonants are formed in strong positions. The strong position for consonants is the position before the vowel at the beginning of words and at the beginning of syllables: like tol, bosh, bo-la.

Voiced consonants are neutralized in the weak position at the end of the word, losing their voice and becoming weak: like book-book, leaf-bark.

As Zinder admits, the strength-weakness of one consonant can be in relation to another consonant, but also in the pronunciation process of one consonant [7; 32-34].

In particular, in the pronunciation of Shcherba, the beginning is strong, the end is weak, the middle is neutral; the beginning is weak, the end is strong, the middle is neutral; Both the beginning and the end are strong (two-peaked) and the middle is neutral. One example of this can be seen in the Uzbek language [5; 26-28]. M.Mirtojiev notes the weakness of the explosion at the beginning of the m sonata, the strength and continuity of the voice[3; 56-58].

According to Zinder, the strength-weakness of consonants has a phonological (differentiation of meaning) feature in some languages. For example, in Korean: Tal (moon) – t:al (girl); sal (arrow) – like s:al (rice) [7; 78-80].

The strength-weakness in the pronunciation of vowel and consonant phonemes destroys the monotony and pronunciation of the intonation of words and sentences formed on their basis. On the basis of the wholeness, diversity (strong-weakness) of the intonation, the listener is divided (strong) - divided (weak) and ensures that it reaches clearly and clearly.

It can be said that phonological/phonetic units were formed on the basis of strong-weak contrast. In particular, diphthongs and triphthongs are formed by the combination of two or three

sounds on the basis of mutual strength and weakness. Triphthongs are formed by combining the strengths and weaknesses of three sounds.

[a] is strong, [i] is weak, and [ə] is weaker than [i] to form a complex sound [aiə] triphthong with the status of a phoneme (differentiating meaning): tire [taiə], fire [faiə];

The triphthong [auə] was formed from the combination of the strong [u] sound [a] and the long [ə] sound: our [auə], power [pauə];

The triphthong [juə] was formed by combining the strong [j] sound, the very long [u] sound, and the short and weak [ə] sound: cure

[kjuə], pure [pjuə] [1; 42-43].

It can be assumed that in the early diphthongs and triphthongs there was a difference in meaning or a diphthong with the status of one phoneme, and the vowels in triphthongs were relatively independent. Then, the need to pronounce them easily and quickly, compactly, led to the reduction, shortening and weakening of relative independent vowels in the status of a component, and as a result, the strongly pronounced core and weakly pronounced glide parts were created.

Just as gradation is important in the formation of monophthong and diphthong vowels, it is also important in the formation of consonant phonemes.

So, here too, an analogy can be seen; while compound words tried to compact their phonetic structure, to resemble a simple word, "compound" diphthongs, originally consisting of independent vowel sounds, also tried to compact and simplify their structure through gradation. In other words, the way and means of formation of diphthongs and triphthongs is the combination of strong and weak.

Diphthongs in English are formed based on the strength and weakness of two sounds.

The diphthong [ei] was formed by combining the strong [e] sound and the weak [i] sound: like make [meik], take [teik].

The strong pronunciation of the sound [a] and the weak sound [u] were combined to form the diphthong [au]: like town [taun], found [faund].

The diphthong [ai] was formed from the combination of strong [a] sound and weak [i] pronunciation: mine [main], my [mai].

The diphthong [oi] was formed based on the addition of the strong [o] sound and the weak [i] sound: boil [boil], voice [vois].

The diphthong [iə] was formed from the strong pronunciation of the sound [i] and the weak pronunciation of the sound [ə]: fear [fiə], dear [diə];

The diphthong [eə] was formed from the strong pronunciation of the sound [e] and the weak pronunciation of the sound [ə]: fair [f eə], mare [m eə];

The diphthong [uə] was formed from the combination of the strong [u] sound and the weak [ə] sound: poor [puə], sure [ʃ uə].

The gradation phenomenon was not involved in the formation of the ninth diphthong [ou] in English. In it, both sounds are pronounced strongly. In this case, the diphthong is formed by connecting the strong, clear pronunciation of both constituents: [ou] – boat [bout], snow [snou] [1; 48].

So, the phenomena of narrowness-width, shortness-longness, softness-hardness, strength-weakness with the change of the number of characters were the basis for the formation and creation of phoneme (type of speech sound). More precisely, the phonetic signs have produced phonetic/phonological units.

REFERENCES:

1. Abduazizov A. Phonology and morphonology of the Uzbek language. - Tashkent: Teacher, 1992. – 136 p.
2. Bozorov O. Graduonomy in Uzbek. - Tashkent: Science, 1995. - 132 p.
3. Mirtojiev M.M. Phonetics of the Uzbek language. -Tashkent: Science, 2013.- 424 p.
4. Nurmonov A. N. Phonology and morphonology of the Uzbek language. - Tashkent: Teacher, 1990. – 168 p.
5. Shcherba L.V. Selected works on linguistics and phonetics. – L.: Nauka, 1958. – 191 p.
6. Shcherba L.V. Phonetics of the French language. – M., 1955. – 133 p.
7. Zinder L.R. General phonetics. M. 1979. 286 p.

ABDULLA QODIRIYNING KICHIK ASARLARIDA LAKUNAR BIRLIKLER

Sh.B. Baxodirova, tayanch doktorant, Chirchiq davlat Pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriyning kichik asarlaridagi dialektizmlarning lakunarlik belgilariga ko'ra tahlillari keltirilgan. Lakuna masalasini o'rghanish tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda lakunalarning semantik tavsifi va statistik tahlillari keltirib o'tilgan. Maqolada tahlil uchun yozuvchining hikoya, feleton, xatlari va hangoma kabi kichik asarlari qamrab olingan.

Kalit so'zlar: Lakuna, feleton, hikoya, introlingval lakuna, semantik birlik, adabiy til.

Аннотация. В статье представлен анализ диалектизмов в малых произведениях Абдуллы Кадири по признакам лакунарности. Изучение лакун имеет важное значение в лингвистике. В исследовании упоминаются семантическое описание и статистический анализ лакун. В статье для анализа представлены небольшие произведения писателя, такие как рассказы, фелетоны, письма и хангома.

Ключевые слова: лакуна, фелетон, рассказ, интролингвальная лакуна, смысловая единица, литературный язык.

Abstract. The article presents the analysis of dialectisms in Abdullah Qadiri's small works according to the signs of lacunarity. The study of lacuna is important in linguistics. In the study, the semantic description and statistical analysis of lacunae are mentioned. In the article, small works of the writer such as stories, feletons, letters and hangoma are covered for analysis.

Key words: Lacuna, feleton, story, introlingual lacuna, semantic unit, literary language.

Til insoniyat tarixida eng muhim kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qilgan va xizmat qilmoqda. Bugungi kunda tilshunoslikda ona tilini va boshqa tillarni yangicha o'rghanish, oson va yengil tushunish uchun olimlarimiz ko'plab izlanishlar olib bormoqdalar. Shunday izlanishlardan biri sifatida lakunalarga doir izlanishlarni aytib o'tishimiz mumkin. Lakuna masalasini o'rghanish tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. U turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashga va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Til orqali odamlar fikr almashadi, his-tuyg'ularini ifodalaydi va bilimlarini uzatadi. Biroq, tillar o'rtasidagi farqlar ba'zan ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan tushunchani boshqa bir tilda to'liq ifodalashni qiyinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, "lakuna" tushunchasi tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Lakuna — bu bir til yoki madaniyatda mavjud bo'lgan, lekin boshqa til yoki madaniyatda aniq ekvivalentga ega bo'lmasligi semantik birlidir. Jahon tilshunosligida lakuna masalasining o'rgанилishi tilshunoslikning qiyosiy tahlil sohasida va tarjima jarayonlarida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Lakunaning mohiyatini tushunish uchun, avvalo, uning kelib chiqishi va turlari bilan tanishib chiqish lozim. Lakuna tushunchasi fransuz tilidagi "lacuna" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bo'shliq", "o'rin" yoki "joy" ma'nolarini anglatadi. Tilshunoslikda bu tushuncha muayyan madaniyatga xos bo'lgan tushunchalarning boshqa tillarda ekvivalenti yo'qligini ifodalaydi.

Xususan, I.Sternin ishlarida lakuna hodisasining lingvistik mohiyati, uning bir til ichida ham kuzatilishi e'tirof etilgan[5]. G.Bikova esa lakunaning voqelanishi, turlari, aniqlanishi va boshqa xususiyatlarini rus tili misolida tavsiflab bergan[3].

L.S.Barxudarov lakunalarni ekvivalent siz leksika tarkibida izohlaydi va so'z shaklning yoki turg'un birikmaning mavjud bo'lmasligi sifatida izohlaydi[2].

N.Dun sinxron lakunalarning ikki xil bo'lishini ta'kidlaydi: tillararo lakunalar va tilning ichki lakunalari (introlingval lakunalar)[4].

Biz maqolamizda introlingval ya'ni ichki lakunalarni badiiy asarlar ichidagi so'zlar misolida ko'rib chiqamiz. Masalan, adabiyotimizning yetuk namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriyning kichik asarlari misolida qisman tahlil qilamiz.

Bugungi kunda jadidchilikka va uning namoyondalari g'oyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli

faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birlgilikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.”-deb yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida ta’kidlab o‘tdi. Shular jumlasidan yetuk adiblarimizdan biri Abdulla Qodiriy bu yil (2024-yil) 130 yoshga to‘ldi. A.Qodiriy asarlarini o‘rganish va uning boy merosini yanada kengroq tahlil qilish nafaqat ma’naviyatimizni yuksaltirishda balki, o‘zbek adabiy tili so‘z boyligini oshirish uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilishi hech shubhasizdir.

Abdulla Qodiriyning asarlari ko‘p va xo‘b o‘rganilgan. Lekin, asosan, romanlari tadqiq etilib kelinmoqda. Yozuvchining boshqa barcha asarlari tili o‘ziga xos bo‘lib, bu asarlar tili ham jiddiy tadqiq etilishi lozim. Jumladan, hajviy asarlarining tili alohida tadqiqotlar obyekti bo‘lishi mumkin. Hatto yozuvchining tanqidlarga javob tarzida yozilgan maqolalari, kichik asarlari tili ham o‘rganilishga arziydi.

Abdulla Qodiriy kichik asarlarida noverbal vositalarning lisoniy ifodalarini tanlab ishlatganligi, o‘zbek tilining pragmatik imkoniyatlari, o‘zbek tilining nutqiy etiketlarini namoyon etishda katta xizmat qiladi.

Yozuvchining kichik asarlaridagi so‘z qo‘llash mahoratiga to‘xtalar ekanmiz, uning mahoratiga yana bir bor qoyil qolamiz. Yozuvchi xalqona so‘zlardan mohirona foydalangan bo‘lib, asarning tushunilishi yanada osonlashganini guvohi bo‘lamiz. Shunday so‘zlardan biri “Toshkand boylari” (171-173 b.) nomli kichik asarida qo‘llangan “Boytarosh” so‘zini olishimiz mumkin. Bu so‘zni o‘zini boy qilib ko‘rsatadiganlarga nisbatan qo‘llagan yozuvchi asarining mazmuni ochilishidagi kalit so‘zlardan biri sifatida xizmat qiladi. Ushbu so‘z holatni bildiruvchi so‘z bo‘lib, asosi “boy” so‘zidan olingan. Holatni bildiruvchi shunday so‘zlardan yana biri sifatida “ Tag‘oful” so‘zini olishimiz mumkin. Ma’nosi bilib bilmaslikka olish degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z bir necha asarlarida masalan, romanlarida ham qo‘llanilgan bo‘lib, o‘scha davrda faol qo‘llanuvchi so‘zlardan biri bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, “Yozishg‘uchilarimizg‘a” (228-230 b.) nomli kichik asarida ham qo‘llangan. Kasalliklar bilan bog‘liq ayrim so‘zlar uchraydiki, hozirgi kunda barchasi uchun bir xil so‘z qo‘llanib kelinmoqda.

Abdulla Qodiriy kichik asarlaridan asar tili leksikasida adabiy til uchun lakunar birlik bo‘lgan quyidagi leksik-semantik guruhlarni qayd etish mumkin:

1. Narsa-buyumni ifodalovchi lakunlar birliklar.

Qirtish- qushxonada tuyoq so‘yilganda terisini tuz sepib jiylashdan oldin ichki tomonidagi pay-shalxaklari qirtishlab olib tashlanadi. Bu qirtishlarga doim daydi itlar mazaxo‘rak bo‘lishadi. Bu holatni majozan doim birovnikida qornini to‘ydirib yurgan odamga nisbatan ham aytildi: “ha, u qirtish yeb katta bo‘lgan” deyishadi. (“Chiqib bozor aro poshshoyi tanga, Kirib o‘lturdi ketkan jontanga” (kichkina fel’eton 138-139 b.). *Dama-* o‘choqqa havo yuboradigan asbob, damgir; bu yerda: g‘ayrat, avj, kuch ma’nosida (“Sovinak qori bilan mag‘zava qori” 157-159 b.). *Dyujina-* o‘n ikki dona (bir xildagi narsalar haqida) bu yerda bir to‘da ma’nosida (“Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r” 169-170 b.). *Shulon-* boy, kambag‘al, beva-bechoralarga beriladigan issiq ovqat (“Hoy, yer yutkur” 173-175 b.). *Qalamro ‘y-* biror hukmdorning qo‘l ostidagi yerlar(Tarjumai hol “Eshonlarimiz” 183-189 b.). *Shopu-shalof-* eski vaqtida amaldorlarning taqib yuradigan qurol-aslahalari (“G‘idi-g‘idi gaplar” 190-191 b.). *Nomai a’mol-* yaxshi yomon ishlar yozilgan qog‘oz (“Olti yillik bazm” 200-203 b.). *Elik* – krem (“Maskov xatlari I” 204-205 b.). *Kapsan-xirmon* ko‘tarilganda kambag‘allarga beriladigan ulush (“Maslaku maqsaddan shammai izhor” 221-225 b.). *Kulta-* xotinlarning bu kunda iste’moldan qolq‘an bosh kiyimlari (“O‘jar ko‘r” 255-260 b.). *Tali-yorg‘oq(mual.)-* tallig‘, hayvonning suyaksiz eti (“Bo‘zaxonada” 280-283 b.). *Manak-* sopol ko‘vacha(mual.) (“Bo‘zaxonada” 280-283 b.). *Chitr-* tikanaklik bir xil qovushmagan o‘t(mual.) (“Bo‘zaxonada” 280-283 b.). *Ganak-* tikib qimor o‘ynaydigan aqcha yoki boshqa narsa (mual.) (“Bo‘zaxonada” 280-283 b.). *Hijja-* yangi to‘qilgan so‘z demakchi (mual.) termin (“Bo‘zaxonada” 280-283 b.). *Ezib ichki-* suv yoki choyga chayqab ezib ichsa go‘yo davo bo‘ladigan duo qog‘izi (“Yo‘lda” 283-286 b.). *Lippa-* ishtonbog‘ tevaragi (“Yo‘lda” 283-286 b.). *Xiloldon-* soqol, taroq, poki, tish kavlagich kabi buyumlar solinadigan charm sumkacha (“Yo‘lda”(davomi) 286-293 b.).

Dov-qimorda o'rtaga tikilgan pul yoki qimmathli narsa ("Yo'lida" (davomi) 286-293 b.). *Bardi-qamish*. o'zaginiq tagida yer bag'irlab o'sadigan o'simlik, barglari o'rib olinib, tokni yotqizib qo'ndoqlagandan so'ng sovuq urmasin uchun ustiga yopiladi ("Jinlar bazmi" (mavhum hikoya) 413-415 b.). *Istak-tol*, tut qayrag'ochning burab yumshatilgan ingichka novdalari, uni tok bag'azlarini bog'lashda oson ishlatalidi ("Jinlar bazmi" (mavhum hikoya) 413-415 b.). *Mo'g'or egar-* Samarqand egari ham deyiladi. Asosan otni salt minganda yoki uloq chopganda otga uriladi, odatdag'i egarlardan kichikroq bo'ladi ("Uloqda" (hikoya) 418-b.). *Nahra-* rahna, devorning o'pirilgan joyi ("Jinlar bazmi" (mavhum hikoya) 413-415 b.). *Anbar-* tobut ustiga yopiladigan choyshab ("Kalvak Maxzumdan" 337-342 b.)[1].

2. Belgi-xususiyatni bildiruvchi lakunlar birliklar.

Marja- o'ris ayollari ("Nafsi shayton" (Hangama) 98-100 b.). *Mujallai muvajalla-* e'tiborli jurnal ("Matbuot" (Hangama) 108-109 b.). *Yamsiz-tushunarsiz*, xunuk ("Matbuot" (Hangama) 108-109 b.).

Mulavvas bo'lman- bulg'anmagan, belanmagan ("Jasorat -ayb emas" 110-113 b.). *Latoyif-* nozik ma'noli so'zlar ("Jasorat -ayb emas" 110-113 b.). *Peshtaham-og'zi buzuq* ("Ikki og'iz tariqatdan ham bo'lsin" (Hangama) 130-131 b.). *Koski-* og'zi buzuq "Chiqib bozor aro poshshoyi tanga, Kirib o'lturdi ketkan jon-tanga" (kichkina fel'eton) 138-139 b.). *Manhusa-* yuvinmagan, nahn ("Chiqib bozor aro poshshoyi tanga, Kirib o'lturdi ketkan jon-tanga" (kichkina feleto'n) 138-139 b.). *Dumsiz-* kalta kiyingan ("Salomnoma" 142-b.). *Shinni-* o'ta aqli "Nahs bosqan ekan" 149-151 b.). *Ninni-* go'dak, aqlsiz ("Nahs bosqan ekan" 149-151 b.). *Sovinak qori-* yengil yelpi, chala qori ("Sovinak qori bilan mag'zava qori" 157-159 b.). "Yalmash" usuli- tez-tez, nari-beri o'qish ("Sovinak qori bilan mag'zava qori" 157-159 b.). *Yakanchi-inspektor;* poraxo'r ("Biz kim va nimalardan qo'rquamiz" 159-160 b.). *Tumsa-tug'maydigan xotin* ("Aralash" 162-b.). *Siymintan-* kumush tanli, oq tanli ("Bo'tqa" 164-166 b.). *Moyak-* asl emas, yaroqsiz ("Istatistikaning ko'rsatishicha" (yubileyimiz munosabati bilan) 176-179 b.). *Sarak-* butun, sinmagan tuxum ("Istatistikaning ko'rsatishicha" (yubileyimiz munosabati bilan) 176-179 b.). *Saodat satnavisht-* azaldan peshonasiga baxt bitilgan (Tarjumai hol "Eshonlarimiz" 183-189 b.). *Maqhur-qahr-g'azabga duchor bo'lga* "Matbuot kuni" (194-196 b.). *Tanda bozor-* tez, chaqqon, jinni bozor, o'tmas mollar ko'r xaridoriga sotiladigan bozor ("Olti yillik bazm" 200-203 b.). *Shilingpocha-* oyog'i ochiq ("Maskov xatlari I" 204-205 b.). *Kovul ishton-* og'i keng ishton ("Maskov xatlari II" 205-208 b.). *Ramaqijon-* juda ozgan, to'zgan ("Maskov xatlari IV" 215-218 b.). *Yovvoyi chiqim-* turli nalog va poralar ("Maslaku maqsaddan shammai izhor" 221-225 b.). *Mo'zabzab-* notinch, betayin ("Maslaku maqsaddan shammai izhor" 221-225 b.). *Chaman ot-* qirchang'i, sekin, yuradigan ot yoki eshak ("Yig'indi gaplar" 269-273 b.). *Mankuha-* nikohli xotin, *Mazruba-* kaltaklangan ayol ("Avvali ilm qadom ast Oxiri ilm qadom ast" 320-334-b.). *Og'ilnishin-* hayvonsifat yashash ("Odamizodning aqli yetmaydir" (Kalvak Maxzumdan xat) 346-b.). *Cho'g'ol-* baquvvat, kuchli xizmatkor, *Mustaor-yashirin taxallus* ("Abdulla Qodiriy-Julqunboyning 1926-yil 15-17-iyunda bo'lib o'tkan sudda so'zlagan nutqi" 361-369 (376) b.)[1].

3. Harakat-holat va voqe'a-hodisani bildiruvchi lakunalar.

Xatmi qutub- biror doiradagi maktabni o'qib tugatish ("Shodmarg" kichik feleto'n 49-50-b.). *Shodmarg-* shodlik kayfiyatidan o'lmoq ("Shodmarg" kichik feleto'n 49-50-b.). *Tamug lik-do'zax*, bu yerda eng yomon axvol ma'nosida ("Qimmatchilik hasrati" hikoya 54-55 b.). *Qabziyat-* diqqat bo'lish ("Bizda teatru ishining borishi" hikoya 64-65 b.). *Mazmum-* ayblanilgan, yomonlanilgan ("Tilanchilik yoxud yengil kasb" hikoya 67-b.). *Istixroj etish-* sitata chiqarish, keltirish ("Tinch ish" hikoya 77-bet, 84-b.). *Majduba-* hayratga keltiradigan "Yangi sistem betaraflik" 84-87 b.). *Istifso-so'rab bilish* ("Otam va bolshevik" (kulgulik) 87-90 b.). *Tanazzul-o'zini pastda tutish* ("Azob bog'chasida-yig'i-sig'i kechasi" (kichkina feleto'n) 93-95 b.). *E'tikofda o'tirish-* masjidda o'tirib, gunohlaridan o'tishini so'rab tong sahardan kun botguncha o'n kun toat-ibodatda Allohga iltijo qilish ("Qazoyi osmoniyalar" (kichkina fel'eton) 95-96 b.). *E'loni iflos-* bechoralikni, qashshoqlikni e'lon qilish ("Qazoyi osmoniyalar" (kichkina feleto'n) 95-96 b.). *Vofurush-* maxsi, kalish, kovush sotuvchi; bu yerda o'zini bozorga soluvchi ma'nosida "Nafsi shayton" (Hangama) 98-100 b.). *Tavzihot-* batafsil izohlash ("Haqiqat-ochib so'zlashdadir" 103-107 b.). *Mudovamat-* davom ettirish ("Haqiqat-ochib so'zlashdadir" 103-107 b.). *Sad chekmoq-* g'ov bo'lmoq, yo'l bermaslik botin-ichki holat (Haqiqat-

ochib so‘zlashdadir” 103-107 b.). *Ikmol-* kamolga yetkazish; tugatish (“Pastu baland dunyoda” (kichkina feleto‘n) 118-120 b.). *Muassisyor-* asos soluvchi, yaratuvchi, bu yerda kinoya bilan so‘z o‘yini qilyapti (“Pastu baland dunyoda” (kichkina feleto‘n) 118-120 b.). *Matashmoq-* urinmoq, g‘imirlab yurmoq; ovora bo‘lmoq (“Tilak” (Hangama) 124-128 b.). *Masti loyaqil-* aqlsiz darajada mast bo‘lish (“Mushtum”ta’rifida 140-141 b.). *Gardkam-o‘rtaga tikilgan narsaning hammasiga o‘ynalganda aytildigan so‘z “Nima qayoqqa ketadir” 147-148 b.). *Esirmoq-(tatarcha)* mast bo‘lmoq (“Sho‘x baytal” 152-153 b.). *O‘jramoq-* kuyib, qovjirab ketmoq (“Bo‘tqa” 164-166 b.). *Boytarosh-o‘zini boy deb ko‘rsatadiganlar, Mardumxo ‘r-* birovning haqini yeish, *Muflis-* savdoda sinish, (“Toshkand boylari” 171-173 b.). *Nifos-* ayol tuqqanidan keyin qirq kun saqlanadigan kun (“Toshkand xabarlar” Ru’iyat masalasi 198-199 b.). *Tarelka-* laganbadorlik, xushomadgo‘ylik, chaqimchilik, sotqinlik (“Olti yillik bazm” 200-203 betlar) *Kuding-* matoga tax yedirish (“Maskov xatlari III” 208-211 b.). *Nohina tumov-* ot shamollaganda burun katagidan o‘simta o‘sib chiqishi; odamda shamollab burundan suv kelishi (“Maskov xatlari IV” 215-218 b.). *Azmoyish-* surishtirib bilish (“Maskov xatlari V” 219-221 b.). *Tag‘oful-bilib* bilmaslikka olish (“Yozishg‘uchilarimizg‘a” 228-230 b.). *Bangolud-* bang aralashgan; bulg‘angan (“O‘jar ko‘r” 255-260 b.). *Tadrij-* tabiat va jamiyat hodisalarining darajama-daraja rivojlanish usuli, evolyutsiya, *Xo‘lyo-* faqat xayolda, tasavvurda zohir bo‘ladigan, aslida yo‘q narsa (“O‘jar ko‘r” 255-260 b.). *Yaylanmoq-* qanot qoqmoq ma’nosida keladir. Bolalar arg‘imchoq (halinchak) uchkanda: “Yaylanib uchdim, chaylanib uchdim, arg‘amchilarg‘a boylanib uchdim”, deb ashula qiladirlar. Chaylanmoq—choqqalanmoq degan ma’noda (mual.) (“Shu yaqindag‘i bir musohabidan” (hangama) 276-b.). *Diyori bakr-* qo‘l tegizilmagan, buzilmagan mamlakat. Aytib o‘tganimizdek, Qodiriyl malaka uchun Moskvaga borgan edi. Toshpo‘lad aka, Kalvak tog‘aning ba’zi hikoyalari o‘sha yerdan yo‘llab turilgan edi. Bu yerda muallif o‘qish tufayli yurtdan biroz uzoqlashib turganini eslatib o‘tyapdi (“Shu yaqindag‘i bir musohabadan” (hangama) 276-b.). *Shoi‘a-* tarqalgan mish-mish gap (“Kalvak Maxzumdan idoramizga ochiq xat” (imlosi o‘zgartirilib bosiladur) 319-320 b.). *Chuv-qimorda yutqazish termini, To‘ppim arava-* do‘ppini chakkaga qo‘yib (qiyyshaytirib) kiyish (“Yo‘lda”(davomi) 286-293 b.].[1].*

4. Hajm-o‘lchovni bildiruvchi lakunar birliklar.

Oxirpeshin- soat to‘rtlar atrofi, asr namozidan oldinroq payt (“Jinlar bazmi” (mavhum hikoya) 413-415 b.). *Faroyiz-* zaruriy hisob-kitob (“Tajrimai holim” 310-317 b.). *Farsax-(farsang)* taxminan 7-8 km.ga teng masofa o‘lchovi (“Bizda askarlik masalasi” hikoya 62-b.). *Olchin-arshin-*(0,71 metr) (“Otam va bolshevik” (kululgulik) 87-90 b.].[1].


5. Frazemalar bilan bog‘liq lakunar birliklar.

Firavn qizi- rivoyat qilishlaricha, payg‘ambar Muso alayhissalom Misr podshosi firavnni “Allohga imon keltir, kofirlikni qo‘y”, deb ko‘p marta islomga da’vat qiladi. Ammo firavn har gal “Men o‘zim xudoman, yer-u ko‘kni men yaratdim, haloyiq mening hukmimda”, deb kibrlanadi, nayrang qiladi. Oxir-oqibat Alloh taolo Firavnni shakkokligi uchun askarları bilan birga daryoga g‘arq qiladi. Bu yerda muallif marjalarning kibrlanishini Firavnning qiziga o‘xshatyapdi, *Olam hodisbu ibora* avom tilida “turmushda bo‘lib turadigan gap, voqe” mazmunida sodda talaffuz qilinib kelinsa-da, chuqur ma’noli bu islomiy tushuncha izohi... (“Nafsi shayton” (Hangama) 98-100 b.). *Sirkulyar-* yuqori tashkilotning quyi tashkilotga ko‘rsatmasi (“Sart og‘a-inilarga” (Hangama)(bir sirkulyar) 101-103 b.). *Ot to‘rva* - maktab bolalarining kitob soladigan jildi, xaltasi; otning yem soladigan to‘rvasisiga o‘xshatilyapti, *Dumi qopqonda qolg‘anlar-* kiyimi qopqonga tushib yulinib qolganlar, ya’ni kalta kiyingan zamoniaviylar (“Pastu baland dunyoda” (kichkina feleto‘n) 118-120 b.). *Mallaxonning davangidek-* Turkiston xonlaridan o‘tgan Mallaxon hayvon, parranda boqishga; it, qo‘chqor urushtirishga ishqiboz bo‘lgan ekan, muallif shunga kinoya qilyapti “Davosiz dardlar” (Hangama) 120-122 b.). *Kuchala-* kishiga kayf beradigan o‘simlik, unga o‘rgangan odam yemay qolsa tirishadi. Shu holatdan olib o‘rinsiz gaplarni gapiraveradigan odamga nisbatan bu ibora aytildi, *Tancha ko‘rpani issig‘lab berish-* yugurdaklik, xizmatkorlik; laganbadorlik (“Tilak” (Hangama) 124-128 b.). *Dahaga kirish-* masjidda o‘tirib, gunohlaridan o‘tishini so‘rab, tong sahardan kun botguncha o‘n kun toat-ibodatda Allohga iltijo qilish (“Ikki og‘iz tariqatdan ham bo‘lsin” (Hangama) 130-131 b.). *Almisoq-* Alloh taolo ruhlardan ahdu paymon olgan kun, o‘zini va farishtalarini tan olgan ruhlar muslimon, olmaganlari kofir bo‘lgan kun (“Tavakkaltu allohu”ni degan er:na talqonu na

qalqonning g‘amin yer (O‘zbek shiori) 145-146 b.). *Sho‘x mashrab-* tabiat sho‘x, o‘ynoqi (“Sho‘x baytal” 152-153 b.). *Ahli soqol-* soqolni, namozni o‘ziga niqob qilib riyoda yurgan odamlar (“Yomon ko‘z” 155-156 b.). *Tutal-* biron fikrni telba-teskari ifodalash so‘z o‘yini; masalan: oltita qozon oldim; to‘rttasi teshik, ikkitasining tagi yo‘q (“Olti yillik bazm” 200-203 b.). *Tibbi jo‘gi-jo‘gi (hindcha)-yo‘g-* odamni ruhiy va jismoniy usul bilan chiniqtirib davolash, xalq orasida bu so‘z firibgar, aldamchi ma’nosida ham ishlataladi (“Maskov xatlari IV” 215-218 b.). *Ashobi kahf iti-* rivoyat qilishlaricha, bir guruh avliyolar zolim zulmidan qochib kahfga-g‘orga kirib yashirinadilar. Shunda bir it ham haydashlariga qaramay, sahobalar ortidan borib g‘orga kiradi va ular bilan birga halok bo‘ladi. Shu yo‘sini go‘yo “inson” qatoriga kiradi. (“Milliy ashulachimiz” Qori Muhiddin Italiyadan o‘qub qaytdimi 225-227 b.). *Ro‘kash-* usti yaltiroq, ichi qaltiroq (mual) (“Sakkiz yil” 233-b.). *Javo-* nashaga kel, degan so‘z. bangilar o‘z istilohi(mual.) *Sattor-* qimorbozlarcha qasam kalimasi(mual.) (“Toshpo‘lat tajang nima deydi” (Chapanlar hayotidan) 277-280 b.). *Ozodlik-* o‘qishning ma’lum qismi tugallanganda olib kelinadigan tortiq. Tortiq kelganda domla bolalarga darsdan javob berib yuboradi, “ozod” etadi “Avvali ilm qadom ast, Oxiri ilm qadom ast” (“Avvali ilm qadom ast Oxiri ilm qadom ast 320-334-b.)[1].

Abdulla Qodiriy kichik asarlaridagi lakunlar birliklarning semantik tavsifiga doir statistik holatni quyidagi diagramma orqali ko‘rishimiz mumkin.

A. Qodiriy kichik asarlaridagi lakunlar tahlili



Xulosa. Abdulla Qodiriy asarlariga doir ilmiy tadqiqotlar talaygina. Ammo bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalalaridan bo‘lmish lakunalarga doir ilmiy izlanish yozuvchi asarlari misolida ilk bor o‘rganilmoqda. A.Qodiriy asarlari har qanday jabhada o‘rganishga loyiq asarlar sirasiga kiradi. Ichki lakunalarga doir tadqiqotlar esa o‘zbek adabiy tili rivojiga hissa qo‘sish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Qodiriy “Diyori bakr” kichik asarlar to‘plami. “Yangi asr avlod”, 2007-y.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва: 1975, – С. 93
3. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003.
4. Дунь Н.Л. Интролингвальные лакуны в лексической системы русского языка. Вісник СумДУ. Серія філологія. –С.131-141.
5. Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. — Воронеж, 1997. С. 18.
6. Xolmonova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi /monografiya/. T.: NAVRO‘Z, 2018.

**LEKSIK INTERFERENSIYA TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA KELIB
CHIQISHI**

F.Sh. Boltaboyev, stajyor-o'qituvchi, O'zbekiston Davlat Juhon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Tilni o'zlashtirish murakkab jarayon bo'lib, lug'at, grammatika va muloqot qobiliyatlarini o'rganish va o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Til o'rganuvchilar duch keladigan keng tarqalgan muammolardan biri leksik aralashuvdir, bu yangi lug'atni o'zlashtirish va ishlatishga ta'sir qiluvchi hodisa. Ushbu maqolada biz leksik interferensiya tushunchasini, uning mohiyatini, kelib chiqishini til taraqqiyoti kontekstida o'rganamiz.

Kalit so'zlar: leksik interferensiya, til, nutq, muloqot, interferensiya, tarjima.

Аннотация. Овладение языком — это сложный процесс, включающий изучение и приобретение словарного запаса, грамматики и коммуникативных навыков. Одной из распространенных проблем, с которыми сталкиваются изучающие язык, является лексическая интерференция — явление, которое влияет на приобретение и использование нового словарного запаса. В данной статье мы изучим понятие лексической интерференции, ее сущность, происхождение в контексте развития языка.

Ключевые слова: лексическая интерференция, язык, речь, общение, интерференция, перевод.

Abstract. Language acquisition is a complex process that involves learning and acquiring vocabulary, grammar, and communication skills. One common problem that language learners face is lexical interference, a phenomenon that affects the acquisition and use of new vocabulary. In this article, we will study the concept of lexical interference, its essence, origin in the context of language development.

Key words: lexical interference, language, speech, communication, interference, translation.

Kirish. Til o'rganish ko'p qirrali jarayon bo'lib, yangi til tizimida lug'at, grammatika va muloqot ko'nikmalarini egallahshni o'z ichiga oladi. Til o'rganuvchilar tez-tez duch keladigan muammolardan biri leksik interferensiyadir, bu hodisa lug'atning ona tilidan maqsadli tilga o'tishiga ta'sir qiladi. Leksik interferensiyaning mohiyati va kelib chiqishini tushunish o'qituvchilar va o'quvchilar uchun tilni o'zlashtirishning murakkabliklarini samarali boshqarish uchun juda muhimdir.[1]

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Leksik interferensiya ona tilining tuzilmalari va qoliplari o'rganilayotgan tilda lug'atning hosil bo'lishi va tushunilishiga ta'sir qilganda yuzaga keladi. Bu interferensiya turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin, masalan, so'zma-so'z tarjimalar, noto'g'ri kognatlar va sintaktik xatolar, aloqa uzilishlari va tildan foydalanishda noaniqliklarga olib keladi. Leksik interferensiyaning mohiyati ona tillari va o'rganilayotgan tillarning lingvistik tizimlari hamda tilni qayta ishlash jarayonida ishtirot etuvchi kognitiv jarayonlar o'rtasidagi murakkab munosabatlardadir. Leksik interferensiyaning kelib chiqishini bir qancha omillar, jumladan, tillar o'rtasidagi tarkibiy farqlar, til ishlab chiqarishdagi kognitiv mexanizmlar va o'quvchining individual xususiyatlari bilan bog'lash mumkin.[2]

Fonologik farqlar, grammatik qoidalar va semantik nyuanslar kabi strukturaviy farqlar o'quvchilarning lug'atni ona tilidan maqsadli tilga to'g'ri o'tkazishda duch keladigan qiyinchiliklarga yordam beradi. Kognitiv jarayonlar, masalan, leksik foydalanish va qidirish, o'quvchilar boshdan kechirayotgan leksik shovqin darajasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. O'quvchining individual xususiyatlari, masalan, tilni bilish, maqsadli tilga ta'sir qilish va o'rganish strategiyalari leksik interferensiyaga moyillikka ta'sir qiladi. Yuqori darajadagi malakaga ega bo'lgan va maqsadli tilga ko'proq ta'sir qiladigan o'quvchilar, cheklangan til ko'nikmalariga ega bo'lganlarga qaraganda kamroq leksik shovqinni ko'rsatishi mumkin. Leksik interferensiyaning mohiyati va kelib chiqishini o'rganib, o'qituvchilar o'quvchilarga til to'siqlarini yengib o'tishda va lug'at boyligini o'zlashtirish ko'nikmalarini oshirishda yordam berish uchun ta'lim yondashuvlari va tadbirlarini moslashtirishlari mumkin.[6]

Muhokama va natijalar. Til o'rganish sohasida leksik interferensiya tushunchasi o'quvchilar yangi tilni o'zlashtirishda duch keladigan muammolarni tushunishda muhim rol o'ynaydi. Leksik interferensiya deganda o'quvchining ona tilining o'rganilayotgan tildagi lug'atni o'zlashtirishi va qo'llashiga ta'siri tushuniladi. Ushbu hodisa til o'rganuvchilarga turli darajadagi ta'sir ko'rsatishi mumkin va lingvistik, kognitiv va psixolingvistik omillarga asoslangan. Leksik interferensiya o'z mohiyatida lug'at, so'z tartibi, talaffuz va semantik tuzilmalarning ona tilidan maqsadli tilga o'tishi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu o'tkazma til o'rganuvchilar uchun xatolar, tushunmovchiliklar va aloqa uzilishlariga olib kelishi mumkin.[5]

Leksik interferensiyaning mohiyati ona tillari va o'quvchi tillarining lingvistik tizimlari, shuningdek, til hosil qilish va tushunishda ishtirok etuvchi kognitiv jarayonlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirdadir. Leksik interferensiyaning kelib chiqishi tilni o'rganish va tillararo o'tishga ta'sir qiluvchi bir qancha omillarga bog'liq. Asosiy omillardan biri bu ona tili va maqsadli til o'rtasidagi tarkibiy farqlar. Tillar fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantika nuqtai nazaridan farqlanadi, bu esa o'quvchilar uchun mumkin bo'lgan ziddiyat va qiyinchiliklarga olib keladi. Misol uchun, turli so'z tartibi naqshlari yoki grammatik tuzilmalarga ega bo'lgan tillar o'quvchilarga lug'atni to'g'ri uzatishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Leksik interferensiyaga yordam beradigan yana bir omil — bu til ishlab chiqarishda ishtirok etadigan kognitiv ishlov berish. O'quvchilar xotiradan so'z boyligini olishganda, ular beixtiyor o'z ona tilidan maqsadli til atamalariga o'xhash so'z yoki iboralarga kirishlari mumkin. Ushbu kognitiv o'xhashlik lug'atni tanlash va ishlashda xatolarga olib kelishi mumkin, bu esa leksik interferensiyaga olib keladi. Bundan tashqari, tilni bilish darajasi, maqsadli tilga ta'sir qilish va individual o'rganish strategiyalari kabi psixolingvistik omillar til o'rganuvchilarning leksik interferensiya darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Maqsadli tilga cheklangan ta'sir ko'rsatadigan yoki bilim darajasi past bo'lgan o'quvchilar o'z ona tili resurslariga ko'proq tayanganliklari sababli leksik shovqinlarga ko'proq moyil bo'lishi mumkin.[4]

Leksik interferensiya deganda o'quvchining ona tilining o'rganilayotgan tilda lug'at boyligini egallashi va qo'llashiga ta'siri tushuniladi. Bu ona tilining tuzilmalari, qoidalari va qoliplari o'rganilayotgan tilda so'zлarni yasash, tushunish va qo'llashga ta'sir qilganda yuzaga keladi. Bu hodisa tildan foydalanishda xatolar, tushunmovchiliklar va noaniqliklarga olib keladi, samarali muloqot va tilni bilishni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Leksik interferensiyaning mohiyati ona tillari va o'quvchi tillarining lingvistik tizimlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirdadir. U tilni qayta ishlash bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni, jumladan leksik foydalanish, qidirish va qo'llashni aks ettiradi. Leksik interferensiyaning mohiyati tillar orasidagi fonologik, grammatik va semantik tafovutlar kabi strukturaviy tafovutlar keltirib chiqaradigan muammolarni ham o'z ichiga oladi, bu esa lug'atni bir tildan ikkinchi tilga to'g'ri ko'chirishda qiyinchilik tug'diradi. Leksik interferensiyaning kelib chiqishini turli omillar, jumladan, lingvistik farqlar, kognitiv mexanizmlar va o'quvchining individual xususiyatlari bilan bog'lash mumkin. So'z tartibi, sintaksis va idiomatik iboralar kabi tillar o'rtasidagi strukturaviy nomutanosiblik o'quvchilarning o'rganilayotgan tilda lug'atdan unumli foydalanishda to'siqlar yaratadi. Kognitiv jarayonlar, masalan, o'xhash tovushli so'zlar yoki noto'g'ri so'zlearning aralashuvi ham leksik interferensiyaga hissa qo'shishi mumkin. Tilni bilish, maqsadli tilga ta'sir qilish va til o'rganish strategiyalari kabi o'quvchining individual xususiyatlari leksik shovqin darajasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Maqsadli tilga cheklangan ta'sir ko'rsatadigan yoki bilim darajasi pastroq bo'lgan o'quvchilar lug'aviy shovqinlarga ko'proq moyil bo'ladilar, til ko'nikmalari yuqori bo'lgan va maqsadli tilga sho'ng'iganlar esa kamroq shovqinni ko'rsatishi mumkin. Leksik shovqinning mohiyati va kelib chiqishini tushungan holda, o'qituvchilar va o'quvchilar uning ta'sirini yumshatish va maqsadli tilda lug'atni o'zlashtirishni kuchaytirish strategiyalarini amalga oshirishlari mumkin. Leksik interferensiyani bilish tilni samarali o'rganish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maqsadli yo'riqnomasi, lug'at amaliyoti va tillararo taqqoslash imkonini beradi.[3]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, leksik interferensiya til o'rganishda lingvistik, kognitiv va psixolingvistik omillarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan murakkab hodisadir. Til o'qituvchilari va o'quvchilari leksik shovqinning mohiyati va kelib chiqishini tushunib, uning ta'sirini yumshatish va maqsadli tilda lug'atni o'zlashtirishni kuchaytirish strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Leksik interferensiyadan xabardor bo'lish tilni o'rgatishning yanada samarali amaliyotiga, o'quvchilar uchun moslashtirilgan tadbirlarga va ko'p tilli kontekstlarda tillararo muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Sayana Movsum Baghirova. Article "The kinds of the linguistic Interference". Theory and Practice in Language Studies p.p176-181, February 2021.[1]

2.Suleimenov R.K. Article "Interference in teaching foreign language and ways of its overcoming". Международный научно-исследовательский журнал.[2]

3.Zulfadli A. Aziz, Bukhari Daud, Syafira Yunidar. Article "Second Language Interference towards First Language Japanese Learners". Indonesian Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics. p.p159-176[3]

4.Topvoldiyeva Mohigul "Interferensiya – sotsiolingvistik hodisa sifatida". Retrieved from <http://library.navoiy-uni.uz>[4]

5.Jamol Jalolov "Foreign language teaching methodology". Toshkent.2012. [5]

6.Ruzmetova D.K. "The grammar interference of the teaching English language for students". Central Asia Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS).p.p.302-307[6]

UO'K 8.82**GENRIX GEYNENING “GERMANIYA. QISH ERTAGI” ASARI YOKI IJODKORNING XALQ OLDIDAGI MAS’ULIYATI HAQIDA**

M.A.Bozorova, katta o‘qituvchi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Buxoro

Annotatsiya: Maqolada Genrix Geyne asari yoki ijodkorning xalq oldidagi mas’uliyati haqida fikr yuritilgan bo’lib, ular orasida ma’rifat ma’naviyat muhim o’rin tutadi. Genrix Geyne asarlari o’zbek tilida taniqli shoir Abdulla Sher tarjimasida o’zbek tilida jaranglaydi. Bu asarlarni mutolaa qilish davomida shoirning Geyne ruhiyatiga kirib borganligini, nemis tilining nazokati va badiiy jilosini o’zbek tilida mahorat bilan bera olganligini kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: adabiyot, san’at, ijod, jamiyat, sharqona uslub, lirik qaxramon

Аннотация: В статье рассматривается творчество Генриха Гейне или ответственность творца перед народом, среди которого важное место занимают просвещение и духовность. Произведения Генриха Гейне находят отклик на узбекском языке в переводе известного узбекского поэта Абдуллы Шера. Читая эти произведения, можно заметить, что поэт проник в душу Гейне, сумел мастерски передать тонкость и художественное великолепие немецкого языка на узбекском языке.

Ключевые слова: литература, искусство, творчество, общество, восточный стиль, лирический герой.

Abstract: The article discusses the work of Heinrich Heine or the responsibility of the creator to the people, among which enlightenment and spirituality occupy an important place. Heinrich Heine's works resonate in the Uzbek language in the translation of the famous Uzbek poet Abdulla Sher. While reading these works, it can be observed that the poet penetrated into the psyche of Heine, and was able to skillfully convey the delicacy and artistic brilliance of the German language in Uzbek.

Key words: literature, art, creativity, society, oriental style, lyrical hero

Adabiyot va san’at senzura bilan bo‘g‘ib qo‘yilgan jamiyatda odamlar orasida til va dil birligi yo‘qoladi. Maddohlar ko‘payadi. El dardini o‘ylagan, haqiqat izlagan ongli ijodkorlar tazyiqqa olinadi. Tabiatan, ijodkor insonlarning ko‘pchiligi jamiyat muammolariga befarq bo‘lmaydi. Ammo hammasi ham o‘zida senzuraga qarshi borishga yetarli jasorat topa olmaydi. Shu sabab senzura bor joyda ijod ahlining katta qismi maddohlikni tanlaydi. Faqat e’tiqodda va axloqda barqaror ijodkorlargina haqiqatni aytishda davom etadi. Shunday ijodkorlardan biri nemis shoiri, publisist, tanqidchi va hajv ustasi Genrix Geyne bo‘ladi. Genrix Geyne yashagan davrda Germaniya xarob ahvolda edi. Adibning ijodi aynan 38 ta german davlatlarini birlashtirgan Vena kongressidan keyin boshlanadi. Kongressdan keyin Germaniya monarx boshqaruviga asoslangan mustaqil davlatlar

konfederatsiyasiga aylanadi. Va ayni sabab bilan jamiyatda bosh-boshdoqliklar kelib chiqadi. Jamiyat boshqaruvida ham, siyosat va mafkurada ham g‘oyaviy sinkretizm yuzaga keladi.

Sinkretizm (yunonchadan synkretismos – birikish, birlashish) yuzaga kelgan jamiyatlarda egoizm (xudbinlik), mahalliychilik, oshna-og‘aynichilik avj oladi. Yaxshi rahbarlarning ishlashi qiyinlashadi. Boshqaruvda aniq mezonlar yo‘qolib, ular yuqori idoralar ko‘rsatmasiga tayanib qoladi. Hech kim yangi fikr aytmaydi. Fikr bildirgan kishilarga shubha bilan qaraladi. Shu sababli ongli rahbarlar lavozimlarni tashlab ketadilar. Buning eng asosiy sababi me’yor va prinsiplarning yo‘qolishi bo‘lib, axloqiy prinsiplarni manfaatlardan ustun biluvchi shaxslar rahbarlikdan chetlashadilar. Ularning o‘rnini manfaatparast shaxslar egallaydi. Manfaatparast rahbarlar davrida poraxo‘rlik avj oladi. Odamlar bunday rahbarlarga bo‘ysunishni istamaydilar. Natijada ular jamiyatdan chetlasha boshlaydilar. Bu bosqichda o‘z o‘rnida o‘sha boshliqlarning laganbardorlari va chaqimchilari paydo bo‘la boshlaydi. Xizmatchilar rahbardan ham battar, uning chaqimchisidan ko‘proq qo‘rqadi. Odamlar noplak ishlarni o‘zlariga kasb qilib oladi-da, uni xaspo‘shlashga bahonalar qidiradi. O‘z-o‘zlarini aldov bilan yupatadi. Hamma zamonni ayblaydi, o‘zini esa aybdor sanamaydi. Oqibatda gunoh ish qilganlar o‘z ishlaridan uyalmay qo‘yadi. Chunki ularni tergab turuvchi axloq me’yorlari o‘lgan bo‘ladi. Poraxo‘r rahbarlar poraxo‘rlikning yomon oqibati to‘g‘risida bemalol va’z o‘qiyveradi. Pora olganlar pora berib jazodan qutiladilar. Tartibga oluvchi idoralar tartibni buzadilar. Ayollar jamiyatining tepasiga xayosizlari keladi. Vijdonli odamlar qiynaladilar. Halol non topish qiyin bo‘ladi. Vijdonli odamlarning ko‘pchiligi qiynalib axloqiy prinsiplaridan voz kechadilar va moddiy boyliklar ortidan ergashadilar.

Sen nega bunday qilding? – degan savolga esa moddiy qiyinchiliklarni ro‘kach qiladilar. Vijdonli odamlar safi tobora kamayib boradi. Jamiyatni tartibga olish bosh muammoga aylanadi. Ammo barchaning manfaatlarini o‘zida mujassamlaydigan g‘oyaning topilishi qiyin bo‘ladi. Jamiyatda eklektizmga ehtiyoj tug‘iladi. Jamiyatshunoslarning ta’kidlashicha agar jamiyatda eklektizmga extiyoj tug‘ilsa, demak bu jamiyatda mantiq tarozisi buzilgan bo‘ladi. Odamlarda fikrlar xilma-xilligi ortadi, ammo aldoqsiz tortishuvlar yechimsiz qolaveradi.

Boshboshdoqlik va betayinlik hukm surayotgan davrda sog‘lom fikrni tinglovchilar kam bo‘ladi. Odamlar faqat jamiyatni ayblaydilar va jamiyat tuzalishiga ishonmaydilar. Jamoat joylarida g‘iybat, oldi-qochdi gaplar ko‘payadi. Rahbarlar xalq oldida boshqacha, amalda boshqacha fikr yuritadi. Haq gapni odamlar tasdiqlashadi, ammo hech kim amal qilmaydi. Sog‘lom fikrning o‘rniga odamlar bachkana gaplar, payrovlar, behuda suhbatlar bilan mashg‘ul bo‘lishadi. Haq gapni bepulga ham hech kim tinglamaydi, ammo behuda kulgili bachkana gaplarni tinglash uchun odamlar pullarini va vaqtlanini ayashmaydi. Fohishabozlik, qimorbozlik, ichkilikbozlik, poraxo‘rlik ayb sanalmay qo‘yadi. Genrix Geyne shunday jamiyatda yashaydi va ijod qiladi. Qo‘rqmay jamiyat muammolarini tanqid tig‘i ostiga oladi. 15 yil davomida orsiz rahbarlar va ularning gumashtalarini hajv qilib kuchli publisist sifatida taniladi. Ammo haq so‘zni aytgani uchun ta’qibga olinadi. Oqil va odil bo‘lib obro‘ topmaydi. O‘z mamlakatida ro‘shnolik ko‘rmagan va senzuradan bezor bo‘lgan Geyne 1830 yilda yurtini tashlab ketadi va Fransiyada yashay boshlaydi. Bu davrda u erda olimlar va ijodkorlar uchun e’tibor juda kuchli edi. Shu sababli bo‘lsa kerak, Geyne bu erda uzoq yillar qolib ketadi. Faqat 1843 yilda, oradan 13 yil o‘tib yana Germaniyaga kasal onasini va qarindoshlarini ko‘rish uchun qaytadi. Geyne falsafa, tarix va adabiyotni sevar, bu boradagi uning ustozi Avgust Shlegel edi. Shuning uchun uning asarlarida shlegelcha ruh bor. “Qish ertagi”dagi jamiyat muammolarini tahlil qilishda ham Shlegel uslubi seziladi.

Shoir Parijdan Gamburgga sayohati davrida, Axen – Kyoln – Myulxaym – Tevtoburg o‘rmonlari – Padenborn – Minden – Byukenburg – Gannover orqali o‘tib boradi. U har bir shaharda yangi-yangi mavzularni topadi va yoritib boradi. Shoir Germaniyaning chegarasidayoq poraxo‘rlik va noxaqliklar guvohi bo‘ladi. Orsiz chegarachi va bojxonachilar tirikchilik uchun boshqa davlatdan pul ishlab kelayotgan odamlarni talayotganligini ko‘rib yuragi eziladi. O‘sha davrda Germaniya fuqarolari pul topish uchun boshqa davlatlarga ketar, erkaklarga mardikorlik, ayollarga fohishalik kasb edi. Davlat rahbarlari esa bunga e’tibor bermas, aksincha ularning topib kelgan pullarini turli soliqlarni joriy qilib, o‘zlashtirish bilan shug‘ullanardi. Germaniyada odamlar loqaydlikka berilgan, jamiyatdan norozilik kuchaygan edi. Geyne “Qish ertagi” asarida aynan shu holatni tasvirlaydi. U

Germaniyaga kelib odamlar yuzida g‘am g‘ussa, xunoblik va buzuq kayfiyatni ko‘radi. Harbiylarni “o‘z xalqini talashdan qaytmaydigan hissiz manqurt bir maniken” sifatida tasvirlaydi. U Germaniyada dastlab Aaxen shahrini kuzatadi va bu yerdagi odamlarining loqaydlik kayfiyatini quyidagicha tasvirlaydi:

Aaxenda itlar ham loqayd
Bir hurishga axtarur chora,
Der: -ey musofir tepib o‘t bizni
Shu loqaydlik yo‘qolsa zora..

Geyne Germaniyadagi ijtimoiy ahvolni tasvirlar ekan dindorlar hayotini ham tahlil qiladi. U o‘sha davrdagi poplar va ruhoniylarni “o‘zini xudojo‘y qilib ko‘rsatuvchi riyokorlar” deb ataydi. Uning fikricha, e’tiqod faqat yagona xudoga bo‘lishi kerak.

Germaniyani yer bilan bitta qilib ezib yotgan illatlar ko‘p edi: maqtovlar, yolg‘onlar, kibr va riyo... Bu illatlar bor joyda ma’rifat bo‘lmaydi. Geyne odamlarni ma’rifatga chaqiradi. Xalqini asriy karaxtlikdan uyg‘otishga urinadi. Elni aldab kelayotgan rahbarlarga qarshi kurashishga da’vat qiladi. Ularni jamiyat bosimlari, ijtimoiy talonchilik va boshqa nohaqliklarga qarshi kurashishga undaydi. Geyne o‘z Vatanini sevardi va u chin ma’noda vatanparvar edi. Ammo Germaniya haqida balandparvoz she’rlar yozmasdi. U ongli bir fuqaro o‘laroq, hammani o‘zi kabi fikrlashga o‘rgatadi va qaysidir ma’noda bunga erishadi. Geyne uzoq davom etgan kasallikdan so‘ng 1856 yilda Parijda vafot etadi. U hayotlik davrida halovat neligini bilmadi, shoirlit shuhratini ham tan olmadi. Aytishlaricha u hatto o‘limidan so‘ng ham qabriga gulchambar qo‘yilishini istamagan. Geyne o‘zini insoniyat ozodligi yo‘lida kurashuvchi dovyurak askar, deb bilgan va qabriga gulchambar o‘rniga qilich qo‘yilishini vasiyat qilgan ekan. Geynening vafotidan so‘ng uning asarlari xalqi uchun chin ma’noda axloq darsligi bo‘lib qoldi. Yillar o‘tib nemis xalqi o‘zining odobi va xulqi bilan dunyonи o‘ziga qaratdi. Maddohlaru riyokorlar, poraxo‘rlaru o‘g‘rilar tarixda qoldi. Germaniyada keyin ham turli xil siyosiy bo‘htonlar, inqiloblar bo‘ldi. Nasistlar bir muddat uning asarlarini o‘qishni ta’qiladi ham. Kitoblari esa yoqoldi. Geynening tirikligida aytib ketgan oltin so‘zlar bor edi: “Kitoblarni yoqish jaholatning boshlanishdir, kim bu ishni qilsa so‘ngida odamlarni ham yoqadi”. U aytganday bo‘ldi. Germaniya yana tanazzulga yuz tutdi. Ammo nemis xalqi axloqda sobit qoldi. Geyne yoqqan ma’rifat chirog‘i o‘chmadi. Yillar o‘tib Geyne ma’rifat bobida ulug‘ ustozga aylandi. Uni nafaqat Germaniyada, balki butun dunyoda tan oladigan bo‘lishdi. Bugungi kunda oramizda adabiyotning jamiyatni o‘zgartirishi mumkinligiga ishonuvchilar juda kam. Shuning uchun ko‘pchilik shoirlar va yozuvchilar primitiv asarlar yozib, bu dunyoning olqishlariga mast bo‘lib yuribdi. Geyne ijod ahliga ijodkorning xalqi oldidagi mas’uliyati bobida katta maktab yaratib ketdi. Bu ulkan ibrat maktabi bo‘ldi. Qaniydi bizning ijodkorlarga ham shu maktab ibrat maktabi bo‘lsa. Maddohlik, riyokorlik va shuhratga bo‘lgan kuchli ehtiros barham toparmidi?!

Axir niyat xayr, oqibat xayr, deb bekorga aytishmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Haynrix Hayne <https://haynrix-hayne-qoshiqlar-kitobi>
2. Xurshid davron tarjimalari. www.kh-davron.uz
3. Abdulla Sher tarjimalari 2003 yil. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/abdulla-sher-sherlar.html>
4. Karimov Shavkat. Nemis adabiyoti tarixi.– T.: “Mumtoz so‘z”. 2010. – B. 103
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 4-tom. Xzoyin ul-maoni. Navodir ush-shabob(427-g‘azal), – T.: Fan”
6. Mirzoyev Jamshid. Hofiz Sheroziy g‘azallaridagi nozik jihatlarning tarjimada berilishi(Fors-ingliz tillari misolida) //www.cyberleninka.ru

**O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTI TARAQQIYOTIDA TARIXIY ROMAN JANRI
RIVOJLANISH TENDENTSİYALARI**

(A.QODIRIY VA V.SCOTT TARIXIY ROMANLARI MISOLIDA)

M.A.Chilmurzayeva, mustaqil tadqiqotchi, o'qituvchi, O'zbekiston milliy universiteti, Alfraganus universiteti, Toshkent

***Annotatsiya.** Tarixiy roman janri azaldan madaniy meros, milliy o'ziga xoslik va tarixiy ongini o'rGANADIGAN ASOSIY VOSITA BO'LIB XIZMAT QILGAN. Ushbu maqolada Abdulla Qodiri va Valter Skott ijodiga e'tibor qaratilib, o'zbek va ingliz adabiyotidagi tarixiy romanlarning rivojlanish tendentsiyalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Qodiriyning "O'tgan kunlar" va Skottning "Veyverli" asarlarini tahlil qilib, ushbu ta'sirli asarlarni shakllantirgan hikoya tuzilmalari, mavzuli mashg'ulotlar va madaniy kontekstlarni solishtiradi. Ushbu maqola ushbu romanlar tarixiy voqelikni qanday aks ettirishi va tarixiy romanning milliy o'ziga xoslikni aks ettirish va shakllantirishdagi roliga oydinlik kiritadi.*

Kalit so'zlar: tarixiy roman, Valter Skott, Abdulla Qodiri, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, milliy o'zlik, waverley, O'tgan kunlar, madaniy meros, tarixiy fantastika.

Аннотация. Жанр исторического романа издавна служил основным инструментом изучения культурного наследия, национальной идентичности и исторического сознания. В данной статье основное внимание уделяется творчеству Абдуллы Кадири и Вальтера Скотта, а также рассматриваются тенденции развития исторических романов в узбекской и английской литературе. В исследовании анализируются «Дни прошлого» Кадири и «Уэйверли» Скотта, сравниваются повествовательные структуры, тематические занятия и культурные контексты, которые сформировали эти влиятельные произведения. Данная статья проливает свет на то, как эти романы отражают историческую действительность и на роль исторического романа в отражении и формировании национальной идентичности.

Ключевые слова: исторический роман, Вальтер Скотт, Абдулла Кадири, узбекская литература, английская литература, национальная идентичность, Уэйверли, Прошлые времена, культурное наследие, историческая фантастика.

Abstract. The genre of the historical novel has long served as the main tool for studying cultural heritage, national identity, and historical consciousness. This article focuses on the works of Abdulla Qadiri and Walter Scott, and examines the development trends of historical novels in Uzbek and English literature. The study analyzes Qadiri's Days of Bygone and Scott's Waverly, comparing the narrative structures, thematic preoccupations, and cultural contexts that shaped these influential works. This article sheds light on how these novels reflect historical reality and the role of the historical novel in reflecting and shaping national identity.

Key words: historical novel, Walter Scott, Abdulla Qadiri, Uzbek literature, English literature, national identity, Waverley, Bygone days, cultural heritage, historical fiction.

Badiiy hikoyalarni real tarixiy voqealar bilan uyg'unlashtirgan tarixiy roman janri turli jamiyatlarning madaniy, siyosiy va ijtimoiy dinamikasini aks ettirish uchun muhim vosita bo'lib kelgan. G'arb va Sharq adabiy an'analarida tarixiy romanlar milliy ongni shakllantirish, o'quvchilarga ularning merosini chuqurroq anglashda ta'sirchan o'rin tutgan. Bu janrning rivojlanishini o'z kontekstlarida misol qilib ko'rsatgan ikki mashhur muallif shotlandiyalik ser Valter Skott va o'zbekistonlik Abdulla Qodiri ydir. Skottning "Veyverli" (1814) kabi asarlari ingliz adabiyotida tarixiy romanga asos solgan bo'lsa, Qodiriyning "O'tgan kunlar" (1925) romani o'zbek adabiyotida bu janrga asos solgan.

Ushbu maqola Skott va Qodiri ijodini qiyosiy tahlil qilish orqali ham o'zbek, ham ingliz adabiyotida tarixiy roman janrining rivojlanish tendentsiyalarini o'rGANISHGA qaratilgan. Har bir muallifning tarixiy voqealar, milliy o'zlik va ijtimoiy o'zgarishlarni qanday tasvirlashini o'rganib, ushbu tadqiqot ularning yondashuvlaridagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatadi. Shuningdek, u ikkala

muallifning o'zlarining zamonaviy siyosiy va ijtimoiy iqlimlari bilan bog'lanish uchun tarixiy fantastika usullarini tahlil qilib, o'z o'quvchilariga o'tmishtirishga o'rtafiga ko'priki taklif qiladi.

Skott va Qodiriy asarlarini solishtirishning dolzarbligi nafaqat ularning milliy adabiyotlariga qo'shgan qo'shgan hissalarida, balki tarixiy romandan madaniyatni saqlash va tanqid qilish vositasi sifatida foydalanishlarida hamdir. Ikkala muallif ham siyosiy o'tish va madaniy o'zgarishlar davrida yozganlari uchun ularning romanlarida adabiyot qanday qilib tarixiy ongni aks ettirishi va shakllantirishi haqida boy tushunchalar beradi. Ushbu tahlil orqali maqola tarixiy roman janrining o'zbek va ingliz adabiyoti rivojidagi o'rnnini chuqurroq tushunishga hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Tarixiy roman janri 19-asrda, xususan, ko'pincha zamonaviy tarixiy romanning otasi deb hisoblangan ser Valter Skottning asarlari bilan mashhur bo'ldi. Uning asarlari badiiy qahramonlarni tarixiy voqealarga to'qish uchun shablon bo'lib, xayoliy hikoyani tarixiy faktlar bilan uyg'unlashtirgan. Skottning "Ayvanxou", "Rob Roy", "Ueyverli" kabi asarlari real tarixiy voqealar fonida yaratilgan bo'lib, o'quvchilarda romantik o'tmishtirishga nisbatan sog'inch hissini uyg'otdi.

Xuddi shunday Abdulla Qodiriy romanlari ham o'zbek adabiyotida hal qiluvchi davr bo'lib, tarixiy badiiy adabiyotda sho'rolar tuzumidan oldingi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot murakkabliklari aks ettirilgan. Uning "O'tgan kunlar" romani o'zbek tarixidagi tarixiy ahamiyatga ega bo'ilgan davrni tasvirlab, 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi muhabbat, urf-odatlar va siyosiy to'ntarishlarga e'tibor qaratadi.

Valter Skottning tarixiy roman janri rivojiga qo'shgan hissasi beqiyos. Uning "Veyverli" (1814) romani ko'pincha ingliz adabiyotidagi birinchi muvaffaqiyatli tarixiy roman sifatida qabul qilinadi. Skott o'z qahramonlarining shaxsiy tajribalari uchun fon sifatida tarixiy sozlamalardan foydalangan, bu esa o'quvchilarga tarix bilan bog'liq va hissiy rezonansli tarzda shug'ullanish imkonini berdi. Shunday qilib, Skott fantastika va tarix o'rtafiga chegaralarni yo'qotib, o'tmishtirishga nisbatan sog'inch hissini uyg'otdi.

Skott asarlarining markaziy mavzulari an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtafiga ziddiyat, shuningdek, milliy o'zlikni shakllantirish jarayoni atrofida. Uning "Veyverli" filmidagi Yakobit qo'zg'oloni kabi tarixiy voqealarni tasvirlashi o'quvchilarga Shotlandiya tarixi haqida ma'lumot berdi, shu bilan birga madaniy assimilyatsiya va milliy birlikning kengroq masalalarini ko'rib chiqdi.

20-asr boshlarida o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy ijodi bilan tarixiy ong yuksalganiga guvoh bo'ldi. Uning «O'tgan kunlar» (1925) romani o'zbek adabiyotida tarixiy roman janrining Markaziy Osiyoda tug'ilgan davrini ifodalaydi. Qodiriy o'zbek xalqining tarixiy tajribasiga, xususan, sovetlar davrigacha bo'ilgan davrga to'xtalgan. Uning tarixiy voqealarni qahramonlar tasviri katta siyosiy va ijtimoiy silkinishlar davrida milliy o'zlikni, madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan edi.

"O'tgan kunlar" shaxsiy munosabatlari, madaniy an'analar va siyosiy intrigalarga e'tibor qaratgani bilan ajralib turadi, bularning barchasi muhim tarixiy voqealar fonida o'rnatiladi. Qodiriyning tarixiy romanga yondashuvi shunchaki voqealarni hikoya qilish emas, balki bu voqealar doirasidagi insoniyat tajribasini o'rganish edi. Bu unga o'z o'quvchilarining ijtimoiy va madaniy tashvishlari bilan chuqur aks-sado beradigan hikoya yaratishga imkon berdi.

Ulter Skott va Abdulla Qodiriy bir-biridan tubdan farq qiladigan madaniy muhitga ega bo'ilgan bo'lsalar-da, ularning asarlari mavzu va hikoya qilish texnikasi jihatidan ajoyib o'xshashliklarni ko'rsatadi. Ikkala muallif ham tarixiy voqealardan shaxsiy dramalar uchun fon sifatida foydalangan, bu esa o'quvchilarga personajlar bilan hissiy bog'lanish imkonini beradi, shuningdek, kengroq tarixiy kontekstni tushunishga imkon beradi.

"Veyverli" asarida Skott Angliya va Shotlandiya o'rtafiga ziddiyatdan sodiqlik, o'ziga xoslik va an'ana va taraqqiyot o'rtafiga to'qnashuv mavzularini o'rganish uchun foydalanganadi. Xuddi shunday, "O'tgan kunlar" asarida Qodiriy rus mustamlakachiligi va o'zbek jamiyatining ichki dinamikasini aks ettiruvchi eski urf-odatlar bilan modernizatsiyaning bosqinchi kuchlari o'rtafiga ziddiyatni ko'rib chiqadi.

Ikkala muallif ham tarixiy fakt va fantastikani birlashtirgan rivoyat tuzilishidan foydalangan. Skottning romanlarida ko'pincha badiiy qahramonlar bilan bir qatorda tarixiy shaxslar ham tasvirlangan, Qodiriy esa xalq an'analarini va tarixiy voqealarni o'zida mujassam etgan holda

hikoyasiga haqiqiylik tuyg'usini beradi. Fakt va fantastika uyg'unligi ikkala muallifga ham tarixiy davrlarni yanada kengroq tasvirlash imkonini beradi.

Skott va Qodiriy yozgan madaniy va ijtimoiy kontekst ularning tarixiy romanlarini tushunish uchun zarurdir. Skott Britaniya imperiyasining kengayishi va milliy tarixga qiziqish ortib borayotgan davrda yozgan, bu uning Shotlandiya tarixining romantik tasvirlarida aks etadi. Uning romanlari Shotlandiyaning o'ziga xosligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam berdi va butun Evropada tarixiy roman janriga qiziqishning oshishiga hissa qo'shdi.

Aksincha, Qodiriy O'rta Osiyoda mustamlaka hukmronligi va siyosiy beqarorlik davrida yozgan. Uning tarixiy romanlari rus mustamlakachiligi va sovet ta'sirida o'zbek madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish vositasi bo'lib xizmat qildi. Qodiriy asarlari o'zbek xalqining tarixiy kechinmalariga e'tibor qaratish orqali milliy ongning kuchayishiga, tashqi hukmronlikka qarshilik ko'rsatishiga xizmat qildi.

Tarixiy roman janri o'zbek va ingliz adabiyotida tarix, madaniyat va o'zlikni anglash chorrahalarini o'rganishda kuchli vosita ekanligini isbotladi. Valter Skott va Abdulla Qodiriy turli tarixiy va madaniy sharoitlarda ijod qilib, an'ana, zamonaviylik va milliy o'zlikni anglash kabi kengroq mavzularga to'xtalib, o'z xalqlarining o'tmishi haqida fikr yuritish uchun ushbu janrdan foydalangan. Skottning Ueyverli asari o'quvchilarni Shotlandiya tarixining romantik tasavvurlari bilan tanishtirdi, Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari esa muhim siyosiy burilishlar davrida o'zbek jamiyatining murakkabliklarini chuqur o'rgandi.

Har ikki muallif ham tarixiy fantastikadan yangicha foydalanish orqali milliy ong rivojiga hissa qo'shgan. Skottning asarlari Shotlandiya o'ziga xosligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam berdi va tarixiy romanning G'arb adabiyotidagi o'rnini mustahkamladi. Qodiriy esa o'z romanidan o'zbek madaniy merosini asrab-avaylash, o'z davrining siyosiy vogeliklarini tanqid qilish, mustamlakachilik hukmronligi sharoitida o'z xalqining ovozini berish uchun foydalangan.

Ushbu ikki muallifning qiyosiy tahlili tarixiy fakt va fantastika uyg'unligi, kattaroq tarixiy mavzularni o'rganish uchun shaxsiy dramadan foydalanish va milliy o'ziga xoslik masalalari bilan shug'ullanish kabi hikoya strategiyalarida umumiy tendentsiyalarni ochib beradi. Turli kelib chiqishiga qaramay, ikkala muallif ham tarixiy romanning o'tmishni tushunish va talqin qilish vositasi sifatida universal jozibadorligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, Skott va Qodiriy asarlari o'z adabiyotlarda tarixiy roman janrinining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib turibdi. Ularning romanlari o'z xalqlarining tarixiy vogeliklarini aks ettiribgina qolmay, balki insoniyat ahvoli to'g'risida abadiy tushunchalarni ham taqdim etadi. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan rivojlanish tendentsiyalari tarixiy romanning madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish va saqlashdagi ahamiyatini, tarixiy romanni ham o'zbek, ham ingliz adabiy an'analarining muhim tarkibiy qismiga aylantirganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karim Bahodir. "O'tkan kunlar" ibrati. roman mazmuni.-Toshkent: "Mashhur-press",2019.-152 b.
2. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. -Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 400- bet.
3. Hart, F. R. (1966). *Scott's Novels: The Plotting of Historical Survival*. Edinburgh: University Press.
4. Hodgson, M. G. S. (1974). *The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Said, E. W. (1994). *Culture and Imperialism*. New York: Vintage Books.
6. Krappe, A. H. (1954). *The Rise of the Historical Novel*. New York: Barnes & Noble.
7. Allworth, E. (1990). *The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present, A Cultural History*. Stanford: Hoover Institution Press.

UO'K 821.512.122

VENGER OLIMI HERMAN VAMBERI VA O'ZBEK FOLKLORI

V.Q.Davirova, tayanch doktorant, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent

Annotatsiya. Major olimi va sayyohi Herman Vamberi dunyo ilmi qolaversa, sharq xalqlari ilmida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning sharq xalqlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining XIX asrning ikkinchi choragi hamda XX boshlaridagi tarixiy-madaniy hayoti, ijtimoy-siyosiy jarayonlarning kechishi haqidagi qarashlari o'sha davrni o'rganishga va baho berishga nihoyatda

katta yordam beradi. Xususan, olimning Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi va folkloriga oid ma'lumotlari o'zbek elshunosligi va folklorshunosligi uchun nihoyatda muhim manbalar sanaladi. Mazkur maqolada Herman Vamberining Markaziy Osiyodagi hayoti va uning o'zbek folklorining o'r ganilishidagi xizmatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Herman Vamberi, folklor, mojar, sayyoh, etnografiya, maqol, izlanish, darvesh, afandi, xonlik, amirlilik.

Аннотация. Особое значение в науке народов Востока, как и в мировой науке, имеет Герман Вамбери, учёный и путешественник из Моджора. Большое значение имеют его взгляды на историческую и культурную жизнь народов Востока, особенно народов Средней Азии, во второй четверти XIX - начале XX века, а также на общественно-политические процессы. помошь в изучении и оценке того периода. В частности, сведения ученого по этнографии и фольклору народов Средней Азии являются чрезвычайно важным источником для узбекской этнологии и фольклора. В данной статье рассматривается жизнь Германа Вамбери в Средней Азии и его вклад в изучение узбекского фольклора.

Ключевые слова: Герман Вамбери, фольклор, моджор, турист, этнография, пословица, поиск, дервиши, эфенди, ханство, эмирят.

Abstract. Herman Vambery, a scientist and traveler of Mojar, has a special importance in the science of the peoples of the East, as well as in world science. His views on the historical and cultural life of the peoples of the East, especially the peoples of Central Asia, in the second quarter of the 19th century and the beginning of the 20th century, as well as the social and political processes, are of great help to the study and evaluation of that period. In particular, the scientist's information on the ethnography and folklore of the peoples of Central Asia are extremely important sources for Uzbek ethnology and folklore. This article discusses Herman Vambery's life in Central Asia and his contributions to the study of Uzbek folklore.

Key words: Herman Vambery, folklore, mojar, tourist, ethnography, proverb, search, dervish, effendi, khanate, emirate.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran dunyo siyosatining o'zgarishi va Markaziy Osiyoning boy unumdar yerkari, yer osti hamda yer qazilma boyliklari ohangrabodek istilochi mamlakatlarni o'ziga torta boshladidi. Dunyoga tajovuzkorona qarash hamda jahonning siyosiy yetakchi hukmron davlatlarining istilochilik harakati tufayli ham xalq og'zaki ijodiga xorijiy olimlarning e'tibori tushdi. Avvalo, ular joususlik qilish, mamlakat ichki siyosiy ahvolini bilish, xalq hayoti va tabiiy joylashuvi, dunyoqarashi, madaniyatini o'r ganish maqsadida o'lkashunos olimlar qiyofasida kirib kela boshladilar. Xuddi shunday olimlardan biri venger olimi Herman Vamberi bo'lib, u Xorazm xonligi va Buxoro amirligining tarixi, madaniyatini o'rgangan. Bugungi kunda mojar olimi, etnograf, sayyoh va sharqshunos Herman Vamberining nomi butun dunyo ilmida ma'lum va mashhur.

Adabiyotlar tahlili. Olimning murakkab shaxsi, ijtimoiy-siyosiy-faoliyati, ilmiy-nazariy qarashlari haqidagi muammolar hali-hanuz to'laligicha o'z yechimini topgan emas. Uning shaxsiyati haqida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, rus tadqiqotchisi V. Lazarev Herman Vamberi o'z davrining atoqli kishisi, mashhur olim, tilshunos va etnografi, siyosatchi hamda geografi, uning hayoti nihoyatda murakkab va favqulotda o'ta qiziqarli, olim betakror iste'dod egasi, mohir tilshunos, etnograf va abjir jousus bo'lganligini ta'kidlagandi. Darhaqiqat Herman Vamberi kelib chiqishi yahudiy bo'lgan, Majoristonda yashagan ingliz istilochilarining joususi, Markaziy Osiyoni zabit etilishida o'z hissasini qo'shgan siyosatchi bo'lgan. U turli ayyorona usullar bilan Markaziy Osiyoga kirib kelgan, "Rashid afandi" nomi bilan tanilgan. Xorazm xonligi va Buxoro amirligida faoliyat olib borgan yerli aholining yashash tarzi, ijtimoiy hayoti, etnografiyasi bilan qiziqqan, sayohatchi qiyofasida Xorazm xonligi va Buxoro amirligida bir necha yil faoliyat olib borgan. Xalq og'zaki ijodini yig'ishga uringan va o'zbek mumtoz adabiyotini o'r ganishga harakat qilgan. Herman Vamberi 1832-yilda Dunay daryosi bo'yida joylashgan kichik venger shahri Duna Sherdaxelida kambag'al yahudiy oilasida tug'ilgan. 12 yoshgacha qishloq maktabida o'qigan, so'ng Avliyo Georgiy gimnaziyasiga tahsil olgan. Uning ilmdagi iqtidorini ko'rgan ustozlar maslahati bilan

major, lotin tillaridan tashqari, fransuz, nemis, ingliz hamda skandinaviya tillarini yaxshi o'rgangan, rus va boshqa slavyan tillaridan xabari bo'lgan. [2.159] U dastlab major tilini o'rganish va uning ildizlarini aniqlashga bel bog'lagan mana shu xohish, olimning ta'kidiga ko'ra uni Markaziy Osiyoga yetaklagan: "Biz Osiyoda turg'un bo'lib qolib ketgan urug'larimizni qidiryapmiz, degan fikr xatodir... Biz o'z tilimizning etimologik tuzilishini aniqlashga harakat qilamiz, aniq ma'lumot olish uchun qardosh shevalarga murojaat etamiz", [7.1] ko'rindiki, H. Vamberi o'zining Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishini major tilini o'rganish majburiyati deb izohlaydi. Biroq uning Markaziy Osiyo, xususan, Xiva xonligi va Buxoro amirligi xususida yozgan ma'lumotlarida boshqa bir maqsad ko'zlanganligini dalillaydi. Olim bu maqsadlarini amalga oshirish uchun dastlab 1852 yili Turkiyaga ko'chib keladi. Bu haqida tarixchi olim X. Ismatullayev shunday deydi: "U o'sha yillari Konstantinopol deb nomlangan Istanbulga ko'chib o'tib, o'ziga to'q turk oilalarida g'arb tillari, asosan fransuz tilidan dars bera boshlaydi. Avval Posha Husayn Doim xonadonida, so'ngra do'sti va maslahatchisi Mulla Ahmad afandi ta'sirida deyarli usmonli turk qiyofasiga kiradi hamda Fuod posha idorasiga ishga o'tadi". [2.159] Ko'rindiki, H. Vamberining maqsadli sayohatiga uzoq tayyorgarlik ko'rilib, bu ishdan Turkiya ham manfaatdor bo'lgan. H. Vamberi xotiralarida shunday deydi: "Bir necha yil turk xonadonlarida bo'lishim, islom maktablariga va kitob do'konlariga qatnab yurishim meni tezda turkka, hatto afandiga aylantirib qo'ydi". [2] Turkiyada H. Vamberi turk tili, eski o'zbek tilidan tashqari, arab, fors tillarini qunt bilan o'rganadi, islom dini qonun-qoidalari bilan mukammal tanishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Olim 1858 yili Nemischa-turkcha lug'at (taxminan 14 ming so'zli), 1860-yili esa Chig'atoycha (eski o'zbekcha) — nemischa lug'at (taxminan 40 ming so'zli) tuzib, Istanbuldagi nashriyotlarda chop ettiradi. Bu bilan u Markaziy Osiyoga kirib borishiga tayyor ekanligini isbotladi. Bu haqida X. Ismatullayev shunday deydi: "O'z rejasini amalga oshirish maqsadida A. Vamberi 1863-yilning boshida Tehronga keladi. Eron poytaxtidagi Turkiya elchixonasi boshlig'i uni yaxshi qabul qiladi va O'rta Osiyoga darvesh qiyofasidagi sayohat rejalarini ishlab chiqqa boshlaydilar. Bu reja bo'yicha, A. Vamberi Makkadan kelayotgan hojilar karvoni bilan O'rta Osiyoga kirib borishi lozim edi. Armin Vamberining ism-sharifi o'zgartiriladi, endi u Rashid afandi nomi bilan yashashga majbur edi. Keyinchalik karvondagilar uni Rashid hoji deb ham ataydilar. 27-mart kuni Turkiyaning Tehrondagi elchisi Rashid afandining O'rta Osiyo bo'ylab safari oldidan katta ziyofat beradi...". [2] E'tibor berilsa, oddiy sayyohning safari oldidan elchixonaning maxsus ziyofat berishi ham H. Vamberining bu sayohati maqsadli-siyosiy reja ekanligini ko'rsatadi. Xullas, olim 1863-yilning 28-mart kuni Makkadan qaytayotganlar bilan birga kechqurun Rashid afandi darvesh qiyofasida yurtimizga kirib keladi. Bu haqida adabiyotshunos olim B. Karimov shunday deydi: "Herman Vamberi 1863–1864-yillarda darvesh qiyofasida O'rta Osiyoga keladi. Sayohatda ko'rgan-kechirganlarini maxsus kitob holida nashr qildiradi. U sayohati davomida o'lkamiz tarixi, xususan, adabiy-madaniy asarlari, xalq og'zaki ijodi na'munalariga ham qiziqadi. Imkonli doirasida manbalarni yig'ib, o'zi bilan olib ketadi". [3.178-183] Darhaqiqat, olimning Markaziy Osiyoga qilgan safari qaysi niyatda bo'lmasin, bugungi kun uchun uning yurtimiz sarhadlaridan to'plagan va yozib olgan ma'lumotlari katta ahamiyatga ega. H. Vamberi sayohati natijasi o'laroq qator tarixiy, etnografik va adabiy risolalar yozdi. Binobarin, olim yurtiga qaytgach, "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" kitobi 1864-yili Londonda ingliz tilida chop etilgan. Bu kitob ikki qismidan iborat bo'lib. 1-qismida uning O'rta Osiyoga qilgan sayohati xotiralar o'rinni olgan, 2-qismida esa turkmanlar, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Xitoy, Turkiston tarixi, siyosiy ahvoli, geografik mavqeい o'rganilgan. Kitob nashr qilinishi bilan rus tiliga tarjima qilinib, 1865-yili SanktPeterburgda bosilib chiqqan. 1867-yili "Chig'atoyma" asari nemis tilida Leypsig shahrida bosilib chiqqandi. Asar uch qismidan — ilmiy tadqiqot, matnlar va lug'at qismlaridan iborat. Kitobning birinchi qismida tilning grammatik qurilishiga oid ma'lumotlar, 2-qismida Tohir va Zuhra, Yusuf va Ahmad, Huriliqo va Hamro kabi asarlar keltiriladi. A. Vamberi bundan tashqari 112 ta o'zbek xalq maqolini o'zbek tilida keltirib (arab va lotin yozuvlarida), nemis tilidagi tarjimasini ham beradi. Olloyor, Nasimiyy, Navoiy, Fuzuliy g'azallaridan na'munalar ham bu kitobdan o'rinni olgan.

1873-yili yozilgan "Buxoro yoki Transaksoniya tarixi" kitobini yaratgan. Bu kitobida u Buxoroning eng qadimgi davrlaridan to XIX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixini e'lon qilingan

va e'lon qilinmagan, o'zi O'rta Osiyodan olib ketgan qo'lyozmalar asosida bayon qiladi. Uning kitobi ikki qismdan tashkil topgan: "Qadimgi yoki Movarounnahr tarixi" va "Yangi yoki Buxoro amirligi tarixi". Herman Vamberining o'zbek adabiyoti va folklorining o'rganish borasidagi ma'lumotlari "Chig'atoy tili qo'llanmasi" risolasida beriladi. H. Vamberi mazkur kitobining "Xrestomatiya" qismida xalq og'zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri – o'zbek maqollaridan 112 tasining aslini o'zbek-arabiy hamda lotin imlosida, shuningdek, davomidan olmon tiliga tarjimasini beradi. Demak, H. Vamberi mazkur risolasida o'zbek xalq og'zaki ijodi, xususan o'zbek maqollarini o'rganishga harakat qilganini ko'rsatadi. Bu haqida folklorshunos Y.Rahmatov shunday deydi: "Herman Vamberi o'zbek xalq og'zaki ijodiga qiziqqan, ertak, afsona, rivoyat, jumladan, xalq maqollarini yig'ib nashr ettirgan. [6.22] Bundan tashqari Y. Nurmurodovning tadqiqotlarida ham shunday ma'lumot keltiriladi: "Uning 1867 yilda Leypsigda nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya-lug'atiga folklor va adabiyotning ayrim na'munalar qatori 112 ta o'zbek maqoli ham kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan.[4.7] Nemis va o'zbek maqollarini qiyosan o'rganayotgan tadqiqotchi F.Bafoyev shunday ma'lumot beradi: "Dastlab 1865-yilda Vengriya davlat Fanlar akademiyasining filologiya bo'limi chop etgan "Tilshunoslik axboroti"ning 271-315-sahifalarida o'zbek folkloridan materiallar, jumladan, 44 maqol, shuningdek, bir qancha ertak va topishmoqlar ham nashr etilgan edi. Bu chet ellarda o'zbek folkloriga qiziqishning ortib borayotganidan darak berardi. Oradan ikki yil o'tib, venger olimi Herman Vamberi ham o'z kitobida o'zbek xalq maqollaridan na'munalar e'lon qiladi". [1.33] H.Vamberi faqat o'zbek maqollarini yig'uvchisi emas balki ularni o'z ona tiliga tarjima qilib, izohlashga ham harakat qilgan. Bu uning maqollarni folklorshunoslik nuqtai nazaridan tekshirganligini ko'rsatadi.

H.Vamberining o'zbek xalq maqollari kiritilgan "Chig'atoy tili darsligi" kitobi ilk bor 1867-yilda Leypsig (Germaniya)da chop etilgan bo'lsa, mazkur kitob 1975-yilda Amsterdam (Niderlandiya)da qayta nashr qilingan. Olim ushbu kitobining so'zboshida shunday yozadi: "Xitoydan Dunaygacha bo'lgan xalqlarning tillari, ularning ichki va tashqi munosabatlari, keyingi taraqqiyoti – hammasi bir-biri bilan uzviy bog'liqidir... Bir paytning o'zida ikki e'tiqodda bo'lish juda og'ir ekan. Turkistonning sahro va o'tloqlarida yalangoyoq, darvesh qiyofasida yurib, til va adabiyotiga oid qimmatbaho materiallar yig'ib kelganim uchun hech kim hech narsa demasa kerak. Ularning fan rivoji uchun ahamiyati kattadir, degan umiddaman". [5.10]

"Chig'atoy tili darsligi" da o'zbek xalq maqollari "Bir qancha o'zbek maqollari" sarlavhasi bilan berilgan. Risoladagi keltirilgan o'zbek xalq maqollari hech qanday lug'at qoidalariga amal qilmay (alifbo yoki mavzu tartibida), raqamlangan holda avval eski o'zbek va lotin yozuvida o'zbek tilida, so'ng ularning tarjimasi nemis tilida berilgan. Bu haqda Y.Rahmatov shunday deydi: "Odatda maqollar to'plamlarga ikki tartibda kiritiladi 1. Alifbo tartibida. Ilk maqol to'plamlari shu tartibga amal qilgan. 2. Mavzu asosidagi tartib. Rus maqolshunosi V.Dal tashabbusi bilan maqollar mavzulashtirilgan. O'zbek maqolshunosligida H.Zarif maqollarni ilk bor mavzularga bo'lib chop ettirgan, biroq H.Vamberi bu nazariyaga e'tibor qaratmaydi".[6.22] Tadqiqotchi F.Bafoyev H.Vamberining maqolshunoslik ishlarini o'rganar ekan shunday deydi: "Olim maqollarni avval arab va lotin alifbosida kiritadi.

ب ا ر ق و لاغ ي ذ ي نك ت ام

Tamning kulagi bar

Die hat auch Ohrn.

Ba'zi maqollardan so'ng qavs ichida yoki havola shaklida qo'shimcha izohlar ham berib o'tilgan. Ammo ularning hammasi ham maqol ma'nosini to'g'ri va to'liq ochib bermagan". [1.34]

Sayyoh Vamberi o'zbek maqollarini xalq orasida yurib to'plagani haqida adabiyotshunos B.Karimov ham xabar beradi. [3.178-183] Maqollar Xorazm vohasidan to'plangan bo'lib, XIX asrga xos Xorazm xalq tili shevasini saqlab qolgan. Maqollarni yig'ish hamda qayd etib borishda olimning xivalik shogirdi mulla Ishoq ham yordam bergen bo'lishi mumkin. (Mulla Ishoq 1836-yilda Xiva xonligiga qarashli Qo'ng'irot qabilasida tug'ilgan. U madrasa ta'limini olgan Herman Vamberiga muxlislik qilib, olimga yordam bergen. 1863-yilda H. Vamberiga qo'shilib Budapeshtga ketgan. Venger tilini o'rganib Budapesht fanlar akademiyasi kutubxonasida yordamchi bo'lib ishlagan (V.D))

H. Vamberi folklorshunos bo‘lmasa-da, o‘zbek maqollarini asliyatini saqlash maqsadida o‘sha davrda joriy qilingan arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida, tabdilini lotin yozuvi asosida keltirgach, nemis tilidagi tarjimasini keltiradi va izohlashga harakat qiladi. Bu bilan olim xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni o‘rganish borasidagi usulni ko‘rsatib beradi. Fikrimizni B. Karimov ham tasdiqlaydi: “Aslida metodologik jihatdan adabiy-tarixiy manbalarni baholashda tasniflash usuli qo‘l keladi. Shunga ko‘ra, tarjima qilingan maqollarning originalga mosligi, mazmunning to‘la aks etgan-etmagani jihatidan kuzatish maqsadga muvofiqdir”. [3.178-183] Darhaqiqat, xalq maqollarining evolyutsion tadriji va qiyosiy tadqiqini qilishda olim qo‘llagan usul maqsadga muvofiqdir. Olim o‘zbek maqollarini nemis tiliga tarjima qilar ekan ikki usuldan foydalanadi. Birinchi, o‘zbek xalq maqoliga mos keladigan nemis xalq maqolini qo‘llagan. Xalq maqollarasi asliyatda qanday bo‘lsa, tarjimon uni nemis tilida shu tarzda tarjima qilgan mazmuni tarjima tiliga to‘la ko‘chib o‘tgan. Bunda tarjimon maqol uchun maxsus izoh berishga ehtiyoj sezmagan va nemis xalq maqolini keltirgan. Ma’lumki, insoniyat badiiy tafakkuri hosilasi sifatida shunday umumbashariy hikmatlar mavjud. “...ularning ayrimlari mazmuniga ko‘ra barcha millatlarda bir xilda qo‘llaniladi. Bunday ekvivalent maqollarni eng maqbul tarjima o‘rnida qabul qilish va baholash o‘rinlidir”. [3.180]

“Bosh bo‘lmasa gavda losh” – “Ohne Kopf ist der Körper eine Leiche”;

“Manmanlik shaytong‘a yarashur” - “Egoismus steht nur dem Teufel gut”;

“Och ayuq o‘ynamas” - “Der hungrige Bär tanzt nicht”. Ikkinchisi, maqollarini tarjima qilish bilan birga ularga izoh berishni ham lozim topadi. Barcha xalqlarning faqat o‘zi va o‘zligiga xos maqollarasi mavjud bo‘lib, ular o‘zi mansub millatning o‘ziga xos ma’naviy olami, turmush tarzi, qadriyatlarini va boshqa individual xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi bunday maqollar uchun esa izoh zarur bo‘ladi va tarjima tilida o‘quvchiga maqollar mazmuni tushunishi oson kechadi.

“Bolani yoshdin, xotunni boshdin”. - “Das Kind in der Jugend, das Weib im Anfang”. (“wenn du sie an etwas gewöhnen willst”) – ya’ni “agar sen uni biror narsaga ko‘niktirishni istasang”. Olim tomonidan berilgan izoh maqol mazmunini yanada kengaytirib, uni o‘quvchiga qiyalmay anglatishga yordam beradi.

“Bolalardan so‘r xabarlarni”. - Von den Kindern verlang Nachricht”. (“Kinder und Narren pflegen die Wahrheit zu sagen”) ya’ni “Bolalar va ahmoq-tentaklar haqiqatni yoqlab gapiradi”, degan izoh beriladi. Bu bilan olim maqolga qo‘sishimcha ma’no berib tushintirmoqchi bo‘ladi. Ba’zi o‘rnlarda olim maqollarini badiiy-estetik jihatdan ham tahlil qilishga harakat qiladi. Masalan, xalqning “So‘z berur, bo‘z bermas” maqolidagi saj’ ya’ni nasriy qofiyadoshlikni nozik anglaydi va o‘quvchiga maqol tarkibida ichki qofiya, so‘z o‘yini borligi uqtirib o‘tadi. “So‘z” va “bo‘z” so‘zlarini “Ein Wortspiel”, ya’ni “so‘z o‘yini” deb ataydi. Biroq, Herman Vamberi o‘zbek xalq maqollarini ba’zilarini nozik ma’nolarini to‘liq anglay olmaganligini kuzatish mumkin. Shu bois, ayrim maqollar noto‘g‘ri tarjima qilingan, ayrim maqollarga yanglish izoh berilgan. Binobarin, “To‘yg‘a borsang, to‘yib bor” maqoli nemis tiliga “Wenn du zu einem Gastmahl gehst, so gehe gesättigt dahin” tarzda tarjima qilingan. Tarjima to‘g‘ri qilingan bo‘lsa-da, unga yozilgan izoh “denn im Gedränge könntest du hunrig bleiben” noto‘g‘ri berilgan, ya’ni “Chunki olomon ichida och qolishing mumkin” izohi maqol mazmuniga mos emas. Chunki bu maqolda mehmonga borish odobi, mehmondorchilik madaniyati, to‘yda to‘ygan odamdek odob saqlab o‘tirish nazarda tutiladi. Yoki, “Lo‘luning eshagini sug‘or, pulini ol” - “Tränke auch den Esel der Hure (diene ihr), doch lass dich bezahlen (nimm ihren Pfennig)” tarzida tarjima qiladi. Bunda olimning ba’zi o‘zbek so‘zlarining ma’nosini bilmasligi ko‘rinib qoladi. Chunki u “Lo‘lu” so‘zini “buzuq ayol”, “fohisha” deb tushunadi. Herman Vamberining ayrim o‘zbek maqollarini nemis tiliga izohlash jarayonida uning tag ma’nosini to‘la ochib bera olmagani ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘ryo” maqolinig tarjimasi “Der Fluss zieht weiter, die Nette bleibt liegen” bo‘lib, unga “Willst du weiter ziehen, verlass die Nette und besteige das Schiff”, ya’ni “Harakat nari ketishiyu, bo‘ryo kemaning ichida qolishi”, degan mazmunda noto‘g‘ri izohlanadi.

Xulosa. Har bir millatning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va jahon tamaddunidagi hissasi uning etik-estetik qarashlari, milliy qadriyat va an‘analarining umuminsoniyligiga qarab belgilanadi. Bunda millat tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, e’tiqodi, urf-odati, kechinma va tuyg‘ulari – umuman, qalbi va tafakkurini o‘zida mujassam etgan xalq og‘zaki ijodi alohida o‘rin tutadi. Shu bois ham millatni

o'rganish, birinchi navbatda, uning ijod na'munalarini to'plashdan boshlangan. Bir millatni o'z tasarrufi va ta'siriga olmoqni maqsad qilgan davlat avvalo xalq ijodiga, ayniqsa, xalq tarixi va taqdirini boricha ifodalovchi maqollariga alohida e'tibor qaratishining asosiy sabablaridan biri ham shudir. Vengerlarning atoqli olimi Herman Vamberi qaysi maqsadda bo'lsada yurtimizga sayohat qildi va o'zbek xalqining dunyo miqyosida tanilishida uning o'ziga xos betakror adabiyoti, madaniyati, tarixi va og'zaki ijodi borligini ko'rsatishga xizmat qildi, ayniqsa, o'zbek xalq maqollarini o'rganish va ularda mujassam teran mazmunni anglashga harakat qildi. Bugungi adabiy-ilmiy jamoatchilik tarjimashunoslik tarixida, xususan, o'zbek tilidan olmon tiliga o'zbek adabiyoti, folklori na'munalarini tarjima qilishda Herman Vamberi ham ma'lum xizmatlarni bajardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bafoyev F. O'zbek va nemis xalq maqollarining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Diss. 2021. – B.33.
2. Ismatullaev X. Vamberi olimmi, josus? "Fitna san'ati" (2-kitob), "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1993 yil, 159-bet.
3. Karim B. Herman Vamberi – O'zbek maqollar tarjimon // Jahan adabiyoti. № 12. – Toshkent: 2018. –B. 178-183
4. Nurmurodov Y.B. История изучения и проблем научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык. AKD. – Toshkent: Fan. 1983. (Nurmurodov Y. O'zbek folklori nemis tilida. – Toshkent: Fan, 1987. – B.7.)
5. Nurmurodov Y. O'zbek folklori nemis tilida. – Toshkent: Fan, 1987. – B.10.
6. Rahmatov Y. Maqol va uning o'zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi. Diss. 2022. – B.22.
7. Vamberi H. O'rta Osiyo bo'y lab sayohat, SPb.,1865.

UO'K 81'373.46**TERMINNING KO'P TOMONLAMA TABIATI XUSUSIDA**
M.R.Ergashev, PhD, dots., Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminning ko'p tomonlama tabiat xususida fikr yuritilgan. Terminning tabiatini o'rganish uning umumiyligi adabiy til so'zining varianti sifatida talqin qilish barobarida amalga oshirilmaydi. Termin va so'z o'rtasidagi munosabat hosilalik tamoyiliga asoslanadi: termin so'zga nisbatan ikkinchi darajali bo'lib, termin og'zaki timsol simvol, ramz sifatida tayyor og'zaki shakldan foydalanadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy va falsafiy lug'atlar, obyektlar va hodisalar, umumiyligi tasavvur, semantik yaxlitlik, qo'shma atama.

Аннотация. В данной статье рассматривается многогранность данного термина. Изучение природы термина не осуществляется одновременно с его трактовкой как варианта общелитературного языкового слова. Связь между термином и словом строится по принципу деривации: термин вторичен по отношению к слову, а термин использует уже готовую глагольную форму в качестве обозначения, символа.

Ключевые слова: логико-философская лексика, предметы и события, общая идея, смысловая целостность, общий термин.

Abstract. This article discusses the multifaceted nature of the term. Studying the nature of the term is not carried out at the same time as its interpretation as a variant of the general literary language word. The relationship between a term and a word is based on the principle of derivation: the term is secondary to the word, and the term uses a ready-made verbal form as a symbol, a symbol.

Key words: logical and philosophical vocabulary, objects and events, general idea, semantic integrity, joint term.

Terminning tabiatini o'rganish uning umumiyligi adabiy til so'zining varianti sifatida talqin qilish barobarida amalga oshirilmaydi. Termin va so'z o'rtasidagi munosabat hosilalik tamoyiliga asoslanadi: termin so'zga nisbatan ikkinchi darajali. Demak, termin og'zaki timsol simvol, ramz sifatida tayyor og'zaki shakldan foydalanadi.

Terminning hosilasi uning tabiatining ikki tomonlama ekanligini belgilaydi, bu hosilada maxsulot ikki jihatdan tushuniladi. Birinchidan, termin tabiatining ikki tomonlamaligi inson tomonidan uning noaniqligi sifatida izohlanadi: termin voqelikni qurish vositasi sifatida aniq, matematik ifoda shakliga intiladi va shu bilan birga lingistik belgining bunday xususiyatlarini

to'laligicha namoyon qiladi, masalan, noaniqlik. Ikkinchidan, terminning dualligi ma'lum bir matnga va bir vaqtning o'zida ko'plab matnlarga tegishlilik xususiyati sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtida terminologiyada termin tabiatining ikki tomonlama hodisasi haligacha yetarlicha baholanmadи, bu esa terminning mohiyatini qarama-qarshi va ba'zan noto'g'ri baholashga va xatto paradoksning paydo bo'lishiga olib keladi, bu quyidagicha ifodalanadi: termin ba'zan kontekstga bog'liq bo'lmasa, ayrim paytlarda bog'liq ham bo'ladi. Tavsiya etilgan termin konsepsiysi doirasida ushbu paradoksning yechimi uning ikki tomonlama mohiyatini tushunishga bog'liq. Terminning kontekstdan mustaqil holatda bo'lishi deyilganda bir vaqtning o'zida boshqa matnlarga bog'liqligi tushuniladi va aksincha, terminning matnga bog'liqligi mavhumlik darajasi tufayli boshqa matnlardan bir vaqtning o'zida mustaqilligini anglatadi. Bu esa faqat ma'lum bir matnda termin hosil qilish imkonini beradi, bilim rivojlanishining ma'lum bir bosqichida terminning ikki tomonlama xususiyati uning noaniqligi muammosining asosidir. Ushbu muammo zamonaviy terminologiyada eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Terminning mohiyatini o'rganishning differensial jihatи, bu muammoning ahamiyatini past baholab, tadqiqotning statik jihatи doirasida uning noaniqligi muammosini hal qilishni imkonsiz qiladi. [1]

Terminning dinamik konsepsiysi polisemyani terminning atributi sifatidagina oladi. Terminning noaniqligi uning paydo bo'lishi va uni belgilash momentlarining farqlanishi, shuningdek, ma'lumotlarni kodlash va dekodlash jarayonlaridagi farq bilan belgilanadi. Terminga ta'rif berishning gnoseologik mezoniga asoslanib, "o'ziga hoslik" tushunchasining terminga nisbatan nisbiyligi ko'rsatilgan. [2] Bilish nazariyasi aspektida "aniq termin" tushunchasi ma'noga ega emas, chunki aks holda u qandaydir mutlaq bilimlarning mavjudligini bildiradi, terminning "o'ziga hosligi" haqida faqat shartli ravishla gapirish mumkin. Terminning noaniqligi biz uchun har qanday voqelik hodisasining ma'lum bir talqiniga ekvivalent bo'lgan belgining variantlaridan biri sifatida tushuniladi. "O'ziga hoslik" tushunchasi vaqtinchalik kategoriya bo'lib uning doirasasi ushbu atamani yaratuvchi matn chegaralariga to'g'ri keladi. Terminning noaniqligi deganda ma'lum bir matnda hosil qilingan ta'rifning uning terminologik ifodasiga yakkama-yakka mos kelishi tushuniladi. Termin shakllanishi jarayoni yangi bilimlarni so'zlashuvning eng murakkab ijodiy jarayonining bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi, uning vositalari esa tadqiqotchining tili, aqli va ijtimoiy tajribasi hisoblanadi. Terminologik lug'at tuzish jarayonining asosiy mazmuni terminologik birliklarni yaratish, uni kategoriyalash, konseptual tahlil qilish va hk.dir. Terminning hosil bo'lish jarayoni ham umumiyl, ham hususiy qonuniyatlar bilan tavsiflanadi. Termin yasalish jarayonining asosiy umumiyl belgilari uning nomuvofiqligi va hosilasidir. Termin yasalish jarayonining nomuvofiqligi, avvalo, uning chegaralangan va cheksizligidadir. Yangi terminologik birlikni yaratish termin hosil qilish jarayonining yakuniy maqsadi emas. Terminlarning hosil bo'lish jarayoni bir vaqtning o'zida ham bilish nazariyasining, ham fan yoki texnikaning u yoki bu sohasi tuzilishining tarkibiy qismidir. Yangi bilimlarni qo'shish vositasi bo'lgan termin faqat yangi tushuncha shaklida yangi bilimlarni shakllantirish vositasiga aylanish uchun, keyin esa yangi ta'rif shaklida gavdalaniib, yangi nom olish uchun hosil bo'ladi, va boshqalar. Shu ma'noda termin yaratish jarayonini derivativ jarayon deb ta'riflash mumkin.[3] Terminografiyada termin yaratish jarayonining funksional derivatsion xarakterini aniqlashda uning matn mohiyatini ochib berish asosiy dalil hisoblanadi. Terminga berilgan ta'riflarning semantik muqobili ham mavjud bo'lib, unda termin bir vaqtning o'zida takrorlanishi mumkin bo'lgan yangi so'z shakli sifatida ta'riflanadi. Binobarin, terminda yasalish jarayonida hosila belgisi mavjud. Terminning shakllanishi jarayonida qarama-qarshiliklarni hal qilish, bizningcha, ularning dialektik mohiyatini tan olishdadir.

Derivatsiya deganda oldingi kengaytirilgan terminologik nominatsiyani tuzilgan terminga aylantirish tushuniladi. Mos kelmaslik nafaqat ilmiy va texnik terminologiyani, balki har qanday tabiiy tilning so'zlarida ham kuzatilishi mumkin, ya'ni bu xususiyatlar har qanday hosila jarayonining universal xususiyatlari hisoblanadi. Terminografiyada bosh so'z-kiritma termin shakllanishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, terminning hosil bo'lishi ta'rif asosida sodir bo'ladi, termin ta'rifning hosilasidir.[4] Ta'rif ostida biz keyingi aloqa aktini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan termin oldidagi matnda voqelik hodisasi yoki obyekti tushunchasini bevosita yoki bilvosita anglashni tushunamiz. Shuning uchun termin hosil bo'lish jarayonini ta'rif shaklining "qatlami" va uning

mazmuni rejasining semantik "qalinlashishi" sifatida ko'rsatish kerak. Yaratilgan terminni biz kompress deb atadik, chunki u siqish jarayonining natijasidir. Rasmiy ravishda, sintaktik konstruksiya soddalashtirilgan bo'lib, bu siqish semantikasining mos keladigan murakkablashuvi bilan birga keladi. Binobarin, terminografik lug'atda terminologiyadagi sintagmatikaning aniq soddalashuvi o'z navbatida siqilish paradigmatisining yashirin, implitsit murakkablashuvi bilan muvozanatga keltiriladi. Bularning barchasi terminlarni fikrlesh kodlari, terminografiya jarayonlarini esa tabiiy tilni qayta kodlash jarayonlari deb hisoblashimizga asos beradi.[5]

Qidirilayotgan "arzimas" terminining generativ asosi matnda to'g'ridan-to'g'ri izohlangan ta'rif - "nolga teng bo'lgan haqiqiy sonlar to'plami". Umumiy shaklda termin hosil qilish jarayonida yaratilgan termin ta'rifini rasmiy semantik o'zgartirishga qaratilgan operatsiya sifatida ifodalanishi mumkin. Ko'rinish turibdiki, "arzimas" terminining ma'nosi ko'rsatilgan ta'rifning mazmun rejasiniig shunchaki "to'plami" emas. Istalgan termin til strukturasida kuzatiladigan ikkita qonunni ishlashi asosida tug'ildi: siqish va metafora. Ushbu misolda termin uchun motivatsiya matnda tushuntirilmagan, u chuqur darajada sodir bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq. "E'tiborsiz" so'zi tabiiy tilda "biror narsaga e'tibor bermaslik" degan ma'noni anglatuvchi "e'tiborsizlik" fe'liga qaytadi. Ushbu fe'lning ma'nosi potensial yaratilgan jumla shaklida amalga oshirilishi mumkin. Muayyan sharoitlarda ushbu jumla yangi voqelikni modellashtiradi, ikkita tarkibiy-semantik shakllanishning chuqur darajadagi o'zaro ta'siri natijasida ma'lum bir terminologik birlik shunchalik ahamiyatsiz o'lchovga ega bo'lgan haqiqiy raqamlar" ma'nosida hosil bo'ladi, ya'ni *e'tibordan chetda*".[6] Yangi yaratilgan terminologik birlik oldingi ta'rif shakliga nisbatan o'zgartirilgan ifoda planiga ega, ammo yangi terminining semantik doirasi uning ta'rifi mazmuni rejasiga to'liq mos keladi. Shubhasiz, termin yasalish jarayonining asosini matnda berilgan ta'rif tashkil etadi. Amaliy materialni tahlil qilish matndagi ta'rifning asosiy funksiyalarini aniqlashga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. Filol. fan.dok-ri...diss.– T., 2016, – B. 56 .
2. Volkova I.N. Standartizatsiya terminologii kak odno iz napravleniy leksikografii // Podgotovka i ispolzovaniye nauchno-tehnicheskix slovarey v sisteme informatsionnogo obespecheniya. – Moskva, 1986. –S.7-5.
3. Golovin B.N. Lingvisticheskiye osnovi ucheniya o terminax. – M.: 1987.- S. 115.
4. Grinev V.S. Vvedeniye v terminologicheskuyu leksikografiyu. – Moskva, 1986. – 206 s. – S. 50.
5. Dubichinskiy V.B. Teoreticheskaya i prakticheskaya leksikografiyu. – Vena-Xarkov, 1998. – 160 s. – S. 99.
6. Isayev M.I. Slovar etnolingvisticheskix ponyatiy i terminov. M., 2001. – S. 46-48.

UO'K 81-2

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANIMATSION MEDIADISKURSDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK JIHATLARI

T. G'aniyeva, o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklar psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etgan ko'p qirrali va ko'p qatlamlı mental tuzilma sifatida talqin etiladi. An'anaviy tilshunoslikda til birliklari, jumladan, frazeologik birliklar asosan til xususiyatlari asosida turli xil diskurslarda o'rganildi. Ushbu maqolada muallif frazeologik birliklarning aynan animatsion diskursda qo'llanilishini tadqiq etishga harakat qildi va izlanish davomida ingliz va o'zbek multfilmlari misolida ko'rib chiqdi.

Kalit so'zlar: turg'un birikmalar, frazeologizmlar, animatsion mediadiskurs, lingvopragmatik hususiyatlar, lingvokulturologik hususiyatlar.

Аннотация. В мировой лингвистике фразеологизмы трактуются как многоплановая и многослойная мыслительная структура, проявляющая психологический, когнитивно-семантический и лингвокультурный аспекты. В традиционном языкоznании языковые единицы, в том числе фразеологизмы, изучались в различных дискурсах преимущественно с учетом особенностей языка. В данной статье автор попытался исследовать использование фразеологизмов в анимационном дискурсе и в ходе исследования рассмотрел на примере английских и узбекских мультифильмов.

Ключевые слова: устойчивые сочетания, фразеологизмы, анимационный медиадискурс, лингвопрагматические особенности, лингвокультурные особенности.

Abstract. Phraseological units in world linguistics considered as a multi-faceted and multi-layered mental structure that presents psychological, cognitive-semantic and linguocultural aspects. In traditional linguistics , language units, including phraseological units, were studied in various discourses mainly based on language feature. In this article, the author tried to research the use of phraseological units in the animated discourse and during the research she examined the examples of English and Uzbek cartoons.

Key words: phraseological units, phraseologisms, animated mediadiscourse, linguopragmatic aspects, linguocultural aspects.

Frazeologik birliklarning transformatsiyasi, ularning yangilanish xususiyatlari nafaqat muayyan uslubiy mahsuldorlik manbai, shu bilan birga, yangi frazeologik birliklarning shakllanish omili bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda frazeologik birliklarni transformatsion, semantik-pragmatik, lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy xulosalar chiqarish jahon tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O ‘zbek tilshunosligida davr ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar yechimiga yo‘naltirilgan samarador va zamонави metodologik hamda tadqiq usullari asosida ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tilda barqarorlashgan frazeologik birliklarning o‘zgarishi va ularni modernlashtirish hamda yangi tushunchalarni ifodalovchi frazeologik birliklar shakllanishining vosita va usullarini atroflicha tavsif va tahlil etish o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.[2-5b.]Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta’sirchanligi va obrazlilagini yuzaga keltiruvchi shunday barqaror so‘z birikmalar tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo‘lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqeа-hodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog‘liqdir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o‘z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta’sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turlituman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqeа-hodisa va tabiat manzaralari ko‘pincha mubolag‘ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazliligi oshadi, yuqori ta’sirchanlik va hissiy tuyg‘u yuzaga keladi.Kishilarinng tabiat va jamiyatdagi narsa va voqeа-hodisalarni hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi, tabiat hodisalari bilan muqoyasa qilishlari natijasida yuzaga kelgan turg‘un birikmalarning obrazli asoslari aksariyat hollarda timsoliy mazmun kasb o‘tadi. Jumladan, kishilar u yoki bu xislat timsoli sifatida muayyan bir hayvon yoki parrandani tanlar ekanlar, bunday paytda ular, shubhasiz, o‘sha jonivorning hulq-atvori, tashqi ko‘rinishi va hatti-harakatiga asoslanadilar. Shu tariqa muayyan shaxs yoki narsa va hodisaning o‘ziga xos an’anaviy sifat, harakat va holati tavsifiyatiladi. Ma’lumki, tafakkur qonuniyatlari butun insoniyat uchun bir xil bo‘lib, barcha tillar fikr bayon qilish ehtiyojini imkon qadar to‘larok qondirish yo‘lida rivojlana boradilar. Binobarin, xalqlar tafakkur yo‘nalishining, hayot tajribasining asosan uyg‘unligi, ularning turli-tuman xulq-atvor hamda hislat-xususiyatlarga nisbatan munosabatlarining aksariyat hollarda bir-birlarinkiga o‘xshashligi turli tillar tarkibidagi ko‘pchilik komparativ frazeologik birliklarning bir xil obrazli asosga ega bo‘lib qolishlariga olib kelgan. [3-597 b.].Bugungi kunda tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o‘rganishi til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi, chunki turg‘un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog‘liqdir. Ular ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an’ana va marosimlar asosida shakllangan. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo‘lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Sababi, onomastic birliklar xalqning o‘tmishi bilan bugungi hayotini bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o‘rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir [1].

Ushbu maqolada biz frazeologizmlarning aynan animatsion mediadiskursda qo‘llanilishini tahlil qilishga harakat qildik va ingliz, o‘zbek tillarida qiyosiy tadqiq etdik. Animatsion mediadiskursda frazeologizmlardan foydalanish — bu tilshunoslik va madaniyatshunoslikning

kesishgan qiziqarli yo'nalishi bo'lib, animatsion kontentda qo'llaniladigan tayyor iboralar, so'z birikmali, va idiomatik ifodalar qanday maqsadlarga xizmat qilishini o'rganadi. Frazeologizmlar animatsion mediadiskursda quyidagi asosiy rollarni o'ynaydi:

1. Xarakterlash- frazeologizmlar qahramonlarning o'ziga xosligini yaratishga yordam beradi. Qahramonlar o'zlarining shaxsiyati, mintaqaviy kelib chiqishi yoki ijtimoiy mavqeini ifoda etuvchi iboralardan foydalanadi. Masalan, qahramonning ishlatayotgan idiomalari uning qaysi hududdan ekanligini yoki qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini bildirishi mumkin.

2. Hazil va o'yinchanlik- animatsiyada frazeologik ifodalar ko'pincha so'z o'yinlari yoki ikki ma'nolilikka asoslangan holda qo'llaniladi. Bu nafaqat tomoshabinni ko'ngil ochish uchun, balki hikoya qilish jarayonida sahnalarni yanada qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Misol uchun, ma'lum bir idiomani noan'anaviy tarzda qo'llash orqali tomoshabinga kulgili yoki kutilmagan effekt berilishi mumkin.

3. Madaniy kontekstni ifodalash- frazeologizmlar ko'pincha animatsion kontentning qaysi madaniyatga tegishli ekanligini aks ettiradi. Madaniy jihatdan maxsus iboralar yoki idiomalar animatsiyaga o'ziga xos milliy kolorit va madaniy asos beradi. Bu nafaqat tomoshabin uchun madaniy jihatdan tanish bo'lgan elementlarni olib kiradi, balki mahalliy madaniyatni saqlash va uzatish sifatida ham xizmat qiladi.

4. Til va ta'lim- animatsion kontentda, ayniqsa, bolalar uchun yaratilgan mahsulotlarda frazeologizmlardan foydalanish til o'rgatish va tilshunoslikni rivojlantirishning samarali usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yosh tomoshabinlar takrorlanayotgan iboralar orqali yangi so'z birikmalarini va idiomalar ma'nosini o'rganadi. Bu usul orqali o'rgatilayotgan frazeologizmlarning kontekstdagi qo'llanishi ularning esda qolishini osonlashtiradi.

5. Estetik va poetik funksiya- frazeologizmlarning yana bir vazifasi bu animatsiya nutqiga estetika va badiiylik olib kirishdir. Frazeologik birikmalar hikoyani yanada rang-barang qilish va uning poetik ta'sirini oshirishda ishlatiladi. Bu esa nafaqat animatsiyani ko'rish jarayonini qiziqarli qiladi, balki tomoshabinning estetik didiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, frazeologizmlarning animatsion mediadiskursda ishlatilishi madaniyat va tilning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Turli madaniyatlarda bunday iboralar animatsiyaga milliy o'ziga xoslik berib, uni yanada boy va ma'nodor qiladi. Masalan, o'zbek animatsion filmlarida o'zbekcha frazeologizmlar ishlatilishi o'zbek madaniyatini aks ettirishga yordam beradi va milliy auditoriyaga kontentni yaqinroq qiladi.

Shunday qilib, frazeologizmlar animatsion mediadiskursda nafaqat o'yinchanlik, hazil yoki xarakterlash uchun, balki madaniy va ta'limiy jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Yuqorida frazeologizmlarning animatsiyada foydalanimishining funksiyalarini sanab o'tdik, endi esa o'zbek va ingliz tillarida ularga misollar berib o'tamiz.

"Sehrli tanbur" multfilmida "**Tilini yutib yubormoq**" iborasi qahramonning sehrli voqealar oldidagi hayratini va qo'rquvini ifodalashda qo'llanilgan. Bu multfilmda qahramonlar sehrli kuchlar va sirli hodisalar bilan to'qnash keladilar, shunda bunday iboralar qo'llanilishi tabiiy. "Sehrli Qalamdon" multfilmida esa bu ibora qahramonlarning sirli yoki kutilmagan hodisalarga duch kelganda hayratga tushib qolishlarini tasvirlashda ishlatiladi. Sehrli Qalamdon multfilmida qahramonlar sehrli voqeasi yoki maxfiy narsani ko'rib, bir necha soniyaga hayratda qoladilar.

"Jasur Qutqarboyev" multserialida "**Pashshani fil qilish**" iborasi biror kichik vaziyatni haddan tashqari dramatizatsiya qiladigan qahramonning harakatini ifodalash uchun ishlatilgan. Ushbu serialda kichik ko'rindigan vaziyatlar katta muammolarga aylanishi tez-tez sodir bo'ladi. "Avtosarguzashtlar" multfilmidaham ushbu iboradan foydalanimigan bo'lib, kichik muammoni kattalashtirgan qahramonlar harakatini tasvirlash uchun ishlatilgan. Masalan, qahramonlar kichik texnik muammo tufayli yirik avariya yoki katta xavf tug'ildi deb o'ylab, haddan tashqari xavotirga tushadilar.

"Quvnoq Zarrachalar" multfilmida "**Yuragi og'zi bilan bo'g'ziga tiqilmoq**" iborasi qahramonlarning xavotirli yoki qo'rqinchli holatlarini tasvirlashda ishlatilgan bo'lishi ehtimol. Bu multfilmda har xil quvnoq, ammo qo'rqinchli sarguzashtlar tasvirlanadi, shuning uchun bunday iboralar mos keladi. "Xasis Baqqol" multfilmida ham bu ibora qahramonning juda qo'rqib ketgan

holatlarini tasvirlashda ishlataligani. Multfilmda xasis baqqol biror og'ir holatga tushib qolganida, yoki noxush voqeaga duch kelganda bu ibora qo'llaniladi.

"Kichik Bilag'onlar" multfilmida "**Qo'rquvdan qo'rqa-pisib turmoq**" frazeologizmi qo'llanilgan. Bu ibora bolalar qo'rquvli yoki xavotirli vaziyatga tushib qolganida qo'llaniladi.

Bu kabi misollar o‘zbek animatsiyasida foydalaniladigan frazeologik iboralar bo‘yicha umumiy tushuncha beradi. Ushbu iboralar ko‘pincha milliy kolorit va madaniy merojni aks ettirish uchun ishlatalidi, bu esa animatsiyani tomoshabinlar uchun yanada qiziqarli va boy qiladi. Masalan, qahramonlar xavf-xatarga duch kelganda yoki biror qiyin sinovdan o‘tishga majbur bo‘lganda, bu ibora ularning holatini tasvirlash uchun ishlatalishi mumkin.

Endi esa ingliz tilidagi mashhur multfilmlardan olingan frazeologizmlarni tahlil qilamiz:

1. "What's up, doc?" – Bugs Bunny (Looney Tunes): Bu Bugs Bunny'ning mashhu salomlashuvi yoki savoli bo'lib, "Nima gap?" degan ma'noni bildiradi. U "doc" (shifokor) so'zini qo'shib, bu iboraga hazilomuz ohang beradi. Bu ibora Bugs Bunny'ning o'ziga ishonchi baland, beparvo xarakterini aks ettiradi va uni tomoshabinga qiziqarliroq qiladi.
 2. "Zoinks!" – Shaggy (Scooby-Doo): Ajablanish, qo'rquv yoki hayrat ifodasi. Shaggy bu iborani qo'rquvli vaziyatlarda ishlatadi, bu esa uning qo'rroq va kulgili tabiatи bilan bog'liq. U vaziyatni yanada qiziqarli va tomoshabinga yaqin qiladi.
 3. "To infinity and beyond!" – Buzz Lightyear (Toy Story): Bu Buzz Lightyear'ning taniqli iborasi bo'lib, uning qahramonona va jasoratl xarakterini ifodalaydi, garchi bu ibora mantiqiy jihatdan noaniq bo'lsa ham. Bu ibora Buzz'ning o'ziga haddan tashqari ishongan va jasur shaxsini ko'rsatadi, lekin "cheksizlikdan ham nariga" borib bo'lmasligini aytish orqali hazil aralashgan.
 4. "D'oh!" – Homer Simpson (The Simpsons): Xatolik qilgandan keyin hayajon yoki afsusni ifodalaydigan so'z. Homer Simpson har safar ahmoqona xatolar qilganida bu iborani ishlatadi. Bu uning sodda va har doim kutilmagan holatlarga duch kelishini kulgili tarzda ifodalaydi.
 5. "By the power of Grayskull!" – He-Man (He-Man and the Masters of the Universe): He-Man ushbu iborani aytib, kuchli jangchiga aylanadi. Bu ibora fantastika va sarguzasht ruhini aks ettiradi, He-Man kuchli qahramonga aylangan paytda ishlatiladi va dramatik, esda qolarli bo'ladi.
 6. "Sufferin' succotash!" – Sylvester the Cat (Looney Tunes): Hafsalalar pir bo'lgan yoki hayratlanish holatida ishlatiladigan ibora. Bu Sylvesterning gaplashish uslubiga xos bo'lib, uning asabiyashganini ifodalaydi va so'zlaridagi "s" tovushi orqali uning o'ziga xos talaffuzini eslatadi.
 7. "I tawt I taw a puddy tat!" – Tweety Bird (Looney Tunes): "Men mushukchani ko'rdim!" (Tweety'ning chaqaloqqa xos talaffuzi bilan aytildi). Ushbu ibora Tweety'ning beg'ubor va quvnoq xarakterini ko'rsatadi, ko'pincha Sylvester mushukdan qochib qutulganidan keyin aytildi. Bu uning muloqotini yanada jozibali va qiziqarli qiladi.
 8. "I'm ready, I'm ready!" – SpongeBob SquarePants (SpongeBob SquarePants): SpongeBobning har doim tayyor ekanligini bildiruvchi ibora. Bu ibora SpongeBobning o'ta optimistik va energiyaga to'la xarakterini aks ettiradi. Uni yangi sarguzashtlar boshlanishida aytib, uning ehtirosini va qiziqishini yanada ko'taradi.
 9. "Good grief!" – Charlie Brown (Peanuts): Yengil hafsalasi pir bo'lganda yoki umidsizlikni bildiradigan ibora. Charlie Brown bu iborani hayotidagi kichik (yoki ba'zida katta) muammolarga duch kelganda ishlatadi. Bu ibora uning biroz pessimistik, ammo yoqimli xarakterini ko'rsatadi.
 10. "Yabba Dabba Doo!" – Fred Flintstone (The Flintstones): Quvonch yoki hayajonni ifodalovchi ibora. Fred ushbu iborani biror narsa yaxshi ketayotgan paytda aytadi. Bu uning hayotga to'la va quvnoq xarakterini aks ettirib, sahnalarga yanada jonlantiruvchi ta'sir beradi. Ushbu misollar ko'rsatadiki, ingliz tilidagi multfilmlarda frazeologizmlar qahramonlarning xulq-atvori, hazil qo'shish yoki sahnalarni dramatik qilish uchun ishlatiladi va shu bilan birga tomoshabinlar uchun esda qolarli va qiziqarli bo'lib qoladi. Ingliz va o'zbek multfilmlarida frazeologizmlardan foydalananling lingvomadaniy jihatlari ikki turdag madaniyat va til tizimlarini aks ettiradi, bu esa frazeologik iboralarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Bu jihatni o'rganish madaniyat, til va multimedianing o'zarobog'liqligini chuqurroq anglosh imkonini beradi. Keling asosiy farqlarni ko'rib chiqamiz:

Ingliz tilida yaratilgan multfilmlar ko'pincha G'arb madaniyatini aks ettiruvchi frazeologizmlardan foydalanadi. Masalan, multfilmlarda ishlatalidigan idiomalar yoki tayyor iboralar ko'pincha G'arbdagi ijtimoiy odatlar, tarixiy voqealar yoki xalq afsonalariga ishora qiladi. Masalan, "To infinity and beyond!" iborasi odatdagি chegaralardan tashqariga chiqishni anglatib, G'arb madaniyatida jasorat va cheksizlik timsoli sifatida tushuniladi. Shuningdek, ingliz multfilmlarida teztez ishlatalidigan so'z o'yinlari va kulgili iboralar tilning chuqur madaniy ildizlariga ega bo'ladi, ularning ma'nosi ko'pincha auditoriyaning lingvomadaniy tushunchasiga bog'liq.

O'zbek multfilmlarida esa mahalliy xalq og'zaki ijodining frazeologik ifodalari keng qo'llaniladi. Bu iboralar ko'pincha xalq madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan, "Ko'ngil og'ir, yetkazmasdan qo'yma", "Boshing omon bo'lsa, boylik ortar" kabi xalq maqollari qahramonlarning hayotiy qarashlari va darslarida ishlataladi. Bu o'zbekcha frazeologizmlar tomoshabinlarni milliy madaniyatga yaqinlashtiradi va o'zbek madaniyati orqali animatsiyaga chuqurroq ma'no beradi.

Frazeologizmlar ingliz tilida yaratilgan multfilmlarda hazil, so'z o'yinlari va dinamik hikoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "D'oh!" kabi iboralar hazil va kulgini qo'shib, o'ziga xos talaffuzlar yoki qahramonning noto'g'ri qilingan xatolariga bog'liq bo'ladi. Bunday iboralar estetik jihatdan animations sahnalarni boyitadi va ularni jonli qiladi. Ingliz tilidagi frazeologik iboralar ko'pincha qisqa va ta'sirchan bo'lib, ularni tushunish va yodda saqlash osonroq.

O'zbek animatsiyasida frazeologik ifodalar yanada poetik va ba'zan falsafiy ma'nolar bilan boyitilgan bo'lib, bu xalqona hikmatlar va dono maslahatlar orqali namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi frazeologizmlar ko'pincha bir necha ma'nolarni o'z ichiga oladi, bu esa tomoshabinlarni chuqurroq o'ylashga undaydi. Masalan, "Bosh bo'lmasa, paxtani kim boshqarar?" kabi iboralar orqali hikoya badiiy va hayotiy maslahatlar bilan to'ldiriladi.

Ingliz multfilmlarida qahramonlar ko'pincha ularning o'ziga xos tili orqali ajralib turadi. Masalan, "What's up, doc?" kabi frazeologizm Bugs Bunny'ning beparvo, qiziqarli va hazilkash xarakterini aks ettiradi. Frazeologizmlar qahramonlarning xarakterini yaratishda va ularning shaxsiyati, ijtimoiy statusi yoki kelib chiqishini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek animatsiyalarida esa frazeologik iboralar qahramonlarning donoligi yoki mardligini ko'rsatish uchun ishlataladi. Masalan, qahramonlar ko'pincha o'zlarining tajribasi va hayotiy bilimlari orqali xalq maqollaridan foydalanadilar, bu esa ularning dono, bilimdon yoki mehnatsevarligini ko'rsatadi. Bu iboralar tomoshabinga qahramonlarning milliy qiyofasi va qadriyatlari haqida tushuncha beradi.

G'arb multfilmlarida bolalarga tilni o'rgatish, jumladan, idiomatik iboralarni tanishtirish uchun ham frazeologizmlardan foydalilanadi. Bu iboralar ko'pincha qisqa va esda qolarli bo'lib, yosh tomoshabinlar uchun o'rganishga qulay bo'ladi. Masalan, "To infinity and beyond!" iborasi nafaqat o'yinchanlikni ifodalaydi, balki bolalar uchun yangi so'zлarni o'rganishda ham yordam beradi.

O'zbek multfilmlarida esa til va madaniy qadriyatlarni bolalarga yetkazish maqsadida frazeologizmlar ishlataladi. Bu iboralar ko'pincha xalq og'zaki ijodidan olingan bo'lib, bolalarni o'zbek tilining boyligi va ifodaviyligini o'rganishga undaydi. Bu esa milliy til va madaniyatni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz va o'zbek multfilmlarida frazeologizmlar ishlatalishi lingvomadaniy jihatdan boy va o'ziga xos bo'lib, ular milliy madaniyat va tildagi farqlarni aks ettiradi. Ingлизcha multfilmlar ko'proq so'z o'yinlari va qisqa, hazilkash frazeologizmlar bilan to'yingan bo'lsa, o'zbekcha multfilmlar esa xalq donoligi va madaniy qadriyatlarni boyitilgan iboralar orqali an'anaviylikni ko'rsatadi. Shu tariqa, frazeologizmlar til va madaniyatning bir-biriga bog'liqligini ochib beradi va ularning nafaqat til o'rgatish, balki milliy qadriyatlarni saqlash va yetkazishda ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. - T.:O'TA. 1976.
2. Boltaboyeva B. I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi. (semantic-pragmatik tahlil). PhD dissertatsiyasi avtoreferati.- 5b.
3. Xaydarova D. Z. Komparativ frazeologik birliklar va tarjima // Molodoy ucheniy. — 2020. — № 18 (308). — 597-599b.

NUTQIY JANR VA NUTQIY AKT – NUTQIY MULOQOTNING BIRLIGI SIFATIDA

N. N. Hamroyeva, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. “Nutqiy akt” tushunchasi ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi gapning g’oyasini mukammal tarzda ifodalaydi. Nutqiy akt bu – alohida nutq harakati, matn yaratishning ikki tomonlama jarayoni, ya’ni gapirish va bir vaqtning o’zida eshitilgan narsani idrok qilishni o’z ichiga oladi. Nutqiy akt va nutqiy janr parametrlarining tahlili shuni ko’rsatadi-ki, nutqiy akt tushunchasi ko’p darajada faoliyat doirasiga yo’naltirilgan (behudaga nutqiy akt komponentlari deb muloqot vaziyatlari, holatlari va shartlari qabul qilinmagan), chunki nutqiy janr – matnlar sohasiga tegishli. Nutqiy janr – odamlarning tipik ijtimoiy hamkorliklarining lisoniy rasmiylashishidir. Maqolada nutqiy akt va nutqiy janr nutqiy muloqot birligi sifatida tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: muloqot, diskurs nutqiy akt, nutqiy janr, interaktiv harakat, “minimal” muloqot birligi.

Аннотация. Понятие «речевой акт» прекрасно выражает идею предложения, совершающего социальное действие. Речевой акт – это отдельный речевой акт, двусторонний процесс создания текста, то есть включает в себя говорение и одновременное восприятие услышанного. Анализ параметров речевого акта и речевого жанра показывает, что понятие речевого акта во многом ориентировано на сферу деятельности (ситуации, ситуации и условия общения не зря принимаются в качестве компонентов речевого акта), поскольку речевой жанр относится к полю текстов. Речевой жанр – это языковая формализация типичных социальных взаимодействий людей. В статье анализируется речевой акт и речевой жанр как единица речевого общения.

Ключевые слова: диалог, дискурсивный речевой акт, речевой жанр, интерактивное действие, «минимальная» единица общения.

Abstract. The category “speech ac” perfectly expresses the idea of a sentence that performs a social action. A speech act is a separate speech act, a two-way process of creating a text, that is, it includes speaking and simultaneously perceiving what is heard. The analysis of speech act and speech genre parameters shows that the concept of speech act is largely focused on the sphere of activity (situations, situations and conditions of communication are not accepted as components of speech act in vain), because speech genre belongs to the field of texts. Speech genre is a linguistic formalization of typical social interactions of people. The article analyzes speech act and speech genre as a unit of speech communication.

Key words: dialogue, discourse speech act, speech genre, interactive action, “minimum” communication unit.

Kirish. “Nutqiy akt” tushunchasi kommunikativ tahlilda o’zgarishga yuz tutadi va bir qancha holatlarda mazkur atamaning o’rnida boshqalari ishlatiladi. Masalan, “interaksiyon akt”, “kommunikativ akt” kabi tushunchalar ham borki, unda so’zlovchining nutqiy aktiga eshituvchining auditiv akti va kommunikativ vaziyatlari qo’shiladi. Nutqiy aktga interaksiyon va hatto intersubyekt (mavzulararo tarkibiy) mazmun berishga urinish ham yaqqol ko’rinib turibdi. Ammo aktning bu tarkibida ham uning diskursni harakatlantirishga nisbatan bo’lgan munosabati hisobga olinmagan. Yozma muloqotda nutq akti, o’z navbatida, yozilganlarni o’qish (vizual idrok va tushunish)ni qamrab oladi va unda muloqot ishtirokchilari vaqt hamda makonda bir-biridan uzoqda bo’lishi mumkin. Nutq harakati nutq faolligining namoyonidir.

Ierarxik dominanta bilan funksional birlashgan nutqiy akt yoki aktlarning izchilligi, murakkab makroakt nuqtai nazaridan diskursni dinamik rivojlantirish maqsadida interaksiyaga, muloqotning almashinuv munosabatlariga qo’shilib, kommunikativ yoki interaktiv harakatni tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har bir aniq vaziyatda harakatlar tizimi, kommunikativ rejalar va strategiyalar sifatidagi nutqni rivojlantirish jihatidan o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan

suhbatda qo'llaniladigan diskursiv akt minimal kommunikativ birlik sifatida ta'riflanadi. Bunda nutqiy akt diskursiv aktning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Nutq janrlari nazariyasi XX asr tilshunosligining umumiy chizig'ida ishlab chiqilgan. Rivojlanish janrlarning tuzilishini lингistik tavsiflashdan boshlab, odamlarning dialogik muloqotining asosiy omili sifatida janrlarni tahlil qilishgacha davom etdi [3]. Nutq janri – bu “nutq butunligini qurishning tipik modeli” (M.M.Baxtin). Bu atama ilk bor rus olimi M. M. Baxtin ilmiy ishlarida paydo bo'lgan. 1930-yillarda M.Baxtin nutqiy janr muhit yoki kommunikativ vaziyat bilan yuzma-yuz kelishini, chegaralanganligini va barcha ichki jihatlarida shu muhit bilan belgilanishini ta'kidlagan.

M. M. Baxtin nutq janrlarining xilma-xilligi cheksiz ekanligini, har bir sohada nutq janrlari repertuari inson faoliyatining rivojlanishi va uning murakkablashishi bilan birga farqlanadi va rivojlanadi, deb ta'kidlaydi. Shunday qilib, olim inson faoliyatining har bir sohasi nutq janrlarining o'ziga xos majmuiga ega bo'lib, undagi tilning mohiyati individual ma'naviy mehnatga to'g'ri kelishini isbotlaydi.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida G'arb tilshunoslari (Duff, Kulthard, Hasan, Shneuwly, Braun, Kamberelis, Talbot Hymes), rus tilshunoslari (N.D.Arutyunova, V. V. Dementiev, M. N. Kojina, T. Shmeleva), Polsha oimlari (A.Vyejbytska, Art. Gayda) va ukrain (F. C. Batsevych) tilshunoslari. tomonidan muloqot jarayonlari yanada chuqurroq tasniflandi va Baxtinning nutq janri haqidagi fikrlari takomilashtirildi.

Natijalar va muhokama. Kommunikativ (interaktiv) harakat ishtirokchilardan birining hamkorlikni rivojlantiruvchi, muloqotni umumiy kommunikativ maqsadiga qarab harakatlantiruvchi, minimal ahamiyatga ega bo'lgan element – verbal harakatni o'zida ifodalaydi. U funksional-tarkibiy birlik bo'lib, vazifasining asosiy farqli jihatli gappa, umuman, diskursni rivojlantirishga bo'lgan munosabatida ko'rindi. Shu munosabat bilan boshlovchi, davom ettiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, qolipga soluvchi, yopuvchi, javob beruvchi, diqqatni jamlovchi, metakommunikativ va boshqa harakatlar farqlanadi. Kommunikativ harakat har doim ham nutqiy akt bilan mos tushmaydi. Ba'zida u nutqiy, murakkab aklarning ketma-ketligi bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, bir tur va tor doiradagi potensial (yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan) kommunikativ maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan harakat nutqiy akt hisoblanadi. Nutqiy aktning to'liq faollashishi kommunikativ harakat sifatidagi diskursda amalga oshadi. Biz biror narsani ta'kidlamoqchi, so'ramoqchi, va'da qilmoqchi va shu kabilarni amalga oshirmoqchi bo'lsak, ma'lum yo'nalishda dialogni rivojlantiramiz – ma'qullaymiz, qarshilik ko'rsatamiz, o'zimizni orqaga tortamiz, hujunga o'tamiz, o'zimizni himoya qilamiz, diqqatni o'zimizga tortamiz va diqqatni tutib turamiz. O'z-o'zidan olingan nutqiy akt – bu hali muloqot emas, u munosabatlarning bir yo'nalishdaligini yoki so'zlovchi subyektining alohida harakatlariga jamlanganini tavsiflovchi axborotning elementar birligidir. U faqatgina muloqotning qurilish materialidir.

Nutqiy akt – insonlararo qabul qilingan, kommunikativ me'yoriy qoidalarga mos keladigan, aniq yo'nalishga ega nutqiy vaziyat, pragmatik hodisaga tegishli nutqiy etiket birligidir.

Bundan ma'lum bo'ladiki, ataylab qilinganlik (intensionallik), maqsadga yo'naltirilganlik nutqiy aktning asosiy jihatli sanaladi. “Nutqiy akt” atamasi nutqiy harakatni yoki ifodani (gapni) jarayon sifatida belgilash uchun mo'ljallangan. Umuman olganda, nutqiy akt so'zlovchi tomonidan tinglovchi bevosita muloqot jarayonida eshitishi uchun talaffuz qilingan gaplardan tuzilgan jarayondir. Nutqiy akt “elementar” yoki “minimal” muloqot birligi degan maqomga da'vogarlikni oqlamaydi – bu nima bo'lganda ham “elementar” axborot birligi [7,134].

Nutqiy aktga nutqiy janrning analogi sifatida qarash allaqachon ko'rsatib o'tildi. Ammo bu tushunchalarning qo'llanilishidagi farqlarni ham ta'kidlash zarur. Nutqiy akt ancha elementar tushuncha sifatida taqdim etilgan va nutqiy janrlardan ko'ra, ancha keng doiradagi nutqiy hodisalarni belgilash uchun qo'llanilishi lozim. Uning pragmatik xususiyati nutqiy janrnikiga yaqin bo'lsa, nutqiy akt vositasida kommunikatsiya janrlarini ham tasvirlab berish mumkin.

Nutqiy akt va nutqiy janr parametrlerining tahlili shuni ko'rsatadi-ki, nutqiy akt tushunchasi ko'p darajada faoliyat doirasiga yo'naltirilgan (behudaga nutqiy akt komponentlari deb muloqot

vaziyatlari, holatlari va shartlari qabul qilinmagan), chunki nutqiy janr – matnlar sohasiga tegishli. Nutqiy janr – odamlarning tipik ijtimoiy hamkorliklarining lisoniy rasmiylashishi.

Ma'lumki, boshqa shaxslar bilan to‘qnashish vaziyati salomlashish janrini tug‘diradi. Malefaktiv harakatlar, ya’ni axloq qoidalarining buzilishi – uzr (kechirim so‘rash) janrini; boshqa kommunikantning benefaktiv harakatlari (moddiy yoki ma’naviy yaxshiliklari) – minnatdorchilik janrini; begonalarning g‘am-kulfati, o‘limi bilan duch kelib qolish – hamdardlik nutqiy janrini; o‘ziga xos muvaffaqiyat bilan to‘qnashish – tabrik janrini; keyingi aloqani nazarda tutib, notanish adresat bilan suhbat boshlash istagi – tanishuv janrini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, nutqiy janrlar uchun tipik xususiyatlar: kommunikativ vaziyat, ekspressiv intonatsiya, hajm (nutqiy yaxlitlikning taxminiy uzunligi) hisoblanadi [1]. So‘nggi tadqiqotlarda nutqiy janrlarning matniy, stilistik, psixolingistik va madaniy jihatlari kabi bir qator qirralari tahlil etildi.

Nutqiy janrlarning madaniy jihatlari haqida fikr yuritganda me’yor atamasiga ham to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Me’yor o‘zida muayyan sotsiumda namunali deb qabul qilingan ifodalar shaklining majmuasini namoyon etadi. O‘zining dinamik jihatida me’yor – tanlov operatsiyasi, lisoniy vositalarni jamoaviy qabul qilingan qoidalar asosida tanlovini tartibga solib turuvchi kuchdir. Me’yor “xushmuomalalik” tushunchasining talqinida tayanch nuqta hisoblanadi. Muayyan muloqot vaziyatida so‘zlovchining kommunikatsiyadan ko‘zlagan maqsadi uchun afzal bo‘lgan ifoda shaklini aynan u aniqlab beradi.

E.Koseriu me’yorni “mazkur jamiyat va madaniyat tomonidan qabul qilingan, ... majburiy amalga oshirish (realizasiya qilish) tizimi...”, deb sharhlaydi. Uning konsepsiyasida tizim tilning tarkibiy potensiyasini aks ettiradi, me’yor esa aniq amalga oshiriladi. Jamiyatda qabul qilingan, ya’ni me’yorni til tizimini amalga oshirishning an’anaviy barqaror majmuasi kabi tushunish lozim. Rus tilshunosligida K.S.Gorbachevich, T.A.Degtereva, V.A.Iskovich, N.N.Semenyuk, L.V.Sherbalarning tadqiqotlarida me’yor tushunchasiga turli-tuman izohlar keltiriladi. Masalan, N.N.Semenyuk “me’yor” tushunchasini “ancha barqaror bo‘lgan, jamiyat tomonidan qabul qilingan va u yoki bu darajada to‘g‘ri hamda majburiy deb anglanadigan an’anaviy qo‘llanishlar”, deb hisoblaydi. Nutq madaniyati qo‘llanmalari mualliflari me’yorning shakllanishidagi o‘rnini va ahamiyatini qo‘yidagicha talqin qilishadi: “Me’yor bu – o‘qimishli odamlar tomonidan ongli ravishda qo‘llab-quvvatlangan va grammatiklar tomonidan hamda lug‘atlar bilan asoslangan so‘zlarning, so‘z shakllarining va alohida tovushlarning ko‘pchilik foydalanuvchilar (so‘zlovchilar) orasida qo‘llanishidir.

Ko‘rib chiqilayotgan tushunchani analitik tarzda D.E.Rozental va M.A.Telenkovalar quyidagicha talqin etishgan: “Me’yor – bu mayjud bo‘lganlari orasida kengroq tarqalgan, amaliyotda, namunaviy qo‘llanishda o‘z o‘rnini mustahkam egallagan, o‘zning lisoniy vazifasini eng a’lo darajada bajarayotgan til birliklari (variantlari)” [4].

Muloqot vaziyatining yaxlit ijtimoiy jihatdan aniqligi, muloqot ishtirokchilarining bir-birlarini his etganliklari har qanday muloqot uchun eng zarur bo‘lgan dastlabki shart-sharoit hisoblanadi. Inson muloqot jarayonida o‘z sheringining ijtimoiy rollini anglashga kirishadi, chunki bu hol uning qiyofasini shakllantirishga, uning keyingi xatti-harakatlari gipotezasini va hamkorlik rejasini tuzishga yordam beradi.

Kommunikantlarning muloqot jarayonida ijtimoiy rollarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatishidan tashqari, ijtimoiy maqomni bilvosita ko‘rsatuvchi o‘ziga xos ramziy-ijtimoiy vositalari ham mavjud [5]. Mazkur ijtimoiy ramzlar verbal va noverbal bo‘lishi mumkin. Madaniyatlarning o‘zlashtirilgan qirralari ijtimoiy simvolizmning noverbal ko‘rinishidir. Bu faqatgina ma’lum bir ehtiyojlarni qondirib qolmay, balki inson xulq-atvorini vositali usulda tartibga solishga xizmat qiladi. Verbal ramziy-ijtimoiy vositalarga talaffuz uslubini muayyan ijtimoiy guruh ko‘nikmalariga kiritilgan me’yorlarga taqid qilib tanlash va ataylab ifodalarni boshqacha qilib talaffuz etish yoki ataylab umummilliy til shakllaridan birini (adabiy til, sheva, yarim sheva va h.k.) muloqot vositasi sifatida tanlanishini shular jumlasiga kiritish mumkin. Nutq etiketi birliklari, ularning ijtimoiy-tartibga soluvchi vazifasiga muvofiq, kommunikantlarning ijtimoiy munosabatlaridan xabar beradi. Bu borada ularga yuqori darajadagi variativlik xos xususiyat hisoblanadi. Sosiolingvistikaning asosiy masalalaridan bir til va

nutqning ijtimoiy variativligidir. U ikkita yo'nalishda mavjud: o'zaro bog'liqlikdagi – stratifikasiyalangan va vaziyatning o'zgaruvchanligi.

Stratifikasion variativlik jamiyatning ijtimoiy strukturalari bilan bevosita chambarchas bog'liqlik bo'lgan, o'zining ifodasini turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning namoyondalari orasida bayon qiladigan, til va nutqiy farqlanishlarda kuzatiladigan hodisadir. Stratifikasion variativlik tushunchasining mazmuniga: shaxsning doimiy tavsiflari, jumladan, ijtimoiy guruhga sinfiy mansubligi, kasbi, ta'lim darajasi, jinsi, yoshi kabi ijtimoiy va sosiodemografik xususiyatlar kiradi. U "maqom" ("status") atamasiga teng keladi.

Jamiyatning turli tuzilmalari bilan bog'liq ijtimoiy qatlamlar a'zolarining til va nutqiy farqlari nutqning ijtimoiy stratifikasiyalangan variativligidir. Bu tushunchaga insonning ijtimoiy qirralari, masalan, kasbi, jinsi, darajasi kabilar kiradi. Kommunikasiya harakatining ishtirokchilari muloqot jarayoniga: vaziyat tavsifiga, suhbatdoshning xarakteriga (jinsi, yoshi, ijtimoiy maqomi, qarindoshligi, tanishligi) va suhbatdoshlarning ijtimoiy ierarxik (quyi, teng, yuqori) holatiga mos ravishda muayyan leksik vositalarni qo'llaydi. Shaxslararo axloqiy (etik) munosabatlar etiketga asoslangan nutq muloqotining yetakchi mezoni bo'lgan xushmuomalalik prinsipi asosida quriladi. Xushmuomalalik insonni lisoniy va nolisoniy xulq-atvoriga ta'rif beruvchi belgi yoki xususiyat sifatida sharhanadi. Shunday qilib, me'yor va xushmuomalalik orasida keskin chegaralar mavjud emas. Bir shaklning o'zi ma'lum bir vaziyat uchun me'yoriy, xushmuomalali sifatida tavsiflanishi va boshqa bir vaziyat turi uchun me'yor chegaralaridan chiqqan deb baholanishi ham mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xushmuomala/noxush muomala shaklida izohlanayotgan ifodaning u yoki bu shakli kommunikativ vaziyat o'lchamlari (parametrlari) bilan shartlanadi.

Xulosa. Nutq akti bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan muloqot jarayonini gapirish va eshitish orqali idrok etish, tushunishni o'z ichiga olgan matn hosil qilishning ikki tomonlama jarayonidir. Yozma muloqotda nutq akti, mos ravishda, yozilayotgan narsani yozish va o'qishni (vizual idrok etish va tushunishni) qamrab oladi va muloqot ishtirokchilari vaqt va makonda bir-biridan uzoqda bo'lishi mumkin. Nutq akti nutq faoliyatining ko'rinishidir. Nutqiy janr esa so'zlashuvning ma'lum darajadagi barqaror turi bo'lib, nutqiy xatti-harakatlarining stereotipi hisoblanadi. Janriy shakl — bu odatiy muallif g'oyasini, uning kommunikativ maqsadini, intensiyani amalga oshirish usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Из архива записей к работе "Проблема речевых жанров". Проблема текста // Собр. соч.: в 7 т. Т. 5. – М., 1996. – С. 159-206.
2. Nizomiddinovna K. N. et al. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 3.
3. Nurmonova S. NUTQIY JANRLAR MASALASINING O'RGANILISHI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 141-144.
4. Розенталь Д.Э. Словарь-справочник лингвистических терминов. Изд.2-е испр. и доп. / Д.Э.Розенталь, Теленкова М.А.. – М.: Просвещение, 1976. – С. 543.
5. Рытникова Я.Т. Семейная беседа как жанр повседневного речевого общения // Жанры речи. – Саратов, 1997. – С. 181.
6. Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – Винница: Нова Книга, 2009. – 272 с.
7. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – 320 с.
8. Toirova G., Hamroeva N. The importance of linguistic models in the development of language bases //Sciences of Europe. – 2020. – №. 59-2 (59). – С. 57-63.
9. Введенская Л.А. Русский язык и культура речи. – Ростов н/Д: Феникс, 2001. – С. 544.

UO'K 81'1.001, 81-13

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA PSIXOLINGVISTIKANING O'RGANILISHI
E.I.Hazratqulova, tayanch doktorant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq
Sh.I.Botirova, DSc, prof., Alfraganus universitet, Toshkent

Annotatsiya. Psixolingvistika tilni tushunish va hosil qilish uchun miyada sodir bo'ladigan jarayonlarning tabiatini bilan shug'ullanadi va turli xil psixolingvistlarning nazariyalarini o'rganadi.

Odamlar tilni o'rganish jarayoni va tilni bilishni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan bosqichlarni tilni o'zlashtirish deb nomlanadi. Ushbu muhim jarayon biologik, kognitiv, psixologik va ekologik omillarning murakkab kombinatsiyasi bilan belgilanib, fanda psixolingvistika deb yuritiladi va u so'ngi yillarda dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi va haligacha qator ilmiy ishlarning negizi bo'lib qolmoqda

Kalit so'zlar: psixolingvistika, psixolingvistik ko'nikma, empirik ildiz, lingvistik tuzilma, nutq faoliyatları, bixevoirizm, innatistik, kognitiv nazariyalar

Аннотация. Психолингвистика занимается процессами, которые происходят в мозгу при понимании и воспроизведении языка, и изучает теории различных психолингвистов. Процесс изучения языка и шаги, которые люди предпринимают для развития языковых навыков, называются овладением языком. Этот важный процесс определяется сложным сочетанием биологических, когнитивных, психологических и средовых факторов, в науке он называется психолингвистикой, стал одной из горячих тем последних лет и до сих пор лежит в основе многих научных работ.

Ключевые слова: психолингвистика, психолингвистические умения, эмпирические корни, языковая структура, речевая деятельность, бихевиоризм, врожденная, когнитивная теории.

Abstract. Psycholinguistics deals with the processes that occur in the brain to understand and produce language and studies the theories of various psycholinguists. The process of language learning and the steps people take to develop language skills is called language acquisition. This important process is determined by a complex combination of biological, cognitive, psychological, and environmental factors, and it is called psycholinguistics in science, and it has become one of the hot topics in recent years and is still the basis of many scientific works.

Key words: psycholinguistics, psycholinguistic skills, empirical roots, linguistic structure, speech activities, behaviorism, innate, cognitive theories

Insoniyat ruhiy-hayotiy faoliyati ma'lum darajada atrof muhitga fiziologik energiya xususiyatlari bilan, psixologik darajada esa ong orqali o'ziga xos idrok etishni ta'minlaydigan psixologik filtrlar tizimi bilan ajralib turadi. Taniqli sovet psixologi N. D. Levitovning fikriga ko'ra insonning ruhiy holatlari bilan tananing funksional holatlari, shuningdek nutq shakllari o'rtasida chegara mavjud va u insonning ruhiy holatlari, tananing funksional holatlaridan farqli o'laroq, ma'lum darajada shaxsnинг munosabatini real hayotga aloqasini ko'rsatib bergen.

Psixologik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bilan bir qatorda har bir shaxsning kundalik hayotdagи holatlari psixologiya fani tomonidan o'rganilgan va u o'z navbatida psixolingvistik hodisalarni aks ettirgan hisoblanadi. Hozirgi vaqtida olimlar shaxsning to'liq idrok ettish qobiliyati bo'yicha qator muammolarga duch kelishmoqda. Chunki, olimlarning fikricha, psixolog va lingvistlarda yagona bir xil nuqtai nazar mavjud emasligi va shaxsning holati tez-tez almashinuv sabab bo'ladi va psixolingvistikaning insonga ta'siri ikki jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin. Bular psixologiya va tilshunoslik. Ular bir vaqtning o'zida insonning munosabatlari, xulq-atvor ehtiyojlari, faoliyat maqsadlari va atrof-muhit va vaziyatga moslashishi tufayli shaxs dinamikasining bo'laklarini ko'rsatib beradi. Bundan kelib chiqadiki, insonning hayoti va kunlik atrofidagilari bilan aloqa qilishi psixolingvistika bilan chambarchas bog'liqdir.

Psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya sohalarining fanlararo o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. "Psixolingvistika" atamasi esa yunon tilidan olingan bo'lib "psyche"—"qalb, jon, ruh", lotin tilidan "lingua"-til degan ma'nolarni anglatadi, odamlarning fikrlashi, hissiyotlari, xulq-atvori, shuningdek til va uning namoyon bo'lishini o'rganadi. O'z-o'zidan psixologiya inson psixikasi yoki ongini o'rganishni tashkil qiladi, tilshunoslik esa tillar haqidagi fandir. Binobarin, psixolingvistika odamlarning tilni qanday egallashi, yaratishi va qabul qilishini bilish va tushunishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga u tilning ham jismoniy, ham kognitiv harakat ekanligini aniqlab beradi. Psixolingvistika til psixologiyasi bilan bir qatorda lingvistik psixologiyani ham o'z ichiga oladi, ya'ni odamlar tilni qanday tushunish va qayta javob qaytarishni, yangi ma'lumotni ong ostida ishlab chiqarishni o'rganadi. Psixolingvistikaning asoslaridan biri nutq tabiatan ham biologik, ham

psixologik faoliyat hisoblanadi. Shuningdek, u tilni qayta ishlash mexanizmlari: o'qish va yozish, gapirish va eshitish, fikrlash tizimlari bilan birga ishlaydi.

Psixolingvistika eng yosh fanlarning biri sanalib, uning nazriy asoslari XIX asr oxiridan oldin "Til psixologiyasi" fani sifatida ishlab chiqila boshlangan, ya'ni 1936-yilda boshlangan Yakob Kantor, o'sha paytda taniqli psixolog, "psixolingvistik" atamasini o'z kitobida tavsif sifatida ishlatgan. Yakob Robert Kantor "psixolingvistikaning asoschisi" deb tanilgan. Edvard Torndik va Frederik Bartlettning ishi esa psixolingvistika fani deb nomlanadigan fanga asos solgan Ammo ko'p olimlaring fikriga qaraganda, "psixolingvistika" atamasi faqat 1946-yilda Kantorning shogirdi Nikolas Pronko tomonidan "Psixolingvistika: sharh" nomli maqola chop etilganidan so'ng keng qo'llanila boshlangan. Psixolingvistika birinchi marta "izchil bo'lishi mumkin bo'lgan" fanlararo fan haqida gapirish uchun ishlatilgan. Psixolingvistikaning akademik fan sifatida paydo bo'lishi 1951-yilda Kornell universitetida o'tkazilgan nufuzli seminarga borib taqaladi. Osgud va Sebeok 1954yilda psixolingvistikani "kodlash va dekodlsh jarayonlariga, chunki ular xabarlar holatini kommunikatorlar holatiga bog'liq" deb ta'riflagan. Charlz Osgud va Sebeokning ishini mulliflar tilni o'rganishga qaratilgan uchta asosiy yondashuvni- tilshunoslik, o'rganish nazariyasi, va axborot nazariyasi qisqacha muhokama qilganlar:[4]

Tarixiy faktlarga asoslanadigan bo'lsak Amerika psixolingvistikasi 1953yil yoz oylarida Blumington (AQSH) shahrida yuzaga kelganva aynan shu yilda amerikalik taniqli psixologlar Dj. Keroll va Ch. Osgudlar, shuningdek, Blumingtondagи mashhur tilshunos va etnograf T. Shabek tashabbusi bilan universitetlararo tadqiqot seminari yig'ilishi o'tkazilgan. Yuqorida ko'rsatilganlardan olimlارan tashqari, tilshunoslar - Dj. Grinberg, F. Lounsburn, E. Linneberg, E. Ulenbek, Dj. Lots, psixologlar- Dj. Jenkins, G. Ferbenks, K. Vilsonlar kabi tilshunos va psixolog olimlar faol ishtirok ettilar. Ikki oylik suhbatlashishning samarasi o'laroq, bahs-munozara davomida ishlab chiqilgan va seminarning barcha qatnashchilari tomonidan eksperimental tadqiqotlar sohasidagi asosiy amaliy masalalar mana shu qoidalar munosabati bilan yuzaga kelgan nutq hodisalari nazariy qoidalar boshlang'ich sifatida qisqa shaklda bayon etilgan kitob "Psycholinguistics. A survey of theory and research problems" Ch. Osgud va T. A. Sebeok tomonidan Baltimore nashryotida 1954 yilda dunyoga kelgan. Ushbu kitob bugungi kunda ilova tarzida ikki jurnalda nashr qilingan: psixologik ("Journal of Abnormal and Social Psychology") va lingvistik ("International Journal of American Linguistics") va u fototipik holatda qayta nashr qilindi, hamda unga E. R. Dayboldning 1954-1964-yillarda psixolingvistik tadqiqotlari va Dj. Millerning "Psixolingvistika haqida" maqolasi qo'shimcha qilindi. Nutq xulqini kompleks tadqiq qilish bo'yicha chaqiriqlar psixolog va tilshunoslar tomonidan hali 40-yillarda ilmiy matbuot sahifalarida tarqalgan edi.[5] Shu yillarda, qolaversa, turli tarzda qo'llaniladigan "psixolingvistika" termini paydo bo'ldi. Ushbu termin N. H. Pronkoning "Language and Psycholinguistics", "Psychological Bulletin" dagi maqolasida birinchi marta to'g'ri qo'llanildi. Nutq psixologiyasi bo'yicha jahonda yirik mutaxassislardan biri sanalgan Djorj Millerning mashhur kitobi "Language and communication", N. Y. Toronto tomonidan Londonda 1951-yilda nashrdan chiqqan va oradan 5 yil o'tib 1956-yilda uning tarjimasi Parijda ommaga tarqatiladi, biroq unda "psixolingvistika" termini biron marta esga olinmaydi, ammo 1954-yildayoq muallif Dj. Miller 1954-yil "G. Lindzey. Handbook of social psychology, volume. II. Cambridge" to'plamining 693-708 betlarida "Psycholinguistics" nomli maqolasini nashr qiladi. Sarlavhasi (nomi)da ushbu termin uchraydigan yana bir kitob A. A. Robak tomonidan yozilgan "Destiny and motivation in language. Studies in psycholinguistics and glossodynamiccs" Cambridge nashryotida 1954-yilda dunyoga keldi. Va nihoyat, psixolingvistikani yagona fan sifatida yaratish g'oyasi birinchi marta 1954-yilda tug'ildi.[3]

Psixolingvistika mustaqil tarkibiy fan sifatida Rossiyada Yevropa davlatlaridan farqli ravishda bir oz vaqt kech boshlandi. XX asr boshlarida rus psixolingvistikaning paydo bo'lishi va shu asrning ikkinchi yarmida shakllanishi haqida mashhur tilshunos V. Levelt tomonidan jahon psixolingvistikasi tarxi kontekstida sharh taqdim etiladi.[2] Ammo Leveltning monografiyasida o'sha davrlarda yashab, ilm ustida mehnat qilgan A. R. Luriy, L. S. Vigotskiy yoki A. N. Leontiyev va boshqalar psixolingvist emas, psixologiya va neyropsixologiya ustida ishlaganlar deb ma'lumot berilgan va keyinchalik ularning ismini rus psixolingvistikasining asoschilari deb bergan. Hatto,

psixolingvistikaga uzviy bog'liq bo'lgan 1862 -yilda nashr etilgan rus tilshunosi A. A. Potebnyaning "Мысль и язык" kitobi haqida ummuman so'z yuritilmagan

Shuni ham ta'kidlash joizki, Rossiyada asosiy e'tibor ikkita yetakchi rus psixolingvistik maktablari- L. V. Shcherba asarlaridan kelib chiqqan Sankt-Peterburg maktabi va A. A. Leontyev nomi bilan uzviy bog'liq bo'lgan Moskva maktabining tavsifi bilan chambarchas bog'liq.[6]

Psixolingvistikaning tarixida keyinchalik Levelt tomonidan tilshunoslik uchun berilgan ma'lumotlarda psixolingvistika to'rtta asosiy empirik ildizga ega ekanligi ko'rsatilgan.[8]

Birinchi emperik ildizning asosi tilning kelib chiqishini izlash natijasida paydo bo'lgan va bu hind-evropa tillari oilasining kashf etilishi bilan bog'liq. XVIII asr oxirida ma'rifatparvarlikdan romantizmga o'tish va tarixiy-qiyosiy tilshunoslikning paydo bo'lishi til va nutqning tabiiy kelib chiqishi haqidagi g'oyani keltirib chiqardi. Romantizm tabiat va ongni tekshirish uchun naturalistik va yaxlit nuqtai nazarni qabul qildi. Ular tilning paydo bo'lishi ni ilohiy sovg'a yoki qasddan tuzilgan ijtimoiy shartnoma emas, balki tabiiy sabablar bilan bog'lashgan. Bundan tashqari, yangi kashf etilgan tillar, ya'ni osiyo, afrika va, xususan, amerikalik hind tillari taqqoslashga bo'lgan qiziqishni oshirdi.

Tilning kelib chiqishi haqida yozganlarning eng taniqli vakillari deb faqat Iogann Gotfrid Xerder va Ditrix Tidemann 1772 yilda yozgan bitiklari bilan emas balki, o'sha davrda Jan-Jak Russo, Jeyms Bennett, Lord Monboddo va boshqalar ham tilning kelib chiqishi haqida yozgan qiziqishlari va birinchi bo'lib gapiruvchi mashinani yaratgan Wolfgang fon Kempelen ham mashhurlikka erishgan. Miyadagi tilni o'rganish XVIII asrning so'nggi o'n yilliklarida paydo bo'lgan ikkinchi ildiz hisoblangan. Bu borada taniqli Frans Gall "til funktiyasi miyaning oldingi qismlarida lokalizatsiya qilingan" deb fikr yuritgan edi.[8] Bir qancha vaqtadan so'ng, Levelt, ta'riflaganidek, psixolingvistika XIX asrning ikkinchi yarmida, asosan, Broka va Vernik kashfiyotlaridan keyin rivojlangan fanga aylandi. Uchinchi ildiz bo'lgan bolalarning tilni qanday o'zlashtirishini empirik o'rganishga o'tadigan bo'lsak, bolalar tilini o'rganish 1762- yilda Russoning "Emile" asarining nashr etilishi bilan turki bo'ldi, unda u bolalar tili bo'yicha o'z kuzatuvlari va tajribalarini eslatib o'tdi va til o'qituvchilarga tilni diqqat bilan kuzatish kerak ekanligi haqida muhim tafsilotlar berib o'tdi. Keyinchalik, 1877-yilda Darvinning biografik rivojlanish yozuvlari nashr etilgandan so'ng, u tizimli empirik tadqiqot mavzusiga aylandi. Nihoyat, to'rtinchchi ildiz oddiy kattalar tilini qayta ishslashga eksperimental va nutq xatosi yondashuvlari edi. 1865-yilda eksperimental psixolingvistikada yangi tadqiqot paradigmasi "aqliy xronometriya", ya'ni "aqliy ishlov berish tezligi" ni kashf etgan va manipulyatsiya qilgan Fransis Donders tomonidan "reaksiya vaqtini o'lchash" deb nomlangan. Birinchi psixologik laboratoriya esa 1879-yilda Vilgelm Vundt Germaniyaning Leypsig shahrida asos soldi va bu paradigmani o'zining ishlarida faol qo'llab ko'zga ko'rinarli natijalarga erishdi.[9]

Xuddi boshqa MDH davlatlarida kuzalitayotganidek, O'zbekistonda ham psixolingvistika sohasida bir qancha ishlar bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, psixolingvistika paydo bo'lgandan so'ng yillar davomida bir qator muammoli psixolingvistik nazariyalar insoniyat tilni qanday egallashini tushuntirishga harakat qiladi. Psixolingvistik bixevoirizm, innatistik, kognitiv nazariyalar dunyoga tanilgan psixolingvist olimlar B.F.Skinner, Noam Xomskiy, Jan Piaget kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib hali hanuz olimlarning fikrini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Garnham A, Garrod S., and. Sanord A: "Observation on the past and future of Psycholinguistics"; Handbook of Psycholinguistics.ELSEVIER 2006.P: 5-13
2. Levelt, W. J. M. (Willem J. M.), 1938- (2013). Psixolingvistika tarixi: Xomskiygacha bo'lgan davr. Oksford: Oksford universiteti matbuoti. ISBN 9780191627200. OCLC 824525524
3. Levelt W. J. M. "Psycholinguistics" Max-Planck-Institut für Psycholinguistik, Nijmegen, The Netherlands, P: 39-54.
4. Osgood Ch. E. Psycholinguistics; a survey of theory and research problems, Bloomington, Indiana University Press, 1965y, P-307 / <urn:oclc:record:1151076890> <urn:lcp:psycholinguistic0000osgo:lcpdf:52809b0a-ec76-49b5-b8cd-3ad9ee911c72>
5. Osgood, Ch. E. Psycholinguistics; a survey of theory and research problems, journal of abnormal psychology 1954y, P 1-103
6. Robak A. A., "Destiny and motivation in language. Studies in psycholinguistics and glossodynamics". Sci-art publishersCambridge press,1954y. P. 31, 117-135

7. Chomskiy N. A., "A Review of B. F. Skinner's Verbal Behavior", 1959y. P:49-62//Google Scholar/
8. Белянин В.П. "Психолингвистика": Учебник / В.П. Белянин. — М.: Флинта: Московский психолого-
социальный 2 институт, 2003. — 232 с. ISBN 5-89349-371-0 (Флинта) ISBN 5-89502-421-1 (МПСИ)
9. Вильгельм В. "Проблемы психологии народов" Питер 2001г. Стр: 54 Электронная библиотека
RoyalLib.Com, 2010-2023.

UO'K 81'373**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ORNITONIMLAR PARADIGMASI HAQIDA**

*Sh.Iskandarova, prof., f.f.d., Farg`ona davlat universiteti, Farg`ona
N.Maxmudova, PhD, Farg`ona davlat universiteti, Farg`ona*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar, ularning o'r ganilishi, lug'aviy tarkibi, xususan, hasharot, hayvon, rang, miqdor nomlari, partonim komponentli ornitonimlarning o'ziga xos xususiyatlarini leksik-semantik asosda tadqiq etish haqida fikr yuritiladi. Har ikki tildagi ornitonimlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: paradigm, ornitonim, leksik-semantik, hasharat nomi komponentli, hayvon nomi komponentli, rang komponentli, miqdor komponentli, partonim komponentli, integral belgi, differensial belgi, denominatsiya.

Annotatsiya. В статье рассматриваются орнитонимы в узбекском и английском языках, их изучение, лексический состав, в частности, названия насекомых, животных, цветов, величин, исследование особенностей орнитонимов с партонимическим компонентом на лексико-семантической основе. Сравниваются общие и специфические аспекты орнитонимов в обоих языках.

Ключевые слова: парадигма, орнитоним, лексико-семантический, компонент названия насекомого, компонент названия животного, цветовой компонент, количественный компонент, партонимный компонент, интегральный знак, дифференциальный знак, деноминация.

Abstract. The article discusses ornithonyms in the Uzbek and English languages, their study, lexical composition, in particular, the names of insects, animals, flowers, quantities, and a study of the features of ornithonyms with a partonymic component on a lexical-semantic basis. The general and specific aspects of ornithonyms in both languages are compared.

Key words: paradigm, ornithonym, lexical-semantic component, insect name component, animal name component, color component, quantitative component, partonymous component, integral sign, differential sign, denomination.

Jahon tilshunosligida ornitonimlar qushlarning tashqi belgilari, yashash tarzi, oziqlanish usuli kabi jihatlariga ko'ra bir necha turlarga tasnif qilinadi. Lug'atlarda keltirilgan ornitonimlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir: yashash joyiga ko'ra: a) suvda; b) quruqlikda; s) cho'lida [1;2;3;4;5;6;7;12;13]. O'zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlarning leksik paradigmasi o'ziga xosdir. Jumladan, ornitonimlarning komponentlaridan biri jonivor, hasharot nomlari bilan ifodalanganlari miqdor jihatidan ancha ko'pchilikni tashkil etadi. Ularni o'z navbatida quyidagicha guruhash mumkin:

1) hasharot nomini bildirgan so'zlarning ornitonim komponenti sifatida qo'llanilishi: *hasharot+xo'r, pashsha+xo'r, uzundumli pashsha+xo'r, pashsha+qoqar; fly+catcher, Abyssinian wax+bill, Long-tailed +silky flycatcher, long-billed speder+hunter, lunalated ant+bird* kabilar;

2) hayvon nomini bildirgan so'zlar(zoonimlar)ning ornitonim komponenti sifatida qo'llanishi: *tuya+qush, Avstraliya tuya+qushi, Afrika tuya+qushi, ilon+bo'yin, ilon+burgut, tuya+qaldirg'och, baliq+chi, baliq+chi ukki, baqa og'izli tentak qush, maymun+qush; Abyssinian cat+bird, Adamawa turtle+dove, African fish+eagle,* kabilar.

Turli tillarda qo'llaniladigan nomlash tizimlari o'rtasida ma'lum darajada o'xshashlik mavjud; ornitonimlar qushlarning tabiiy biologik xususiyatlari bilan bog'liq ma'lumotlarni yetkazish bilan izohlanadi. Denominatsiya tamoyillari va xususiyatlarini o'r ganish lingvistik tahlilga aylantirilishi

mumkin emas, degan fikr mavjud, chunki ular to‘g‘ridan to‘g‘ri tildan tashqari omillar bilan shartlangan[8,31].

Denominatsiyani yuzaga keltiruvchi omillar va xususiyatlarning tasnifi to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanuvchi obyektning tutash xususiyatlari bilan bog‘liq. Qush nomlarining har bir mavzu guruhida, birinchi navbatda, o‘ziga xos xususiyatlarning asosiy jihatlari, masalan, qushlarning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq ismlar, hayot tarzi va qush tovushlari o‘rtasida farqlanadi. Shuningdek, har bir mavzu guruhida qush oilalarining xos jihatlari asosida kichik guruhchalar ham tasnif qilinadi. Hajm xususiyati odatda qushlarning ayrim turlarini ajratish uchun ishlataladi. Masalan, tilda juftlarni tashkil etadigan kichik va katta komponentlar bilan bir qator ornitonimlar mavjud. Xususiyat sifatida o‘lchov bir xil turdagи boshqa qushning o‘lchamiga mos ravishda ishlataladi. Qushlar tanasining qismlari katta, kichik, kalta, uzun, qalin, ingichka bo‘lishi mumkin. Masalan: *uzun tumshuq*. Ingliz tilidagi *kingfisher* – katta tumshuq. *Hawfinch* – qalin tumshuq. *Wren* – qisqa quyruq.

Ornitonimlarning xromatik xususiyatlari yoki rangi – qushlarni farqlash va kategoriyalash uchun ishlataligan muhim tavsiflovchi xususiyatdir [11,24]. Qushlarning patlari rangini bildiradigan ba’zi ornitonimlar rang+qush turi modeliga muvofiq shakllantiriladi. Masalan, so‘zmaso‘z: *oq boyqush* ingliz tilida *snowy owl*, *kulrang boyqush* ingliz tilida *Ural owl*, *yashil o‘rmonchi qush* ingliz tilida *green woodpecker*. Rangda farq qiladigan ornitonimlarning o‘ziga xos xususiyati sifatida rang, qush, tanasining ma’lum bir qismiga nisbatan quyidagi misollarda ham kuzatilishi mumkin: ingliz tilidagi *Bullfinch* – *qizil bosh*; *pochard* – *oq dumli burgut* yoki *oq peshona, moorhen* – *oq bo‘yin* kabilar.

Qushlarning toifalaridagi asosiy xususiyatlardan biri bu shakl bo‘lib, unda qush tanasining aniq qismlariga murojaat qilishi mumkin: *egri tumshuq*, ingliz tilida *common crossbill*, *uzun quloqli boyo‘g‘li*, ingliz tilida esa *eagle owl* kabi. Denominatsiya uchun asos sifatida ba’zi bir obyekt shakli bilan taqqoslanishi mumkin: *spoonbills*.

O‘zbek va ingliz badiiy adabiyotida *qaldirk‘och* va *bulbul* ornitonimlari eng ko‘p uchraydi. *qaldirk‘och* leksemasi o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola rangli chumchuqsimon qush deb ta’riflangan. o‘zbek va ingliz tilidagi ornitonimlarning polisemantik xususiyatga egaligi ushbu ornitonimning bir necha ma’no anglatishi orqali namoyon bo‘ladi va qaldirk‘och turlari ham berib o‘tilgan: *tuya qaldirk‘och, shahar qaldirk‘ochi, tog‘ qaldirk‘ochi* va boshqalar [12].

Qaldirk‘och so‘zining ikkinchi ma’nosи esa ko‘chma ma’noda bo‘lib, biror narsaning paydo yoki sodir bo‘lish belgisi, boshlab beruvchi, darakchi kabi ma’nolarda ham ishlataladi:

1. **Xushxabar ma’nosida.** «*rustam qaldirk‘ochini yuboribdi, ajabmas, ketidan o‘zi ham qanot qoqib kelib qolsa*». ushbu mislolda rustam ismli yigit safarda ekan. vataniga qaytayotgani haqida maktub yozgan, unga ko‘ra o‘zi tez orada uyiga qaytadi. uning o‘zi va maktubi qaldirk‘ochiga qiyoslanmoqda.

2. **Yangi istiqbolli avlod ma’nosida.** «*yoshlar – yorqin kelajakning qaldirk‘ochlaridir!*» «*bu yosh shoira qiz – zamonaviy o‘zbek adabiyotining qaldirk‘ochlaridan biridir*»[12].

3. Qaldirk‘ochning qanotini majoziy ma’noda, ya’ni ayollar qoshiga o‘xshatilishini, bu esa ayollar go‘zalligining timsoli sifatida gavdalanadi. Masalan, xalq og‘zaki ijodidagi lirik qo‘sishlarda yigit va qizlarning aytishuvlarida yigitlar bir taraf, qizlar bir taraf bo‘lib, so‘z o‘yinida bir-birlaridan g‘olib kelishga urinadilar.

Ingliz tilida swallow ham bir necha ma’noda keladi. birinchi ma’nosи swallow leksemasi ot bo‘lib kelganda, unga nisbatan berilgan ta’rifni ko‘rishimiz mumkin:

A swallow is a kind of small bird with pointed wings and a forked tail [15]– *Qaldirk‘och nuqtali qanotlari va sanchqi ko‘rinishidagi dumi bor kichik qush turidir.*

Yoki boshqa bir izohli lug‘atda qaldirk‘ochning tashqi ko‘rinishi haqidagi o‘xshash ta’rif bilan birga, uning yashash tarziga xos qo‘sishma ma’lumotni ham uchratamiz:

Swallow: a small bird, with long pointed wings and a tail with two points, that migrates [16] – *Qaldirk‘och – nuqtali uzun qanotlari va ikkita nuqtali dumi bor, ko‘chib yuruvchi kichkina qush.*

«Oxford advanced learner's dictionary»da quyidagi maqol berilgan: *one swallow doesn't make a summer*, ya'ni bu maqolning tarjimasi bitta qaldirg'och bilan yoz kelmas, ya'ni mayda narsaga juda ham jiddiy qaramang, chunki holat yoki vaziyat o'zgarib qolishi mumkin va yaxshilik, albatta, ro'y beradi degan ma'noni bildiradi. o'zbek xalq maqolida: *bir qarg'a bilan qish kelmas* deyiladi.

O'zbek va ingliz tillarida jins bilan o'zaro bog'liq bo'lган va o'zaro bog'liq bo'lмаган ornitonimlar mayjudligi aniqlandi. Ular, o'z navbatida, turli xil tillardan hosil bo'lган korrelyatlarga bo'linadi. Masalan: tovuq – hen, xo'roz – rooster va analitik usul bilan hosil bo'lган korrelyatlar, urg'ochi turlarga o'zbek tilida «она» «ена» so'zlarini qo'shish orqali: «она» laylak, narlarga «ота»: ота г'оз, «ена» tovuq, «ота» chumchuq kabi[7,73-79].

Ornitonimlarni qiyosiy o'rganish tilning lug'at tarkibiga asoslangan holda, tillarning semantik, pragmatik hamda linvokulturologik xususiyatlarni tadqiq etishga xizmat qiladi. Ornitonimlar shu tilda so'zlovchi xalqning lisoniy madaniyati, dunyoqarashi va munosabatini o'zida aks ettiradi.

Differensial semalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qushlarning o'lchamlari, ranglari, shakli, harakatlari va ular tomonidan chiqarilgan tovushlar, ularning morfologiyaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq xususiyatlar nominatsiya asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cambridge Dictionary, Cambridge University Press has been publishing dictionaries for learners of English since 1995; <https://dictionary.cambridge.org/about.html>;
2. Collins COBUILD Idioms Dictionary offers in-depth coverage of the most important idioms in English, 2012 г. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/idiom>;
3. Collins W. Collins English Dictionary 1979. The Oxford English Dictionary <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english>;
4. Simpson J, Weiner E, James M, Genry O, 1989; Merriam-Webster Dictionary, Encyclopædia Britannica, Inc. Джордж Мерриам, Чарльз Мерриам, 1964 года. <https://merriam-webster-dictionary.ru.uptodown.com/android>;
5. The Longman Dictionary of Contemporary English (LDOCE), first published by Longman in 1978, is an advanced learner's dictionary, <https://www.google.com/search-about+longman+dictionary>;
6. The American Heritage Dictionary Of Idioms, Second Edition, Christine Ammer | Feb 26, 2013;
7. Борисова Л. В. Репрезентированные в языке стереотипы и архетипы традиционного народного сознания как объекты лингвокультурологического исследования (русско-чувашские параллели) // Вестник Чувашского университета. – 2014. – № 3. – С.73–79.
8. Костина Н.Ю. Названия птиц как специфическая группа слов (на материале русского и английского языков): Автoref. дисс. ... канд. филол. наук. – Пенза, 2004.
9. Нагорнина Е.Д. Структурная организация лексико-семантической группы наименований животных (на материале латинской, русской, английской и казахской зоологической номенклатуры наземных позвоночных): Автoref. дис.... канд. филол. наук. – М., 1990.
10. Никончук Н.В. О народной орнитологической терминологии Полесья и Карпат // Карпатская диалектология и ономастика. – М.: Наука, 1972.
11. Симакова О.Б. Лексико-семантическая группа «Орнитонимы» (на материале русского и французского языков): Автoref. дисс. ... канд. филол. наук. – Пенза, 2003. – 24 с.
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Мадвалиев А. таҳрири остида, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти – Тошкент, 2008.
13. Рахматуллаев III. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. Қомуслар Бош таҳририяти – Toshkent, 1992.
14. <https://fayllar.org/xalq-qoshiqlari-v3.html?page=5https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/swallow>
15. https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/swallow_2
16. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/swallow?src=search-dict-box>

UO'K: 81.25.42

DINIY TERMINLAR TARJIMASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISHDAGI YECHIMLAR

F.A.Ismoilova, o'qituvchi, TATU Farg'onा filiali, Farg'onа

Annotatsiya. Maqolada diniy asarlarda qo'llaniladigan terminlarni ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularning sabablari chuqur o'rganilib, tahlil etiladi. Tadqiqot obyektlari va predmetlari o'rganilib, ijodiy yondashuvlar asosida soha doirasida

muvaffaqiyatlari jihatlar qamrab olinadi va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yechimlar ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: leksema, tarjimashunoslik, mazmun nomuviqiligi, diniy terminlar, muqobil variant, matnning ta'sir kuchi.

Аннотация. В данной статье глубоко изучены и проанализированы проблемы, возникающие при переводе терминов в религиозных текстах на английский язык, и причины и возникновения. Изучены объекты и предметы исследования, освещены успешные аспекты данной области на основе творческих подходов и рекомендованы возможные решения для устранения существующих проблем.

Ключевые слова: лексема, транслитерация, несоответствие контента, религиозные термины, альтернативный вариант, воздействие текста.

Abstract. The problems those arise in the translation of terms in religious texts into English and their causes are deeply studied and analyzed in this article. Research objects and subjects are studied, successful aspects of the field are covered based on creative approaches and possible solutions are recommended to eliminate existing problems.

Key words: lexeme, transliteration, content inconsistency, religious terms, alternative option, impact of the text.

Kirish. Yer yuzida aholi sonining o'sib borishi o'z-o'zidan islom dini vakillarining ham miqdori ko'payishiga ta'sir etishini inkor etib bo'lmaydi. Wikipedia ma'lumotiga ko'ra, [1] bu musulmonlarning faqat 20 foizigina arab tilida gaplashadiganlar ekanini hisobga olsak, qolgan qariyb 80 foiz din vakillari ma'naviy ozuqa manbayi hisoblangan asarlarni ingliz tilida o'qib o'rghanishga ehtiyoji mavjud. Xususan, Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Hindiston, Bangladesh va Afrika davlatlarida yashovchi ingliz tilida gapiruvchi musulmonlar bu borada salmoqli o'rinn tutadi. Lekin ulamolarning barchasi ham bu tilda asarlar yozishga qodir emasligi, ingliz tili nuqtayi nazaridan imkoniyatlari cheklanganligi o'z navbatida bu ehtiyojni qondirilmasligiga asosiy sabab hisoblanadi.

Metodlar. Tabiiyki tarjima asarlar va tarjimonlar ayni qatlAMDAGI bo'shliqnI to'ldirishga, ya'ni turli xil tillarda yaratilgan diniy asarlarni ingliz tiliga tarjima qilib yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi:

1. Matnda duch kelinadigan barcha islomiy terminlarni ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish imkoniyati mavjudmi?

2. Agar mavjud bo'lganda ham uni aynan ingliz tilidagi tarjima variantda qo'llash to'g'ri bo'ladimi?

Bu savollarga o'tgan davr mobaynida ingliz tiliga tarjima qilingan va bevosita ingliz tilida yaratilgan asarlar yordamida javob topish mumkin. Indoneziya Universitetlarida L.Noviyenty, Fakhruddin, Taqiyuddin, Bukman Lianlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ba'zi islomiy terminlar ingliz tilida ham asosan sof arabcha holatida qo'llaniladi [2]. Assalamu Alaikum wa rahmatullahi wa barakaatuh, Bismillahir Rohmanir Rohiim, Allah, Alhamdulillah, Subhanallah, Allahu Akbar, Al-Qur'an, Haram, Halal, Hajj, Ummah, Adzan, Jannah, Masjidil Haram, Takbir kabilar shular jumlasidandir. Bu terminlarni ingliz tiliga tarjima qilinmasligining bir nechta sabablari mavjud bo'lib, quyida ularga alohida izohlarni ko'rib chiqamiz.

Analiz va natijalar. Ushbu atamalarni tarjima qilinmasligining dastlabki sabablaridan biri, bu terminlarning nafaqat islom dini vakillariga, balki nomusulmon insonlarga ham uzoq yillar davomidagi davlatlararo madaniy va tijoriy aloqalar natijasida tushunarli so'zlarga aylanib ulgurganligidir. Boshqacha qilib aytganda, bu so'zlarni diniy matnlarda ham, yoki nutq jarayonida ham nafaqat ingliz tili, balki boshqa tillarga ham tarjima qilinishiga ehtiyoj yo'q. Undan tashqari, I.G.afurov, O.Mo'minov, N.Qambarovlar ta'kidlaganidek bunday leksemalarni tarjima qilish, ushbu so'zlarning asl mazmun-mohiyatini aslidek yetkazib berolmaydi va matnning ta'sir kuchini kamaytiradi [3]. Misol tariqasida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Sog'lom bola" [4] asaridan parchaning tarjimasini bunga yaqqol dalil bo'lishi mumkin:

“Yangi tug‘ilgan bolaning qulog‘iga azon va takbir aytish ota-onaning burchi, bolaning haqqidir. — It is the duty of the parents and the right of the child to say Adzan and Takbiir in the ear of a newborn child”. (Macmillan, 2007)

Bu yerda “azon” va “takbir” so‘zлari deyarli barchaga tushunarli bo‘lganligi sababli hamda matnning ta’sir kuchini saqlab qolish maqsadida asl variantini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni bor: ya’ni nomusulmon bo‘lgan o‘quvchi ham “azon” va “takbir” so‘zlarini birinchi o‘qishdayoq hech qanday qiyinchiliksiz tushuna olishi mumkinmi? Ushbu ehtimolni bartaraf etish uchun tarjimon qanday chora ko‘rishi mumkin? Bunday holatlarda, odatda, ushbu terminlarga izoh (definition) yozilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun: *It is the duty of the parents and the right of the child to say Azan (the call to prayer) and Takbiir (saying Allahu Akbar meaning “Allah is greater”) in the ear of a newborn child”.*

Garchi ba’zi leksemalarni aynan ingliz tilida muqobil variant mavjud bolishiga qaramay, bunday terminlarni ingliz tilida qo‘llamaslik uchun quyidagicha sabablar ham bo‘lishi mumkin:

- A.Karimov fikriga ko‘ra, muqaddas kitoblar matni tarjima qilinmaydi, chunki tarjimada mazmun va u orqali yetkaziladigan xabar muvofiq kelmaydi.[6]

- Tarjimonning munosib ekvivalent topishda bilimi yetishmasligi: masalan Haj so‘zining aynan muqobili “Pilgrimage” so‘zi mavjud bo‘lsada, ko‘p matnlarda asl variantiga duch kelish mumkin.

- Diniy terminning haqiqatda ekvivalentini berish uchun tarjima qilinayotgan tilda lug‘at boyligining zaifligi

Xulosa. Demak yuqoridagi savollarga javob beriladigan bo‘lsa, mazmun nomuvofiqligi, matnning ta’sir kuchini kamayish ehtimoli, lug‘at boyligining kamligi yoki tarjimonda yetarli ko‘nikmalar mavjud emasligi sababli barcha islomiy terminlarni ham ingliz tiliga tarjima qilish imkoniyati mavjud emas. Agar zarurat tug‘ilsa yoki o‘quvchilarning barchasiga tushunarli bo‘lish maqsadi yuqori bo‘lsa, bunday terminlarga izoh berish eng to‘g’ri yechim bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Muslim_world

2. L.Noviyent, Fakhruddin, Taqiyuddin, Bukman Lian. “*Translation strategies of Islamic terms used by English lecturers in English conversations*”. Scientific Journal Humanities and Social Sciences, September, 2020, Vol.8, pp 877-887

3. I.G‘afurov, O.Mo‘minov,N.Qambarov, “*Tarjima nazariyasi*”, Toshkent -2012, 76-87-b.

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “*Sog‘lom bola*”, 2023, 31- b

5. Macmillan English Dictionary, Second edition, 2007.

6. Kontekstual tahlil — A. Karimov, “*Matn kontekstida tahlil: nazariya va amaliyat*”. Samarqand, 2018.

UO’K 81'373

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA REKLAMA TAVSIFI, UNING XUSUSIYATLARI

M.A.Jurayeva, o‘qituvchi, Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Maqola reklamaga berilgan umumiy ta’rifdan boshlanadi ya’ni sutuv jarayonini jadallashtirishga o‘sirishga xizmat qiluvchi biror bir fikr, mahsulot, xizmat kabilalar haqida ma’lumot berish reklama hisoblanadi. Hamda maqolada reklamaning boshqa sohalar bilan kesishuviga ham to‘xtalib o‘tiladi, o‘zbek va ingliz tillarida berilgan reklamalar tadqiq etilib qiyosiy analiz qilinadi.

Kalit so‘zlar: pragmatika, diskur, reklama, psixolingvistika, kreol matn, kognitiv-diskursiv xususiyat, lingvapragmatik xususiyat, reklama e’lonlari

Аннотация. Статья начинается с общего определения рекламы, то есть реклама – это предоставление информации об идее, товаре, услуге и т.п., служащее ускорению процесса продаж. В статье также затрагивается вопрос пересечения рекламы с другими сферами, исследуется и сопоставляется узбекская и английская реклама.

Ключевые слова: pragmatika, diskur, reklama, psixolingvistika, kreol matn, kognitiv-diskursiv xususiyat, lingvapragmatik xususiyat, reklama e’lonlari

Abstract. The article begins with a general definition of advertising, that is, advertising provides information about an idea, product, service, etc., which serves to accelerate the sales process. Hamda has an article on advertising with other areas.

Key words: pragmatics, discourse, advertising psycholinguistics, Creole text, cognitive-discursive, lingupragmatic products, advertisements

Ma'lumki, reklamaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy, psixologik, ijtimoiy-falsafiy, lingvistik va boshqa xususiyatlari jahon tilshunosligida ilmiy tadqiqotga tortilgan. Keyingi davrda esa reklama tilini o'rganishda ham yangicha talqin – lingvopragmatik tahlil yo'naliishi kirib keldi va jadallik bilan rivojlana boshladi. Reklama matnlari, asosan, muayyan adresat guruhlariga qaratilgan bo'lib, iste'molchi sifatida reklama mahsulotini u yoki bu darajada qabul qiladilar va ularning ongida biror qaror qabul qilishi maqsad qilib olinadi. Lekin shu kunga qadar o'zbek va ingliz tillari reklamalari matning lingvistik xususiyatlari qiyosiy planda monografik tarzda tadqiq qilinmagan va ularning lingvopragmatik xususiyatlari yoritilmagan. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida reklama matnining kognitiv-diskursiv xususiyatlari, kommunikativ-pragmatik tahlili masalalarining ham qiyosiy planda o'rganilmaganligi bu mavzu tadqiq qilinishining dolzarbligini ko'rsatadi.

Reklama iqtisod, lingvistika, psixologiya va lingvokulturologiya, sotsiologiya kabi bir nechta sohalar kesishmasidagi tushuncha bo'lganligi sababli tadqiqotchilar tomonidan unga turli xil ta'riflar berilgan. Reklamani etimologik nuqtai nazardan ta'riflaydigan bo'lsak, Merriam Webster onlaysug'atiga ko'ra, "reklama" termini lotincha "advertere" so'zidan olingan bo'lib, "vertere" uning o'zagini tashkil qiladi hamda ma'nosi diqqatni qaratish yoki e'tibor berishni anglatadi. Bundan tashqari, reklama so'zi ingliz tilida "advertisement / ædvə'taɪzmənt/ Brit /əd've:təsmənt" (Britannica Concise Encyclopedia) sifatida ikki xil talaffuz qilinadi.

J.Kuk ta'rifiga ko'ra, reklama zamonaviy iste'mol jamiyatining ajralmas qismi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati hamisha raqobatbardosh bo'lishga intilishidir. "...reklama – bu shunchaki biror narsaga yuzaki qiziqib qarash emas, balki biror narsa yoki kimsaning alohida va ustunligi jihatlarini ko'rish, shu bilan birga biz ham reklamaning bir bo'lagi va uning hayotimizni bir bo'lagi ekanligini tushunishimizdir..." . Reklama va e'lonlarni atrofimizdagi barcha joylarda: gazeta va jurnallarda, ko'chalar bo'ylab joylashtirilgan banner va do'konlar, televizor va radioda, jamoat transportlarida, ishlab chiqaruvchilar tovarlarini reklama qiladigan yoki homiyalar pul jamg'aradigan har qanday joylarda uchratishimiz mumkin. Reklama bizga ma'qul bo'lish yoki ma'qul bo'lmasligidan qat'i nazar, hayotimizga o'z ta'sirini o'tkazib keladi.

Britannika qisqacha izohli entsiklopediyasi (Britannica Concise Encyclopedia) ma'lumotiga ko'ra, "Reklama – bu mahsulotlar, xizmatlar, fikrlar, yangi g'oyalar yoki sabablarni inson ehtiyojlari uchun zarurligini ta'kidlash, omma e'tiboriga yetkazish va ma'lum bir tarzda jalb qilish maqsadida foydalanimadigan texnika va amaliyotlardir" .

Shuningdek, Angliyalik tilshunos olim Gay Kukning "Reklama nutqi" nomli asarida taqdim etilgan ta'rifga ko'ra, reklama – bu odamlarni biror narsa qilishga ishontirish uchun ishlatalidigan biznesdir, ya'ni ma'lum bir mahsulotni sotish, ma'lum bir teleko'rsatuvni tomosha qilish, xayriya qilish, ma'lum bir amaliyot (masalan, vaktsina olish, yoki chekmaslik) bilan shug'ullanish, ba'zi jamoat ishalrida ishtirok etish, saylovlarda kimgadir ovoz berish yoki ma'lum bir e'tiqodlarga ega bo'lish (masalan, biror bir tashkilotning ishonchli ishlarida ishtirok etish, saylovlarda kimgadir ovoz berish, ma'lum bir e'tiqodlarga ega bo'lish (masalan, biror bir tashkilotning ishonchli ekanligini tasdiqlash yoki biror bir siyosiy falsafaning yaxshilagini ta'kidlash)dir.

Reklama ingliz tili izohli lug'atlarida quyidagicha ta'riflangan: "Siyosat va biznes sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar va ayniqsa iste'molchilar xulq-atvoriga, ma'naviyatiga, yashash tarziga ta'sir o'tkazishga qaratilgan aniq va asosli til birliklaridan foydalaniш"dir. Reklama tilining pragmatik xususiyatlari orasida uning ishonarli niyati, kommunikant va kognizantlarning o'zaro muloqot doirasi, elliptik qiyosiy (masalan, 25 percent less car—than what? 25 % kamroq avtomobil-nimaga nisbatan?), murakkab sifatlar (More car for less money; kamroq pulga ko'roq avtomobil), sifatlashgan (meaty taste; go'shtli ta'm) kabi ma'lum bir iboralarning o'ziga xos tarzda qo'llanilishi kiradi.

Reklama tilining o'ziga xos registri tufayli iste'molchilar tomonidan oson va tez qabul qilinadi. Reklama tili, bir tomondan, innovatsion (masalan, yangi so'zlarni yaratishda) va turli tillar guruhlari o'rtasida til taqsimlash vositasi sifatida (texnika tili standart til sifatida) faoliyat ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, u mavjud ijtimoiy normalar va ijtimoiy stereotiplarni tan oladi va mustahkamlaydi. Reklama tilining ishontirish maqsadi semiotika yo'nalishining tadqiqot predmeti (masalan, vizual reklama, sotsiologiya, psixologiya) hisoblanadi” [1].

“Reklama e'lonlari” – maqsadi qiziqtirish va sotish bo'lgan qisqa matnlardir. Reklama e'lonlarida kommunikativlilik uchun rasm va matndan foydalilaniladi. Shuning uchun ham reklama e'lonlari faqat chop etiladi yoki reklama beruvchi tomonidan qo'lda yoziladi. Shunday qilib, reklamalar reklama e'lonlaridan targ'ib qilish joyi, formati, maqsadi, kim tomonidan yozilishi va belgilar soniga ko'ra farq qiladi.

Reklama e'lonlari reklamaga xos pul va savdo munosabati kabi ayrim elementlardan tashkil topadi. Tijoriy reklamalarda davomiylik ustunlik qiladi. Reklama matnida iste'molchini xarid qilishga undash darajasi ko'proq bo'ladi, tarkibida media va vizual grafika qatnashadi. Reklama e'lonlari esa bir martalik bo'ladi, muallif 95% sotuvchining o'zi bo'ladi. Iste'molchini jalb qilish darajasi sodda, undash darajasi kam, retsipient bilan kommunikativ vositasi matndan iborat, ba'zan rasm ham bo'lishi mumkin. 3-ilovadagi jadvalda reklama va reklama e'lonlarining farqli jihatlari berilgan.

№1. Toshkent moliya instituti 2017 yilga quyidagi ixtisosliklar bo'yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutiga qabul e'lon qiladi:

- 08.00.01- Iqtisodiyot nazariyasi - 2 ta o'rinn;
- 08.00.06-Ekonometrika va statistika - 2 ta o'rinn;
- 08.00.07-Moliya. Buxgalteriya hisobi - 7 ta o'rinn.

Hujjatlar: 2016 yil 15 oktyabrdan 15 noyabrgacha qabul qilinadi.

Talabgorlar taqdim etadigan hujjatlar:

- ariza;
- ma'lumotnomma;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- oliy ma'lumot yoki fan nomzodi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- doktorlik dissertatsiyasi rejasingning mufassal loyihasi;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza;
- ilmiy ishlar ro'yxati (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis);
- fan nomzodi bo'Imaganlar uchun ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatga layoqatini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan test sinovidan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- ilmiy konsultantning yozma roziligi;
- pasport nusxasi;
- 3x4sm. hajmda 6 ta fotosurat.

Manzil: Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi 60 A-uy

Toshkent moliya instituti, ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi.

Telefon: (99871) 235-41-83

№ 2.“Yosh kitobxon” tanloving 2019 yilgi mavsumi uchun saralab olingan kitoblar ro'yxati e'lon qilinadi.

Yilning eng shov-shuvli loyihibidan biri bo'lgan “Yosh kitobxon” tanlovi bu yil ham yangi kitobxonlarni kashf etishda davom etadi. Siz ham 2019 yilning “Yosh kitobxon”iga aylanmoqchimisiz? Unday bo'lsa, millionlab yoshlarning sevimli tanloviga aylangan “Yosh kitobxon”ning 2019 yilgi mavsumi uchun saralab olingan kitoblar ro'yxati bilan tanishing!!!

№ 3. Frontend (front-end) va Bekend (back-end) mutaxassislari o'quv kurslariga ishga olamiz.

Toshkent, Toshkent viloyati, Mirobod tumani. Qo'shilgan 22:39, 5 fevral 2019, E'lon raqami: 21770190

Ish turi: Doimiy bandlik Bandlik turi: To'liq bo'Imagan bandlik

Ushbu matnda korxona, tashkilot, davlat faoliyati bilan bog'liq axborot berilmoqda. Shuning uchun ham bu matn e'lonlar qatoridan joy olgan.

№ 4. 2019 yil 10 yanvarb, soat 14:30da JIDUning B bino, 103- o'quv xonasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSS.27.06.2017.Tar/Yu/I/S/24.01 raqamli Ilmiy kengashning yig'ilishi bo'lib o'tadi. Mazkur

yig'ilishda M.A.Tillabaevning "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro va milliy nazorat organlari o'zaro hamkorligining nazariy-amaliy jihatlari" (DSc) mavzusidagi 12.00.10 – Xalqaro huquq ixtisosligi bo'yicha dissertatsiya ishi muhokamasi kun tartibiga kiritilgan.

Barcha qiziquvchilarni taklif etamiz.

№ 5. Bochka, suv idishlar, oziq va nooziq-ovqat idishlar, poddon

Toshkent, Toshkent viloyati, Uchtepa tumani 3 fevral 2019, 09:21, E'lon raqami: 17529132har xil turdag'i suv idishlari bor 10 l dan 1000 l gacha

Bu matnni reklama e'loni deb ataymiz. Chunki ushbu matn doimiy tarzda namoyish qilinmaydi va buyurtmachining o'zi tomonidan e'lon qilinmoqda. Reklama deb qabul qilishimiz uchun bu matnda reklama komponentlari yetarli emas. Bu matnda ktematomim ham, slogan ham, qiziqtirish alomatlari ham, tashkilot yoki kompaniya talabi ham yo'q. Agar bu reklama e'loni quyidagicha yozilganda, reklama deb hisoblash mumkin edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bussmann, H. (1998). Dictionary of Language and Linguistics. 2nd Ed. Routledge: New York.
2. Eshonjonova F. Reklama haqida tushuncha va uning tarixi. O'quv qo'llanma, – T, 2012. – 3 b.
3. Kara-Murza S.G. Manipulyatsiya soznaniem. – M.: Eksmo, 2003. 20 b.
4. Toshboeva N.Q..Jurnalistika psixologiyasi. –T.: Sano standarti, 2013. – 139 b.

UO'K 811‘44

TILSHUNOSLIKDA RAQAMLARNING PAYDO BO'LISHI VA BOSQICHMA BOSQICH RIVOJLANISHI

I.B.Karimova, o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada raqamlari tizimlarning tarixiy rivojlanishi va evolyutsiyasi turli lingvistik kontekstlarda ko'rib chiqiladi. U turli madaniyatlar vaqt o'tishi bilan raqamlarni til orqali qanday qilib kontseptsiyalashgani va ifodalaganligi haqida keng qamrovli ma'lumot berishga qaratilgan. Tadqiqot shuningdek, ushbu ishlanmalarning lingvistik nazariyaga va zamonaviy tilshunoslikning amaliy qo'llanilishiga ta'sirini o'rganadi.

Kalit so'zlar: kalkulyator, arab raqamlari, hisoblash, sanash, lingvistik hosila, assimilyatsiya, elision, semantik evolyutsiya.

Аннотация. В статье рассматривается историческое развитие и эволюция систем счисления в разных языковых контекстах. Его цель — предоставить всесторонний отчет о том, как разные культуры с течением времени концептуализировали и выражали числа посредством языка. В исследовании также рассматривается влияние этих разработок на лингвистическую теорию и практическое применение современной лингвистики.

Ключевые слова: калькулятор, арабские цифры, счет, счет, языковая деривация, ассимиляция, элизия, семантическая эволюция.

Til leksik qatlamini o'rganishda tilshunoslida bir necha xil yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Ana shu yondashuvlar taqozosiga ko'ra A.V.Bogdanov, S.A.Gubanov, G.L.Moliboga, I.A.Ilyuxina, V.V.Kozak kabi yetakchi mutaxassislarning ishlarida leksik birliklar semantik maydonning bir qismi sifatida qaraladi. L.A.Novikova, N.A.Budanseva, Ch.G.Gogichev, O.A.Kiriyak, N.V.Solov'eva va boshqalarning qarashlaricha, leksik birliklar leksemaning semantik strukturasini tashkil qiluvchi eng kichik ma'no tashuvchi element sifatida talqin qilinadi. Sh.M.Mirova, L.G.Babenko kabi olimlarning ishlarida bu birliklarni leksik-semantik guruqlarning muhim komponenti sifatida talqin etilgan.

G.S.Shur morfosemantik maydon deganda morfem tarkibi va ma'no umumiyligiga ega so'zlar guruhini tushunadi. Bunday maydonlar leksika va morfologiya xos ekanligini ta'kidlaydi. Morfologiyadagi morfosemantik maydon so'zlarning funksional invariant guruhi bo'lib, u leksikadagi morfosemantik maydondan farqli o'laroq, nafaqat morfem tarkibi semantikasi umumiyligi, balki kommunikativ va struktur vazifalari umumiyligiga ko'ra ham farq qiladi. Morfologiyadagi morfosemantik maydonlarni sistema va maydon sifatida talqin qilish mumkin. Shart maylining kelasi zamon shakllari morfem sostavi, ma'nosi va funksiyasi umumiyligiga ega bo'lib, ularni german tillarida tizim va maydon deb qaraydi.

Ma'lumki, semantik maydon tushunchasi nemis olimi G.Ipsenning ilmiy qarashlari e'lon qilingandan so'ng keng e'tibor qozona boshladi. Unda "maydon" tushunchasi umumiy semantikaga ega bo'lgan so'zlarning umumlashgan majmuasi sifatida berilgan. Biroq, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, semantik ma'no jihatdan bir-biriga yaqin turadigan so'zlar tabiatini tahlil qilishga asoslangan "maydoniy yondashuv" tushunchasi Y. Trir va Yu. Naydalarning ta'kidlashicha, V. fon Gumbol'dt va G. Ostgoflarning g'oyalariga borib taqaladi. Biroq ular tilning leksik qatlamini tahlil qilishda "maydon" atamasi o'rniiga "sistema" atamasini qo'llaganlar.

G.S. Shurning ta'kidlashicha, Y. Trirning xizmati shundaki, u "maydon" tushunchasini "leksik maydon" va "tushuncha maydon"lariga ajratib o'rgangan va bu atamalarni ilmiy iste'molga kiritgan. Maydon bir xil toifaga mansub (uyushgan) va turli toifaga mansub (uyushmagan) elementlarni bir nuqtaga biriktiradi. Maydon kamida ikkita komponentdan iborat bo'lgan tarkibiy qismlar – mikromaydonlardan iborat bo'ladi. Maydon vertikal (paradigmatik) va gorizontal (sintagmatik) tuzilmadan iborat bo'lib, vertikal tuzilma mikromaydonlarning strukturasini o'xhashlik tamoyili asosida ifodalaydi, gorizontal tuzilma esa mikromaydonlarning o'zaro munosabatlarini ketma-ketlik, ya'ni sintagmatik tamoyil asosida tahlil qiladi. Maydon tarkibidan ikki xil konstituentlar (tarkibiy qismlar)ni – markaziy yadro va markazdan uzoqlashgan periferiya qismi (tashkil qiluvchi konstituentlar)ni ajratib olish mumkin. Yadro dominant ma'noga ega bo'lgan konstituent atrofida mujassam bo'ladi. Yadroni tashkil qiluvchi konstituent maydon vazifasini to'la bajaradi va bu hol tilning maydoniy xususiyatlarini namoyish qilishda tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

Maydon bajaradigan vazifasini qisman yadro va qisman periferiya bajaradi. Yadro bilan periferiya o'rtasidagi chegara chizig'i o'tkazish ancha mushkul. Maydonning konstituentlari bir maydon yadrosiga tegishli bo'lsa, periferiya qismi boshqa maydon yoki maydonlarga tegishli bo'lishi ham mumkin. Hajman teng bo'lgan maydonlar bir-biri bilan qorishib bir shakl(ma'no)dan ikkinchi

shakl (ma'no)ga o'tishi mumkin. Bu hol til tizimini maydoniy nuqtai nazardan tashkillashtirishning qonuniyatidir.

Til nazariyasi rivojlanishining bugungi bosqichida kundalik turmushda qo'llanilayotgan harakatdagi tilning mohiyati, uning elementlari orqali erishiladigan til dinamikasi, uning nutq jarayonida ro'yobga chiqadigan ko'plab xususiyatlari va vazifalari yuzaga chiqmoqda. Tilshunoslar olib borayotgan tadqiqotlar diqqat markazida inson tildan qay tarzda aloqa vositasi sifatida foydalanishigina emas, balki o'sha til birliklarida inson o'zi va uning ko'p qirrali faoliyati qay tarzda o'z aksini topmoqda, degan masala ko'ndalang bo'lib turipti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. Пер. с французского – М.; Едиториал УРСС, 2004. – С. 21.
2. Trier J. Der Deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes (Die Geschichteeines sprachliches Feldes). Bd I. Heidelberg: 1931.– P. 36-146.
3. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О.А.Радченко. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 49-50
4. Porzig W. Das Wundersprache (Probleme, Methode, und Ergebnisse der modernen Sprachwissenschaft). Aufl. Bern: 1957. – P. 10-48
5. Ipsen G. Der alle Orient und die Indogermanen."Stand und Aufgabender Sprachwissenschaft"? – Festschrift fur W. Streitberg: Heidelberg, 1924. –C. 30-45

UO'K 159.937.51**RANGLARNI IDROK ETISH PSIXOLOGIYASI****X. Matmurodov, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch**

Annotatsiya. Mazkur maqolada rang semantikasining mayjudligi, uning o'ziga xosligi subyektning dunyo bilan aloqasini aks ettirishida, obyektiv voqelikning qiyofasini tasvirlashning turli darajalaridagi mavzuda adekvat aks ettirishni ta'minlashida chuqur rol o'ynashi haqida so'z yuritiladi, va, bugungi kunda rang odatda narsalarning mulki sifatida emas, balki subyektiv tuyg'u sifatida qabul qilinishi to'g'risida muallif o'z fikrlarini bayon qiladi.

Kalit so'zlar: rang nomlari, asosiy ranglar, rangni idrok qilish, rang terapiyasi, rangning ramziy tabiat.

Аннотация. В данной статье говорится о существовании цветовой семантики, ее своеобразие играет глубокую роль в отражении отношений субъекта с миром, в обеспечении адекватного отражения у субъекта на разных уровнях описания образа объективной действительности, и сегодня цвет обычно воспринимается не как свойство вещи, а как субъективное ощущение, выражаемое автором по поводу нее.

Ключевые слова: названия цветов, основные цвета, цветовосприятие, цветотерапия, символическая природа цвета.

Abstract. This article talks about the existence of color semantics, its originality plays a deep role in reflecting the subject's relationship with the world, in ensuring an adequate reflection of the subject's image of objective reality at different levels, and today color is usually perceived not as a property of a thing, but as a subjective sensation, expressed by the author about her.

Key words: names of colors, primary colors, color perception, color therapy, symbolic nature of color.

Psixologiyada rangning ramziy tabiat ko'pincha fenomenologik yondashuvda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchi Elena Grigorevna ham L.Vitgenshteyning "rang bizni falsafa qilishga undaydi" degan fikrini o'zining ilmiy maqolasida iqtibos keltirgani ham[1] bunga yaqqol misol hisoblanadi. Har doim olimlar rang muammosini hal qilishga harakat qilishgan. Ushbu sohadagi so'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, odamlarda 10 ta pigment genlari rang uchun mas'ul bo'lib, ma'lum bir to'plamni tashkil qiladi — har birining o'ziga xos xususiyati bor, shuning uchun ikki kishi bir xil obyektga qarashi mumkin, lekin uni butunlay boshqacha qabul qiladi. Bu nima uchun turli madaniyatlarda rangga bo'lgan munosabatda farqlar mavjudligini tushuntiradi: masalan, AQSHda yashil rang xavfsizlik tushunchasi bilan bog'liq, Fransiyada esa jinoyat bilan bog'liq, ko'plab german tillaridagi

olib borilgan maxsus tadqiqotlarda tasdiqlanganidek, bu rang “qiziqarli” degan ma’noga ega. Shuning uchun rang tili aqliy xususiyatga ega: odamlar ma’lum bir rang orqasida ma’lum bir ma’noni ko’radilar. Rang psixosemantikasining boshlang’ich nuqtasi ranglardagi tabiiy ma’nolarning mavjudligi haqidagi tezisdir, ularning tabiatini asosan sirli ko’rinadi. Ranglarning alohida ma’nolari borligi haqidagi fikr psixologlarga tegishli emas. U yoki bu shaklda bu fikr qadimgi hind, alkimyo, tasavvuf va diniy matnlarda uchraydi, u barcha dinlarning marosim amaliyotida va ular bilan bog‘liq amaliy san’atda (piktogrammalar, bezaklar, ramziy yozuv) mujassamlangan, an’anaviy sharq tabobati, sehr, astrologiya va boshqalarda rang ramziyligi ko’plab sxemalarida o‘zini namoyon qiladi

Psixosemantik yondashuvning asosiy uslubiy sharti shundaki, rang semantikasining mavjudligi va o‘ziga xosligi insonning dunyodagi mavjudligini, subyektning dunyo bilan aloqasini aks ettiradi, obyektiv vogelikni ushbu voqelik qiyoqasini tasvirlashning turli darajalaridagi mavzuda adekvat aks ettirishni ta’minlaydi. Ammo bugungi kunda rang odatda narsalarning mulki sifatida emas, balki subyektiv tuyg‘u sifatida qabul qilinadi. Bu esa ikkinchi ontologik taxminni kiritishni talab qiladi. Rangning nafaqat subyektiv hislar va tasvirlar shaklida, balki haqiqatning obyektiv tomoni, ya’ni, obyektiv xususiyati sifatida mavjudligini taqozo qiladi. Rang psixosemantikasida bu hodisa doimiy ravishda obyektiv vogelikning atributlaridan biri -subyektiv sezgi xususiyatlari asosida ko’rib chiqiladi. Shu bilan birga, rang psixofiziologiyasi yoki kolorimetriyasida rangni farqlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan emas, balki uni talqin qilishning qulayligi, uning fiziologik reaksiyalar, his-tuyg‘ular kabi noaniq kategoriylar bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan ko’rib chiqadi. Psixologiyada M. Lushera[2] ranglarning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish bilan shug‘ullangan. Ranglar haqidagi fan ranglarning fizik xususiyatlarini o‘rganadi. Atrofdagi dunyoning rang-barangligi tilda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Psixolog va tilshunos A. Porojnyuk o‘z ilmiy tadqiqotlarida ta’kidlaganidek[3], barcha tillarda rang uchun bir xil nomlar mavjud emas. Spektrning ba’zi asosiy ranglari har doim ham alohida nomlarga ega emas. Masalan, ingliz tilida ko’k va moviy ranglarni bildiruvchi bitta leksema (ko’k) mavjud. Afrika xalqlarining tillarida qizil, to‘q sariq va sariq ranglar odatda bitta nomga ega. Har bir tilning o‘ziga xos spektrga “ajratish” usuli bor — rang xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi va an’analari bilan bog‘liq.

Ma’lumki, qora va oq ranglar spektrning ranglariga kiritilmagan, shuning uchun ba’zi psixologlar (M. Lusher) ularni e’tiborsiz qoldiradilar. Biroq, I.V.Gyote ularga alohida ahamiyat beradi, ularni yorug‘lik va zulmat bilan aniqlaydi. Ular boshqa barcha ranglarning shakllanishi uchun asosiy asosdir: “...rangning paydo bo‘lishi uchun yorug‘lik va qorong‘ulik zarur”[4].

Qorong‘ilik bilan identifikasiya qilingan qora rangning ramziy ma’nosi A.A.Potebnyada uchraydi:olovdan hosil bo‘lgan qora rang tartibsizlik, nafrat, qayg‘u, g‘am-tashvish kabi ma’nolarni anglatadi, o‘lim yorug‘likning qarama-qarshi majoziy ma’nolaridir”[5].

Qora rangning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u barcha xalqlar uchun “yomonlik” ni anglatadi. G‘arb an’analarida bu o‘lim, motam, qayg‘u, g‘amginlik, xo‘rlik, halokat ma’nolarini bildiradi. Sharq an’analarida bu rang zulmatni ifodalaydi.

Qora rang qo‘rquvni keltirib chiqaradi (qora odam, qora iblis, qora ma’buda Kali — hindular orasida, qora bayroqlar-qaroqchilarniki, qora mushuk). Demak bu rang rang zulmat va mavhum bir sirni anglatadi. Zulmatda esa nurni inkor etish bor. Ma’lumki, ba’zi Sharq mamlakatlarida bu rang motamni anglatadi. Bu rang “tovba”ning ham rangidir. Shuning uchun turli mamlakatlarning ruhoniylari qora kiyim kiyishadi. Xitoy imperatori Qin Shi Huang qora rangni sharaf rangi deb atagan

Qora rangning to‘liq teskarisi oq rangdir. Slavyanlarning so‘zлari bor “oq” yorug‘lik va olovdan keladi. Oq kiyim — go‘zallik va sevgi ramzi. G‘arbdan bu rang muqaddaslik, poklik, ochiqlik, xotirjamlik, ruhning tana ustidan g‘alaba qozonishini anglatadi. Shu bilan birga, Sharq an’analarida oq rang osmonning ramzi, bu rang yorqinlik va yorug‘likning yakuniy nuqtasi, yaxshi kuchlarning hukmronligidir.

Qizil ko’k va yashilning yonida, fizika nuqtai nazaridan, yorug‘likning asosiy rangidir. Bu uchtasiga sariq rang qo‘shiladi. Bu to‘rtta rang aralashma sifatida qabul qilinmaydi. Yong‘in rangi yoki qizil rang odamga hayajonli ta’sir ko‘rsatadi. Bu rang ba’zi odamlarga aks ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, aksariyat hollarda odamlar qizil rangga ijobjiy qarashadi. Shuning uchun ham qirollar va kardinallarning kiyimlari qizil. Ruhoniylarning kiyimida esa bu rang Xudoning kuchining ramzi

bo'ldi. Qizil rang umid rangi hamdir, sevgi rangi hamdir. Ko'p mamlakatlarda qizil ko'yaklar xushmuomala, xushchaqchaq odamlar tomonidan kiyilgan.

Psixologik nuqtai nazardan esa qizil rang turli istaklarga moyillik va intilishlarni bildiradi. Bu ham natijaga erishish, ham muvaffaqiyatga erishish istagidir, bu borliqning boyligiga, hamma narsaga ochko'zlik istagidir.

Qizil rangning ramziy ishlatalishi kundalik hayotda ham kuzatiladi: qizil svetofor haydovchilarni to'xtashga majbur qiladi; korxonalarda bu rang taqiq va bevosita xavfni anglatadi.

Qizil rangning talqinini sarhisob qilsak, u olov, qon, hayot, ehtiros, sevgi, shahidlik, sharaf degan ma'noni anglatadi.

Moviy rang tinchlik ramzidir. Moviy rangga qarash odamni tinchlantiradi, xotirjamlik baxsh etadi. Moviy — osmonning rangi, shuning uchun u sadoqat ramzi hamdir (osmon o'z rangini o'zgartirmaydi), an'anaga, doimiylikka, abadiy qadriyatlarga sadoqatning moyillik rangidir. U donolik, sezgi bilan bog'liq va ko'k qushning rangidir. Biroq, ko'k zulmatdan kelib chiqadi va bu haqiqat ma'lum darajada bu rangning xususiyatlariga ta'sir qiladi. Qora rangga yaqinlashganda, u g'ayriinsoniy qayg'u soyasini oladi va depressiyaga olib kelishi mumkin. SHunday qilib G'arb madaniyatida ham, Sharq madaniyatida ham "ko'k" poklik, tinchlik, orzu, haqiqat, aql-zakovat, e'tiqod, donolik, halollik ramzidir. A.A.Potebnya yashil rangning yorug'lik va olov bilan bog'liqligiga ishonadi. Yorug'lik bilan munosabati tufayli yashil rang yorug'lik bilan bir xil ma'nolarga egadir, lekin u faqat yoshlik, go'zallik va qiziqarli ma'nolarini anglatadi[6]. G'arbliklar uni bahor, hayotning g'alabasi, tabiat, yoshlik, o'yin-kulgi va farovonlik ramzi sifatida talqin qiladi. YAshil bizga yoshlik, gullah, umid va quvonchni eslatadi.

Psixologik talqindagi qarama-qarshiliklarga sariq rang ro'baro'dir. U bir tomondan — quyosh va quyosh nurlarining rangi, umid rangi. Sariq rang yorqin, hayajonli hislarni uyg'otadi, va shuning uchun taftli rang sifatida qabul qilinadi. Sariq rang ozodlik, o'zgarish va rivojlanish holati bilan bog'liq. U asosiy psixologik ehtiyojni- qalbdagi umidni kashf qilishni ifodalaydi.

Boshqa tomondan, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarda sariq rang har doim xiyonat rangi hisoblangan. Hasadgo'y odamlarda safro ko'payadi, shuning uchun ko'zning terisi va oqlari sarg'ayadi, degan fikr ham bor. Umuman olganda, G'arb an'analarida sariq rang hasad bilan birga aql, sezgi, shon-shuhrat, boylik, hashamatni anglatadi.

Jigarrangga kelsak, u qizil, sariq va qora ranglar aralashmasidir. Qizilning hayotiyligini yo'qotib, jigarrang tana hissiyotlari va ehtiyojlarini bildiradi. Bu rang jazoni, tanazzulni, dunyodan voz kechishni ramz qilib olgan.

Kul rang neytral hisoblanadi. U har qanday ogohlantiruvchi yoki psixologik tendensiyalardan butunlay mahrum. Kul rang — bu umuman yashash mumkin bo'lgan hudud emas, bu faqat chegara, chegara hech kim yashamaydigan yer.

Binafsha rang sirli va hislarni uyg'otuvchi rangdir. Qizil (erkak) va ko'k (ayol) kombinatsiyasi bo'lgan binafsha rangni tushunish unchalik oson emas. SHarq an'analarida uni hamma narsaning asosi deb biladi.

Rangni sezish psixologiyasi insonning ranglarni idrok etish, anqliash va nomlash qobiliyatidir. Rang hissi fiziologik, psixologik, madaniy va ijtimoiy omillar majmuasiga bog'liq. Ayrim rang va soyalarning xalqning kundalik hayotidagi ahamiyatiga qarab, ularning bir qismi tilda ozmi-ko'pmi aks etishi mumkin.

Rangni anqliash qobiliyatini insonning yoshiga qarab dinamikaga ega. Rangni idrok etishning subyektiv tomoni kvaliya deb ham ataladi.

Rang fani — bu fizika, fiziologiya va psixologiyadan tizimlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, ranglarni idrok etish va farqlash jarayonlarini tahlil qilish fanidir.

Dastlab rangni idrok etish bo'yicha tadqiqotlar rang fani doirasida amalga oshirildi; keyinroq etnograflar, sotsiologlar va psixologlar jalb qilindi. Turli madaniyatlarda so'zlashuvchilar obyektlarning rangini boshqacha qabul qiladilar. Rang haqidagi fan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rangning fizik nazariyasi;
- rangni ko'rish nazariyalari;
- o'lchov nazariyasi va rangning miqdoriy ifodasi.

Masalan, “ibtidoiy” qishloq xalqlari tillarida yashil rang bildiruvchi ko‘plab so‘zlar — rang nomlari mavjud bo‘lib, bu o‘stirilayotgan o‘simgliklarning holatini kuzatish va baholashning hayotiy zarurati bilan bog‘liq. Insoniyat madaniyatida birinchi bo‘lib paydo bo‘lgan eng “qadimiy” ranglar odatda oq, qora va qizil deb hisoblanadi.

“Asosiy” ranglarning soni madaniyatlararo farqqa ega. Qadimgi Sharq besh unsurli dunyo mavjudligini taxmin qiladi va shunga asosan beshta rangni ajratib ko‘rsatganlar. Yevropaliklar esa 3 ta “asosiy” rangni (birinchi — qizil, sariq, ko‘k, keyinroq — qizil, yashil va ko‘k) ajratdilar va I. Nyuton davridan boshlab, ular ko‘pincha 7 ta rang haqida gapira boshladilar.

Rang antropotsentrif substansiya sifatida keng ko‘lamli moddiy va ideal xususiyatlarni, hodisalarini, assotsiativ ma’nolarning boyligini belgilash qobiliyati bilan ajralib turadi va shuning uchun turli xil bilim sohalari mutaxassislari, shu jumladan tilshunoslar e’tiborini jalb qilishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Драгалина-Чёрная Е.Г. Цвета в логическом пространстве Людвига Витгенштейна//Вопросы философии.2020.№6. С.146-156.

2.Цыганок И.И. Цветовая психоdiagностика. Модификация полного клинического теста Люшера. — СПб.: Речь, 2007. С.264.

3.И. И. Цыганок. Цветовая психоdiagностика. Модификация полного клинического теста Люшера. СПб.: Речь, 2007. С. 152

4.Гёте, Иоганн Вольфганг фон. К теории цвета. 1810. С.87.

5.Потебня А.А. Слово и миф / А.А. Потебня. – М.: Правда, 1989. С.624.

6. А.А.Потебня. Слово и миф / А.А. Потебня. – М.: Правда, 1989. С. 624.

УО’К: 811.512.133’373.2:254.

BADIY MATNNI LINGVOKULTUROLOGIK NUQTAYI NAZARDAN TAHLIL QILISH TAMOYILLARI

*R.Maxmudov, f.f.d., katta ilmiy xodim, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva
A.Atajonova, o‘qituvchi, Urganch innovatsion universiteti, Urganch*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy asarlarning lingvomadaniy tahlili asoslari va uning o‘ziga xos tadqiq tamoyillari aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, badiiy matn, lingvistik tahlil, til va madaniyat aloqasi.

Аннотация. В данной статье анализируются основы лингвокультурологического анализа произведений, созданных писателем, и конкретные принципы его исследования.

Ключевые слова: лингвокультурология, художественный текст, лингвистический анализ, языковая и культурная коммуникация.

Abstract. This article analyzes the foundations of linguacultural analysis of works created by the writer and the specific principles of his research.

Key words: linguacultural studies, literary text, linguistic analysis, linguistic and cultural communication.

Umuminsoniy qadriyatlarni lingvistik va madaniy tahlil obyekti sifatida o‘rganish nisbatan qisqa tarixga ega, shuning uchun ushbu tadqiqot sohasini ijtimoiy jihatdan qurilgan ma’noga ega (yaxshilik, yomonlik, oila, vatan, sog‘liq, ish va boshqalar) til birliklariga mavjud tadqiqot paradigmasi bilan birlashtirish tavsiya etiladi.

Qadriyatlarni bildiruvchi lingvistik birliklar ma’lum bir til va madaniy hamjamiyatga xos bo‘lgan qimmatli munosabatlар tizimiga qo‘shilishi natijasida shakllangan ijtimoiy belgilangan obyektlar, harakatlar, hodisalarini bildiradi. Tilshunoslarning madaniyat obyektlarini bildiruvchi til birliklariga bo‘lgan qiziqishi uzoq vaqt oldin paydo bo‘lgan, garchi ular faqat XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy mutaxassislarning qizg‘in sa’y-harakatlari obyektiga aylandi.

90-yillarda Y.Y.Proxorov asarlarida lingvomadaniy yo‘nalish shakllandi, u nutq aloqasining etnosotsiomadaniy konsepsiyasini va undagi milliy sotsial-madaniy stereotiplarni aniqlashning qonuniyligini asoslab berdi, bu esa chet tilini o‘qitishda alohida ahamiyatga ega [10].

“Til va madaniyat” yondashuvidan foydalangan holda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish bo‘yicha mahalliy an’analarda to‘plangan tajriba V.V.Vorobyovning “Lingvokulturologiya. Nazariya va metodlar” nomli ma’ruzasi yangi tilshunoslik fanining nazariy asosi bo‘ldi, uning diqqat markazida milliy til shaxsi turar edi. Til va madaniyat elementlarining sintezlangan tavsifining taksonomik birligi sifatida tilshunoslik va estralingvistik (konseptual yoki mavzu) mazmunning birligini ifodalovchi murakkab darajalararo birlik sifatida talqin qilingan lingvomadaniyat tushunchasi ilgari surildi. [4. 44-45-betlar].

Yangi yo‘nalish – tilshunoslik va madaniyatshunoslik doirasida ishlab chiqilayotgan muammolar, o‘z navbatida, tadqiqotchilar oldiga birinchi darajali muhim vazifani qo‘ydi: vujudga kelayotgan ilmiy yo‘nalishning terminologik va konseptual asoslarini ishlab chiqish.

S.A.Askoldov (Alekseyev)ning hozirgi klassik maqolasida “Tushuncha va so‘z” [2. B. 269] tadqiqotchi idrok vositasi sifatidagi tushunchaning yetakchi funksiyasi yoki biz bugun aytganimizdek, kognitiv funksiya sifatida almashtirish funksiyasini ilgari surgan. Konsepsiyaning o‘zi, S.A.Askoldovning fikricha, “fikr jarayonida obyektlarning noaniq to‘plami o‘rnini bosuvchi psixik shakllanishdir. U subyektning muayyan tomonlari yoki real harakatlar, masalan, adolat tushunchasi o‘rnini bosishi mumkin”. Bundan tashqari, konsepsiya turli xil aqliy funksiyalarning (masalan, matematik tushunchalar) o‘rnini bosishi mumkin. [2. 270-bet].

S.A.Askoldovning konseptologik nazariyasini ishlab chiqqan D.S.Lixachev o‘zining “Rus tilining konseptosferasi” maqolasida konsepsiyanı “ona tilida so‘zlashuvchilar nutqida, og‘zaki va yozma nutqida ishlaydigan so‘zning har bir asosiy (lug‘at) ma’nosini uchun algebraik ifoda” deb atagan. [7. B. 281]. So‘zning lug‘at ma’nolaridan qaysi biri tushuncha o‘rnini egallashi masalasi D.S.Lixachevning fikricha, so‘z qo‘llanish kontekstidan yoki vaziyatdan kelib chiqib hal qilinadi [7. B. 281]. Bu tushunchani nafaqat aqliy shakllanish, balki tilning konseptual sohasini shakllantirish vositasi sifatidagi tushunishni kengaytiradi. Bundan tashqari, muallif ta’kidlaganidek, milliy tilning ko‘plab individual tushuncha sohalari mavjud bo‘lib, ular turlicha guruhlangan va turlicha namoyon bo‘ladi [7. B. 282]. “Tilning konseptual sohasi mohiyatan rus madaniyatining konseptual sohasidir”, deb ta’kidlaydi D.S.Lixachev [7. 284-bet].

N.D.Arutyunovaning takidlashicha, konsepsiyaning muhim yadroси amaliy, ya’ni oddiy falsafa va milliy an’analalar, din, folklor, mafkura bilan belgilanadigan bir qator omillarni, ma’lum bir jamoaga xos bo‘lgan umume’tirof etilgan qadriyatlar va his-tuyg‘ular va tajribalar tizimini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, tushunchalar “inson va dunyo o‘rtasida vositachilik qiluvchi o‘ziga xos madaniy qatlam” ni tashkil qiladi [1. S. 3]. Konsepsiyanı bunday tushunish etnomadaniy yo‘nalishga ega bo‘lib, u konsepsiyanı aqliy, falsafiy va psixologik sohadan qiymat-madaniy sohaga o‘tkazadi.

Madaniyatdagи tushuncha va qadriyat tushunchalari o‘rtasidagi munosabat muammosini chuqur o‘rganmasdan, biz faqat shuni ta’kidlaymizki, madaniyat hodisasi insonning aqliy va jismoniy faoliyatini, shu jumladan, uning artefakt natijalarini birlashtiradi. Etnografiyada azaldan “ma’naviy” va “moddiy” deb ataluvchi madaniyatni farqlash an’anasi mavjud bo‘lib, ikkinchisi birinchisidan kelib chiqqanligi bejiz emas.

Bu tushunchalar (konseptuallar) korpusida nafaqat aqliy, falsafiy mavhum, ya’ni farqlashni qonuniylashtiradi. «Adolat» (qarang: S.A.Askoldov [2]), «rost/haqiqat» (qarang: Y.S.Stepanov [11]) va hissiy-psixologik (qarang: A.Vejbitskaya [3]), balki mavzu- madaniy, aniqrog‘i, real-madaniy tushunchalar. Ikkinchisi tilning konseptual sohasining milliy, tarixiy va madaniy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan qismini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, xorijiy tilshunoslikda madaniy tushunchalar muammosi A.Vejbitskaya asarlarida faol rivojlanib, ularni “asosiy so‘zlar” deb belgiladi [3].

Korpus, tarkib va fundamental (asosiy, bazaviy) milliy madaniy tushunchalarni belgilash muammosi lingvokulturologiyaning eng muhim muammolaridan biri sifatida qaralishi kerak. Bu muammo fanlararo xarakterga ega, chunki u nafaqat falsafiy va lingvistik jihatlarni, balki so‘zning keng ma’nosida madaniy jihatlarni, shuningdek, milliy etnik xususiyatlarni ifodalovchi sifatida bizning davrimiz uchun dolzarb deb hisoblaydigan etnologiya va etnopsixologiyaning jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. O‘ziga xoslik, milliy madaniy xususiyat va mentalitet, ularning madaniyatlararo o‘zaro ta’sirdagi roli kabi masalalarni aynan lingvokulturologiya yoritib beradi. Ushbu sohadagi

tadqiqot yo'nalishi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, lingvistik-filologik konseptualizm deb ataladi [8]. Boshqa tomonidan, milliy madaniyat tushunchalari lingvokulturologiyaning obyektini tashkil qiladi.

Filologik konseptualizm yo'nalishi, biz aytib o'tgan S.A.Askoldov (Alekseyev) ishidan so'ng, N.D.Arutyunovning tilni mantiqiy tahlil qilish maktabi va akademik Y.S.Stepanovning asarlari doirasida mahalliy tilshunoslikdagi yangi rivojlanish tendensiyasi paydo bo'ldi. 1991-yilda "Tilning mantiqiy tahlili" turkumida madaniy tushunchalarni o'rganishning nazariy muammolariga bag'ishlangan to'plam nashr etildi (Madaniy tushunchalar, 1991), bu tilshunoslar, filologlar va madaniyatshunoslar orasida madaniy tushunchalar muammosiga katta qiziqish uyg'otdi.

1997-yilda D.S.Lixachev "Rus tilining konseptosferasi" maqolasida S.A.Askoldov (Alekseev) nazariyasini tahlil qilib, nafaqat individual asosiy umumiyligi tushunchalarni, balki milliy madaniyat tushunchalari sifatida milliy belgilab qo'yilgan to'g'ri nomlarni ham, shuningdek, rus adabiyoti klassiklarining, ayniqsa Pushkinning frazeologik birliklari va iboralarini ko'rib chiqishni taklif qildi.

Bunday holda shuni ta'kidlash kerakki, ismlar, iboralar, mikromatnlarning konseptualizatsiyasi havola (iqtibos) jarayonida, pretsedent matnlarda mustahkamlanib borishda sodir bo'ladi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, D.S.Lixachev o'zining ilgari mashhur bo'lgan "Rus tili haqida eslatmalar" asarida "Dostoevskiyning rus odami haqidagi konsepsiysi" ni ko'rib chiqadi, bu esa milliy rus madaniyati sohasida rus odamining makro-konsepsiyasining mavjudligini taxmin qiladi. [6. 35-bet]. Bu mavzu V.V.Vorobyov tomonidan bat afsil ishlab chiqilgan [4].

Shu munosabat bilan, til tushunchasi sohasida biz makro tushunchalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin – O'zbekiston, o'zbek xalqi, o'zbek farzandi, o'zbek tili, o'zbek madaniyati, bizning fikrimizcha, o'zbek tili tushunchasi sohasining yuqori qismini tashkil qiladi. Xuddi shundan boshqa til va madaniatlarda ham shu holat kuzatiladi.

Madaniy tushunchalarni o'rganishdagi eng munozarali masalalardan biri, shubhasiz, savol: qaysi voqelik, qaysi tushuncha va ularni bildiruvchi so'zni milliy madaniyat tushunchasi deb hisoblash mumkin? Yana bir muhim savol: bir tilda, bizning holda, o'zbek tilida milliy belgilangan madaniy tushunchalar soni va biz ularning ro'yxati cheklangan, deb taxmin qilish mumkin, bu sohada eng zamonaviy tadqiqotchilar madaniy tushunchalar ro'yxati son-sanoqsiz va yopiqdir. Biroq, milliy madaniy tushunchalarning miqdoriy tarkibini baholash sezilarli darajada farq qiladi: uchdan bir necha yuz birlikkacha.

Madaniyat tushunchalarining fundamental tadqiqoti akademik Y.S.Stepanovning "Konstantlar. Rus madaniyati lug'ati" [11] asarida asosiy tushunchalarning eng muhim asosiy va ba'zi hosilalari birinchi marta tizimlashtirildi. Y.S.Stepanov o'zining asosiy ishining kirish maqlolarida fundamental terminologiyani, jumladan, makrokonsepsiya madaniyati va terminologiya tushunchasi va konstantasini belgilab berdi.

Y.S.Stepanovning ishida muhokama qilingan madaniyatning ko'plab ta'riflaridan S.I.Ojegov va N.Y.Shvedova o'zlarining "Rus tili izohli lug'ati" [9 B. 321] asarida amaliy foydalangan holda shunday qayd etadilar: «Madaniyat – bu odamlarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlari yig'indisidir». Milliy madaniyat tushunchalarini o'rganish uchun biz madaniyatni tushunchalar tizimi sifatida ta'riflashimiz muhim: "Madaniyat – bu turli "ketma-ketlik"larda, "evolyutsion semiotik qatorlar"da ifodalangan tushunchalar va ular o'rtasidagi munosabatlar yig'indisidir, shuningdek, "paradigmalar", "uslublar", "izoglosslar", "darajalar", "konstantalar" va boshqalarda bo'lgani kabi. [11, 38-bet].

Y.S.Stepanov sof "ma'naviy" ham, sof "moddiy" ketma-ketliklar ham mayjud emasligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, masalan, ma'bad "muqaddas" tushunchasi bilan, hunarmandchilik esa turli xil tushunchalarning butun doirasi bilan bog'liq. "So'z" va "narsa" bir-biriga bog'langan va sinonimlashgan konseptuallashgan sohalar ma'naviy madaniyatda ana shu xususiyatning o'ziga xos ko'rinishlaridan birdir", deb ta'kidlaydi muallif [11, 38-bet].

Shunday qilib, biz madaniyatning makro-konsepsiyasining ta'rifini birinchi marta asosiy tushunchalarning asosiy va hosilalari yig'indisi sifatida qayd etamiz. Y.S.Stepanov madaniyatdagi konstantani prinsip sifatida "madaniyatdagi ma'lum bir doimiy prinsip" – va tushuncha sifatida

konstantani ajratadi. Rus madaniyatining doimiy lug‘atida “barcha asosiy tushunchalar konstantalar deb hisoblanadi”.

Rus madaniyatida, shuning uchun rus tilining konseptual sohasida Y.S.Stepanov 20 ta konseptual sohani aniqlaydi, ularning har biri birdan beshgacha asosiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Asosiy tushunchalardan kelib chiqqan asosiy bo‘lmagan tushunchalar taxminan bir xil nisbatlarda ifodalanadi.

Y.S.Stepanovning ro‘yxatiga ko‘ra, rus tili va rus madaniyatining konseptual sohasi uning tarkibida 37 ta asosiy va 21 ta asosiy bo‘lmagan konsentratsiyalarni o‘z ichiga olgan yigirmata konseptual sohadan iborat. Shu bilan birga, Y.S.Stepanov ro‘yxatida asosiy bo‘lmaganlar sifatida ko‘rsatilganlarning ba’zilarini rus madaniyati tushunchalariga bog‘lash mumkin emas.

Bugungi kunda ko‘pgina tillarda lingvokulturologiya fani rivojida ana shu 37 asosiy va 21 asosiy bo‘lmagan konseptual soha muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rus tilining semiotik tizimini tavsiflash birligi sifatida V.G.Kostomarov, E.M.Vereshchagin va N.D.Burvikova tomonidan ilgari surilgan logoepistema tushunchasi alohida qiziqish uyg‘otadi.

Logoepistema atamasining o‘zi yunoncha logo – (<lógo) “so‘z” va episteme (<epistema) “bilish, tushunish” leksemalaridan tuzilgan. Shunday qilib, biz so‘z tomonidan olib boriladigan bilimlar haqida gapiramiz – uning yashirin “ichki shakli”, uning individual tarixi, madaniyat bilan o‘ziga xos aloqasi – logoepistemologiya yoki logoepistematiqa tilshunoslik kesishmasida shunday shakllangan lingvokulturologiya va madaniyatshunoslik, ushbu taksonomik birlik mazmunini ochib beradi [5. 69-bet].

Biz logoepistemik darajaning aniqlangan birligi til va madaniyat bilan bir qatorda lingvokulturologiyaga til mantiqi, psixologiyasi va falsafasini kiritish imkonini beradi, deb hisoblaymiz. Shunday qilib, biz lingvomadaniy vaziyatlarni, shu jumladan, lingvomadaniy aktlar va nutqiy asarlarini, shuningdek, ularning kelib chiqishi va idrokini tavsiflash uchun birliklarning iyerarxiq zanjirini kengaytirishimiz mumkin.

Biz taklif qilayotgan lingvomadaniyat birliklarining terminologik va konseptual tizimini ko‘rib chiqilgan nazariyalarni inobatga olgan holda quyidagi ketma-ketlikda taqdim etish mumkin: tushuncha – so‘z – logoepistema – madaniyat – lingvokulturema. Zanjirdagi o‘rinnlarni o‘zgartirish ham mumkin: logoepistema – tushuncha – so‘z – madaniyat – lingvistik madaniyat. Biroq, bunday qayta tartibga solish lingvistik shaxsnинг leksikasini tavsiflash va ifodalash maqsadlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. –М., 1998.
2. Аскольдов С.А. (Алексеев) Концепт и слово // Русская словесность. – М., 1977.
3. Вежбицкая А.Язык. Культура. Познание. – М., 1996.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М., 1997.
5. Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Современный русский язык и культурная память // Этнокультурная специфика речевой деятельности. –М., 2000. – С. 23-36.
6. Лихачев Д.С. Заметки о русском. –М., 1984.
7. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. – М., 1997. – С. 280-287
8. Нерознак В.П. От концепта к слову. К проблеме филологического концептуализма // Вопросы филологии и методики преподавания иностранных языков. – Омск, 1997.
9. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М., 1998.
10. Прохоров Ю.Е. Национальные социокультурные стереотипы речевого общения и их роль в обучении русскому языку иностранцев. – М., 1996.
11. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М., 1997.

UO‘K 811.531

KOREYS TILIDA SIFATLARNING YASALISHI

U.B.Melikova, o‘qituvchi, Des Education o‘quv markazi, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tilida sifatlar haqida batafsil ma‘lumot berilgan bo‘lib, sifat yasalishining o‘ziga xos xususiyatlari, turlari kiritilgan.

Kalit so‘zlar: sifat, qo‘shma sifat, sifat darajalari, yasama sifatlar, sifat yasovchi so‘zlar, hisoblovchi sifatlovchi so‘zlar, qo‘shma sifat.

Аннотация. В этой статье представлена подробная информация о прилагательных в корейском языке, а также указаны особенности и типы образования прилагательных.

Ключевые слова: прилагательное, сложное прилагательное, степени качества, искусственные прилагательные, прилагательные, счетные прилагательные, сложное прилагательное.

Abstract. This article provides detailed information about adjectives in the Korean language, and includes specific features and types of adjective formation.

Key words: adjective, compound adjective, degrees of quality, artificial adjectives, adjectives, counting adjectives, compound adjective.

Til inson uchun eng muhim jihatdir. Til bo‘lmasa jamiyat bo‘lmaydi. Insonlararo aloqa o‘rnatalish, muomala qilish uchun til muhim vositadir. Hozirgi kunda tilning ahamiyati juda muhimdir. Shu sababli bugungi kunda chet tillarini o‘rganish uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirgi kun uchun til bilish eng muhim xususiyatlardan biridir. «Til bilgan el biladi», degan maqol ham bejiz emas. Chunki inson tilni qanchalik ko‘p mukammal bilsa, u dunyo yuzini ko‘rish uchun shunchalik katta imkoniyatga ega bo‘ladi. Til jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksalishini ta’minlaydi. Shu tufayli ham tili rivojlangan mamlakat har jihatdan rivoj topib jahonga yuz tutadi. Bu haqda yurtbosimizning juda dono fikrlari mavjud: “... Jahon hamjamiatining mustaqil O‘zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o‘zini boshqa xalqlar oilasidagi to‘la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etadi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o‘zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste’dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni tez o‘rganib olish kabi noyob fazilatlarni to‘la to‘kis ro‘yobga chiqishiga imkon berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va saxovat an’analari yanada rivojlandi.

Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo‘lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat bilimli ma’rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma’qul ko‘rishini hayotning o‘zi ishonarli tarzda isbotlamoqda...”

Yuqorida ta’kidlanganidek bilimli, ma’rifatli, til bilgan insonlar yuqori cho‘qqilarga erishmoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda til markazlari ham ko‘paymoqda. Til bilishga intilgan inson hozirgi kunda to‘liq bunga erisha olishi mumkin.

Sifat (형용사) haqida umumiyl ma’lumot.

1) Sifat tushunchasi (형용사의 개념)

Sifat deb predmetning belgisini bildirib, qanday, qanaqa so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘turkumiga aytildi.

(1) Sifatning ma’nosi va grammatik belgilari.

Sifat so‘zlar predmetning belgisi va xususiyati, sifatini anglatadi

(2) Sifatning yasalishi.

Sifatlar ikki xil usul bilan yasaladi: qo‘shma sifatlar (복합형용사), yasalgan sifatlar (파생형용사).

Qo‘shma sifat 복합형용사 :

1. 명사 +형용사 (주어 + 서술어) :

값싸다, 배부르다, 맛나다, 입바르다, 올곧다

2. 명사 +형용사 (부사어 + 서술어) :

눈설다, 남부끄럽다, 남다르다, 번개같다

3. 형용사 어간 + 형용사 : 굳세다, 검붉다, 검푸르다, 희멀겋다.
4. 반복어 : 크나크다, 머나멜다, 붉디붉다, 검디검다.

Ko'rib chiqqanimizday qo'shma sifatlar ot va sifatning yoki sifat va sifat, takror so'zlarni qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Yasama sifatlar. (파생형용사)

1. - 롭 -: 향기롭다, 해롭다, 슬기롭다, 지혜롭다
2. - 답 -: 정답다, 꽃답다
3. - 수롭 -: 복스롭다, 탕스롭다, 어른스롭다, 창피스롭다.
4. - 하 -: 깨끗하다, 부지런하다, 조용하다, 튼튼하다.
5. - 지 -: 값지다, 멋지다, 그늘지다, 기름지다, 살지다
6. - 다랗 -: 굵다랗다, 좁다랗다, 커다랗다.

Yasama sifat so'zlar asosan yuqorida ko'rsatilgan yasovchilar yordamida yasaladi.

1) Sifat yasovchi so'zlar (형용사의 활용)

sifatlovchi so'zlar ot so'z turkumi oldidan kelib, uning mazmunini aniqlaydi. Ular qo'shimcha olmaydi va turlanmaydi. Sifatlovchi so'zlar doirasiga otdan sifat yasovchi ba'zi qo'shimchalarni kiritish mumkin.

Ko'rsatuvchi sifat so'zlar 지시관형사	이/그/저(런), 어느, 아무
Hisoblovchi sifat so'zlar 수관형사	한, 두... 모든, 여러, 몇, 첫째, 둘째
xususiyatli sifat so'zlar 성질관형사	새, 현, 옛, 윗, 어느, 아무, — 적

1. Ko'rsatuvchi sifatlovchi so'zlar
Bu so'zlar predmetning holati va xarakterini ko'rsatadi.

예 :

이런 일은 하지 않은 것이 좋겠습니다.

Bu ishni qilmasang yaxshi bo'ladi.

어느 쪽으로 가야 우체국이 나옵니까 ?

Qaysi tomonga borsa pochta chiqadi ?

아무 사람에게나 문을 열어 주지 마세요.

Har kimga ham eshikni ochmang.

그런 말을 나이가 많은 사람에게 하면 안 돼.

Unday gaplarni yoshi kattalarga gapirish mumkin emas.

어느 날 그 친구를 공원에서 만났어요.

Bir kuni u do'stimni parkda uchratib qoldim

2. Hisoblovchi sifatlovchi so'zlar

Asosan ot oldidan keladi, predmetning tartibi va hisobini ifodalaganda qo'llaniladi.

예 :

모든 사람이 회의에 참석하셨습니다.

Hamma odam majlisga qatnashdimi.

첫째 언니는 의사입니다.

Birinchi opam vrach.

한 사람이 더 와야 되는데 안 옵니다.

Bitta odam yana kelishi kerak edi, kelmayapti-ya?

어제 언니와 여러 가지 얘기를 나누웠습니다.

Kecha opam bilan turli xil mavzuda suhbatlashdik.

저기 두 사람은 우리 학교 학생입니다.

Anavi ikkita kishi bizning maktab o'qituvchilari.

저기 한 외딴집에 누가 살까 ?

Anavi yolg'iz uyda kim yashaydi ?

1. Koreys tilida sifat fe'lga o'xshab hozirgi zamon va o'tgan zamon hamda va turli boshqa usullarda tuslanadi.

Sifatlar asosan tasvirlanayotgan otlardan oldin joylashadi.

Xulosa. So'zning morfologik tarkibini tadqiq etilishiga doir dastlabki izlanishlar qadimgi hind tilshunosligida ko'zga tashlanadi. Turkiyshunoslikda esa Mahmud Koshg'ariy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar misolida ana shunday izlanish natijalarini ko'rish mumkin. Yevropa tilshunosligida bu masala tavsifi V. Fon Gumbol'dt merosida til formasi va uning analogik tabiatiga doir qarashlarida, F. De Sossyur ijodida esa sintagma va analogiya haqidagi fikrlarida o'z ifodasini topadi. Rus tilshunosligida so'z yasalishi mustaqil so'zlarning formal belgili va bunday belgiga ega bo'lmagan turlarga ajratilishi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Koreys tilining tarixida bu masala tavsifi xitoy va yapon man'alarida o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Беляевская Е.Г. Семантика слова. –М., 1987. 128.
2. Березин Ф.М. История лингвистических учений. –М., 1975. 304.
3. Блумфильд Л. Язык – М.: «Прогресс», 1968. 606.
4. Богушевич Д.Г. Единица функция уровень. К проблеме классификации единиц языка. –М., 1985. 116.
5. Бенвенист Э. Общая лингвистика.-М., 1974. 446.
6. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. - Тошкент, 2007. 274.
7. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. -М., 1990. 176.

UO'K 808.5

YANGI DAVR SHE'RIYATI MUMTOZ JANRLARIDA SHAXS KECHINMALARINING POETIK TALQINI

D.I.Nazarova, PhD, dots., Buxoro davlat tibbiyat instituti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy she'riyatda mumtoz an'alarining davom ettirilishi hamda bu borada shoirlarning badiiy mahorati, poetik tafakkur aruz vaznidan foydalanishidagi o'ziga xosliklari, ular ijodida aruzning yangicha jilolarini aniqlash shaxs kechinmalarining badiiy talqini haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: ramz, poetik ko'chim, mubolag'a

Аннотация. В статье рассматривается продолжение классических традиций в современной поэзии и художественное мастерство поэтов в этом плане, их особенности в использовании веса аруз в поэтическом мышлении, художественная интерпретация личных переживаний, выявление новых оттенков аруз в их творчестве. работа.

Ключевые слова: символ, поэтическое движение, преувеличение.

Abstract. The article discusses the continuation of classical traditions in modern poetry and the artistic skills of poets in this regard, their peculiarities in the use of aruz weight in poetic thinking, and the artistic interpretation of personal experiences, identifying new shades of aruz in their work.

Key words: symbol, poetic movement, exaggeration

Bugungi shoirlarimiz Alisher Navoiy, Boburlarga o'xshab so'zning ilohiy qudrati, she'riyatning buyuk va aziz qismat, qalb gavhari ekanligi haqida o'zlarining teran xulosalarini

aytishga intilmoqdalar. She'riyat olami vakili ekanliklaridan faxru — iftixor, so'zga oshno bo'lganliklaridan shukronalik tuyg'usi aksariyat shoirlar ijodida bor. So'zning ilohiy qudratiga ishonch, eng avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalarida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy she'rlari orqali yuksak badiiy tarannum etilgan. Qolaversa, mumtoz adabiyotdagi ayrim an'analar yana qayta jlonlantirilganligi holatini kuzatish mumkin. Masalan, xamsachilik an'anasi, arbain yozish an'anasi, asarlarga diniy-ma'rifiy ruhning singdirilishi va hokazo. Qolaversa, ayrim she'riy namunalarda mumtoz she'rlarga xos badiiy go'zalliklarning poetik ifodasi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ramziy ifoda yo'sini orqali falsafiy fikr aytish, poetik ko'chimlar, mubolag'ali yoki lakonistik bayon tarzi, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi ijodkorlar qalamiga xos diniy-falsafiy dunyoqarash, Alisher Navoiy, Bobur kabi ijodkorlar asarlaridagi inson tassavvurining noyob jilosi uchun ishlatilgan so'z-ranglar bugungi mustaqillik davri she'riyatida ham o'zgacha tovlanish hamda ma'no yuklash imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Chunki bugungi o'zbek she'riyatining asosiy tasvir obyekti inson qalbining tub-tubidagi mavjud va ifodalash qiyin bo'lган titroqlari bo'lib, ularni ramzu — timsollarsiz ifoda etish mushkul. Masalan, muqoyosa uchun ishlatiladigan timsollar gul, bulbul, sham, parvona kabi mumtoz she'riyat poetikasida eng ko'p ishlatiladigan obrazlar zamonaviy she'riyat bo'stonida yana bir qancha daraxt, ildiz, yaproq, barg, chiroq, gard, nasim, ostona, ilon kabi ramz, detal va tashbehtar hisobiga kengaytirildi, natijada she'riyatimizning poetik ko'lami, darajasi yuqorilashdi.

Bugungi o'zbek she'riyatida mavzu, g'oya, shakl jihatdan yangilanishning paydo bo'lish omillaridan biri sifatida, albatta, mumtoz she'riyat durdonalarini tilga olish mumkin. Ma'lumki, sho'ro davrida tahqir etishgacha borib etilgan milliy vaznimiz – aruz bugungi she'riyatda o'z o'rnini topdi. Aruz vazni imkoniyatlarining keng ochilishi, unda qofiya va badiiy san'atlarning mumtoz she'riyatga xos bo'lган nash'u namosi bugungi she'riy asarlarda ham yuz ko'rsatdi. Hatto ayrim ijodkorlar faqat aruzda yozilgan asarlarini jamlab to'plam holida nashr qildira boshladilar. Ammo bugungi aruzdag'i she'riyatning mavzu doirasi faqat ishq-muhabbat bo'libgina qolmadi, xilma-xil mavzulardagi fikrlar bilan boyitildi. Rauf Parfi, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Mirzaahmad Olimov, Asomiddin Temuriy, Zikrilla Ne'mat kabi ijodkorlar aruz vazni taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shdilar. Ayniqsa, aruzdag'i she'riyatda mumtoz shoirlar asarlariga tatabbu', nazira, muxammaslar bog'lash an'anasi eng ko'p namoyon bo'ldi. Vatan, yurt, istiqlol mavzusida yozilgan nazira ko'rinishidagi she'rlarning ko'pchiligi ma'rifatparvar ijodkor Cho'lpon she'rlariga bog'langanligining guvohi bo'lamic. Umuman, bugungi o'zbek she'riyatida erk, istiqlolga tashnalik va yangilikka intilish va umuman, g'oyaviy-badiiy maqsadlarning bir-biriga yaqinligi boisidan bo'lsa kerak, Cho'lpon an'analarining aks etishi tabiiy hol. Vatan, Ozodlik, Hurlik haqida yozish jarayonida ijodkorlarimiz Cho'lponga xos nozik kalomlardan ijodiy foydalanishga yoki uning qaysidir bir asariga murojaat etishga majburiyat sezganligini anglaymiz.

Ayniqsa, erkparvar shoirlar, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin kabi ijodkorlar she'riyatini kuzatsak, bunga amin bo'lamic. Insonning tabiatdan ruhiy oziq olishi, ruhiy olam ranglari jilosi va olam xossalaring ruhiyat dunyosida mavjlanishi, tabiat dunyosini ruhiyat qobig'iga joylab, olamni o'ziga xos anglash va tasvirlash usulida Cho'lpon, Oybek an'analarining ifodasi bor.

Masalan, shoir Cho'lponning «Kishan» she'riga Rauf Parfi bog'lagan muxammasni ko'zdan kechirsak, uning o'ziga xos o'tkir pafos va yuksak badiiyat bilan yozilganiga guvoh bo'lish mumkin:

Yuzlashding balolarga, alamlar ichra ko'zlashding,
O'zing kuyding, o'zing yonding o'zgalar haqqi o'zlashding,
Bu qul bozorida izg'ib qumrilar kabi bo'zlashding,
Ko'ngil sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding,
Na faryoding, na doding bor, nechun sen buncha sustlashding?

She'rda ko'ngilni yovlar, g'addor, olchoq muttahamlarga egmaslikka, kurashga, jim turmaslikka chorlash ruhi aks etgan Cho'lpon g'oyasi davom ettirilgan. Bunda Rauf Parfi ko'ngilni Ka'baga, Turkistonga tenglashtirib, original o'xshatish hosil qila olgan. Shu orqali Cho'lpon boshlagan emotsiyonal ruhni ham saqlab qolishga uringan.

Ma'lumki, qirqinchi-elliginchi yillarda "vulgar sotsializm" deb atalgan qarash oqibatida sevgi-muhabbat, ishqiy kechinmalar badnom etildi. Ular haqida she'rlar yozish bir qadar taqiqlandi. Uning

o‘rnida sho‘ro tizimini, ishchilar sinfini, firqa siyosatini maqtovchi she’rlar yozish talab qilindi. Faqatgina elliginchi yillarning oxiri, oltmishinchi yillarga kelib, vaziyat bir oz o‘zgardi. Inson shaxsiga hurmat, inson qalbiga e’tibor oshdi. Shaxsiy intim kechinmalarni, kishilarning har xil his-tuyg‘ularini, jumladan, an’anaviy sevgi taronalarini kuylash uchun yo‘l ochildi. Bu hol an’anaviy she’riy shakl, ayniqsa, g‘azal janrining jonlanishiga olib keldi. Tabiiyki, bu jarayon o’sha kezlari osonlikcha, silliq kechmagan. Ba’zi zamonasoz munaqqidlar ishqiy kechinmalarni kuylash, ko‘hna she’riy shakl-aruzga, g‘azal janriga murojaat qilishni zamondan uzoqlashish, eskilik sargiti deb atadilar. Shuning uchun Erkin Vohidov “Yoshlik devoni” deb nomlagan g‘azallar majmuining “Debocha”sida bunday munaqqidlarga qarata:

–Ey, munaqqid, sen g‘azalni
Ko‘hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qolgan inson qonida, – deb yozadi [1]

Shoirning o‘z kitobi nomlanishida “devon” so‘zini ishlatishi ham bejiz emas. Chunki bu kitobga u, asosan, aruz vaznida, g‘azal vaznida yozgan she’riy asarlarini kiritgan. Shuningdek, shoir devonidan g‘azal, muxammas, qasida kabi mumtoz she’riyat janrlarida yaratilgan she’rlar ham o‘rin olgan. Shoir ularda mumtoz she’riyatga xos an’anaviy obrazlardan o‘rinli va samarali foydalanib, zamonaviy hayotiy muammolarni yoritib beradi.

Devondagi she’rlarda bir qarashda an’anaviylik ustun bo‘lib ko‘rinsa-da, lekin ularning mazmuniga e’tibor qilinsa, mazmunida o‘ziga xos yangiliklar ko‘zga tashlanadi. Shoir mazmun e’tibori bilan ham, shakl e’tibori bilan ham an’analarni yangilash yo‘lidan boradi. Shoirning aruzda bitgan she’rlari mazmunidagi novatorlik (yangilik) shundaki, shoir o‘tmish davri shoirlaridan o‘laroq, real hayotiy vogeliklarni poetik idrok qilish asosida baholaydi.

Alisher Navoiy, Turdi, Maxmur, Muqimiyy, Erkin Vohidov kabi mumtoz va zamonaviy shoirlar ijodida ishq, vafo va sadoqat tarannum etilgan g‘azallardan tortib, jamiyatdagi ayrim shaxslardagi yaramas illatlarni fosh qiluvchi, ijtimoiy hayot muammolarini ilgari suruvchi g‘azallargacha uchraydi. Shunday bo‘lsa-da, g‘azalda ishq, vafo va sadoqat haqidagi munavvar va muborak g‘oyalar hamisha porlab turadi.

Erkin Vohidov ham romantik xayollar og‘ushida ishqiy g‘azallar bitdi, ko‘ngil zavqini, sevgi va baxt nashidasini, turmushdan shukronalik, roziligini to‘lib-toshib kuyladi. Uning ijodida hayot madhi, sevgi sururi, faxr-iftixor tuyg‘usi yetakchilik qiladi. Bunday kayfiyat, xususan, shoirning “Yoshlik davrim”da yorqin ko‘rinadi. Shoirning o‘zi buni shunday izohlaydi: “Biz realistlarmiz, biroq romantik kayfiyat realistlar uchun yot emas. Aruz, xususan, g‘azal – shaxsan menga romantik kayfiyatlarni ifoda etish uchun juda qulay vosita. Romantik kayfiyatda, tabiiyki, kishi zamindan jinday yuqoriroq ko‘tariladi, obrazli qilib so‘zlashda, balandroq pardalarda kuylashga moyilroq bo‘ladi. Ehtimol, g‘azalda ko‘tarinki an’anaviy obrazlarning o‘z-o‘zidan qalashib kelishi shundandir”.

“Yoshlik devoni”, bir tomondan, an’anaviy aruz, g‘azal bugungi kunda yashashga, insondagi azaliy bebaho tuyg‘u – ishq tuyg‘usini, romantik kayfiyatni ifoda etishga qodir ekanligini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, an’anaviy shaklning hozirgi rivojidagi ayrim qiyinchilik, ichki ziddiyatlarni ham oshkor etadi. Bu jihatdan shoirning “Hofizga” g‘azali e’tiborlidir. Undagi bahs, parodiyanozamo hazil-mutoyiba orqali an’anaviy o‘xhatishlar – tashbehlarning bugungi realliklarga mos kelmasligi, ular orasida muayyan ziddiyat borligi to‘g‘ri izohlanadi:

Ul parivash chehrasini
Oyga etgandim qiyos,
Bir umr uzr aytadurman.
Bu xato timsol uchun [2]

Erkin Vohidov necha asrlar sevgini kuylagan qadimiy g‘azal shaklini himoya qildi. U g‘azalni shunchaki she’riy shakl sifatida emas, muhabbat, ishq, boqiy insoniy tuyg‘ular ramzi tarzida e’zozladi.

Shoirning “Yoshlik devoni”dagi lirik qahramon ko‘p hollarda mumtoz she’riyatimizdagi ishq yo‘liga jonini tikkan, yor ko‘ngli, vasli ko‘yida har qanday jabru sitamlarga tayyor fidoyi oshiq. Bu fidoyilik uning “Barcha shodlik senga bo‘lsin” she’rida yorqin kuzatiladi:

Barcha shodlik senga bo‘lsin,
Barcha sitam, zorlik menga.
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga...
Bu jahoning rohatin ol,
Bor azobin menga ber.
Senga bo‘lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga [3]

Shoir Erkin Vohidov oshiq ko‘ngilning ma’shuqaga bo‘lgan mayli ifodasida xuddi mumtoz shoirlar, ayniqsa, g‘azal mulkining sultonni Alisher Navoiy singari mubolag‘ani hadsiz oshiradi:

Seni yotlar tugul hatto –
Qilurman rashk o‘zimdan ham.
Uzoqroq termulib qolsam.
Bo‘lurman g‘ash ko‘zimdan ham.
Ko‘zim yongay senga nargis –
Ko‘zing tiksa chamanlarda,
Yashirsam, lolaga rashkim
Ayon bo‘lg‘ay yuzimdan ham.[4]

Erkin Vohidovning ishq talqiniga bag‘ishlangan g‘azallari bir talay. “Tun bilan yig‘labdi bulbul”, “G‘uncha”, “Dildorga noma yozish”, “Chashma”, “Lola sayli”, “Yo‘q emish orzuda ayb”, “Kiprigindan o‘q uzib” va hokazo kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy-estetik tafakkurdagi jiddiy sifat o‘zgarishlarini, ma’naviy-intellektual yangilanish belgilarini barcha adabiy tur va janrlarda yaratilgan asarlarda kuzatish mumkin. Bu, ayniqsa, she’riy janrlarda yorqin namoyon bo‘lmoqda. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni aks ettirish barobarida, she’riyat jamiyatimizning har bir a’zosida mustaqillikka shukronalik, kelajakka ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vohidov E. She’r dunyosi. Saylanma. Ikkinci jild. –Toshkent: Sharq, 2001. –352 b.
2. Vohidov E. Umrim daryosi. Saylanma. Uchinchi jild. –Toshkent: Sharq, 2001. –400 b.
3. Vohidov S. Ko‘nglimda olam surati. –Buxoro: Buxoro, 2004. – 382 b.
4. Vohidov E. Muhabbatnoma. Ikki jildlik. Birinchi jild. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. –384 b.

UDC 81’ 373.42

THE ORIGIN OF NICKNAMES AND THEIR DISTINCTIVE FEATURES IN DIALECTS

V.V.Obobakirova, teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan

Annotatsiya. Antroponomik birliklar jahon tilshunosligida onomastik birliklarning eng qadimiylari va keng tarqalgan turi hisoblanadi: ism, familiya, ota ismi, taxallus, taxalluslarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Tilshunoslikda antroponomik birliklar tarkibiga shaxsning ismi, familiyasi, otasining ismi, taxallusi va taxallusigina emas, balki uning ismi, familiyasi, otasining ismi, taxallusi, taxallusi ham kiradi.

Kalit so‘zlar: taxalluslar, shevalar, ism, familiya, tarixiy kelib chiqishi, o‘zbek tili.

Аннотация. В мировом языкоznании антропонимические единицы являются наиболее древним и распространенным видом ономастических единиц: научно-теоретическое и практическое изучение имен, фамилий, отчеств, прозвищ, прозвищ всегда было в центре внимания. В языкоznании к антропонимическим единицам относятся не только имя, фамилия, отчество, прозвище и прозвище человека, но и его имя, фамилия, отчество, прозвище, прозвище.

Ключевые слова: прозвища, диалекты, имя, фамилия, историческое происхождение,

Abstract. In world linguistics, anthroponymic units are the most ancient and common sort of onomastic units: the scientific-theoretical and practical study of names, surnames, patronymics, nicknames, and nicknames has always been a focus. In linguistics, anthroponymic units include not just a person's name, surname, patronymic, nickname, and nickname, but also their name, surname, patronymic, nickname, and nickname.

Key words: nicknames, dialects, name, surname, historical origin, the Uzbek language.

The name, patronymic, and surname have long been of significant interest to scientists as anthroponymic units, and they have been gathered, described, and analyzed in many ways. Nicknames and nicknames are extra names to a person's main name, and they are one of the less well-studied units of Uzbek anthroponomy. Anthroponyms, including pseudonyms, are distinguished from other onomastic units by the lack of their own autonomous, special language substance in terms of legalization. On the basis of dictionary units' characteristic of the appellative level of the Uzbek language and other onomastic, more anthroponymic units, Uzbek nicknames and nicknames are developed.

The riches of the names of the onomastics of that language, the entire sum of the nouns with the patronymic, is made up of certain nicknames and nicknames in the language. The onomastic fund of the language distinguishes proverb nouns based on the property of the subject or object to which they refer. They are the names of many inanimate and live subjects' living beings or human beings. The so-called horses are classified into numerous large groups, according to these indicators. A vast number of them are made up of fictitious names given to persons. In the field of linguistics, they're known as anthroponyms.

Anthroponyms are divided into types in the genus Tuban in Special Studies: 1) nouns,

2) nicknames, 3) nicknames, 4) surnames, 5) patronomic names also include other forms and methods of naming a person.

A nickname is an Arabic word that refers to a name, a nickname, or a surname by which a person is mocked or ridiculed because of a characteristic.

It is well known that nicknames are given to people based on their personalities and qualities. As a result, they show what sort of seed or tribe people belong to, their physical inadequacies, their character, their method of speaking, any flaws in dressing, or any changes in character, occupation, nationality, similar good and coughing qualities in people, and character-characteristics. For instance, anatomical abnormalities are denoted by nicknames in the human body.

Chinnoq. The original meaning of this lexeme is that the ear is cut off, the ear is kertic. It is used both in artistic style and in colloquial speech in the task of nicknames in relation to those whose ears are small and scarred.

A.Kahhor and S.Ahmed used this nickname in relation to a "kemtik" person in his ear, in order to achieve compactness in describing the portrait of the hero. For example: - *Chinoq came, - said a black guy who listened to the phone speaker and sat down and stood up to stretch out to a partner of a loose pawnshop. -What did you say? - Chinnoq, I want to Saynoq came. Are you hearing me, what trouble, Nazir! Unless Ayam hadn't seen Dad's ear "kemtik" for so many years, Juwon nicknamed him Chinnoq, and they all laughed at the same time.*

The "chinnoq" lexeme is clearly employed in the role of nicknames in S.Ahmad styles' literary work, both of which are anatomically deficient in the literary work, depicted in humor or very impactful.

In the Mangit dialect of the Republic of Karakalpakstan, such an ear was known as "ch urri" in comparison to the "kemtik" ones. For example, *Jumavoy churri's shopkeeper's child tractor opts.*

Boqoq. In the lexicographic sources of the Uzbek language, the original meaning of this lexeme marks the disease as a consequence of a violation of the thyroid gland's function, the tumor meanings created as a result of damage to the enlarged gland, and the tree body as a result of this disease.

This word is also utilized in the task of nicknames in artistic works in order to achieve compactness while describing a portrait. For example, *The Imam and Khatib Abdurahman domla was*

the first mukhtaram of the same mosque, and the second was the mosque's muezzin, and the third was the muezzin of Samad boqoq from the neighborhood's beautiful word chatter.

The nickname **boqoq** was used in this context in regard to the person with the same disease and was used in the role of the nickname in reference to him.

The nickname **soqoq** is used to refer to such people in the Republic of Karakalpakstan's Mangit dialect. For example, *In the house of Karim soqoq we're telling you about Galin Ta'ya.*

The disorder that causes hair to fall out is known as baldness. This lexeme refers to the part of the head where the hair is shed, whether partially or entirely.

Kal is also used in the function of nicknames in relation to those who shed hair. For example: *Asror kal came from a heifer, a man of solid dexterity. An open yaktak who took over, a slave cowl in the hollow, tied to a bluish King choir, was a handsome young man who threw a holparan rumol on his shoulders.*

This word is used in place of the word combinations that describe the shedding of hair in literary works. As a result, the short form creators utilized the nickname **kal** to perfectly convey the outward comparison of persona. Nicknames are shown in an artistic work, which is a way of seeing numerous components of an image in a compact context in a deep meaningful and expressive way.

The connotative meanings of words are used to create nickname lexemes. It is divided into three categories by foreign linguists: portable meaning-forming tools, portable meaning-forming tools, and portable meaning-forming tools. In particular, the French linguist splits it into species such as metaphor, metonymy, and synecdoche in its linguistic lexicon.

E.Begmatov investigated nicknames and nicknames in the Uzbek language using anthroponymic units and covered their character-characteristics in a broad sense. Although A. Husanov investigated several nicknames among historical anthroponyms, nicknames in Uzbek linguistics were not specifically gathered and monographic research was not carried out.

In the past, the nickname suffix was used to denote a pseudonym. Names are an additional name for them, and they have affinity and commonality in this regard. Some innovators and artists were given names as a result of their work. Such names are called nicknames.

According to the meaning and motive of the nicknames in his candidate's dissertation, E.Begmatov divided them into ten groups. Rahimov divided the occurrence of nicknames in the language of Khorezm locals into five groups when investigating regional anthroponomy in Khorezm. In the Uzbek language, there have also been a lot of research on nicknames. They are A.Ishaev and R.Sapayev, both from M. Ashidova's pen.

Only in exceptional circumstances are nicknames used individually. In the majority of situations, a person chooses a name and has it written in a little letter. This instance casts doubt on the nicknames' noble origins.

Distinctive features of nicknames and nicknames

№	Features of nicknames	Features of nicknames
1	Nicknames are given to a person by others.	The nickname is chosen by the person himself.
2	Although nicknames are anthroponymic units, they are translated into another language, such as component.	Nicknames are not translated, they are transcribed as a name.
3	Nicknames sometimes rhyme to the original name.	Except for the nickname.
4	Nicknames are written in small letters, when they come before the name, big, when they come after the name.	Nicknames are always written with a capital letter, such as a name, surname, otaism.

Simple nicknames and nicknames play an important role in the anthroponomy of the Uzbek language. Structure, motivational-nominative, lexical foundation, historical- etymological source, technique of legalization, application of models, and all used to classify pseudoonyms. Nicknames are split into permanent and supplementary (seasonal) nicknames based on their use. Nicknames are permanent nicknames that poets and writers, among others, use from the beginning to the finish of their creative work.

In the study of onomastics and onomasiology in Uzbek linguistics, the study of nicknames, nicknames employed in the language of artistic works and dialects, is crucial. It is a method of portraying numerous features of images in a tight setting that is deeply relevant and striking.

REFERENCES:

1. Begmatov E. "Names and people". 4-p Science publisher. Tashkent. 1972. y.
- Explanatory Dictionary of the Uzbek language. Moscow-1981. "Russian language" 306-p
2. Menanshev. "What is the meaning of Your Name" Subject. 1968.15-16-p
3. Ahmad S. The story of "judgment". Tashkent.1981. G'.G'ulom publishing house.
4. "Fairy tales from the past" Tashkent.1979. 14-B. G'.G'ulom publishing house.
5. Explanatory Dictionary of the Uzbek language. 1981.I-T. 156-p.
6. Almighty A. "The Scorpion from the sanctuary". Tashkent.1974. 57-p G. Gulom publishing house.

UO'K 81.42

SHOLICHILIK TERMINALARINING BIRIKMA TARZIDA YASALISHI*O.S. Pirmatova, katta o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch*

Annotatsiya. Maqolada dehqonchilik sohalaridan bo'lgan sholichilik terminlarining asliy va nisbiy sifatlari bitishuvli birikmalar orqali ifodalanishi va guruhlanishi, ularning turli ma'noli guruhlarga ajratilishi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: asliy sifatlari, nisbiy sifatlari, qizil sholi, qora izg'or, burunch sho'rvo, guruch sho'rva, suv polov, guruch sho'rva, suv polov, ulli karta, ulli salma, paykal, xloroz kasalligi, chagali yer, qumoq yer, chagalang, chuta olish, baraka urug', mayda guruch, qattiq guruch, oq guruch, xom guruch, xom shol, oqlangan sholi.

Аннотация. В статье рассматривается выражение и группировка рисоводческих терминов из областей сельского хозяйства посредством субстантивных и относительных качественных союзов, а также их деление на группы, имеющие разное значение.

Ключевые слова: исходные прилагательные, относительные прилагательные, красный рис, черный рис, коричневый суп, рисовый суп, водный плов, рисовый суп, водяной плов, улли карта, улли салма, пайкал, хлороз, земля чагали, земля кумака, чагаланг, чута, семена бараки, мелкий рис, твердый рис, белый рис, сырой рис, сырой рис, шлифованный рис.

Abstract. The article discusses the expression and grouping of rice farming terms from the fields of agriculture through substantive and relative qualitative conjunctions, and their division into groups with different meanings.

Key words: original adjectives, relative adjectives, red rice, black rice, brown soup, rice soup, water pilaf, rice soup, water pilaf, ulli karta, ulli salma, paykal, chlorosis disease, chagali land, kumak land, chagalang, chuta, baraka seed, small rice, hard rice, white rice, raw rice, raw paddy, polished rice.

Boshqa tillar kabi o'zbek tilining dehqonchilik, jumladan, sholichiliga o'zlashgan terminologik birliklar asosida yuzaga kelgan terminlar tuzilishi jihatidan turli xil bo'lib, ular quyidagicha: Sodda va birikma terminlar.

Birikma terminlar birdan ortiq qismlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'lib, ular tarkibida hokim va tobelik munosabatlar vujudga keladi. Bu jarayonda hokimlik biror narsa haqida umumiy tasavvurni bildirsa, tobelik esa uning anglatgan ma'nosini yanada aniqlashtiradi. Tez pishar nav, kechki nav birikmalar tarkibidagi nav termini oldingi qism ma'nosini aniqlashtiradi. Birikma terminlari tarkibidagi har bir qism o'zining shakliy butunligini yo'qotmaydi, tushunchani ifodalashda o'z ma'nosi bilan ishtirot etadi. Bunday terminlardagi har bir tobe qism hokim qism bildirgan ma'noni aniqlashtirishga xizmat qiladi: *Adra yer, arpa mineri, botil yer, birinchi suv*. Birikma terminlarning komponentlarini o'zaro munosabatga kirituvchi grammatik vositalar ba'zan birinchi qismga, ba'zan ikkinchi qismga qo'shiladi: *yerni qondirish, tobdan chiqqan yer, sho'rangan yer, buloq qurtlari, makkajo'xori parvonasi, sholi chigirkasi* kabilar. Yoki birikma termin murakkab tuzilmadan iborat bo'lsa, grammatik vositalar oxirgi qismga qo'shilishi mumkin: *to'g'ri ro'vak kasalligi, pishan sholi otizi, oq boshoq kasalligi* va boshqalar.

O'zbek tilshunosligida sifatlarning anglatgan ma'nolariga ko'ra turlarini asliy sifat va nisbiy sifat deb atash qabul qilingan. Z.Ma'rufov bu haqda shunday yozgan: "Sifat premetning belgisini bevosita yoki uni bir premetning boshqa biror premet bilan bo'lgan munosabatiga ko'ra bildirishi mumkin. Shunga qarab, o'zbek tilida sifatlari ikki gruppaga bo'linadi: *asliy sifatlar va nisbiy sifatlar*"

[3.45-46-b). Bu terminlardan boshqa manbalarda ham foydalanib kelindi [4.34-36-b]). Biroq, ayrim darslik va ilmiy grammaticalarda sifatlarning bunday turlari haqida, umuman, so‘z yuritilmay, ularning faqat tub va yasama turlari haqida fikr bildirildi [5.271-306-b].

Bu dalillardan va o‘zbek tilining turli terminologik sistemalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda asliy va nisbiy sifatlar haqida so‘z yuritilganligidan kelib chiqib, biz ham ishimizda mazkur so‘z/terminlarni qo‘llashni ma’qul deb topdik.

Muhimi, o‘zbek tili terminologik sistemalarining barchasida ham sifatlarning ikkala turi ishtirokida, ularning birida kamroq, boshqasida ko‘proq birikma terminlar ishlatib kelinmoqda. Dehqonchilik terminologiyasi haqida ham shunday deyish mumkin. Shundan kelib chiqilgan holda, quyida sifatning har bir turi bilan yasalgan birikma terminlar xususida fikr yuritildi.

O‘zbek tilida “belgini bevosita anglatadigan sifatlar” [4. 282-b], ya’ni asliy sifatlar xilma-xil ma’nolarni ifodalash xususiyati bilan ham alohida ajralib turadi. Bunday sifatlar mustaqil ravishda terminlik vazifasini bajara olmaydi (ular faqat otlashgandagina shunday funksiyani bajarishi mumkin. Qiyoslang: oqlar, qizillar; ko‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini). Biroq, asliy sifatlar muayyan leksemalar bilan birikkan holda ko‘plab birikma terminlar hosil qilib kelayotganligini ta’kidlab o‘tish lozim bo‘ladi. R.Doniyorovning qayd etishicha, o‘zbek tilining turli-tuman terminologik sistemalari, masalan, kimyo (og‘ir shpat), anatomiya (orqa miya), zoologiya (qora ayiq), botanika (bo‘z yer), matematika (egri chiziq) kabi fanlar hamda texnika va ishlab chiqarishning turli sohalari (og‘ir sanoat, oq shovqin, qizil siljish)da aniqlovchi komponenti asliy sifatlardan tarkib topgan birikma terminlar ishlatib kelinmoqda [1.85-87-b].

O‘zbek tilining soha terminologiyasida ham asliy sifatli (bitishuvli) birikma terminlardan foydalanib kelinayotganligini ko‘rish mumkin. Xususan, dehqonlar leksikonida ham o‘ttizdan ortiq shunday termin ishlatilayotganligi ko‘rinadi.

Dastlab shunday bir holatni ta’kidlab o‘tish lozim: boshqa terminologik sistemalarda bo‘lganidek, dehqonchilik terminologiyasida ham muayyan bir asliy sifatning xilma-xil leksemalar bilan birikuvi natijasida uning turli sohalariga oid birikmalar yasalgan. Masalan, o‘rta leksemasi quyidagi birikmalarning aniqlovchi komponenti vazifasini bajaradi: o‘rtapishar, o‘rtacha katta, o‘rtacha hosil, o‘rtacha gektari va hokazo.

Aniqlangan materiallar tahlilidan “asliy sifat+ot” qolipli birikmalar har xil ma’noli tushunchalarni ifodalab kelayotganligi ma’lum bo‘ladi. Bular quyidagilardan iborat: Qizil sholi – sholining qadimda ekilgan turlaridan bire. Qora izg‘or — ko‘lga yaqin yerda yer namlanib turishi. Burunch sho‘rvo\ guruch sho‘rva, suv polov- Gurlan tumanida pishiriladi. Guruch suvda qaynatiladi va baliq sho‘rva qilinib, pishgan guruch sho‘rva bilan yeyiladi. Balig‘ining o‘zi alohida yeyiladi. Chat sipsa-tashqarini supuradigan supurgi. U yordamida sholi dalasidagi qurbaqa axlati bir joyga yig‘ilib qolmasligi uchun kechqurun tarqatib yuboriladi. Ulli karta-ekin yaxlit bir yer, kartaga ekin ekilgan maydon nomi. Ulli salma\o‘oh arig‘\ paykal-bir necha bo‘lak yerkarga suv beradigan dala arig‘ining nomi. Xloroz kasalligi- tuproqda temir moddasi yetishmasligi va azot haddan tashqari ko‘pligi oqibatida o‘simliklarining bargi hamda poyasi sarg‘ayishi. Chagali yer \qumoq yer\ chagalang-qum bilan tuproq aralash yer. Chuta olish-dalani birinchi sug‘orish. Baraka urug‘- yerga dastlabki urug‘ sepish qishloq xo‘jalik bilan shug‘ullanib yurgan keksa dehqon tomonidan boshlab berilgan. Keksa dehqon tomonidan ikki-uch siqim urug‘ sepilgach, qolganini yer egasining o‘zi davom ettirgan. Baraka urug‘ – keksa dehqon sepgan urug‘ kabi.

Ushbularning xususiyatlari qarab quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish ham mumkin:

1. Tayyorlangan sholi mahsulotlar sifatini ifodalovchi terminlar: *mayda guruch, qattiq guruch, oq guruch, xom guruch, xom shol, oqlangan sholi* va hokazo.

2. Iste’mol uchun tayyor bo‘lgan nomlarni ifodalovchi terminlar: pishgan guruch, ivitilgan guruch, yuvilgan guruch, tozalangan guruch va boshqalar.

3. Guruch ranglarini ifodalovchi terminlar: malla guruch, qizil guruch, yaltiroq guruch, oq guruch va boshqalar.

O‘zbek tilida “predmetdagi belgini uning boshqa biror predmetga bo‘lgan turlicha munosabatiga ko‘ra bildiradigan” [3. 49-b] nisbiy sifatlar, nihoyatda, ko‘pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bunday sifatlar faqat yasovchi qo‘sishchalar vositasida hosil qilinadi. Turli

manbalarda shunday affikslarning miqdori har xil 22 ta [3.56-61-b], 33 ta [5.187-192-b], 38 ta [2. 51-76-b], 41 ta [4. 220-225-b] ko'rsatilgan.

Umumadabiy til doirasida bu yasovchi qo'shimchalarining barchasi (ularning soni nechta bo'lishidan qat'iy nazar) – biri faol, boshqasi nofaol ravishda nisbiy sifat maqomida erkin birikmalarni hosil qilishda ishtirok etganligi va ishtirok etayotganligi shubhasizdir. Biroq, terminologik sistemalarda shu singari affikslar ishtirokida yasalgan nisbiy sifatli birikma terminlar bir qadar chegaralangan. R.Doniyorovning bir tadqiqotida o'zbek tilining o'ndan ortiq terminologik sistemasida ishlatilgan “nisbiy sifat + ot” qolipli birikmalarning 30 turi borligi ko'rsatib berilgan [1.87-131-b]. Lekin, har bir terminologik sistemaning o'ziga xos nisbiy sifatli birikma terminlardan foydalanish me'yori mavjudligini ham unutmaslik kerak.

Dehqonchilik terminlari guruhida “nisbiy sifat + ot” qolipi asosida hosil qilingan birikma termin mavjuddir. Quyida shunday qolipli birikmalar xususida so'z ketadi. Yoyma shakldagi sholi-sholi urug'ini sochib ekish. Xalta palov-guruchi alohida xaltada suvda qaynatib, pishirib olingan palov.

-ma affiksi bilan yasalgan birikmalar tayyorlangan taom nomlarini hosil qiladi: qovurma palov (masallig'i obdan qovurib, guruchi ivitmay tayyorlanadigan palov), suzma palov, to'ntarma palov.

-cha affiksi bilan taom tayyorlangan joy nomlari ham mavjud: *samarqandcha palov, toshkentcha palov, ozarbayjoncha palov, parijcha palov*.

“-v affiksli leksema+ot” qolipli birikmalar. O'zbek tilida -v (-ov,-uv) affiksi vositasida ish-harakat, jarayon bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar hosil bo'ladi. Kasb-hunarmandchilikda bunday leksemalar ishtirokida yasalgan ayrim birikma terminlar biror jarayonni amalga oshiruvchi faoliyat-jarayon nomlarini ifodalab keladi. Masalan, *qazuv salma* (ariqning ikki tarafini tekislash, tarash), *pishiruv jarayoni*.

“-i affiksli leksema + ot” qolipli birikmalar. Asli fors-tojik tillarining leksema yasovchisi bo'lmish mazkur affiks ishtirokida yuzaga kelgan sifatlar, ayniqsa, dehqonchilikka oid sanoqli birikma terminlar tarkibida ishtirok etayotganligini ta'kidlab o'tamiz.

Birikmaning aniqlovchi komponentini tashkil etgan -i affiksli sifat quyidagi ma'noli asoslarga qo'shilib kelishi mumkin:

1. Etnonimlar, ya'ni millat, urug', qabila, xalqlarni anglatuvchi asoslarga: *qozoqi* gilam, *arabi/aravi* guruch, *qozoqi* guruch, *afg'oni* guruch, eroni guruch.

2. Toponimlar, ya'ni joy nomlarini anglatuvchi asoslarga: Pokiston guruchi, Eron guruchi, Xorazm guruchi, Hindiston guruchi va hokazo.

Demak, sholichilik terminlarining ayrimlari sifatlovchili birikmali bo'lib, sifat turkumiga oid so'zlar ushbu terminlar bilan bitishuvli birikma hosil qilib, aniqlovchilik vazifasini bajarib kelgan. Shuningdek, ushbu terminlar turli affikslar orqali ham yasaladi va turlicha ma'no guruhlariga ajraladi. Ushbu yasovchi affikslar terminlar tarkibiga singib ketgan bo'lib, bitishuv hosil qilinganday ko'rindi. Shu jihatdan birikmali sholichilik terminlarini tahlil qilish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Данияров Р. Научно-технические термины-словосочетания и вопросы их упорядочения//ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясининг тартибга солиш принциплари. –Toshkent, 1991.
2. Ноjiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. –Toshkent: o'qituvchi, 1989.
3. Маъруфов З.М. Словобразовательные и словоизменительные аффиксы узбекского языка//ўзбекча-русча луг'ат. –М., 1959.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: o'qituvchi, 1992.
5. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1980.

UO'K: 821.512.133: 373.3

SENSOR AFAZIYANING RUS TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI
L.Qambarova, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Sensor afaziyaga oid ilk tadqiqotlar g'arb tilshunosligida olib borilgan. Keyinchalik rus tilshunosligida A.Luriya, L.Svetkova, E.Beynlar tomonidan tajribalar o'tkazilgan,

ular asosida ilmiy xulosalar taqdim etilgan. Sensor afaziya o'zbek tilshunosligidagi yangi, hali tajribaviy jihatdan tadqiq qilinmagan masalalardan biri bo'lganligi uchun uning boshqa tilshunoslikda o'r ganilish darajasini tadqiq etish zarur ilmiy tavsiyalarni olishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: sensor afaziya, rus tilshunosligi, nutqni idrok etish, nomlash, takrorlash, neyropsixologik sindrom.

Аннотация. Первые исследования сенсорных афазий были проведены в европейской лингвистике. Позже в русской лингвистике были проведены опыты А.Лурия, Л.Цветкова, Э.Байн, на основе которых были сделаны научные выводы. Поскольку сенсорная афазия является одним из новых, но экспериментально не изученных вопросов в узбекской лингвистике, изучение уровня ее изученности в других языкоznаниях поможет получить необходимые научные рекомендации.

Ключевые слова: сенсорная афазия, русская лингвистика, восприятие речи, номинация, повторение, нейропсихологический синдром.

Abstract. Annotation. The first studies of sensory aphasia were conducted in European linguistics. Later, experiments were conducted in Russian linguistics by A. Luria, L. Tsvetkova, and E. Bain, on the basis of which scientific conclusions were drawn. Since sensory aphasia is one of the new, but experimentally unexplored issues in Uzbek linguistics, studying its level of study in other linguistics will help to get the necessary scientific recommendations.

Keywords: sensory aphasia, Russian linguistics, speech perception, nomination, repetition, neuropsychological syndrome.

Kirish. Sensor afaziyaning o'r ganilish tarixini shartli ravishda bir nechta davrlarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Sensor afaziya oid ilk tadqiqot XIX asrning ikkinchi yarmi (1874) da boshlangan bo'lib, nemis psixonevropatolog Karl Vernike nomi bilan bog'liq. U o'zining "Afazik simptomlar majmuasi" ("Der Aphatische Symptomencomplex") asarida ilk bor afaziyaning yangi turi – sensor afaziya haqida ma'lumot beradi. Ushbu asarda turli afaziyani miyaning har xil hududlaridagi psixik jarayonlarni buzilishi bilan bog'lashga harakat qiladi. Keyinchalik u Vernike va Broka hududlariga birikuvchi nerv tolalarining zararlanishi afaziyaning sensor yoki motor bo'lishiga olib kelishini aniqlagan. [1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Afaziyani, shu jumladan, sensor afaziyani zamoniylar jihatdan o'r ganish rus nevrologlari, fiziologlari, psixologlari (I.Pavlov, A.Uxtomskiy, P.Anoxin, L.Vigotskiy, A.Leontev, A.Luriya) tomonidan ishlab chiqilgan funksiyalarning tizimli joylashuvi hamda yuqori aqliy funksiyalarning tizimli tuzilishi haqidagi nazariyaga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra bosh miyadagi eng oddiy vazifa ham alohida "markaz"larda emas, uyushgan "miya tizimlari"da sodir bo'лади. Bu, ayniqsa, nutq kabi murakkab jarayonga ham taalluqli bo'lib, shunday jarayon bosh miyaning tor hududida emas, birgalikda ishlovchi tizimlarni qamrab oladi. Keyingi davr rus neyrolingvistikasida shu qarash yetakchilik qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash metodidan foydalanildi.

Rus olimlaridan A.Luriyaning afaziya va uning turlariga oid tadqiqotlarida sensor afaziya masalasiga ham alohida urg'u berilgan. [2]

Olim sensor afaziyani "akusto-gnostik" afaziya nomi bilan keltiradi. Afferent motor afaziyada kuzatiladigan holatlarga qarama-qarshi ravishda sensor afaziyada nutqiy jarayonni shakllantirishning fonematik darjasini izdan chiqadi. [3] Sensor afaziyaning yengil, o'rtacha, og'ir turlari ajratilib, rus tili misolida quyidagi buzilishlar kuzatilishi qayd etiladi:

1) bir belgi bilan farqlanuvchi fonemalarni farqlay olmaslik natijasida quyidagi so'zlarni o'r tasidagi farqni bilmaslik: "бочка-почка"; "дочка-точка"; "зала-сало", "пыл-пиль"; "пил-пиль";

2) so'zlarni takrorlash va predmetlarni nomlash ko'nikmasining buzilishi (literal parafaziyalar kuzatiladi, bemor kerakli so'zni topishga harakat qilib, ma'no jihatdan unga yaqin bo'lgan boshqa so'zga almashtiradi);

3) nutqni odatiy, kengaygan, sintagmatik va prosodik jihatdan tashkillashtirishning saqlanganligi;

4) tilning buzilgan paradigmatic strukturasi va saqlangan sintagmatik strukturasi o'rtasida dissotsiatsiyaning kuzatilishi (sababi til kodlarini o'zlashtirish va undan foydalanish avvalo fonematik qarama-qarshi qo'yish bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi; semantik tizim asosan yagona so'z darajasida buziladi, buning natijasida shu so'z ma'nosi tushunilmaydi, biroq boshqa murakkab semantik tizim (teksik-morfologik va nutqni ifodalash darajasi) bemorda saqlanadi.

A.Luriya bemorlar nutqiga xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni keltiradi:

1) **og'zaki nutqni takrorlashda** qiyinchilik kuzatiladi, fonemalar takrorida bu yaqqol namoyon bo'ladi; so'z yoki jumla oson takrorlanadi, biroq verbal parafaziya kuzatiladi;

2) **predmetlarni nomlashdagi** qiyinchilik: zaruriy leksik birlikni topolmaslik; mos keluvchi javobni topgan taqdirda ikkilanish; tovush yoki ma'no jihatdan o'zaro yaqin bo'lgan boshqa so'zga almashtirish; ish-harakatni nomlash otlarni nomlashga qaraganda saqlangan;

3) **mustaqil nutq** ravon, jumlalardagi sintaktik strukturalar va intonatsion ohang saqlangan, asosan, otlar va kerakli nomlarni topish ko'nikmasi buzilgan.

A.Luriya bilan bir davrda faoliyat olib borgan L.Svetkova sensor afaziya va unda nutqni tiklash masalasi bilan shug'ullangan. [4] Olima ham sensor afaziyaning asosiy xususiyati sifatida fonematik eshituvning shikastlanishi natijasida nutq tovushlarining akustik analizi va sintez jarayoni izdan chiqishini keltiradi. [4] Sensor afaziyaning *klinik tasviri* quyidagi xususiyatlardan iborat: og'zaki nutqning barcha ko'rinishlarida (dialog, spontan nutq, nomlash, takrorlash) literal parafaziyalar ko'p uchraydi; spontan nutq hajm jihatdan kam; og'ir holatlarda nutq o'zaro bog'lanmagan qismlardan, literal va verbal parafaziyalardan tashkil topadi. Sensor afaziyaga uchragan bemorlar muloqotga kirishuvchan bo'lishadi, zaruriy verbal vosita topilmagan holda paralingvistik usullar (mimika, imoshorada, saqlangan intonatsiya)dan foydalanishadi. Buyumlarni nomlashda uning nomini bilgan holda kerakli tovushlarni topishda qiynalishadi.

Sensor afaziyaning **neyropsixologik sindromiga** quyidagilar kiradi: 1) og'zaki nutqning barcha ko'rinishlari zararlanadi; 2) o'qish va yozuv ko'nikmalari izdan chiqadi; 3) tovushlarni tahlil qilish nuqsoni tufayli og'zaki hisoblash buziladi; 4) ritmlar takrorlanishining buzilishi; 5) emotSIONAL sohaning buzilishi (bemorlar tashvishli, hissiy reaksiyalar beqaror, oson qo'zg'aluvchan, bir hissiy holatdan ikkinchisiga tez o'tadi).

A.Luriya, L.Svetkova bilan bir davrda Esfir Beyn Solmonovna ham sensor afaziyaga oid tadqiqotlar olib borgan. Sensor afaziyaning psixologik analizi muammolari va uni bartaraf etish yo'llariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. [5]

E.Beyn sensor afaziya eshitish analiz va sintezining murakkab shakli, avvalo, fonematik eshitish zararlanganga yuzaga kelishini aytadi. [6] Nutqning tovush tomonining buzilishi o'zaro yaqin fonemalarni farqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga, og'ir shakllarda eshitilishi turlicha bo'lgan tovushlarni ham farqlay olmaslikka sabab bo'ladi. E.Beyn mazkur asarda sensor afaziyaga uchragan bemorlardagi quyidagi xususiyatlarni keltiradi:

1. Eshitilgan fonemalarni takrorlab bera olmaslik. So'zlovchi tomonidan talaffuz qilingan so'zda umumiyo ohang saqlangan bo'lsa-da, afaziyaga uchragan bemor uchun har safar har xil eshitiladi. So'zning bu tarzda beqaror eshitilishi takrorlash davomida tovush tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Sensor afaziyaning yengil shaklida kerakli so'zni topishda qiyinchilik kuzatilib, so'z talaffuzida xatolik yuzaga keladi.

2. Og'zaki nutqda parafaziyalar uchrasha, yozma nutqda paragrafiyalar kuzatiladi, ya'ni bemor o'zaro yaqin tovushlar o'rnini almashtiradi. Masalan: "комната" so'zini "томната" shaklida yozadi.

3. O'qish jarayonida bemor so'zlarni oson taniydi, mustahkamlangan yozma obraz so'zlarni optik ideogrammalarga aylantiradi. Buning natijasida matndagi umumiyo mazmunni tushuna olishadi, biroq unchalik tanish bo'lмаган so'zdagi harflarni o'qiy olishmaydi. Yozilgan so'zni tanish, uning tarkibidagi harflarni tanimaslik kabi paradoksal holat sensor afaziyada o'ziga xos xususiyat hisoblanadi.

4. Nutqning tovush tomoni zararlanishi o'z-o'zidan so'zning, shu qatori jumlaning ham ma'nosi tushunilishi to'xtaydi. Bemorga doimiy eshitiladigan so'z o'zining obyektiv aloqadorligini yo'qotadi. A.Luriya qayd etgan "so'z ma'nosining begonalashish" hodisasi ro'y beradi, so'z ma'nosidan noaniq diffuz semantik aloqalar qoladi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sensor afaziyada nutqni tushunish va takrorlash izdan chiqadi. Bu buzilish, asosan, bitta so'z doirasida sodir bo'ladi. Fonematik eshitishning zararlanishi asosiy sabab sifatida keltiriladi.

Xulosa va takliflar. Sensor afaziyaga oid tadqiqotlarning keyingi bosqichi bevosita ilm-fan taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqidir. Tashqi tomondan stimul berilganda miyada hosil bo'ladigan elektromagnit maydonni o'lchovchi qurilmalar (magnit rezonans tomografiya) yordamida olib borilgan tadqiqotlar keyingi davr ilmiy tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatidir. Olimlar tomonidan miyaning aynan qaysi hududida lingvistik jarayonlar sodir bo'lishini tekshirish asosiy o'ringa chiga boshladi. Sensor afaziyaga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va olib borilayotganiga qaramay, bugungi kungacha noaniq va mavhum jihatlari talaygina.

O'zbek tilshunosligi uchun yangi bo'lgan bu yo'nalishda tadqiqot olib borish bir nechta talablarni qo'yadi: 1) afaziyaga uchragan bemorlar uchun tuzilgan xalqaro testlarni o'rganib chiqish va o'zbek tiliga moslashtirish; 2) tibbiyat muassasalaridan sensor afaziya tashxisi qo'yilgan bemorlarni topish va ularda tajriba o'tkazish. Garchi bu jarayonlar ko'p vaqt talab qilsa-da, nutqni idrok etish jarayoni qanday mexanizmlardan iboratligi haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlar bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Carl_Wernicke
2. Лурия А. Р. Травматическая афазия. – М., 1947.
3. Лурия А. Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. – Москва: Akademia, 2002. – Стр.190.
4. Цветкова Л. Афазия и востоновительное обучение. – Москва, 1988. – 207 с.
5. <https://bigenc.ru/c/bein-esfir-solomonovna-82ed02>.
6. Бейн Э. Клиника и лечение афазий. – София, 1970. – Стр.39.

УО'К – 801. 611.

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA LEKSIK QATLAM VA TASVIRIY-IFODAVIY VOSITALAR

M.Sh.Qudratova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Badiiy adabiyotda so'zni obrazli ifodalash, uning ma'no qatlamlarini boyituvchi leksik birliklar va tasviriy – ifodaviy vositalardan mahorat bilan, o'z o'rniда foydalanish ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrning estetik ta'sir quvvatini belgilab beradi. Ushbu maqolada Asqar Mahkam she'riyati chuqurroq tahlil qilinib, undagi leksik qatlam va tasviriy-ifodaviy vositalar o'rganildi.

Kalit so'zlar: tasviriy vosita, tashbih, mushabbah, so'z, tashbihi mufassal, talmeh, badiiy niyat, obraz, ilohiy kitob, tasavvuf

Аннотация. Образное выражение слова в художественном произведении, умелое использование лексических единиц, обогащающих его смысловые пластины, и изобразительно-выразительных средств определяют эстетическое воздействие идеи, которую хочет выразить творец. В данной статье глубоко проанализирована поэзия Аскара Махкама, изучен лексический слой и изобразительно-выразительные средства.

Ключевые слова: изобразительные средства, ташбих, мушибба, слово, ташбих мұфасал, тальме, художественный замысел, образ, божественная книга, мистика.

Abstract. The figurative expression of a word in fiction, the skillful use of lexical units enriching its layers of meaning, and pictorial-expressive means determine the aesthetic impact of the idea the creator wants to express. In this article, the poetry of Askar Mahkam was analyzed in depth, and the lexical layer and visual and expressive tools were studied.

Key words: visual means, tashbih, mushabbah, word, tashbihi mufassal, talmeh, artistic intention, image, divine book, mysticism

Tafakkur va taxayyul olamida yaraladigan she'r inson ruhiyatiga daxldor. Olamning, undagi barcha narsa, voqeа, hodisalarning kodi So'zdir. So'z orqali borliqni, shu jumladan, insonni ham o'zgartirish mumkinligini zamonaviy ilm-fan tan olgan, ilohiy kitoblarda esa takror va tarkor qayd etilgan. "Butun Koinot adabiyot uchun materialning bitmas-tuganmas koni hisoblanadi. Adabiyot o'z materialini hodisalar, taassurotlar, fantaziyalar, tushunchalar, his-tuyg'ulardan izlab topadi, uni falsafadan, ilm-fandan va hatto kerak bo'lsa, o'z-o'zidan ham topa oladi".[1.242]

So'z badiiy kontekstda, birinchidan, ma'no doirasini kengaytirib, o'zining semantik qatlamini boyitadi, ikkinchidan, o'z ma'nosidan ko'chib, boshqa ma'nolarni anglatadi, uchinchidan, mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'z aniq predmetlilikni ifodalashi mumkin, jonsiz narsalarni jonlantirishi mumkin, to'rtinchidan, ayrim grammatik qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlar qushimcha ma'no qirralarini kasb etadilar.

Asqar Mahkam she'riyati ana shunday ijod namunalaridandir. Uning she'rlari his va aqldan to'yingan, istiora va metaforalarga, ramz va ko'chimlarga boy she'riyat. Shoир turkiy tilning imkoniyatlaridan juda o'rinni, mahorat bilan foydalanadi, so'zlarni qayraydi, toblaydi, ma'nolarini bo'rttiradi; har bir so'z botiniga ijtimoiy-siyosiy fojialar mazmunini, ruhiy iztiroblar ohangini joylaydi.

Tasviriy vositaning bu turida ham imkoniyatlar juda keng, yangidan-yangi, oxori to'kilmagan tashbihlar yaratish, shoirning olam va odamning badiiy in'ikosini nechog'lik tasavvur eta olshiga bog'liq. "Shoirning mahoratini, xususan, uning tasavvur va hayol olamining boy yoki qashshoqligini ko'rsatuvchi badiiy vositalaridan bir o'xshatishdir".[2.65] Asqar Mahkam she'rlari ana shunday badiiy san'atlarga, jumladan, "tesha tegmagan" tashbihlarga boy. Mukammal(to'liq) tashbih quyidagi komponentlarni ichiga oladi:

1. Mushabbah – o'xshatilayotgan narsa
2. Mushabbah bih – o'xshayotgan narsa
3. Odoti tashbih – o'xshatish vositasi
4. Vajh-i shibh – o'xhash tomoni yoki o'xshatilish sababi

Asqar Mahkamning "So'nggi xato" she'rida tashbihning adabiyotda kamdan-kam uchraydigan *tashbihi mufassal* namunasini keltiramiz.

Men qishloqdan ketdim...

O'g'riday

Talon qilib buvim bisotin.

Oq sochlarin yopgan o'g'riday

Titrar edi mo'rilarda tun.[3.33]

Qishloqdan ketgan lirik qahramon ("Men" –o'xshatilayotgan narsa) o'zini o'g'riga ("O'g'ri" –o'xshayotgan narsa, "-day" – o'xhash tomoni yoki o'xhash sababi) o'xshatadi va bunday o'xshatishining sababi sifatida buvisining bisotini talon qilib ketganini aytadi ("Talon qilib buvim bisotin" – o'xhash sababi) ham keltiradi. Bu jumlani o'z holicha tushunsak ya'ni shoир haqiqatdan ham talonchilik qilgan bo'lsa, unda tashbihga hojat yo'q edi. Shoир buvisining yig'ib-terganini olgani uchun vaqt o'tib o'zini aybdor sanaydi, o'z-o'zini malomat qilib "talonchi" deydi. Shoир ushbu holatni bo'rttirib tasvirlash orqali tashbih ichida mubolag'a (biror narsa yoki voqeani bo'rttirib tasvirlash) ya'ni mubolag'ali tashbih yaratadi. Kitobxonning ham e'tiborini aynan shu nuqtaga tortish, hodisani yanada bo'rttirish, malomat qilish, ta'kidlab ko'rsatish maqsadida shaklan bir misraga teng bo'lakni ikki misraga ajratib, "o'g'riday" jumlasini alohida satrga ko'chiradi. Bu tasvir yo'sini bilan shoир o'zi ko'zlagan niyatga erishadi va kitobxon oldida aybiga iqror bo'lishi bilan birga, gunohini biroz yuvgandek bo'ladi.

Shoirning "Yig'layotgan "ko'k masjid" she'rida mustabid davrida vayronaga aylangan "Ko'k masjid"ning tasviri berilgan. Masjid xarobalarini ko'rgan lirik qahramon hayrat va iztirob bilan "Xudoning uyi"ga tikilib qolgancha ko'zlariga yosh emas, balki qon to'lgandek bo'ladi: "Tikildim ko'zimga qon to'ldi go'yo", – deya yuragidagi xo'rlik va alam hissini yashira olmaydi.

Koshinlar yulingan yurakdek yotar

o'yilgan ko'z kabi devor darzları

bir umr zikringdan timmagan zotlar

izi ham to'zgandir girdubod kabi...[4.25]

Ushbu she'rdan olingan quyidagi parchada musalsal tashbih (tashbihlar zanjiri)ning go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin. Musalsal tashbih ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi ko'rinish: "Mushabbah va mushabbah bih turlicha bo'lgan tashbihlarni ketma-ket keltirish".

➤ Birinchi tashbih: Koshinlar (o'xshatilayotgan narsa) – yulingan yurakdek (o'xshayotgan narsa);

- ikkinchi tashbih: devor darzlari (o'xshatilayotgan narsa) – o'yilgan ko'z (o'xshayotgan narsa) kabi;
- uchinchi tashbih: bir umr zikringdan tinmagan zotlarning to'zgan izi (o'xshatilayotgan narsa) – girdubod – *chang-to 'zon, quyun* (o'xshayotgan narsa) kabi.

Mazkur parchada ketma-ket kelgan tashbihlarning har uchalasi ham barcha komponentlar to'liq ishtirok etgan mufassal tashbihning eng go'zal namunasidir. Lirik qahramon yerda yotgan masjid koshinlarining parchalarini ko'rib, yuragi yulib olingandek bo'ladi. Shu zahoti ularni terib olgisi keladi. U uchun masjidgina emas, uning koshinlari-da aziz va mukarram, qadrli edi. Masjid devorlaridagi darzlar esa o'yilgan ko'z kabi achinarli. Daf'atan lirik qahramonning xayoliga bir umr zikrdan tinmagan zotlar keladi, so'nggi qadrli narsasidan, suyganlaridan ayrilgan kabi Yaratganga "bir umr zikringdan tinmagan zotlar izi ham to 'zgandir girdubod kabi..." " deya gina qiladi. Mazkur tashbehlar shoirning yuragini kemira-kemira qalamga ko'chgan dardlaridan hosil bo'lgan.

Shuningdek, Asqar Mahkamning "Naqshband qasidasi", "Ul oy edi", "Dovullarga solganlar yugan" kabi she'rlarida ham bir nechta tashbihni uchratamiz. Ammo "G'urubda shom o't olar to'zib" deb boshlanuvchi she'rida shoir olam va odam haqida falsafiy mushohada yuritar ekan, badiiy niyatini obrazli tasvirlashda mufassal tashbehlarni ketma-ket qo'llaydi.

Dunyo ulkan bir tegirmon tosh
Hamma unda yanchilib kelgan...
Dunyo goho tevadek yovvosh
goho itdek qopog'on ekan...[5.459]

Ushbu parchada o'xshatilayotgan narsa bitta (mushabbah) – "Dunyo", o'xshatilayotgan narsa(mushabbah bih) – uchta: birinchisi – tegirmon tosh, ikkinchisi – teva, uchinchisi – it. Tashbihning bu turi musalsal (zanjirli) tashbehning ikkinchi ko'rinishiga misol bo'ladi.

Muallif birinchi satrda Dunyoni tegirmon toshiga mengzaydi va bu o'xshatishning sababi o'laroq keyingi misrani keltiradi: "Hamma unda yanchilib kelgan...". Mantiqiy nuqtai nazardan shoir dunyo deganda o'zi yashagan zaminni nazarda tutadi. Bu zaminda mustabid tuzumi va oldingi davrlarda minglab, millionlab qora ko'zlarning turli sabablar bilan yostig'i quritildi, ikkinchi va uchinchi o'xshatishlarda dunyo majoziy obrazga aylanadi. Dunyo timsolida xalq, yanada torroq qilib aytadigan bo'lsak "odam" anglashiladi. Chunki, kezi kelganda tuyadek yuvvosh bo'ladigan ham, kezi kelganda itdek qopag'on bo'ladigan ham insondir. Asqar Mahkam murakkab davrda yashadi, maddohlar, sotqinlar, shuxratparastlar – o'z tili bilan aytganda odamga o'xshamagan odamlar bilan zamondosh yashadi.

Asqar Mahkam she'riyatida eng ko'p uchraydigan badiiy san'atlardan yana biri talmeh san'atidir. "Talmih kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she'r yoki mashhur maqolga ishorat etmakdan iboratdir"[5.78] Shoir ijodi, xususan, ilohiy-irfoniy mavzudagi she'rlari ana shunday talmehlarga boy. Jumladan, "Uqbo", "Vahdat kuyi", "Hurriyat", "Puryo valiy", "Shoir Abdullo Zuhurga", kabi bir qancha go'zal she'rlari borki boshdan oyoq talmeh san'atiga burkangan.

Ko'zim ko'r bo'lmasdan men seni ko'rdim
tobutkash so'ngagim o'kramay qaqshab
men endi Kavsardan suv ichar bo'ldim
ityaloq kosasin itqtit tashlab
Tirilib Qur'onning pok qasaslari
To'fonlar bag'rida Nuh nabiysimon
Kalima saslari iymon saslari
vujudim nay etdi mavlaviysimon.[4.9]

Shoirning tasavvufiy ruhda yozilgan mazkur "Uqba" she'rida shaxs va voqeal-hodisalarga ishora qilingan yigirmaga yaqin talmih san'ati qo'llangan. Mazkur parchada ulardan to'rttasi keltirilgan.

1. "Kavsar – jannatdagi hovuz (bu haqda "Kavsar" surasi ham mavjud);
2. "Qur'oni Karimdag'i qissalar";

3. payg‘ambar Nuh alayhissalom – 950 yil umr ko‘rgan, Alloh tomonidan kofirlarga yuborilgan to‘fondan iymon keltirgan mahluqotlar jonini saqlash uchun kema yasagan, nomi qur’oni Karimda zikr qilingan payg‘ambar;

4. Mavlaviy – Jaloliddin Rumiy;

Bu kabi talmehlarga boy she‘rlarni o‘qib tushunish uchun o‘quvchida jiddiy tayyorgarlik bo‘lishi talab etiladi. Har bir satr qatida, har bir talmihda Qur’oni Karimda nomlari keltirilgan payg‘ambarlar va ularning tarixi, ilohiy kitoblar, g‘ayb hodisalari, tasavvuf allomalari, ular bilan bog‘liq haqiqat va tariqatlar yotadi. Shuningdek, Sharq dunyosidagi mashhur shaxslar, o‘tmish voqealari, ular haqidagi afsona va rivoyatlarga ishoratlar mavjud. Shoiring badiiy maqsadi ham o‘zidagi mavjud bilimlarni xalq bilan baham ko‘rish, xalqni o‘rganishimiz lozim bo‘lgan bilimlarga undash va targ‘ib qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ян Парандовский “Сўз кимёси” Т.:Янги аср авлоди. 2022. 242-б
2. Рустамова А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: F.Фулом номидаги АЧН, 1979. – 65-б
3. Асқар Маҳкам. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 33-б
4. Асқар Маҳкам. Аналҳақ. – Тошкент, Халқ мероси, 2003. – 25-26-б.
5. Ҳусайнин А.бадойиъ ус-санойиъ. – Тошкен, F.Фулом номидаги АЧН, – 786

UO‘K 82-343

NEMIS XALQ ERTAKLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA VARIANTLARINING SHAKLLANISHI VA TARJIMA MASALALARI

D.A.Raxmanova, tayanch doktorant, O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda tarjimashunoslik ilmining rivoji, nemis xalq ertaklarining o‘zbek tiliga tarjima variantlarining shakllanishi va tarjima masalalariga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, nemis xalq ertaklarining turli davrlarda o‘zbek filologlari va tarjimonlari tomonidan tarjima qilinishi va statistikasi haqida so‘z yuritilgan. Maqolada tarjimashunoslik fanining turli olimlar tomonidan tadqiq etilishi va uning jamiyatdagi o‘rnini haqida olimlarning turlicha fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: образ, uslub, konsepsiya, ekvivalent, adekvat, tarjima, variantlilik, epik, folklor, ertak, janr.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется развитию науки переводоведения в Узбекистане, формированию вариантов перевода немецких народных сказок на узбекский язык и проблемам перевода, а также переводу и статистике немецких народных сказок узбекскими филологами и переводчиками в разные периоды проведения. В статье описаны исследования переводоведения разными учеными и различные мнения ученых о его роли в обществе.

Ключевые слова: образ, стиль, концепция, эквивалент, адекват, перевод, вариант, эпос, фольклор, сказка, жанр.

Abstract. This article focuses on the development of the science of translation studies in Uzbekistan, the formation of translation options of German folk tales into Uzbek and translation issues, and the translation and statistics of German folk tales by Uzbek philologists and translators in different periods held. The article describes the research of translation studies by different scientists and the different opinions of scientists about its role in society.

Keywords: image, style, concept, equivalent, adequate, translation, variation, epic, folklore, fairy tale, genre.

Kirish. O‘zbekistonda tarjimashunoslikka alohida e’tibor qaratib kelinmoqda, Jumladan, yurtimizda bu sohada qilgan ishlar talaygina. O‘zbekistonda tarjimashunoslik ilmining rivojida Jumaniyoz Sharipov, N. Vladimirova, G‘aybullha Salomov, Najmuddin Komilov, Qudrat Musaev kabi olimlarning xizmati katta bo‘ldi. Bugungi kunga kelib o‘zbek tarjima maktabi jahon tarjimashunoslik ilmida tan olindi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘tgan yigirma ikki yil davomida badiiy ijodning barcha sohalarida bo‘lgani kabi tarjima nazariyasi va amaliyotida ham

o'zgarish va yangilanishlar ro'y berdi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, asliyat tilidan tarjima izga tushayotgani quvonarli hol. Bu borada yoshlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tarjima va tarjimashunoslar minbari "Jahon adabiyoti" (1997) jurnali tashkil etilib, o'z faoliyatini boshladi. Atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov boshchiligidagi ushbu jurnalda dunyo adabiyotining eng sara asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib bosildi[1.1]

Yurtimizda tarjimonlar turli xalqlarning badiiy asarlarini o'zbekchaga tarjima qilib, adabiyotimizga o'z hissasini qo'shib kelmoqdalar. Xususan, nemis adabiyotidan o'zbekchaga o'girilgan turli adabiy asarlar nemis adabiyoti, boy madaniyati va ushbu xalqning o'ziga xos urf odatlardan bizga so'zlaydi. Shu bilan bir qatorda nemis folklorining epik janri sirasiga kiruvchi ertaklarning o'zbek tiliga tarjimalari salmog'i ham kattagina. Tarjima orqali turli adabiyot durdonalari bo'lmish qadimiylari va zamonaqiy asarlarning o'zbek adabiyotiga ta'sirini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Tarjima – xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, qalblarni bog'laydigan ma'naviy ko'prikdir. Shu bilan birga tarjima badiiy mahorat maktabi hamdir. U ona tilining boyligi, jozibasi, serjiloligini namoyish qiladigan ijodiy jarayon sanaladi. O'zbekistonda tarjima nazariyasi va amaliyoti rivojining namoyondalaridan biri bo'lgan olim G'. Salomov tarjimaga shunday ta'rif bergan: "Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir." [2.93] G'. Salomov ta'kidlaganidek, tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. [3.20] Tarjimashunoslik va uning tarkibiy qismiga aylanib borayotgan, ammo hali o'zini to'la namoyon qilib ulgurmagan tarjima tanqidi ilm turidir. Bu ilm tilshunoslik, grammatika, stilistika, semantika, belgishunoslik (semiotika) kabi sohalar bilan yaqin aloqa bog'lab, mustahkam hamkorlik qiladi, degan edi tarjimashunos olim Ibrohim G'ofurov. [4.1] Tarjimon o'zga tilni qay darajada yaxshi bilsa, o'z ona tilini ham shunchalik chuqur bilishi, so'zning ma'nolarini teran his qilishi, iboralar, hikmatli so'zlar, maqol va matallar, hayotiy hodisalarini tarjimada mahorat bilan aks ettira olishi lozim. Aks holda asliyatdagi asar tarjimasi kitobxonda muallif hamda asar mazmuni haqida noto'g'ri fikrlar keltirib chiqarishi mumkin. Q. Musayev esa tarjimaga quyidagi ta'rifni bergan: "Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakli va mazmunini saqlagan holda o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir." [5.8]

Tarjimashunos olim I. G'ofurovning bildirishicha, so'zlovchi nutqi, muallifning asari, turli hujjatlar, ma'lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish yoki o'tkazish, boshqa tilga ularni tushunarli qilish tarjima deb ataladi. [6.5] I.G'ofurov va Q. Musayevlarning fikrlarini umumlashtirgan holda "tarjima yozma va og'zaki shakldagi matnni bir tildan ikkinchi tilga uning leksik-semantik, lingvokulturologik hamda lingvostistik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'girish" deya ta'rif bergan Z. Bazarov o'zining tarjima muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishida. [7.14] Tarjima turli uslubdagi matnlar bilan ishlash amaliyoti bo'lib, muallif tasvirlagan hayajonli holatlarni, his tuyg'ularni tarjima qilinayotgan tilda bera olish murakkab jarayon hisoblanadi. [8.13] Badiiy adabiyot namunalarini boshqa bir tilda qayta yaratish tarjimonlikda alohida bir san'at desak xato qilmagan bo'lamiz. Badiiy adabiyot namunalari boshqa nutqiy ifodalardan shunisi bilan farq qiladiki, unda estetik, poetik jihatlar hukmronlik qiladi. Asliyatning tarjimada yaxlitligini ifodalash uchun tarjima tilida muqobil ifoda vositalarini topish zarurati tug'iladi. Bu jarayon asl nusxa mazmunini boshqa bir tilda qayta yaratishda aynan eng maqbul variantni tanlashni taqozo etadi. [9.13]

Tadqiqot metodologiyasi. Tarjimalarning qiyosiy – tipologik jihatlarini tahlil qilish, bevosita va bilvosita tarjimalaridagi ma'no va mazmunining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini saqlanishini o'rganish adabiyotshunoslikda muhim vazifa sanaladi. Badiiy tarjimada asar voqealari tasviri, obrazlar xarakterini aynan aslidagidek kitobxonaga yetqazishga intilish tarjimonning mahoratini belgilaydi. Chunki muallif konsepsiysi, uslubi va individualligini anglamasdan asar mohiyatini noto'g'ri talqin qilish asarning kitobxon tomonidan past saviyada bitilgan deb baholanishiga olib kelishi mumkin, ya'ni, noto'g'ri tarjima kitobxon tasavvurini chalg'itadi. Bu kabi tarjima

muammolarini hal qilish tarjimondan yuqori filologik bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Shu nuqtai nazaridan, biz ushbu maqolada tarjima asarlarning lingvostilistik aspektidagi masalalariga urg'u berishni joiz deb bildik. Stilistik vositalarning tarjimada berilishida asar aslining va tarjima tilining stilistik, lingvokulturologik xususiyatlarini inobatga olish muhim sanaladi. Ayniqsa bu ikki xalqlarning folklor asarlar tarjimasida lingvokulturologik jihatlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Jumladan, nemis xalq og'zaki ijodi namunalari boy janr tarkibi, qadimiy va an'anaviyligi bilan uzoq davrlardan beri dunyo ahlining e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda, buni nemis folklorining yer yuzining turli nuqtalarida o'rganilishi, ilmiy tadqiqotchilar va tarjimonlari adabiyotshunoslar, etnograf va sotsiologlardan tortib tilshunoslargacha qiziqish bildirilishida hamda turli tillarga tarjima qilinishida asoslash mumkin. Nemis xalq ertaklarining turli tillarga o'girilishi nafaqat g'arblik tadqiqotchilarda, balki o'zbek tadqiqotchilarida ham o'zgacha qiziqish uyg'otgani bejiz emas. Nemis xalq ertaklarining tarjimalarini qiyosiy o'rganish, ularning tarjima variantlarini tahlil qilish bugungi kunda adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Tahlillar va natijalar. Dunyoning biror burchagi yo'qki, nemis xalq ertaklarini, jumladan, aka-uka Grimm ertaklarini o'qimagan, bilmagan. Ularning o'zbek tiliga ilk tarjimalari rus tilidan o'girilgan bo'lib, ushbu tarjimalarga, asosan, o'tgan XX asrning 30-yillardan boshlab tarjimonlar tomonidan qo'l urilgan. Nemis adabiyotidan o'zbekchaga tarjima qilingan xalq ertaklarining asosiy qismini aka-uka Grimm ertaklari tashkil etadi. 1937- yilga kelib ilk Grimm ertaklarining to'plamlari o'zbek tilida ilk bor to'plam ko'rinishida nashr etilgan. Bunda ularning tarjimasini va nashri bilvosita (ruscha tarjimasidan) amalga oshirilganligi kuzatiladi. Bu ertaklarni o'zbek tiliga dastlab 1938-yilda rus tilidan Farid Rasul tomonidan kitob holida nashr ettirilgan va u "Botir tikuvchi" nomi bilan 8 ta ertakdan iborat bo'lgan. 1963-yilda esa aka-uka Grimmlarning ertaklari "Bo'ron kampir" nomi bilan "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan nashr etilib, R.Fuzailova tarjima qilgan "Bo'ron kampir", "Zolushka" ertaklari qatori M.Sodiqova o'zbekchaga o'girgan "Bremen muzikachilari", "Yosh pahlavon", "Sirli odamchalar", "Foydali ish", "Yalqov Geyns", "Botir tikuvchi" kabi jami 8 ta ertak o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan. XX asrning 70-80-yillariga kelib, nemis xalq ertaklariga qiziqish tobora ortdi. Ushbu yillarda Surayyo To'raxonova ruschadan o'zbekchaga o'girgan nemis xalq ertaklar to'plami nashrdan chiqди. Surayyo To'raxonovaning 1978-yilda tarjima qilib, "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan albom ko'rinishida chop ettirgan to'plamida "Bremen mashshoqlari", "Quyon bilan tipratikan", "Somon, cho'g' va loviya", "Bir xumcha shovla", "Bo'ron kampir", "Yetti qarg'a", "Yalqov Geyns", "Mitti odamchalar", "Oqoyim va Guloyim", "Uch baxtiyor", "Qo'li gul qizcha", "Botir tikuvchi", "Tulki bilan g'ozlar", "Uch aka-uka" kabi ertaklar tarjima qilinib, maktab yoshidagi bolalarga taqdim etildi. To'plamning o'zida keltirilishicha, tarjimon uni "Detskaya literatura"ning 1967-yilgi nashridan tarjima qilgan.

Keyingi yillarda esa ularning tarjimasini bevosa nashriyoti tomonidan o'zbek tiliga amalga oshirilgani kishini quvontiradi. 1989-yilda Sano Saidov tomonidan ham aka-uka Grimmlarning "Uch aka-uka" hamda "Chol va uning nevarasi" ertaklarini olmon tilidan o'zbekchaga o'girilgan va "Gulxan" jurnalining 1-sonida e'lon qilingan. Sharif Ro'ziyev va Mavlon Javbo'riyevlar tarjimasidagi "Sirli kema" to'plami 1990-yilga olmon tilidan bevosa o'zbekchaga tarjima qilingan. Mustaqillikning dastlabki yillarda Xurram Raximov va Sharifa Salimovlar tarjimasida "Yetti oqqush" nomli olmon xalq ertaklari to'plami chop etildi. Ushbu to'plamda jamlangan olmon xalq ertaklari ilk bor 1991-yilda «Yetti oqqush. Olmon xalq ertaklari nomi bilan «Cho'pon» nashriyotida 150000 nuxada chop etilib, unda Bexshtayn, Vossidlo, aka-uka Grimmlar, Muzeus kabi ertakchilar to'plagan olmon xalq ertaklari o'zbek kitobxonlari e'tiboriga havola qilindi.[10.42]

2015-yilda "Oila davrasida o'qish uchun" rukni ostida chop etilgan "Ertaklar" kitobida aka-uka Grimmlarning "Qurbaqa shahzoda", "Shirinlik uycha", "Rapunsel", "Bremen mashshoqlari" kabi to'rtta ertaklari lotin yozuvida keltirilgan. Mazkur kitobdan o'rin olgan "Qurbaqa shahzoda" va "Shirinlik uycha" ertaklarini mutarjim Abdurahmon Akbar nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Rapunsel" hamda "Bremen mashshoqlari" ertaklarini esa tarjimon Ozoda Azimova o'zbek tiliga o'girgan. 2020-yilda aka-uka Grimm ertaklari "Mittivoylar sovg'asi", "Yalqov to'quvchi", "Bo'ron kampir", "Uch ip yigiruvchi" nomi bilan 4 ta kitob ko'rinishida ham chop etildi. Ulardagi ertaklarning

tarjimoni Xurram Raximov va Gulrux Raximovalar bo'lib, ular ertaklarni bevosita olmon tilidan tarjima qilishgan.[11.96]

Xulosa. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab yurtimizda tarjima jarayoni yanada kuchaygan. Xususan, mustaqillik sharofati o'laroq bu boradagi imkoniyatlarning yanada ortgani kuzatiladi. Bu esa, ayni paytda, olmon xalq ertaklari o'zbekcha tarjimalari ma'lum taraqqiyot bosqichini bosib o'tganligini, bu ish bilan shug'ullangan tarjimashunoslarning ishlari ma'lum xronologiyaga egaligini kuzatish mumkin. olmon xalqining o'ziga xos mentaliteti bor va bu sharqiy elatlarning an'analari, urf- odalaridan keskin farq qiladi. Lekin olmon tilidagi aksariyat xalq ertaklarini o'zbekchaga o'girishda tarjimon mahorati muhim rol o'yaydi. Ertaklar qaysi tilga tarjima qilinmasin, imkon qadar uning asliyatiga xos xalqchilligini, g'oyaviy mazmunini, badiiy xususiyatlarini, asosiy rolini va obrazlarini saqlab qolishga harakat qilinadi. Shunday bo'lsa-da, uning leksik, grammatic, stilistik jihatlarini to'liq saqlab qolishning imkoniyati chegaralangan bo'ladi. Xalq ertaklari ma'lum bir xalqning madaniy merosi deb qaraydigan bo'lsak, uni boshqa xalqlarga yetkazishda mana shu madaniy merosning asl qiymati holida saqlash tarjimonlarning mahoratiga bog'liq deyishga haqlimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/tarjima-nazariyasi-va-tanqidi-muammolari-davra-suhbati/>
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 1978. — 93b.
3. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. — 20b.
4. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/tarjima-nazariyasi-va-tanqidi-muammolari-davra-suhbati/>
5. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti. 2005. — 8b.
6. G'ofurov I. Tarjimon mutaxassisligiga kirish. – Toshkent: mehridaryo nashriyoti, 2008., — 5b.
7. Bazarov Z.M. "Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yoqdarlikni saqlash muammolari(A.Qodiriyning O'tgan kunlar romanining inglizcha tarjimalari misolida) fil. fan.nomz. diss., Samarqand – 2020., 14-b
8. To'xtaxo'jayeva N. Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi fil. fan.falsafa dok. diss. avtoref., 13-b
9. Yusupova X. O'zbek xalq og'zaki nasri namunalarining inglizcha tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi. fil.fan. nomz. diss — T., 2011 – 13b
10. Karimova D.H. Aka-uka Grimm ertaklarining XX asr 30-yillar o'zbekcha tarjimalari xususida // "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsiya: muammolar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Nukus. – 2019.-B. 42-43
11. Mittivoylar sovg'asi: ertaklar / Aka-uka Grimm. Uchinchi nashri.–Toshkent: "O'zbekiston", 2020.–96 b.

UO'K 821.512.133-1**O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA O'LIM MAVZUSINING YORITILISHIDA
YOZUVCHI IJODIY KONSEPSIYASI**
Z.H.Raxmatullayev, o'qituvchi, Alfraganus Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada, o'zbek va ingliz adabiyotida o'lim mavzusining yoritilishida yozuvchi ijodiy konsepsiyasi talqin qilingan bo'lib, badiiylik shartlari va mezonlarining bir-birini to'ldiruvchi mohiyatida o'lim mavzusi bugungi badiiy asarlarda ham texnogen dunyo qiyofasini to'laqonli namoyon etishga imkoniyati xususida ilmiy fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, badiiy adabiyot, asar, hayot va o'lim, ong va tafakkur, ekzistensial falsafa, umumbashariyat.

Аннотация. В данной статье, освещая тему смерти в узбекской и английской литературе, дается толкование творческой концепции писателя, а в качестве дополняющих друг друга условий и критериев искусства освещаются научные соображения относительно возможности того, что тема смерти может в полной мере проявиться и в современных художественных произведениях.

Ключевые слова: Литература, художественная литература, произведение, жизнь и смерть, разум и мышление, экзистенциальная философия, универсальность.

Abstract. In this article, the creative concept of the writer is interpreted in the coverage of the topic of death in Uzbek and English literature, and in the complementary essence of the terms and

criteria of artistry, the topic of death is covered by scientific opinions on the possibility of full-fledged manifestation of the image of the man-made world even in today's

Keywords: Literature, fiction, work, life and death, consciousness and thinking, existential philosophy, universal.

Ma'lumki, hayot va o'lim dunyo paydo bo'lgandan buyon insonning ongi va tafakkurida qalqib turadigan, uning mohiyatida nima "yashirin" ekanligini bilishga ehtiyojmand etadigan psixologik jarayondir. Chunki G'arb badiiy tafakkurida ham, falsafiy dunyoqarashlarida ham o'limga yozuvchilar, shoirlar, olimlar, faylasuflar, ruhshunoslar turlicha yondashib talqin qiladilar. Unda yashringan sirning nima ekanligini bilish zakiy yoki umuman inson uchun haligacha chuqur kirib borilgan muammo emas! Sababi – hayot mavjud ekan, o'lim ham mavjud, uning qanday va qaysi shamoyilda, qaysi vaqtida kelishi sirligicha qoladi.

G'arb badiiy adabiyotining turli davrlarida mifologik voqelanish zamirida o'lim motivi ham asrlar osha yangidan-yangi talqinlarning, badiiy ifodaning o'ziga xos qirralarini namoyish qilib keladilar. G'arbning o'limga munosabati ham turlicha bo'lganidek, insoniy ma'rifikat yemirila boshlagan, qadriyatlar toptalgan jamiyatlarda, davrlarda buni idroklash ham bir-biriga sira o'xshamaydi. Ana shu o'lim motivi XX asrda nafaqat ingliz, balki fransuz, nemis va turli Yevropa xalqlarining badiiyat durdonalari +sintezi ta'sirida yuzaga chiqdi. Bunday paytda o'limga shaxsning o'zi emas, uni o'rab turgan muhit ham, atrofdagi qonun-qoidalar ham olib borishi tayin ekanligi o'z ifodasini topdi. Demak, o'limni falsafiy nuqtai nazardan talqin qilganimizda quyidagi manzara hosil bo'ladi:

1. *Tabiiy o'lim.*
2. *Jamiyat bilan bog'liq o'lim.*
3. *Ixtiyoriy o'lim.*
4. *Fojeaviy o'lim.*

Ko'rindiki, falsafiy-diniy nuqtai nazaridan o'limning mohiyatini har bir odamning o'zi mustaqil his qila olmaydi. Shu boisdan ham, o'lim vahmi hamisha har bir bandani har lahzada "**hayot-mamot**" o'chog'iga solishga tayyor turadi. "Inson hayotining ma'nosi uning o'limiga ham ma'no bag'ishlaydi, hayotning oliy qadriyat ekanini isbotlagan o'lim o'zi qadriyatga aylanib, yeamuna tarzida yashay boshlaydi. Chunonchi, o'z hayotini bag'ishlash bilan, Doro lashkarining yo'lini to'sib, Vatan erkini saqlab qolgan Shiroq, ilmiy haqiqat himoyasida turib, uning g'alabasi uchun gulxanda yondirilishiga rozi bo'lgan Jordano Bruno, safdoshlari hayotini saqlab qolish maqsadida ko'ksini fashistlar o't ochish nuqtasiga qalqon qilib, halok bo'lgan To'ychi Eryigit o'g'lining o'limi bunga misol bo'la oladi. Bunda bir insonning o'limi, odatda eng katta yovuzlik deb hisoblanadigan o'lim ezgulikka aylanganini ko'ramiz. Shu nuqtada o'lim biologik yoki tabiiy tushunchadan yuksak ma'naviylik namoyon bo'ladigan hodisani anglaguvchi axloqiy tushuncha maqomini oladi" [1]. Buning natijasida o'zini xalqi-yu, oilasi, do'sti-yu, yaqinlari, Vatani uchun qurbon qilgan SHAXSning abadiyatga aylanishi, yillar o'tib, o'zgalarda shu munosabatda katta bo'lish instinkitini ham barpo qiladi. Demak, G'arb yoki Sharq badiiy tafakkurida bir-birini to'ldiruvchi, ko'chib yuriuvchi syujetlar, g'oyalar, badiiy voqeliklar negizida – o'lim mavzusi alohida bir o'rganishni taqozo etadigan sirli va umumbashariy jarayon ekanligi ayonlashadi.

Ingliz yoki o'zbek adabiyotida (nasr yoki nazm) ham o'lim mavzusining turli xil shaklu shamoyillarini tasvirlab berishgan. Umar Hayyomning quyidagi umumbashariy g'oyalarni o'zida aks ettirgan ruboysiining o'ziyoq yuqoridagi nazarii mulohazalarimizni dalolatlaydi:

Ko'plar donishmand deb bildirlar o'zni,
Xudoning zotidan ochdilar so'zni.
Hech biri bilolmay azal sirlarin
Aljirab-valjirab yumdilar ko'zni [2]

Umar Hayyom – o'lim mavzusini ifodalar ekan, undan murod shuki, falsafiy yoki diniy nuqtai nazaridan insonning biologik o'limi mavjud, lekin shaxsning dunyoda – Allah nimani buyursa o'shani qilib, ibodat va itoat qilib o'lish majburiyatini bo'yniga olishi muqarrar degan g'oyani ilgari surmoqda. G'arb badiiy tafakkurida – insonning biologik o'limidan ko'proq psichoanalitik o'limi

qiziqtirib keladi. Shu boisdan ham, biologik o'limga shaxs har kuni tayyor turishi mumkin, o'zi bilmagan holda, ammo psixologik o'lim oldida – tasavvurning o'zi dosh berolmasligi mumkin deydi.

Xorxe Luis Borxesning "Odam Ato taqiqlangan mevani yeb, avlodlarini gunohga botirdi, Iso esa odamlarning bu gunohini yuvish uchun chormixga tortildi. Iso qatl etilgan xoch Odam Ato mevasini yegan daraxtdan yasalgan", - deydi. Binobarin, o'lim bilan bog'liq badiiy asarlarning aksariyatida – voqelik to'qib chiqarilar ekan, hayotda insonning shunday qismati bo'lganligini va uni qay tariqa yozuvchi amalga oshirishi bilan bog'liq mistik hikoyatlaru rivoyatlarga bezaganligida qabarib ko'rindi. O'lim – insonni ruhan va jisman kuchli bo'lishga o'rgatar ekan, yozuvchi ana shu ikkilik orasidagi badiiy hoyani o'quvchiga turli shakllarda tushuntirishga odatlanganligida namoyon bo'ladi.

O'zligini anglagan shaxs har qanday qiyin vaziyatda – o'limni ham anglaydi. "Inson o'z-o'zini anglashida ham shaxsiy mahdudlikka berilmay, muayyan axloqiy qadriyatlarga, huquqiy mezonlarga tayanmog'i kerak.

Hayotda har bir shaxs o'zining xatti-harakatlariga, qilmishlariga o'zi baho berishga odatlanib qolgan. Biror ishni qilishni o'z manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda zarur deb topdikmi, uni amalga oshirishga haqlimiz, deb o'yaymiz. Inson, ba'zan jamiyatda yashayotganini, o'zining hayoti, maqsadlari, orzu-umidlari boshqalarning ham hayoti bilan, manfaatlari bilan bog'liq ekanini unutib qo'yadi, xatosidan ko'ra yutuqlarini ko'proq ko'radi, o'zi haqidagi har bir fikrni "yaxshi", "adolatli" degan nuqtadan boshlaydi. O'ta yomon jinoyatlar qilgan odam ham o'z qilmishlarini oqlash uchun ma'naviy asos izlaydi. Konfutsiy aytganidek, "kamdan-kam odam o'z xatosini vijdonan anglab, ularni qoralaydi".

Bu inson o'zini-o'zi to'la va to'g'ri anglashi yo'lidagi jiddiy g'ovlardandir. Boshqalarni, ularning mushtarak manfaat va maqsadlarini anglay olmagan shaxs o'zining mohiyatini xolis anglashga ham qodir emas. Inson o'zini anglashi boshqalarini ham xolis anglashga intilishi bilan bog'lanmog'i kerak. Bu ham Sharq falsafasining asosiy qadriyatlardandir" [3]. Haqiqatdan ham, faylasauf E.Yusupovning falsafiy-psixologik qarashlari o'limni ham tushunib, uni asosli ravishda idrok etishga yznaltiradi. Shaxs – butun bo'lishi uchun u Xudoni tanishi va dunyonni biliши, o'zligini tushuntirishi kabi bosqichlarni ham qamraydi. Sharq va G'arb olamidagi o'lim motivlari ham ayni shu bir ildiz – Alloho biru borligini anglab yetish yo'lidagi zahmatlaridan bino bo'lganini yuzaga chiqaradi.

Prof. X.Hamroqulova qayd etishicha: "Moniylik adabiyotida, xususan, "Xuastuanift"da moddiy olamdan tashqarida inson uchun davom etadigan hayot borligi va odamzod shunga erishish uchun intilishi uqtiriladi. Yigirma beshta yig'ma matndan iborat bo'lgan mazkur asar bandaning Yaratgan qarshisidagi tavba-tazarrusidan iborat. "Xuastuanift"da insonning o'limdan keyingi hayotni his qilishi, o'zini Yaratganning mahluqi deb hisoblashi, nihoyat, hayot va o'lim Yaratganning in'omi ekanligini biliши anglashiladi. Ko'rindiki, o'lim masalasiga islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot namunalari ichida moniylik oqimida alohida e'tibor qaratilgan. Buni insoniyatning xudoni anglashga tomon jiddiy qadami bo'ldi deyish mumkin. Dunyo tamaddunida iz qoldirgan mamlakatlar badiiyati namunalariga nazar tashlanganda ularning adabiy-estetik tafakkur tarixida hayot va o'lim masalasi yetakchilik qilgan, madaniyat tamadduniga poydevor bo'lgan" [4]. Binobarin, hayot va o'lim orasidagi muayyan mavjudlik jumbog'i har birimizni diqqat bilan mulohaza yuritishimizga olib keladi. G'arb adabiyotidagi o'limning badiiy adabiyotdagi in'ikosi – o'zbek nasrida shu qadar turli shakllarda qo'llanildiki, xususan, XX asr boshlariga kelib, A.Qodiriyning "O'tgan kunlar"ida – Kumush o'limi, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, A.Qahhor va juda ko'plab yozuvchilarning badiiy izlanishlarida o'lim mavzusining bir-biridan jiddiy tafovutlangan tasvir shtrixlarini ko'ramiz. Unda millat ongi va saviyasi, egoistik qarashlarning jamiyatga ko'chib o'tishi, bitta odamning butun oilani parokanda qilishi, yetti o'lchab bir kesilmagan taxminiy qarorlar millat fojeaviy turmushining izdan chiqishiga olib kelganligini uchratamiz. Natijada, o'limning adabiyotga ta'siri – birinchi jahon urushi yillaridagi G'arb ekzistensial falsafasining moddiy dunyodan ham ma'naviy dunyodan ham ajralib chiqishiga olib keladi. Demak, o'lim umumbashariyat ekzistensial falsafasining moddiy dunyodan ham ma'naviy dunyodan ham ajralib chiqishiga olib keladi. Demak, o'lim umumbashariyat oldidagi

ulkan streetip muammolardan biri ekan, har bir millat o'z qarichi bilan muhokama qilib, uni ilmiy asoslashdan nariga o'tolmasligi shundan dalolat beradi.

Xulosa shuki, o'lim mavzusi nihoyatda xilma-xil va turli-tuman falsafiy oqimlar negizida namoyon bo'lib, badiiy adabiyotda – inson omili bilan, yakka shaxs sababkori bilan natijasiz yakun topishi shundandir. Badiiylik shartlari va mezonlarining bir-birini to'ldiruvchi mohiyatida o'lim mavzusi bugungi badiiy asarlarda ham texnogen dunyo qiyofasini to'laqonli namoyon etishga imkoniyat beradi. Zero, global dunyoda o'limning ham oldingi davrlarga qaraganda anchayin turlarga ajralgani bor gap. Zamonaviy dunyo odamida o'lim vahmini anglash ekzislari ham tobora siqiq bir olamni kashf etishga rag'bat uyg'otganligida seziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулла Шер. Абадият ва умр. –Т: “Файласуфлар”. 2017.
2. Умар Ҳайём. Рубоийлар. –Т: “Мехнат”. 1990.
- 3.<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/erkin-yusupov-sharg-falsafasi-va-insonparvarlik/>
4. Ҳамроқулова Х. XX аср ўзбек насида хаёт ва ўлим муаммосининг бадиий талқини. Филол.фан.док.автореферати. –Т: 2018.

UO'K 81'271.2

INGLIZ TILI KOMMUNIKATSION DISKURSIDA HAMKORLIK TAMOYILI HAMDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYASI

N.K.Ro'ziyeva, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotation. Turli xil suhbatlarni tahlil qilar ekanmiz, shuni guvohi bo'lamizki, ularning hammasi ham hamkorlik tamoyili asosida olib borilmaydi. Ba'zi holatlarda muloqot normalarini ataylab buzilish hodisalari ham kuzatilishi mumkin. Ko'pgina hollarda, Hamkorlik prinspining buzilishi xushmuomalalikni namoyon etish maqsadida amalga oshirilib, bu muloqot implikaturasini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: Hamkorlik prinspi, Xushmuomalalik tamoyili, muloqot implikatura, pragmatik yondashuv, maksimal, illokutiv ma'no.

Аннотация. Анализируя конкретные разговоры, мы можем видеть, что не все разговоры ведутся по принципу сотрудничества. Известны также случаи намеренного нарушения этих норм в разговоре. Во многих случаях это нарушает этот принцип и создает разговорную импликацию, которая в значительной степени обусловлена вежливостью.

Ключевые слова: Принцип сотрудничества, принцип вежливости, разговорная импликация, pragматические рассуждения, максимум, иллоктивное значение.

Abstract. Through the analysis of specific conversations, we can see that not all conversations are conducted according to the cooperation principle. There are also cases of deliberate violation of these norms in conversation. In many cases, it violates this principle and produces conversational implicature, which is largely due to politeness.

Keywords: Cooperation principle, Politeness principle, conversational implicature, pragmatic reasoning, maximum, illocutionary meaning.

Kirish. Kundalik muloqotda, suhbatlarning aksariyat qismi insonlar orasida og'zaki muloqot orqali amalga oshiriladi. Avvalambor, muloqot deb, ikki va undan ortiq kishilarning bir-birini to'ldirishi, suhbat, bahs, munozara, intervju va yana boshqa ko'rinishlariga aytildi. Asosan kishilar muloqotni muayyan mazmunni ifodalash yoki, qaysidir maqsadni amalga oshirish uchun qonun-qoidalarga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Garchi shunday bo'lsada, ba'zi hollarda kishilar tomonidan bu qonun-qoidalalar turli sabablarga ko'ra buzilishi mumkin.

Umuman olganda, har qanday muloqotda 2 xil ma'no mujassamlashgan bo'ladi. Birinchisi, so'zlovchi aytgan so'zları va gaplaridan anglashiladigan ma'no, keyingisi esa, so'zlovchi aytgan jumllalari orqali ifodalashni nazarda tutgan ma'nosidir. Ular orasidan, so'zlovchi yetkazishni maqsad qilgan, ya'ni ko'zlangan ma'no - muloqot implikatura deyiladi. [1]. Dai Weidong, Xu dingfang,

Zhou Xuelin, Chen Xiafang. Introduction to Modern English Linguistics [M]. Shanghai Foreign Language Education Press, 1998, 8.

Shuning uchun, suhbat ma'nosini aniq tushunish pragmatik yondashuvni hamda so'zlovchi haqida bazaviy ma'lumotlarga ega bo'lishni talab etadi. Bu o'rinda ma'noni tushunish uchun hamkorlik tamoyili (cooperation principle) muhim rol o'ynaydi. Hamkorlik prinispida kommunikantlarning hamkorlik qilishga tayyorligi nazarda tutiladi va bu tamoyil amerikalik faylasuf Gerbert Pol Gris nomi bilan bog'liq. Hamkorlik tamoyili kommunikantlarning har biri (muloqot ishtirokchilari) muloqotning muvaffaqiyati uchun talab qilinadigan hamma narsani qilishga harakat qilishini ilgari suradi.

Garchi hamkorlik prinpsi muhim tamoyil hisoblansada, u yagona tamoyil emas. Ba'zan muloqot ishtirokchilari ataylab hamkorlik tamoyilini buzib, o'z g'oyalarini yashirin, yoki bilvosita ifodalashi mumkin. Hamkorlik tamoyilidagi yetishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida, Lich, britaniyalik tilshunos, muloqot implikaturasini yaxshiroq namoyish etadigan xushmuomalalik prinpsi (politeness principle)ni taklif etadi. Lichning fikricha, ijtimoiy maqsad - yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishdan iboratdir va bu maqsadni ta'minlovchi vosita xushmuomalalik kategoriyasidir. [2]Safarov Sh. Pragmalingvistika. Samarqand., 2007 yil, -B.92.

Tadqiqot obyekti. Suhbat mazmunini muloqot ishtirokchilariga yetkazishga xizmat qiluvchi 2 prinpsi ya'ni, birinchisi Grisning hamkorlik prinpsi hamda Lichning xushmuomalalik prinpsi asosida tahlil ostiga olingan diskurs quyidagi tadqiqotning obyekti hisoblanadi. Bu prinsplar o'z navbatida bir necha maksimallarga bo'linadi. Bu maksimallar so'zlovchining adresatga nisbatan kommunikativ majburiyatlar deya ta'riflanadi.

Grisning hamkorlik prinpsi 4 maksimaldan iborat:

1. **Miqdor maksimali** - suhbat maqsadiga erishish uchun detallarning darajasi muhim hisoblanadi. Aytayotgan fikrni juda batafsil yoritish emas, balki faqat so'ralgan narsaga javob berish talab etiladi;

2. **Sifat maksimali** - xato deb bilgan fikrni aytmaslik, ishonchingiz komil bo'lмаган narsani tarqatmaslik majburiyati;

3. **Muvofiqlik maksimali** - fikrlar bir-biriga bog'liq hamda muvofiq kelishi kerak.

4. **Tartib maksimali** - noaniqlikdan qochib, aniq va tartibli so'zlashish talabi.

Shuningdek, Lichning xushmuomalalik tamoyili ham o'z navbatida 6ta maksimal asosida tuzilgan va ular quyidagilar:

1. **Xushmuomalalik maksimali** - boshqalar kamroq zarar ko'rib, ko'proq manfaatdor bo'lishlarini ta'minlash;

2. **Saxiylik maksimali** - o'zga ko'p zarar yetkazmaslik hamda ko'p manfaat ko'zlamaslik talabi;

3. **Tasdiq maksimali** - boshqalarni qoralashni, ayblashni minimallashtirib, maqtovni ko'paytirish sharti;

4. **Kamtarlik maksimali** - o'zini maqtashni kamaytirib, ko'proq mas'uliyatni o'zga olish;

5. **Kelishuv maksimali** - o'zi va boshqa kishi (suhbatdosh) bilan o'rtasidagi tafovutni kamaytirib, kelishuvga ko'proq urg'u berish;

6. **Hamardlik maksimali** - suhbatdoshga nisbatan norozilik yoki xusumatni kamaytirib, hamardlikni oshirish talabi.

Tahllilar va natijalar. Hamkorlik prinpsi hamda xushmuomalalik tamoyilining maxsus diskurslarda qo'llanilishi. Nazariyaga ko'ra, hamkorlik prinpsi har bir so'zlovchi tomonidan amal qilinishi kerak. Shunday bo'lsada, kundalik muloqotda turli xil vaziyatlar taqozosi bilan prinpsi qoidalari buzilib, muloqot implikaturasi yoki illokutiv ma'nou yuzaga kelishi mumkin. Quyida har bir vaziyatga izoh berib o'tamiz. Dastlab, hamkorlik prinpsi asosida olib borilgan suhbatlarga misol keltirib, har bir gap o'z ma'nosida kelganligiga guvohi bo'lamiz:

1. A: *How many sisters do you have?*

B: *Three.*

1-misolda B so'zlovchining javobi hamkorlik prinispining miqdor maksimaliga muvofiq ravishda keltirilgan.

2. A: *Do you think Jack is a suitable person to do this job?*

B: Yes, absolutely.

B suhbatdoshning javobi aytayotgan fikrini to'g'ri ekanini ifodalab, agarda unda buni isbotlash uchun yetarlicha sabab bo'lsa, demak bu javob sifat maksimaliga butunlay to'g'ri keladi.

3. A: How did you like the collection?

B: I think it wonderful.

Dialog to'g'ri, undagi gaplar bir-biriga muvofiq tuzilgan bo'lib, u muvofiqlik maksimali asosida tarkib topgan.

4. A: Mary's skirt is beautiful, isn't it?

B: Yes, I think so.

Bu yerda javob qisqa, lo'nda va qonun qoidaga amal qilinib tartib maksimaliga javob beradi.

Garchi, muloqot normalarining buzilishi xushmuomalalik qilish sababli yuzaga kelishini ko'p marotaba ta'kidlasakda, ko'p hollarda bu sababning aksini guvohi bo'lishimiz mumkin.[3] He Zhaoxiong. A Brief Introduction to Pragmatics [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2000, 3.

Navbatdagi keltiriladigan misollarda hamkorlik tamoyili buzilib, muloqot implikaturasi namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

5. A: Can you have dinner with us this evening?

B: I'd love to, but I'm afraid I can't.

Hamkorlik tamoyiliga ko'ra, B suhbatdosh bu savolga "ha, bora olaman" yoki "yo'q, bora olmayman" deb javob berishi kerak edi, ammo so'zlashuvda suhbatdoshlar bir-birini hurmat qilishi, suhbat mazmunini boshqa strategiyalar orqali yetkazishni talab qiladi va jumlalar qisqarishi, uzunlashishi, aniq yoki noaniq bo'lib o'zgarishi xushmuomalalik qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu usul do'stona muloqot muhitini yaratadi va insonlar orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

6. A: We'll all miss Bill and Agatha, won't we?

B: Well, we'll all miss Bill.

Bu yerda B suhbatdosh, hamkorlik tamoyilining miqdor maksimaliga zid holda Agathani aytmasdan faqat Billga ishora qilyapti, va bu qandaydir ma'no anglatish maqsadida shunday qilingan. Balki, u Agatha bilan yomonroq munosabatda bo'lishi mumkin va uni noqulay ahvolga solib qo'ymaslik uchun buni to'g'ridan to'g'ri aytmaydi. Xushmuomalalik yuzasidan ba'zi so'zlarni aytmaslik, tushirib qoldirish, uni yumshatib odob bilan aytish maqsadga muvofiqdir.

7. A: So what do you think of my new haircut?

B: Did you see the Blue Jays game last night? [4] Kingwell, Mark. Is It Rational to Be Polite? [J] The Journal of Philosophy 90 (8), 1993.

Quyidagi misolda hamkorlik prinspining muvofiqluk maksimali buzilganini ko'rishimiz mumkin. B ning javobi A ning savoliga aloqador emas va bunday javob bejizga berilayotgani yo'q. Bu vaziyatda A B ning shaxsiy fikrini so'rayapti, ammo B muayyan sabablarga ko'ra javob berishni xohlamayapti, suhbatdoshiga xushmuomalalik ko'rsatish maqsadida shunchaki suhbat mavzusini o'zgartirishga ishora qilyapti.

8. A: How do you like my painting?

B: I don't have eye for beauty, I'm afraid.

Bu misolda ham muvifiqlik yoki aloqadorlik prinspini buzish orqali B suhbatdoshini savoliga javob bermaydi. Balki surat B suhbatdoshga ma'qul bo'limganini aytmaslik uchun, kamtarlik qilish, o'zini aybdor qilish yo'lini tanlab, o'zining salbiy fikrini to'g'ridan-to'g'ri aytmaydi, antijada illokutiv ma'no yuzaga kelib, xulosa qilish A suhbatdoshning o'zida qoladi.

9. A and B have a dialogue after watching the movie "perfect nine beauties":

A: I like the film very much.

B: Well, I like it to some degree.

B ning javobi aniq javob emas, va bu javobi bilan A suhbatdoshga noqulaylik tug'dirmaslik uchun, suhbatni davom ettirish hamda suhbatdoshi bilan konfliktga duch kelmaslik uchun ma'qullash yoki tasdiqlash prinspini tanlaydi.

10. A: English is a very diverse language to learn.

B: True, but grammar is quite easy.

So'zlovchilar ba'zan bir-xil fikrda bo'lmasalar, oldin sheringining fikrini ma'qullab, so'ng o'z fikrini bildirishi mumkin, garchi, fikr suhbatdoshning fikriga zid bo'lsa ham. Shuningdek, tanqid qilmoqchi bo'lgan suhbatdosh tahlil qilinayotgan kishini yoki narsani oldin ustunlik, yaxshi tomonlari haqida gapirib, so'ngra kamchiliklariga o'tsa, nisbatan tushunmovchiliklar hamda ziddiyatlarning oldini olgan bo'ladi.

Xulosa. Nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, hamkorlik tamoyili har bir so'zlovchi tomonidan qat'iy amal qilinishi lozim. Shunday bo'lsada, kundalik muloqotimizda ba'zan bu tamoyilni buzilish holatlari uchrab, muloqot implikaturasining yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Grisning hamkorlik tamoyili hamda Lichning xushmuomalalik tamoyili pragmatikaning ikki muhim prinsipi hisoblanadi. Hamkorlik tamoyili so'zlovchining ma'lumotlarini suhbatga moslash orqali muloqot ishtirokchilarining hamkorlikda ishslashga moyilligini bildiradi. Xushmuomalalik prinsipi esa, suhbatdoshlar orasidagi muvozanatni saqlab ular o'rtasida do'stona munosabatni yaratib beradi. Shu ikki asosga tayanib kishilar o'rtasida muloqot shakllanadi. Shuning uchun, kundalik muloqotimizni tahlil qilganda faqat hamkorlik prinspinigina emas, balki xushmuomalalik prinsipini ham inobatga olsak, suhbat ma'nosini tushunishimiz osonroq bo'ladi va muloqot o'z maqsadiga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shenyang. Fifteen Lectures on Linguistics [C]. Beijing: Peking University Press, 2005, 11.
2. He Zhaoxiong. A Brief Introduction to Pragmatics [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2000, 3.
3. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 371 446
3. Dai Weidong, Xu dingfang, Zhou Xuelin, Chen Xiafang. Introduction to Modern English Linguistics [M]. Shanghai Foreign Language Education Press, 1998, 8.
4. Kingwell, Mark. Is It Rational to Be Polite? [J] The Journal of Philosophy 90 (8), 1993.
5. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (1993). Cooperation in the Classroom (6th ed.). Edina, MN: Interaction Book Company.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. (monografiya). T.:2008 yil,56

UO'K 811.161.1'372+811.512.133'372

"MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASIDA SHE'R VA SHOIRLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR

*R.B. Saidova, ilmiy tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti, PhD, dots., Osiyo Xalqaro
universiteti, Samarqand*

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Majolis un-nafois" asari tahlil markazida bo'lib, boshqa tazkiralar blan qiyosan o'rganiladi. Turkiy, forsiy va arab adabiyotlaridagi tazkira namunalarida shoirlar va ularning ijodi xususida bildirilgan ilmiy ma'lumotlarga diqqat qaratilgan. Saolibiy, Avfiy, Farididdin Attor, Jomiy, Alisher Navoiy, Davlatshoh Samarkandi kabi tazkirananislarning qalamkashlar va she'r borasidagi fikrlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: tazkira, tabakat, shoir, she'r, bob, ravza, majlis, avliyo, memuar, biografiya.

Аннотация. В данной статье в центре анализа находится произведение «Маджолис ун-нафуа», а другие тазкиры изучаются сравнительно. Основное внимание уделяется научной информации о поэтах и их произведениях на примерах тазкиры в турецкой, персидской и арабской литературе. Анализируются мнения таких поэтов, как Саолиби, Авфий, Фаридиддин Аттар, Джами, Алишер Навои, Давлатшах Самарканди о писателях и поэзии.

Ключевые слова: тазкира, табакат, поэт, поэма, глава, равза, встреча, святой, воспоминания, биография.

Abstract. This article focuses on the scientific information about poets and their work in examples of tazkira in Turkish, Persian and Arabic literature. The opinions of tazkirananvis such as Saolibi, Avfiy, Farididdin Attar, Jami, Alisher Navoi, Davlatshah Samarkandi about penmen and poetry are analyzed. "Majolis un-nafois" work is in the center of analysis and is compared with other tazkiras.

Key words: tazkira, tabakat, poet, poem, chapter, ravza, meeting, saint, memoir, biography.

Turkiy shoirlar ilk tazkirasi XV asrning mashhur mutafakkiri Alisher Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” asari sanaladi. Bunda “*Ammo barchasidan burun o'tgan shuaro va erta kechgan fusohoning oti mazkur va sifoti masturdur va bu xujasta zamon va farxunda davron shuaro va xushta'blarikim, Sulton Sohibqiron yumni davlatidin va natijai tarbiyatidnn she'rning ko'prak uslubida, bataxsis g'azal tavrida barchadin dilosoroq va nishot afzoroqdur, tarkibi salosat va latofatin burung'ilarga yetkuradurlar va ma'ni nazokat va g'arobatin ulcha sharti bor, bajo kelturadurlar, otlari ul jamoat zumrasida bo'lmoqdin mahrum va so'zlari ul tartib va qoidada noma'lum uchun shikasta xotirg'a va sinuq kungulg'a andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuarosi bila bu davr zurofasi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung'i shuaro akobiri zaylida mazkur bo'lg'aylar va bu payravlar ham ul rahbarlar xaylig'a qo'shulg'aylar*”[5.B-1]. Turkiy shoirlar tazkirasi ushbu asrdan boshlangan va turkiy til rivojini ta'minlashda ham tom ma'noda hissa qo'shgan. Alisher Navoiy yozgan bu asardan so'ng turkiy adabiyotda XVI asrdan boshlab boshqa shoirlar tazkiralari dunyo yuzini ko'ra boshladi. Alisher Navoiy tomonidan 1491-yilda qalamga olingan ilk turkiy shoirlar ijodi namunasi nomini muallif nima sababdan “Majolis un-nafois” deb nomlaganini asar muqaddimasida izohlaydi. XV asrda Movarounnahr va Xuroson hududida yashagan forscha va turkcha she'r yozgan ijodkorlar hayoti tazkiralarda qamrab olingan. Ular boshqa manbalarda topilmaydigan juda ahamiyatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Alisher Navoiy tazkirasini Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asariga uyg'un tarzda sakkiz bo'limga ajratib har bir bo'limni “majlis” deya nomladi. Majlislar quyidagicha tasnif etiladi: birinchi majlis: Navoiy davrida yashab uning tavalludidan oldin vafot etgan qirq olti shoirning hayotini o'z ichiga oladi. Bu toifa shoirlar haqida nadomat bilan “*Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo'lmadim*”, — deya ular bilan bog'liq tarixiy va badiiy ma'lumotlarni zikr etadi. Ammo bu majlisdan o'rin olgan “soliki atvor va koshifi asror, ya'ni: Hazrati Amir Qosim Anvor” misralaridan birini misol tariqasida keltirib bevosita bolalik xotiralari bilan bog'laydi[5.B-2].

Bunda shoir makon va zamon jihatidan uzoq bo'lsa-da, ammo bolaligi bilan bog'liq rishtalari borligini qayd etadi. Tazkirada bir jihat e'tiborliki, xronologik ketma-ketlikdan tashqari yana tavsiflanayotgan shoirning shajarasidan qarindoshlari yoxud shogirdlari orasida ijodkorlar mavjud bo'lsa, izchillikda joylashuviga ham e'tibor qaratiladi. Jumladan, Qosim Anvordan keyin uning xalifasi Mir Maxdum va uning xalifasi Hofizi Sa'd haqida ma'lumot berilishi yaxlit tizimli asarda mantiq kuchining niroyatda mukammal ekanligidan dalolat beradi. Abdurahmon Jomiy haqidagi ma'lumotdan keyin shoirning inisi Mavlono Muhammad Jomiy hayoti va ijodining yoritilishi ham shu tizimlilikka qat'iy rioxha qilinganligini ko'rsatadi. “Majolis un-nafois” tazkirasida shoirlar taxalluslari haqida bir qancha qiziqarli va batafsil fikrlar mavjuddir. Taxallusning mazmun-mohiyati, tarixi sabablarini erinmasdan hijjalab izohlab beradi. Muallif ko'p taxallus qo'llagan shoirlarning taxalluslarining barchasini tarixga muhrlashga va ularni baytalar bilan dalillaydi. Misol uchun fikrimizni Mavlono Yahyo Sebak haqidagi ma'lumotlar dalillaydi: “*Mavlono Yax'yo Sebak... avval "Tuffohiy" taxallus qilur erdi. So'ngra "Fattohiy" ham taxallus qildi. Ammo "Xumoriy" va "Asroriy" ham taxallus qilibdur*”[5.1].

Ayrim shoirlarning taxallus tanlovi haqida keskin fikr bildiradi. Masalan, bir o'rinda “*Mavlono Bu-Ali — devona bo'lmasa erdi, "Bu-Ali" taxallus qilg'aymu erdi?*”, — deydi. Demak, Navoiy nazdida taxallus shoir ijodining tashrif qog'ozi vazifasini bajargan. Taxallus jiddiy o'ylab tanlanishi, unda ijodkorning estetik didi aks etishi lozimligiga e'tibor qaratiladi. Shu sababdan ba'zi ijodkorlarga hatto iltimos qilib taxallusini o'zgartirganligini aytadi. Misol uchun “*Mavlono Zamoniy — Mavlono Muhammad Omiliyning o'g'lidurkim, ikkinchi majlisda oti mazkur bo'ldi, "Vafoiy" taxallus qilur erdi. Faqir iltimosi bila "Zamoniy" g'a tag'yir berdi. Ikki jihatdin; bir jihat bukim, Sulton Badiuzzamon Mirzo mulozimi erdi, "Zamoniy" — taxallusining munosabati ang'a ko'p bor erdi; yana bir jihat bukim, Ahmad Hojibek "Vafoiy" taxallus qilur va she'ri mashhurdur va devoni ham bor. Munosib ermas erdikim, ulug' kishiga bejihat taxallusda sherik bo'lg'ay*”[5.3], — deydi.

Mazkur tazkirada, asosan forsiy va kam miqdorda arabiylar, turkiy tilda yozilgan she'riy baytalar keltiriladi. Turkiy tilda ijod qiluvchi turkigo'y shoirlarning ijod qiladigan tili turkiy til ekanligi, shoirning turk ekanligini ona tiliga ehtiromi yuzasidan alohida urg'u berib ta'kidlaydi.

Masalan, Gadoiyning ijodi haqida to'xtalarkan, turkig'o'yligidan iftixor tuyganligi sezilib turadi. Turkigo'ylardan qator namunalar keltiradi: "Mavlono Hoji Abulhasan — turkdir...chun tab'i xub erdi, she'r ayturg'a mashg'ul bo'ldi. Bu turkcha matla' aningdurkim:

Kelibtur ul gulu bir hafta turub boradur,

Bu o't ko'ngulga tushub jonne kuydurub boradur"[5.1].

Alisher Navoiy zamondosh shoirlar orasida arab tilida ijod qiladiganlari borligini zikr etadi, baytlaridan namunalar keltiradi: "Sulton Ibrohim Mushasha' — Sulton Muhsinningki, Arabistonda podshohdir, aning inisidur. Donishmand va muttaqiy va bag'oyat ahl kishidur va xattot ham bor va arabiyy she'rni yaxshi aytur va devoni ham bor. Bu bayt aningdurkim:

Sol-al habl fiymo bayn folibin soyil

Fikam jazz haddalabin mobayn kam habl"[5.23]

"Majolis un-nafois"da temuriy shoh va shahzodalar shoirlarni qo'llab-quvvatlaydigan, ijodkor, ma'rifatparvar hukmdorlar sifatida e'tirof etiladi. Mirzo Ulug'bek, Abdullatif, Ahmad Hojibek, Bobur Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn Boyqarolarning iltifotiga sazovor bo'lgan qator shoirlarni qayd etadiki, bu ma'lumotlar shu podshohlar zamonida shoirlarga alohida iltifot va mulozamat ko'rsatilganligidan dalolatdir. Shohlarning o'zları ham shoirlarga shogird tushganligi ijod ahliga bo'lgan beedad iltifot va ehtiromdan darak bergenligini ko'rsatadi: "Shayx Sadreddin Ravosiy — ul dag'i Shayx Zayniddin xo'lafosidindur. Shayx zebo va ra'no erdi. Shakli dilpisand va haqoyiq va maorif aytmog'i dildirib erdi. Sharif suhabatig'a faqir musharraf bo'ldum. Badaxshon shohig'akim, anga murid bo'lub erdi, "Fusus" dars aytur erdi, ko'pglumni base sayd qildi. Zamon podshohi ham shayx mulozamatig'a yetar erdi, o'zga xaloyiqg'a xud ne yeggay!" Bu kabi shuaroga hurmat va mulozamat ko'rsatgan hukmdorlar qatorida sulton Abusaid Mirzoning Oqsaroyni bezatganda imoratning kitobasiga buyurtma she'ri ma'qul bo'lganligi boisidan shoh hurmatiga sazovor bo'lgan hirotlik shoir Mavlono Ishqiyni misol tariqasida keltirish mumkin.

Alisher Navoiy shoirlarning kasb-kori xususida yoza turib, nog'orachi, sipohiy askar, kamardo'z, kissado'z, kosagar, naqqosh, do'kondorlikni o'ziga halol rizq keltiruvchi kasb sifatida tanlab, shoirlikka faqat ko'ngil mayllarini ifodalovchi ilhomlaniruvchi vosita sifatida qaraganliklarini aytadi. Masalan, Hoja Avhad Mustavfiy haqida fikr yuritar ekan, falakiyotda shuhrat qozonganligini qayd qilib, "Mavlono Abdulvahhob — donishmand va zufunun kishi erdi va Mashhad shahrida kozi erdi. Mavlono Muhammad Ne'matobodiy — Pahlavon Muhammad xizmatida ul buq'aning imomi erdi. Chun Pahlavon majlisida she'r va muammo ahli doimbor erdilar, ul dag'i muammog'a ishq paydo qildi va Pahlavon ba'zi zurafog'a suporish qildi, oz fursatda yaxshigina o'rganib ayta boshladi" [5.34.], — deydi.

Shuni aytish lozimki, tazkira o'sha davr ijodkorlari haqida shunday yaxlit tasavvur beradiki, hatto kichik bir detal ham Alisher Navoiyning nazaridan chetda qolmaydi, shoirlarning kasalliklariga qadar mayda detallargacha urg'u beriladi. Masalan, ko'z og'rig'i, og'iz og'rig'i kabi kabi xastaliklar bilan shoirlarning xastalanganligi, vafot etgan shoirning qaysi kasallik sababidan dunyodan o'tganligi haqidagi ma'lumotlar juda ochiq ifodalanadi. Xusan, "Mavlono Orify...Mavlononing dag'i ko'zi og'rig'onda javob aytibdur", - deydi.

Shuningdek, tazkiradan she'rlarning janr xususiyatlari, mavzulari haqida ham juda ahamiyatli ma'lumotlar o'rin olgan. Alisher Navoiy hajviy va hazil she'rlar zamonda juda mashhur ekanligini bir necha o'rinda qayd etadi: "Mavlono Jununiy — hiriylidur. Ammo nazmda tab'i hajv va hazl sari moyil erkandur. Xoja Hofiz Sharbatiy bila aning orasida nizo'voqe' bo'ldi va ul munozaatni hajv qildi va xaloyiq ul hajvni yod tuttilar va yaxshiroq she'rlari bu jihatdin bartaraf bo'ldi va ul hajv chun mashhur erdi" [5.45].

Tazkirada badiiy san'atlar (ilmi sanoye')ga adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan berilgan baho, keltirilgan misralardagi san'atlar bilan bog'liq jihatlar o'zi maxsus ilmiy tadqiqot bo'lguilik salmoqqa ega bo'lganligidan biz faqat ayrim misollar bilan cheklanishni lozim deb topdik. Tajnis san'atida Mavlono Muhammad Amin "dilbaram" so'zini yetti o'rinda keltirganligi, bu ishi bilan zamon podshosi Bobur Mirzo tahsiniga sazovor bo'lganligini qayd etiladi. Bundan tashqari ilmi aruzning ham mavqeい baland ilm ekanligi, Darvesh Mansurdan bu yo'nalishda ikki aruz tasnif qilganligi zikr etiladi. Yana bir o'rinda shoir Mirzobekning ijodi haqida to'xtalib,

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,

Kim jonga qaro balo bo'lubtur, — matla'sini tahlilga tortadi.

Shoir bunda baytdagi zulqofiyatayn va qofiyalaridagi tardi aks san'atlarini ta'kidlab o'tadi. Ikkinchi majlisda shoirning bolalik va yoshlik davrlarida hamsuhbat bo'lgan faqat asari tugallangan vaqt (1491-yilda) hayot bo'lmanan to'qson uch shoir haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy olti yoshida Sharafiddin Ali Yazdiyning duosiga musharraf bo'lganligini, Samarqandda tahsil umidida yurgan chog'larida Xoja Abdulloh Abullaysiyning farzand qatorida sanalib iltifotiga noil bo'lganligi, musofirlilikda oyog'i sinib xastalanganda Mavlono Uloj Shoshiyning huzuriga borganini va bu uchrashuvlar unga shoirlilik pillapoyalaridan yuqorilashda ahamiyat kasb etganligini yozadi.

Alisher Navoiy zamondosh shoirlarning rahnamosi sifatida yosh shoirlarning she'rlariga munosabat bildirgan, o'rni bilan tanqid ham qilgan edi. Mavlono Yusuf haqida she'rda xomlik bo'lsa, ustoz sifatida isloh qilganligini aytadi. Shunday shoirlardan biri bilan kechgan holatni tafsilotlari bilan boricha "Majolis un-nafois"da tasvirlab beradi. Unga ko'ra, "Mavlono Xusraviy — da'volik va buzurgmanish va tundxo'n kishi erdi. Faqir qoshig'a ba'zi mahalda she'r keltursa erdi, burunroq andoq kalom surar erdikim, daxl qilmoq yo'li bog'lanur erdi. Zaruratan barcha she'rni tahsin qilmoq kerak erdi". Ulug' so'z ustasining fitratida zakiylik, so'zga chechanlik bo'lganligidan bir she'r majlisida Ayoziyning o'qiyotgan qasidasi so'zidan, uslubidan, mazmunidan shoirdan oldin har baytning qofiyasini aytaveradi. Ayoziy juda hayratlanadi. Uch yildan keyin yana uchrashib qolganlarida qofiyani muallifidan oldin boz aytib muallifni hayratlantiradi. Bu paytga kelib Ayoziy kozi ko'rmay qolganligida Navoiyni tanimaydi. Ammo yana shunday zakiy bir yigitni uch yil oldin ham uchratganligini aytishi daho shoirning zarofati tan olinganligini ko'rsatadi. Zamonasining mashhur shoirlari Atoyi, Lutfiy, Sakkokiy, shoirning tog'alari Kobuliy va G'aribiy, Sayid Hasan Ardasher kabi mashhur kishilar to'g'risida adabiyot tarixi uchun muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan Navoiy uchinchi majlisda o'z davrida mashhur bo'lgan va shoir bilan yaqindan do'stlik munosabatini qurban bir yuz yetmish uchta shuaroning hayotini yoritadi. Iftixor bilan Nuriddin Abdurahmon Jomiydan boshlab, Hirotdagi ilm talab qilib kelgan yosh talaba shoirlarga qadar to'xtalib o'tadi. Hatto o'n to'rt yoshli mashhadlik Sayyid Abdulatif muammo janrida qobiliyatni taajublanarli darajada baland ekanligidan hayratlanib, Hirotda zamondosh yosh shoirlarning ko'plari juda kichik yoshda ekani, bu yerga tahsil niyatida kelganliklarini ta'kidlaydi. Ulardan ayrimlari, masalan, Shoh Alining o'z madrasasida tahsil olganligi haqidagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlagani, ularga g'amxo'rlik qilganligidan dalolat beradi. Mavlono Hoji Muhammadni o'ziga farzand, balki undan ham azizroq deb hisoblaganligi shams ul-millat shoirning insoniy bag'rikengligini anglatadi. Tazkirada shoirlar haqida barcha haqiqatlar bo'yab-bejalmasdan boricha tasvirlanadi. *"Xoja Muso — o'zin she'rغا mansub qilur va el qoshida she'rлар o'qur. Aning ahvolidin sohibi vuquf el qoshida muqarrardurkim, tab'i nazm emas, yormaq berib, bu toifag'a o'z otig'a she'r ayturur"*

To'rtinchchi majlis mashhur olim bo'lishdan tashqari shoirlilikda ham shuhrat qozongan 72 shoirni o'z ichiga oladi. Bu bobda Mavlono Xondamir, Muhammad Solih kabi bir qancha adabiyot, san'at kishilari haqida ma'lumotlar beradi. Beshinchi majlis xuroslik Mirzolar va temuriylar oilasiga mansub yigirma uch shoirning hayoti haqida hikoya qilsa, oltinchi majlisning mazmun-mundarijasi Xurosandan tashqarida yashagan shoir va olimlardan o'ttiz bir kishi hayotini qamrab oladi. Ularni Navoiy hazratlari "*Xurosordin o'zga mamolik fuzalo va zurafosi zikridakim... shiringuftor "va sohibdevon va ash'ordurlar"*" — deya ta'rif etgan. Yettinchi majlis sulton va shahzodalar orasida she'rni yoqtirgan va go'zal she'r mutolaa qilgan yigirma ikki kishining ta'rifidan iborat. Ularni ehtirom bilan tilga olib hukmdorlik taxtida o'trib she'r bilan mashg'ul bo'lganliklarini e'tirof qiladi. Bir o'rinda "*Temur Ko'ragon — agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'quq 'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor[11.106]"*", — deydi. She'r o'qish, ijod qilish, shoirlarga munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishi Husayn Boyqaro zamonida haddi a'losiga ko'tariladi. Nihoyat, so'nggi sakkizinchchi majlis Sulton Husain Boyqaroga bag'ishlanadi. Bundan tashqari, Mirzo Husayn devonidan o'rin olgan g'azallarning matla'lari bir-bir qalamga olinib, ba'zilarining izohi ochib beriladi. Bu majlis hajm jihatdan asarning beshdan bir qismini o'z ichiga oladi. Bolalik do'sti

hammактаби bo'lgan hukmdor shoирни madh etadi. Ammo bu maqtovlar quruq maddohlik emas, samimiy bir shaklda amalga oshirilgan.

Alisher Navoiy armug'on etgan bu qiymatli asar turkiy adabiyotda she'r va shoirlik mazmunini yoritish uchun juda ahamiyatli tazkira hisobланади. Bu janridagi shundan keyingi asarlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan kashfiyat hamdir. XVII as tazkirachilik an'anasi ahamiyati yo'qolgan bir davr bo'ldi. Bu davrda ontologiya tipidagi tazkiralalar maydonga keldi. Bu asrda qalamga olingan tazkiralarda zamondosh shoirlarga keng o'rin ajratganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun tazkiranavislarda qalamga olingan ma'lumotlar takrorlanishi an'anaviy bo'lgani uchun biografiyalarga juda kam, qisqa o'rin berildi. Tanlangan she'r namunalariga esa birmuncha keng o'rin ajratilgani kuzatiladi. Bu davr tazkiralari an'anaviy yozilgan shu ko'rinishdagi asarlarga yordamchi hisobланади. Asosi o'tgan asrlarda qo'yilgan va keyingi davr taskirachiligidagi yaxshi asarlarning dunyoga kelishida asos bo'lgan asarlar. Bu vaqtga kelib Eron, Turkiya, Ozarbayjon hududlarida yozilgan tazkiralalar ham o'ziga Hirot maktabi tazkiralardan andoza oлган va hatto asarning joylashish tartibini ulardagi kabi rejalashtirgan. Bunday an'anaviylikni Davlatshoh Samarqandiy "Majmuat ush-shuarо" tazkirasida yaqqol ko'rish mumkin. Bu tazkira "Majolis un-nafois" asarining davomi sifatida qaraladi. Shayx ul-isлом Nuriddin Abdurahmon Jomiy "Bahoriston"ida ravzalar (bo'limlar) joylashuv tartibi ham bu silsilaning serhalqa intizomiga bo'ysunganligini yana bir karra isbotlaydi.

Tazkira janrining yana bir biz tadqiq qilayotgan mavzu bilan bog'liq ahamiyatli jihat shundaki, bu kabi asarlar muqaddima qismida she'r va shoirlikka doir tushunchalar ham tilga olinadi. She'rga doir ilmiy fikrlarni, adabiyot tarixi bilan bog'liq muhim dalillarni ham bu mazmundagi asarlarda uchratish mumkin. Tazkiralarda aynan bir ma'lumotning takror holda keyingi davrda yozilgan shunday janrdagi asarda qalamga olinishi kuzatiladi. Ammo bu takroriy ma'lumotlarda ham shoirlarning xalqqa manzur quyidagi toifasini ajratib olish qiyin emas. Tazkiralarda bir toifa shoirlar borki, ular ma'noda yangi topilmalar qilgan shoirlar bo'lib hisobланади. Yana boshqa ijodkorlar o'zidan oldin qalamga olingan mavzularga yangi bir ma'no qo'sha oлган shoirlar sifatida qaraladi. Tazkiralarda o'tmishda yaratilgan she'rdagi bir ma'noni juda bir go'zal shaklda yangidan ifoda etgan shoirlar ham uchraydi. Boshqa bir toifa ijodkorlar esa o'zidan oldingi qalamkashlar tomonidan ifoda etilgan fikrni boshqa yangi ma'nolar bilan yangidan ifoda etgan shoirlar sifatida kuzatiladi.

Xullas, qayd etilganidek, mumtoz adabiyotda shoirlar haqida eng asosiy ma'lumot beruvchi manba tazkiralalar hisobланади. Biz nafaqat mumtoz, balki jahon adabiyotshunosligida muhim manba bo'lgan tazkira janri haqida ayrim umumiy mulohazalarni bildirdik, xolos. Bu masala Sharq mumtoz poetikasida nihoyatda keng qamrovli soha bo'lib, uning har tomonlama chuqur o'rganilishi dunyo adabiyotshunosligi va adabiy-estetik qarashlari mohiyatini teran ochib beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. — Toshkent:
2. Tamaddun nashriyoti, 2018 yil
3. Ойбек.Навоийнинг "Мажолисун нафоис" асари ҳакида.—Т:Фан,1979 йил
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil
5. Хайитметов А. "Мажолис ун-нафоис"нинг ноёб бир нашри ҳакида // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 2004, №2.
6. Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to'plami. O'n yettinchi tom. Nasoyim ul-muhabbat. — T.: "Fan" nashriyoti, 2001 yil
7. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. — T.: "Yangi asr avlodи", 2007 -yil
8. Faniева С. "Мажолис ун-нафоис"нинг икки таҳрири//Халқ сўзи. – Тошкент, 2013. № 28.
9. Faniева С. "Мажолис ун-нафоис" ва "Замима" тазкиралар. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. Журнал, 2003, №1,2.
10. Internet saytlari: www.ziyouz.com www.google.uz www.google.ru

ADABIYOTSHUNOSLIKDA “SHE'R VA SHOIRLIQ” MUAMMOLARI ABDURAUF FITRAT TALQINIDA

R.B.Saidova, ilmiy tadqiqotchi, PhD, dots., Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya: She'r va shoirlilik masalalari Sharq va umumturkiy adabiyotning munozaraga boy mavzusi sanaladi. Maqolada shu muammo yechimiga tamal bo'lib xizmat qiluvchi Abdurauf Fitratning "She'r va shoirliq" mubohasasi borasidagi fikrlar tahlilga tortiladi. Fitratning she'rغا qarashlari, shoirlilik borasidagi fikrlari bevosita o'zining shoirlilik faoliyati, ham she'rlari misolida ochib beriladi. Mazmun, shakl, hissiyot kabi she'r bilan bog'liq jihatlarga ham to'xtalib o'tilgan. "Sayha" asari tarkibiga kirgan forsiy she'rlarining yangi tojik she'riyatiga ta'siri xususida adabiyotshunos Sadriddin Ayniyning ahamiyatlari fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: She'r, shoir, turkiy adabiyot, tojik she'riyati, sezim, tuyg'u, his, Abdurauf Fitrat, "Sayha", mubohasa, taqlid.

Аннотация. Вопросы поэзии и поэзии считаются богатой дискуссией темой в восточной и общетурецкой литературе. В статье анализируются идеи дискуссии Абдурауфа Фитрата «Поэзия и поэзия», которые служат основой для решения данной проблемы. Взгляды Фитрата на поэзию, его мысли о поэзии раскрываются непосредственно на примере его поэзии и стихотворений. Были также затронуты такие аспекты, связанные со стихотворением, как содержание, форма, эмоциональность. Представлены важные мнения литературоведа Садриддина Айни относительно влияния персидских стихов, вошедших в произведение «Сайха», на новую таджикскую поэзию.

Ключевые слова: Поэма, поэт, турецкая литература, таджикская поэзия, смысл, эмоция, чувство, Абдурауф Фитрат, «Сайха», комментарий, подражание.

Abstract. The issues of poetry and poetry are considered a topic rich in discussion in Eastern and all-Turkish literature. In the article, the ideas of Abdurauf Fitrat's "Poetry and Poetry" discussion, which serve as the basis for the solution of this problem, are analyzed. Fitrat's views on poetry, his thoughts on poetry are revealed directly on the example of his poetry and poems. Aspects related to the poem, such as content, form, emotion, were also touched upon. The important opinions of literary critic Sadriddin Aini are presented regarding the influence of Persian poems included in the work "Sayha" on the new Tajik poetry.

Key words: Poem, poet, Turkish literature, Tajik poetry, sense, emotion, feeling, Abdurauf Fitrat, "Sayha", commentary, imitation.

She'r va shoirlilik xususidagi adabiy mubohasa Abdurauf ijodining sara namunalaridan biri hisoblanadi. To'g'ri, she'r va shoirlilik degan tushuncha batamom yangi hodisa emas. Muallifning o'zi ham ko'plab ilmiy, adabiy asarlarida shu mavzuga ma'lum o'rinnarda murojaat qilgan. Ammo aynan shu mavzuda ilmiy mubohasaga qo'l urishining sababi turkiylarning she'r va shoirlilik tarixi nihoyatda qadimiylar va shonli ekanligining isboti himoyasiga chiqqanligi bo'lsa, yana bir jihat bu mavzuga aynan ijodkor ko'zi bilan qarab adabiy jarayondagi shoirning o'rni va she'rning asl qiymatini baholashdir. Shoir Abdurauf Fitrat bor-yo'g'i o'n yetti she'rdan iborat go'zal lirik jamlanmasi bilan yangi o'zbek she'riyatini boshlab bergan. Ko'p qirrali iste'dod egasi Fitrat ijod olamiga she'riyat orqali qadam qo'ygan. Kitobi o'zbek tilida "chorlov" ma'nosini anglatuvchi "Sayha" nomi bilan chop etilgan. "Sayha" she'riy to'plamiga fors tilidagi o'n to'rtta she'r kiritilgan. Bu she'rlar yangi davr tojik she'riyatiga qo'yildan ilk qadamlardan edi. "Namunayi adabiyoti tojik" nomli Sadriddin Ayniy tomonidan tuzilgan antologiyaga Fitratning ham forscha she'rlari kiritilgan [7]. Bu she'rlarning o'qirmanlar orasida tez tilga tushganligini Ayniy domla "Ta'rixi inqilobi Buxoro" asarida aytib o'tadi [6]. "Sayha" to'plamiga kirgan she'rlar she'rxonlar orasida shu qadar katta ta'sir doirasiga ega bo'ldiki, natijada bu she'rlar shoirning tug'ilgan zaminida ham matbuot nashrlarida chop etildi. [5] Masalaning yana diqqattortar jihat shuki, forsiy tilda yozilgan she'rlari bilan yangi davr tojik she'riyatiga tamal toshini qo'yganligini ko'plab adabiyotshunoslar e'tirof etadilar. O'tgan asrning 20-yillarida tuzilgan "O'zbek yosh shoirlari" majmuasiga ham Fitratning

o'zbek tilidagi she'riy ijod namunalari kiritiladi. Sadriddin Ayniy domla bir o'rinda "Fitratning she'ri haqida ana shuni aytish kerak: shoир o'zbek adiblari ichida birinchilardan bo'lib folklor shakllarida she'rlar yozdi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she'riyatimiz sohasida novatorlik edi" [6], - deydi. Ayniy domlaning fikrlarini Fitratning maqolasida urg'u qaratilgan ushbu fikrlar ham dalillaydi. [4] Olim Fitratning Sharq mumtoz she'riyatidagi barcha go'zalliklarni o'zida mujassamlashtirgani, an'anaviy she'riyatga vulqonday otlishi kabi yangicha to'lqin olib kira olganligini teran anglagan. Shoир Fitrat nazokatli romantik bo'lib, ijodkorning o'zi she'rlarini bekorga "rubobiy she'rlar" deya baholamagan edi. "Go'zalim, bevafo gulistonim..." she'rida mumtoz adabiyotga xos nozik tashbehlar, nafis o'xshatishlar qadim Sharq she'riyati go'zalligining davomi kabi ko'rindi.

XX asr adabiyoti she'riyatining o'zgarish yo`nalishlarini, tashqi shakllari va hissiy ifoda usullari jadidlar davri bilan bog`liq bo`lib, adabiy nazariyalar ham Fitrat kabi buyuk adabiyotshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobida har uchala adabiy tur haqida va yangi kirib kelayotgan janrlarga to`xtalib o`tish barobarida asl shakl va mazmun qanday bo`lishi kerak? degan bahsli munozara savollarga javob berilgan edi. [4] Fitrat she'r masalasida "qoidasevar"likni emas, balki pafosni ustun qo'yadi. Albatta, shoirdan inson qalbiga so`z orqali shakl emas, hissiyot ko`chib o`tadi. Shu joyda hissiyot bilan aloqador nuqtalar haqida ham so`z yuritishni lozim deb topdik. Abdurauf Fitrat she'rning nozik qatlari qadar nuktadonlik bilan tadqiq qilarkan, "she'r yurakdagisi sezgi to'lqunlarini so`z orqali tashqariga to'kmakdir" fikriga ham o'z munosabatini bildiradi [4].

Shoир she'r tuzilishida yangiliklarga urinsa-da, o'zbek tilining imkoniyatlarini ochib berib, turkiy til latofatini ko'z-ko'z qilar darajada isbotladi. Arab, fors tillaridagi so'zlarning soyasida nafosatini namoyon qila olmay qolib ketayotgan o'zbekcha so'zlarni she'rlariga olib kirdi. She'rlarida chorlov, uyg'otish mazmunini ham xalqimizning asil so'zlari orqali ifodaladi va ularning yuragiga shu sababli oson kira oldi.

XX asr o'zbek zamonaviy sheriyatining rivojlanishi, barmoq vazni taraqqiyoti yo'lidagi Fitratning sezilarli hissasini qayd etmaslikning iloji yo'q. Ensiklopedik shaxs hisoblanmish Abdurauf Fitrat dramaturg, olim, nosir, publisist bo'lish bilan bir qatorda iste'dodli shoир ham edi. Undagi shoirlarlik iste'dodi o'zbek hamda forsiy tilda yaratilgan she'riy jamlanmalaridan sezilib turadi. Fitratning "Shoир" deb nomlanuvchi she'riy ham bor. Bu she'r 1920-yil martda yozilgan bo'lib, Abdulhamid Cho'lponga bag'ishlangan. Bu xususda adabiyotshunoslikda Miyon Buzruk Solihovning dalillari ham keltirib o'tilgan. She'r bashariyat dunyosi ko'klari sari ko'tarilishi uchun ruhiga madad tilayotgan lirik qahramon tilidan aytildi [10].

Misralarda shoirlarning birlamchi vazifasi "gul yaprog'idan to'qilgan" inja so'zlarni "o'rab topshirish" ya'niki, she'rxonga yetkazib berish hisoblanadi. Shoир yuragida tug'ilgan tuygular haqiqatini eshitguvchi ko'ngliga ko'chiradigan mahorat sohibi, o'mni bilan topib aytigan timsollar esa uning "o'rab topshirish" vositasidir.

She'r davomida yoridan biror iltifot-u marhamat kutmagan shoир o'qirman kitobxonlardan madad tilanadi. Ingrab turgan jonini qo'llashlarini, ruhiyatiga mador bo'luvchi taskinni she'rxonlardan istaydi.

*Emish...Shoир sevgilisiga yozgan
Bir yozuvda qayg'ularini to'kmish,
So'zlarining eng oxirida ondan
Ruhi uchun oz ko'mak istamish.*

Shoир obrazi tasvirida dard kishisini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Uning ruhi "ma'shuqidan bir marhamat ko'rmay" muruvvatga kashal, ozurda jismida "ingrab turgan jon". She'rxondan ruhi uchun biroz ko'mak bermaklarini istaganlik umidi, ruh yuksakligi ilinji bilan she'r yakunlanadi. She'r sarlavhasini ochib beradigan ushbu misralar "Shoир kim?" so'rog'iga munosib javob bo'la oladi. "Bashariyat dunyosin nozli qanotiga qo'yub, uni ko'klar sari yuksaltkani" chog'langan shoир obrazi ohorli va benihoya go'zaldir.

Shoир
Ishq bog'ining tentak, singirli, yongan,

Bulbulidir. Bashariyat dunyosin
Kichik, nozli qanoti uzra qo'yar,
Ko'klar sari yuksaltkali talpinar.

Bu tasvir go'yo ko'z oldingizda sizdan qo'llaringizni qo'liga berish uchun izn so'rab turgan shoir obrazini chizadi. Go'zallar bir oz qo'llab, marhamat qilsalar, dunyonи nozik qanotlariga ortib, moddiy xilqatlarni ortda qoldirgan holda Ruhini ko'klar sari yuksalmoqchi. Balandlash, yuksaklarga ko'tarilish, samoviy hislar ruh parvozi – shoirlikning asil maqsadi shudir.

O'zbek adabiyotida birinchi bo'lib Abdurauf Fitrat shoir va she'r masalalariga alohida to'xtaldi. "She'r va shoirliq" nomli adabiy qo'llanma turkiy tazkiralardagi ayrim tugal bo'limgan uzoq-yuluq fikrlarni inobatga olmasa, shu mavzu yoritilgan ilk ilmiy manbadir. Maqola o'sha davr nashri "Ishtirokiyun" gazetasida yigirma to'rtinchи iyul, yigirma to'qqiz-o'ttizinchи avgust sonlarida bosiladi. 1919-yil shu maqola yaratilgunga qadar ham Fitratning badiiy va ilmiy asarlarida she'r bilan bog'liq nazariy fikrlar uchraydi. Ammo "She'r va shoirliq" maqolasi shu mavzudagi nazariy fikrlar tahlilga tortilgan. She'r va shoir bir planda, bir-biri bilan bog'lab o'rganilgan bu mubohasaga juda o'rini fikrlar jo bo'lgan. Maqolada dastlab she'r tarixi haqida to'xtaladi. She'r nima? Shoir kim? degan savollarga javob izlanadi. [4]

Qadim turkiy xalqlar azaldan o'z madaniyati tarixida she'r bilan payvasta holda hayot kechirishgan. Islom dini yoyilgunga qadar ham qadim adabiy boyligiga ega bo'lgan. Fitrat maqolasida qat'iy turib islom dini qabul qilingunga qadar turkiy xalqlarni she'rsizlikda yashagan, deb mulohaza yuritishni hech bir sabab bilan yoqlamaydi. Xalqini madaniyat, san'at va adabiyotda hech bir millatdan kam ko'rishni istamagan muallif fikrini qat'iy tonib bo'lmas dalillar bilan isbot qiladi. Turkiy xalqlarning o'z qadim she'riyati borligi xususidagi qat'iy hukmdan so'nggina adabiyotshunos nuqtayi nazari bilan she'r xususiyatlari haqida so'z yuritadi. She'rni ta'rif qilar ekan, arablarning nazariy fikrlariga tayanadi. Agar e'tibor berilsa, Fitrat she'rni vazn va qofiyadan iborat deb ataganida she'rga berilgan tamal ta'rif bo'lmas edi. Shu sababli bunday jo'ngina ta'rif maqola muallifiga ma'quil ko'rinxaydi. U vazn va qofiyadan she'r hosil bo'lishi xususida sodda fikrni ilgari surmaydi. "She'r nadur?" deya ko'ndalang qo'yilgan savolga quyidagicha isbot talab qilmas javob beradi: "She'rda kishilarning qonini qaynatg'uchi, singirlarini o'ynatg'uchi, miyasini titratguchi, sezgisini qo'zg'atg'uchi bir kuch, ma'naviy bir kuch bor. Shunday bir kuch bo'limg'an so'z "vazn" va "qofiyasi bo'lsun, she'r bo'la olamaydir" [4].

Taqlid shakllanayotgan shoirni vaqtinchalik qadam bosishga undab turadi. Shoir ta'biri blan aytganda, taqlid butun mahalla biladigan oqsoqolning chophonini boshqa birov kiyib yurganday gap. Ammo yaxshi ko'z bilan qaraymizmi, yomon ko'z bilanmi, zavq kabi taqlid ham ijod yaratlishiga omil bo'la oladi. Ana shu taqlidda ham o'ziga xoslik bo'lsagina ijodkor yozgan hisoblanadi. Yaxshi narsa o'qiganda kim ta'sirlanmaydi, deysiz? Ayniqsa, uning qalbida shoirlik zavqi jo'sh urib turgan bo'lsa. Baribir bu bahonalar originallikni cheklab o'tmaydi. Bu borada Fitrat o'z qat'iy fikrida turib, taqlid she'r haqiqatiga olib boruvchi yo'ldan uzoqlashtiradi, deb hisoblaydi. [4]

Fitratning maqolasida adabiyot dunyosida eng katta xatolardan taqlidchilik qoralanadi, "iyaruchilikdan turk she'rining boshini saqlamoq lozim", - degan qarash mudom ijodkorning asl maqsadi bo'lib qoladi. Bu xususda birgina mulohaza yurutayotgan maqolamizdagina emas, "Bedil" mubohasasida ham Fitrat tish-tirnog'i bilan ijodda taqlidchilikka qarshi ekanligini qat'iy ochiqlaydi. Yuqorida fikrlar sababmi ehtimol, Fitrat she'r borasida ham taqlidiy ta'rif bermaydi. Uning nazdida ta'rif shunday bo'lishi kerakki, taqlidga bag'ridan joy bermasligi lozim. Fitratning she'r haqidagi fikrlariga urg'u bergen ustoz adabiyotshunos Hamidulla Boltaboyev "...Fitrat ta'rificha she'r taqliddan ayirlangadagina uning qalbida yotgan pinhoniy quvvat "ma'naviy kuch" yuzaga chiqadi, ayni shu holatning o'zi she'rning haqiqatidir" [2], - deydi.

She'r xususida Sharq she'rshunos olimlari Atoullohusayniy, Ahmad Taroziy, Nizomiy Aruzi Samarqandiy kabilar ham o'z qarashlarini aytib o'tganlarki, umumiyl mazmuni bilan bu ta'riflar Abdurauf Fitratning bu boradagi fikrlariga hamohangdir.

Aynan Nizomiy Aruziy Samarqandiyning fikrlarida ham juda diqqat qaratgulik mazmun ifodalangan: "Shoirlik shunday san'atki, bu san'at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qiladi. Va ta'sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi" [1]. Aytish kerakki, hech bir shoir o'zi yashab turgan jamiyatni

ta'siridan uzoq bo'laolmaydi. Shu sabadan shoir Abdulla Orif "Sira ketolmasman asrimdan nari", - deganida haq edi. Ijtimoiy munosabatlarning shoir tuyg'ulariga ta'siridan shoir dilida she'r tug'ilib, tilga ko'chadi. Qachonki, misralar eshitguvchi yuragiga, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatsa, o'shanda haqiqiy she'r dunyoga keladi. Shoir ko'nglini junbushga keltirgan his-tuyg'ularini o'z ornida topib aytilgan so'zlar orqali she'rxonga yetkazadi. Bu jarayonda oddiy so'zlar timsollarga aylanadi, tashbehlar bilan boyiydi va o'quvchining dilini zabit etadi.

Xullas, "She'r va shoirliq" deb atalgan Abdurauf Fitrat qalamiga mansub shu birgina kichik maqola hali ko'plab yirik ilmiy ishlar uchun tamal bo'lib xizmat qiladi. Shu mo'jaz maqola Abdulhamid Cho'lponning "Sho'rolar hukumati va sanoyi' nafisa", Abdurahmon Sa'diyning "Go'zal san'at dunyosida", Vadud Mahmudning "Bugungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" kabi ko'plab ilmiy ishlarni boshlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nizomiy Aruzi Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985 yil
2. Boltaboyev H.Fitrat va jadidchilik. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 yil, 88-bet
3. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi., 2015 yil,114-bet
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). - T.: "Manaviyat", 2009 yil, 178-bet
5. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. I tom. -T.: 1976 yil, 99-bet.
6. Ayniy S. Ta'rixi inqilobi Buxoro. - Dushanbe: Adib, 1987.101-sahifa.
7. Ayniy S. Namunai adabiyoti tochik. - M.: Markazii xalqi Ittihodi jamohiri sho'raviiso'siyolisti, 1926, 534-545-sahifa
8. Boltaboyev H. She'r va shoirliq / "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi.1995.-16-iyun.
9. Komatsu. H. 20Yuzyil baslarinda Orta Asya'da Turkchuluk ve Devrim Hareketleri. - Ankara:1993. -S. 30-41.

UO'K 81'27(470+571)+510**ONA VATANGA MUHABBAT TUYG'USI IFODALANGAN PAREMALARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI****O.X. Sharipova, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq paremiologik fondidagi ona vatanga muhabbat tuyg'usi ifodalangan qator paremalar tadqiqot obyekti sifatida olinib, tahlil jarayonida, asosan, millatning o'zligini namoyon qiluvchi realiyalar izohiga urg'u qaratilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, realiya, beshik, Turkistan, Toshkent, Qarshi, Samarqand, ovul, to'garak, to'rkun.

Аннотация. В данной статье в качестве объекта исследования взят ряд стихотворений из паремиологического фонда узбекского народа, выражающих чувство любви к Родине, а в процессе анализа упор делается главным образом на объяснение реалий, которые показывают идентичность нации.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, реальность, колыбель, Туркестан, Ташкент, Карши, Самаркандин, село, тугарак, туркун.

Abstract. In this article, a number of paremas from the Uzbek people's paremiological fund expressing the feeling of love for the motherland are taken as the object of research, and in the process of analysis, the emphasis is mainly on the explanation of the realities that show the identity of the nation.

Key words: Motherland, patriotism, reality, cradle, Turkistan, Tashkent, Karshi, Samarkand, ovul, togarakh, torkhun.

Vatanga muhabbat va vatanparvarlik tuyg'usining yuksakligi, qayerda bo'lsa-da vatanga qaytishga, vatandoshlari bilan birga bo'lishga oshiquvchi millat sifatida o'zbeklar butun dunyo xalqlari orasida alohida ajralib turadi. Buni ular yaratgan hikmat durdonalaridagi asosiy mavzulardan biri vatan ekanligi va, ayniqsa, ular orasida vatan ta'rif-u tavsifi keltirilgan paremalarining salmoqli darajada ko'pligidan ham ko'rish mumkin. Bu turdagisi paremalar milliy-madaniy o'zligimizni

namoyon qiluvchi realiyalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqeahodisalarini ifodalovchi so'z va iboralar bo'lib, ular milliylikka yo'g'rilganligi boisidan o'zga tilli madaniyat vakillari uchun tushunarsiz va tarjima uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Realiyalar lingvomadaniyatshunoslik fanining o'rganish obyekti sifatida muqobilsiz leksika, ya'ni muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos bo'lgan, boshqa tilda to'la yoki qisman muqobilga ega bo'lmagan tushunchalar doirasida o'rganiladi. Realiyalarni milliy-madaniy asosda alohida tadqiq qilish til o'rganish va o'rgatishda, ayniqsa, bugungi texnika asrida mukammal doirada ishlab chiqilishi davr talabi darajasiga ko'tarilgan milliy til korpusimizni yaratishda muhimdir. Tilning kulturologik doirada o'rganilishi mazkur tilning leksik, frazeologik, paremiologik birliklarini atroficha tushunishga va natijada ushbu tilda yaratilgan barcha ko'rinishdagi matnlarni to'la anglashga xizmat qiladi.

Aytib o'tish joizki, realiyalarning qamrov doirasi va tasnifi borasida olimlar orasida birmuncha munozarali qarashlar mavjud. Shuni inobatga olgan holda biz tadqiqotimizda aniq chegarani belgilash maqsadida realiyalarga quyida keltirilgan V.Vinogradov tasnifi asosida yondashishni ma'qul deb topdik.

V.C. Vinogradovning tasnifida realiyalar olti guruhga bo'linadi[1]:

1. Maishiy realiyalar:

- kiyim va poyabzal nomlari: *kuloh, do'ppi, maxsi, kavush;*
- bino va obyekt nomlari: *kulba, igna, supa, so'ri, chayla;*
- o'Ichov va pul realiyalar: *arshin, tanga, chaqa, qarich, chaqirim.*

2. Tabiat olamiga xos bo'lgan realiyalar:

- tabiiy geografiya terminlari: *cho'l, savanna, qir, adir;*
- endemiklar: *buzoqboshi, beshiktervatar, kampirchopon.*

3. Etnografik realiyalar:

- udumlar, marosimlar, o'yinlar: *tamada, lapta;*
- mifologiya va diniy nomlar: *mufti, imom, mulla, qozi.*

4. Ijtimoiy-siyosiy realiyalar: *islohot, monarxiya, senat, majlis, elchi.*

5. Onomastik antroponom realiyalar (izoh talab qiluvchi mashhur shaxslar nomlari), toponimlar.

6. Assotsiativ realiyalar – animalistik belgilar, rang simvolikasi, allyuziya (lot. allusio – *kinoya, hazil*). Muayyan tarixiy yoki siyosiy voqealarga nisbatan ishoraviy so'zlar qo'llash, kinoya qilish. Maqollar ham tushunilishi oson bo'lgan birliklar qatorida aniq alluziyaning bir ko'rinishidir. Kabilarni ifodalovchi so'zlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek paremiologik fondida ona yurtni undagi betakror o'ziga xosliklari bilan ta'riflash o'rinalari ko'plab uchraydi. Chunonchi, *Ona yurting – oltin beshiging* maqolida tug'ilib o'sgan diyor oltin beshikka mengzalgan. Ma'lumki, o'zbek xalqi ongida *beshik* milliy ruh bilan sug'orilgan madaniy birlik sifatida doimo *vatan* so'zi bilan assotsiatsiyalanadi. Go'dakni belab va tebratib uxlatish uchun mo'ljallangan bu yo'rg'a oyoqli maxsus moslama yangi tug'ilgan chaqaloqning tom ma'nodagi "uyi" sanaladi. Vatan ostonadan – har bir insonning uyidan, oilasidan boshlanib, bu maskanlar kichik vatan sifatida bolaga o'z qishlog'i, mahallasi, mamlakatini tanitishda, uning himoyasiga shay, taraqqiyotiga hissa qo'shishga harakat qiluvchi, "erning obro'yi – elning obro'yi" ekanligini his qiluvchi farzandlar bo'lib yetishishida birlamchi tarbiya o'chog'i vazifasini bajaradi. Beshikning yopinchig'i va boshqa maxsus moslamalari bolaning tinch-sokin va sog'lom o'sishi uchun zarur mo'tadil havo, qulay sharoitni ta'minlab, uni turli xavflardan himoya qilish vazifasini bajaradi. Beshikning izohlovchisi bo'lib kelgan *oltin* so'zi esa uning qadrini belgilaydi. Ma'lumki, oltin qimmat va zanglamaslik xususiyati sababli zamonlar o'tib ham qiyamatini yo'qotmaydi. Shundan kelib chiqib, milliy madaniyatimizda *oltin beshik* sifatini insonni go'daklik davridan to umrining so'nggigacha himoya qiluvchi, hech bir vaqt qiyamatini yo'qotmaydigan uy – vatanga nisbatan qo'llash odat bo'lgan. *Elning ichi – oltin beshik* maqolida ham ayni shu ma'no yashiringan. Beshikdan qadimdan o'zbeklar bilan birga qoraqalpoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshqa Sharq xalqlari ham foydalangan. Bu o'rinda izohlab o'tish kerakki, "Realiyalar qaysi madaniyat va

tilda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha xalqning qadr-qimmati hisoblanadi. Ular o'rganilayotgan tildagi predmet va hodisalar tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti va tur mush tarzini anglatuvchi so'zlar bo'lib, qiyoslanayotgan tildagi so'zlardan butunlay yoki qisman farq qiladigan tushuncha [2]"lardir, ya'ni turli millatlarga xos realiyalar xususiyati va bajaradigan vazifalariga ko'ra bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin, biroq aynan takrorlanmasligi lozim. Bir millatning beshigi ikkinchi millatning beshigidan shakli, gullari, naqshi, yasalish usuli va asboblari bilan ajralib turishi ularning har biridagi o'ziga xoslikni va beshikning milliy realiya ekanligini ko'rsatadi. Mavzu tarkibiga kiruvchi paremalar tarkibida xalqning o'zligidan, o'tmishidan, qadriyatlar-yu qarashlaridan, milliy-hududiy bo'linmalaridan xabar beruvchi yana bir qator madaniy realiyalar qo'llangan. *Toshkentning tarig'ini yegan chumchuq Makkadan keladi; Qarshining arpasini yegan eshak Samarqanddan hangrab keladi; Turkistonning tubi — jannat paremalarida qo'llangan Makka, jannat millatning asriy e'tiqodini ko'rsatuvchi diniy realiyalar; Turkiston, Toshkent, Qarshi, Samarqand kabilar xalq tomonidan tabiiy ravishda nomlangan O'zbekiston hududida joylashgan milliy tarixiy joy nomlari sifatida millatga xos koloritni ifodalovchi toponimik realiyalar shular jumlasidandir.*

Aylanasi ovuli, To'garagi to'rkuni. Qadimgi el-uluslardan asrlar osha unutilmay, ardoqlanib kelinayotgan uy, turar joy barpo qilish bilan bog'liq milliy qadriyatlardan biri ovul va u bilan assotsiatsiyalanuvchi an'analardir. *Ovul* – kichik qishloq, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi xalq, qabila yoxud katta bir oila joylashgan alohida joy. Turk va mongol tillarida ham bu so'z mavjud bo'lib, *oila, uy, turargoh, ko'cha, o'z uyi taraf, qo'shni taraf, qishloq va qo'ylar boqiladigan uycha* kabi ma'nolarni anglatgan. Qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan ayrim voha hududlarida milliy o'zligimizni namoyon qiluvchi bu shakldagi turargohlar hozirda ham ko'plab uchraydi. Parema tarkibidagi *to'garak, to'rkun* so'zları bugungi kun kishisi uchun bir qadar notanish bo'lishi mumkin. *To'garak* eski turkiy tilda *dumaloq, doira shaklidagi* singari ma'nolarni anglatgan. *To'rkun* haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu so'z juda qadimiy bo'lib, M.Koshg'ariy uni "qizning ota-onasining uyi" deb izohlagan (Koshg'ariy. 1963, III: 414). Prof. G'aybullha Boboyor fikriga ko'ra, bu atama "to'r" va "kun" ko'rinishida ikkita so'zning birikuvidan kelib chiqqan. "Chamasi, "to'rkun" so'zining ildizi "to'r" eski turkcha "uydagi ardoqli burchak, o'rin"; "kun" esa "el" anglamidagi so'zga yoki -kun / -kin ko'rinishlaridagi so'z yasovchi qo'shimchalardan biriga borib taqaladi. Qipchoq shevasida so'zlashuvchi o'zbeklarda "to'rkun", "to'rkunlash" degan an'ana uchrab, unga ko'ra, to'ydan bir-ikki oy o'tib kelin ilk bor ota uyiga borgach, u bilan birga kelgan quda-andalar uchun kelin tomondagilar – ota-onasi ziyofat uyushtiradi" [3]. Bugungi kunda ham Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida yashovchi yurtdoshlarimiz orasida kelin bo'lib tushgan qizning ota uyiga borishini *to'rkun* deb atash saqlanib qolgan [4]. Tarkibida qo'llangan so'zlar ma'nosini umumlashtirib, ushbu paremani "Vatanning keng sarhadlari tug'ilib o'sgan kichik vatani – ovuli singari qadrli, uning ichida yashamoqli esa ota-onsa uyida –to'rkunda e'zozlanib, betashvish, bexavotir yashagandek yoqimli", deya izohlash mumkin. *Ovulga kelganni it qopmas* maqolida ham *ovul* unib-o'sgan makon sifatida vatan tushunchasining millat ongidagi in'ikosini voqealantirgan.

Yuqoridagi singari hikmatlarni yana ko'plab keltirish mumkin. O'zbek xalq paremiologik fondida ona yurtga muhabbat tuyg'usi ifodalangan maqollarning salmoqli o'ringa ega ekanligi bu tuyg'u millatning qon-qoniga singgan asriy qadriyat ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М: Изд-во института общего и среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
2. Алимжанова Г. Сапоставительная фразеология. –Алма-Ата: Мир языка, 1999.–С.175.
oyina.uz/uz/article/1594
3. Toshboyev O. "Tiriklay ko'milgan so'zlar" maqolasi. "Ma'naviy hayot" jurnali, 2019-yil 3-soni.
<http://oyina.uz/uz/article/628>
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли лугати. Нега шундай деймиз. –Т., 1988. -352 б.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Ташкент, 1990. -5286.

STUDYING THE CONCEPT OF "FAMILY" IN ENGLISH AND UZBEKI FROM AN ETHNOLINGUISTIC ASPECT

N. Shukurova, teacher, Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi "oila" tushunchasi etnolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Oila - qon qarindoshlari bilan bog'langan odamlarning ijtimoiy guruh. Til va madaniyat turli mentalitet va nazariyalarni shakllantiradi, shuning uchun Sharq va G'arbda oila tushunchasining ko'plab xususiyatlari mavjud. Ingliz va o'zbek oilalarida oila tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari lingvistik sohani o'rGANISH uchun qiziqarli mavzudir.

Kalit so'zlar: "oila" tushunchasi, etnolingvistik jihat, turli mentalitet, oila tushunchalari, til sohasi, tilshunoslarning qarashlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепт «семья» в английском и узбекском языках с этнолингвистического аспекта. Семья — это социальная группа людей, связанная с кровными родственниками. Язык и культура формируют разные менталитеты и теории, поэтому на Востоке и на Западе существует множество особенностей семейной концепции. Особенности концепции семьи в английской и узбекской семьях — интересная тема для изучения языковой сферы.

Ключевые слова: концепт «семья», этнолингвистический аспект, разные менталитеты, семейные концепции, языковой сфера, зрения лингвистов.

Abstract. This article examines the concept of "family" in English and Uzbek languages from an ethnolinguistic aspect. A family is a social group of people associated with blood relatives. Language and culture shape different mentalities and theories, so in the East and in the West there are many features of the family concept. Features of the concept of family in English and Uzbek families are an interesting topic for studying the linguistic sphere.

Key words: concept "family", ethnolinguistic aspect, different mentalities, family concepts, language sphere, linguists' views.

The language of folklore has long been in the field of view of linguists. In the last few decades, a new direction of cultural and philological research has emerged - linguistic folkloristics. Proverbs as a folklore genre and a complex linguistic sign represent extremely valuable and rich material for modern science. They have great heuristic potential for such areas as linguocultural studies, ethnolinguistics, linguistic axiology, and cognitive linguistics.

In the organization of the system and in the functioning of anthroponyms in the Uzbek and English languages, the concept of "family" plays a crucial role. This concept "is one of the most significant in the conceptual sphere of any linguistic culture. It has a complex semantic-frame structure: the core of the concept reflects its universal universality as one of the forms of social community of people; the voluminous interpretive part correlates with individual characteristics of perception and the national picture of the world" [1].

The institution of family and, accordingly, this concept have particular social significance among Turkic-speaking peoples due to the greater role of the family for all generations than among European peoples, the persistence to one degree or another of the tendency towards large families, the role of religion (for most Turkic-speaking peoples - Islam) in the entire organization of family (and partly social) life. The family is usually considered as a large association of all relatives, and not just the circle of parents with children (sometimes with grandparents and other close blood or non-blood relatives).

The implementation of the concept of "family" is carried out within the framework of social fields as an integral component of the linguistic picture of the world. The social field of the family includes not only family members, immediate relatives, but also close friends if communication occurs at the family level. "Even a small urban family represents a complex social structure from the point of view of naming individuals along the lines of "naming the younger generation as elder", "older generation as younger", "naming within one generation"; naming techniques may vary greatly

within the older and younger generations. Within different social fields, anthroponyms are often used in combination with other means of nominating persons, clarifying age, social status, or any distinctive features of a person, which increases the level of nominative value of a person's name" [2].

The specificity of the social field of the family in the Uzbek and English languages is clearly revealed against the background of the social field of the English and Russian fields: "In the English, Uzbek and Russian languages, different structures have developed: the social field of the family and the social field of the administration: in English the social field of the administration is "pushed" into the social field of the family, which determines the presence of a number of official communication formulas; in the Uzbek language, on the contrary, the social field of the family is "pushed" into the administrative social field, as a result of which the "family" type of communication predominates in institutions, organizations, etc.

In the Russian language, the social field of the family and the administrative social field are maximally delimited in comparison with the Uzbek and English languages" [2]. A special role in the implementation of the specifics of the concept "family" in the mentality of speakers of the Uzbek and English languages is played by the signals of anthroponyms. In Uzbek and English these are primarily terms of kinship (aka, uka, ota, xola, singlim, kenai and others; in English: uncle, aunt, cousin, sister-in-law, sister, brother-in-law,); It is their use that largely ensures the "family" type of relationships in the administrative social field. In functional terms, especially in relation to the social field of the family, designations of kinship relationships, or terms of kinship, as well as designations of persons by age, are closer to proper names. Within the family, nominations are functionally equalized by diminutive names and appellatives - terms of kinship. V.A. Nikonorov actually emphasizes the priority of the personal name among Uzbeks within the social field of the family: "In the sphere of official business communication, the surname has now gained indisputable dominance over the individual name, but in family and everyday communication this process is still far from complete, even in cities" [1]. Obviously, the "completion" of this process will not occur among the Uzbeks and the English, i.e., within the social field of the family, the surname will not play the role of such an active functional element of communication as, for example, among the British and Americans. As in other languages, the following lines of communication between relatives can be distinguished: 1) parents - children, 2) children - parents, 3) members of the same generation, 4) spouses, 5) representatives of more distant degrees of kinship. Each of the identified lines represents a special system of nominations, the core of which are proper names and terms of kinship.

The kinship terms of the Uzbek and English languages are more active than in the English and Russian languages, they participate in the establishment of an extensive system of relations in the social field of the family (relationships between members of the same generation, relations of elders to younger ones, relations of younger ones to elders, relations between husband and wife, etc.).

First, it should be taken into account that the British and Uzbeks have different social and historical backgrounds. England is one of the most developed countries, which is rich in cultural characteristics and Western traditions. Whereas Uzbekistan is an eastern state with a different way of life and mentality. In other words, the difference between the concept of family in these countries is obvious to some people when they want to compare the above-mentioned cultures. When it comes to family relationships and connections, it is undeniable that they have their own etiquette and way of life. However, when considering the differences and similarities of family values in England and Uzbekistan, one cannot help but take into account the fact that the importance of family in them is the same.

England is also famous for its emphasis on strengthening family bonds as a means of making people more united and preserving historical traditions to preserve the national identity of the population. It is known that the formation of an average family is a classical nuclear family, where there are several family members, including parents and children. Extended family is not as common in families in England. The preference of most British families is to keep the family unit small, which is a headrest and economic pressure for parents of smaller families. Parents of this type of family have more freedom in raising their children. Due to the need to live in a high standard of living, the

demands of children are often financially stringent for parents who force them to have several children and try to meet their needs for good living conditions. Parents must make their strategic choices to provide education for their children. As will be given as an example, parental responsibility is critical in caring for children. In addition, children learn to be independent and free when making decisions for themselves. Another thing to learn from your family is self-defeating even at an early age. Divorce between young people is considered a sensitive issue for society, so the average age for getting married is rising.

The standards of the modern world have guided people, individuals and women, especially among middle-class people. Most of them have the goal of creating a career for themselves, having promising jobs and satisfactory working conditions, starting their own business or traveling the world before committing to someone else making decisions. Thus, the age of middle age in young families is in the late twenties or early thirties. People are more responsible for their families and children. In other words, mature parents are one of the advantages of late marriage in attracting the future generation. The formation of traditional British families is clear, but their meanings are better known and accepted throughout the world. According to Emma Barlow, the values of traditional British families are alive and well in our modern world. They are:

- common manners;
- strengthens its stars and elders;
- new honest and truthful.

They are like a guide for many British families, while society has already changed and transformed into a new stage, these qualities are a strong need in the family concept. New research among modern English families has found that 76% of parents believe that manners charts are the most effective way of teaching children to other family members. This means that respect for other relatives is crucial. When children wait for their older relatives to come to the table to have flour together, they develop their inner respect for them.

In Uzbek culture there is a proverb "Bitta bolaga yetti mahalla ota-onas", which is defined as the education of a child, is a widely oriented concept among neighbors and people. In other words, society is responsible for a benevolent future generation. Wife and husband of classic respect for each other - respect for the opposite sex is taught in the family by treating the parents.

It is known that children do not follow your words, but your example. Healing partners to each other is an effective tool for raising intelligent people in the future life. Because of globalization in the world, some concepts and concepts have been implemented by unfamiliar ideas or flow of information. The Eastern world has been changed from the old one. The world has been compressed into a global village where many cultural beliefs and concepts mix. This is why it is not so acceptable nowadays, in which there are not many cultural differences. The spread of English and information technology makes mental actions disappear or become more common. However, the concept and characteristics of a family cannot lose their value over a period.

REFERENCES:

1. Azimova M.A. Linguistic and cultural features of the concept "Family" in English and Uzbek languages / M.A. Asimov. — Text: electronic // NovaInfo, 2019. — No. 103 — pp. 49-50
2. Dospanova D.U. The concept of "family" in the world picture of the Uzbek and English languages / D. U. Dospanova. — Text: immediate // Young scientist. — 2015. — No. 7 (87). — P. 940-942.

UO'K 811.111`37:81`38

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI EVFEMIZMLAR TADQIQI

N.U. Sobirova, stajor-o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarni o'rganadi va ularning noqulay yoki sezgir mavzularni yumshatishdagi rolini ko'rsatadi. Tadqiqot evfemizmlarning o'lim, kasallik, ijtimoiy-iqtisodiy holat va qarilik kabi turli kategoriyalarini qamrab oladi. Adabiy misollar va tilshunoslik manbalarini tahlil qilish orqali maqola evfemizmlarning gapni yumshatishda qanday ishlatalishini va madaniy qarashlarni qanday aks ettirishini namoyish etadi. Maqola rasmiy lug'atlar

va ensiklopediyalar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, evfemistik tilning turli kontekstlar va ingliz va o‘zbek madaniyatlarda qanday ishlatalishini kengroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: evfemizmlar, madaniy kontekst, tilshunoslik tahlili, o‘lim, kasallik, ijtimoiy maqom, qarilik, adabiy misollar, kommunikatsiya, madaniy qarashlar

Аннотация. В данной статье рассматриваются эвфемизмы в английском и узбекском языках, а также их роль в смягчении неудобных или чувствительных тем. Исследование охватывает различные категории эвфемизмов, включая те, которые относятся к смерти, болезни, социо-экономическому статусу и старению. Анализ литературных примеров и лексических источников показывает, как эвфемизмы используются для смягчения супротивной реальности и отражения культурных установок. Статья дополнена ссылками на официальные словари и энциклопедии, что позволяет лучше понять, как эвфемистический язык функционирует в различных контекстах и культурах.

Ключевые слова: эвфемизмы, культурный контекст, лексический анализ, смерть, болезнь, социо-экономическое положение, старение, литературные примеры, коммуникация, культурные установки.

Abstract. This article examines euphemisms in English and Uzbek languages and highlights their role in softening uncomfortable or sensitive topics. The study covers various categories of euphemisms, including those related to death, illness, socio-economic status, and aging. By analyzing literary examples and linguistic sources, the article demonstrates how euphemisms are used to mitigate harsh realities and reflect cultural attitudes. The article is enriched with references from official dictionaries and encyclopedias, offering a broader understanding of how euphemistic language functions across different contexts and cultures.

Key words: euphemisms, cultural context, linguistic analysis, death, illness, socio-economic status, aging, literary examples, communication, cultural attitudes

Kirish. Evfemizm — bu tilshunoslikda noqlay yoki bezovta qiluvchi mavzularni yumshatish yoki darajasini pasaytirish maqsadida ishlatalidigan so‘z yoki ibora. Evfemizmlar ko‘pincha o‘lim, kasallik, ijtimoiy maqom va boshqa muhim mavzularni qamrab oladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar madaniy va ijtimoiy kontekstlarni aks ettirib, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Evfemizmlar bo‘yicha tadqiqotlar turli tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Geoffrey Hughes o‘zining *The Oxford Dictionary of Euphemisms* (2006) asarida evfemizmlarni tilshunoslik va semantika nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U evfemizmlarning jamiyatdagi ma’no va funktsiyalarini, shuningdek, ularning turli kontekstlarda qanday ishlatalishini o‘rganadi. Steven Knowles *The Pragmatics of Euphemism* (1996) asarida evfemizmlarning pragmatik jihatlarini tahlil qiladi. Knowles evfemizmlarning kommunikativ strategiyalar va madaniyatlararo muloqotdagi roli haqida batafsil ma’lumot beradi, ular qaysi holatlarda qo’llanilishini va bu jarayonda qanday maqsadlar ko‘zlanganini o‘rganadi. Robert Allen o‘zining *The Book of Euphemisms* (1994) asarida evfemizmlarni tarixiy va madaniy kontekstda ko‘rib chiqadi. U evfemizmlarning o‘zgarishi va evolyutsiyasini, shuningdek, ular qanday qilib ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga javob berishini tadqiq qiladi. Philip Gooden *Euphemisms: A Dictionary of Subtle Words* (2004) asarida evfemizmlar va ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini bayon etadi. Muallif evfemizmlarning qanday qilib ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarni qondirishga yordam berishini o‘rganadi. George Orwell *Politics and the English Language* (1946) maqolasida evfemizmlar va til manipulyatsiyasi haqida fikr yuritadi. Muallif evfemizmlarning qanday qilib siyosiy va ijtimoiy manipulyatsiya uchun ishlatalishini tahlil qiladi va to‘g‘ri, aniq tilning ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zbek tadqiqotchilaridan Rahmatulla Xojayev *O‘zbek adabiyoti: Ma’naviyat va tahlil* (2009) asarida evfemizmlarning madaniy kontekstda qanday ishlatalishini tahlil qiladi. Bahrombek Kamilov ham *O‘zbek tilida adabiy tahlil* (2015) asarida evfemizmlarning til va adabiyotdagi rolini o‘rganadi. Gulnora Akhmedova *O‘zbek tili va adabiyoti* (2018) asarida evfemizmlarning kommunikativ va psixologik ta’sirlarini o‘rganadi. Dilshodbek Sodiqov *O‘zbek tilining uslubiyati* (2021) asarida evfemizmlarning uslubiy va funksional jihatlarini tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uchun asosiy manbalar sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi lug'atlar, adabiyotlar, va onlayn manbalar ishlataldi. Ingliz va o'zbek tillaridagi ommaviy matnlar, media materiallari va bir qancha yozuvchilar asarlarida qo'llanilgan evfemizmlar ham o'r ganildi va bunda evfemizmlar izohlari tavsifiy usulga asoslanilgan. Ikki tildagi evfemizmlarning ekvivalentlarini aniqlashda chog'ishtirish usuliga tayanildi.

Tahlil va natiyalar. Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar quyidagicha bo'ldi:

O'lim va kasalliklar bilan bog'liq evfemizmlar:

Ingliz tilida: "passed away" (vafot etdi), "under the weather" (kasal), "lost battle with illness" (kasallik bilan kurashda yutqazdi). **O'zbek tilida:** "dunyo bilan xayrashdi" (vafot etdi), "sog'ligi yomonlashdi" (kasal), "kasallik bilan kurashdi" (kasallik bilan kurashda yutqazdi).

Ijtimoiy maqom va iqtisodiy holat bilan bog'liq evfemizmlar:

Ingliz tilida: "between jobs" (ishsiz), "economically disadvantaged" (moddiy jihatdan zaif), "downsizing" (qisqartirish). O'zbek tilida: "ish bilan band emas" (ishsiz), "moliyaviy qiyinchilikda" (moddiy jihatdan zaif).

Kasalliklar bilan bog'liq evfemizmlar

Ingliz Tilida: Tennessee Williams, *The Glass Menagerie* (1944): Williams "not feeling well" iborasini ishlataldi, bu kasallikni to'g'ridan-to'g'ri tasvirlashdan ko'ra, yumshatadi. **John Steinbeck, The Grapes of Wrath** (1939): Steinbeck o'z asarida "in poor health" iborasini ishlataldi, bu ibora kasallikni nozikroq tarzda ko'rsatadi.

O'zbek Tilida: Abdulla Qodiriy, *O'tkan kunlar* (1927): Qodiriy "sog'ligi yomonlashdi" iborasini ishlataldi, bu kasallikni madaniy jihatdan yumshatib ifodalash usuli sifatida ko'rildi. **Said Ahmad, To'rt qiz** (1977): Yozuvchi "sog'ligidan aziyat chekmoqda" iborasidan foydalanadi, bu kasallikni yengilroq tarzda ko'rsatadi.

Ijtimoiy va Iqtisodiy Evfemizmlar

Ingliz Tilida: George Orwell, 1984 (1949): Orwell "reduced to poverty" iborasini ishlatgan bo'lib, bu iqtisodiy qiyinchilikni e'tiborga olish orqali, ko'proq rasmiy va jiddiy tarzda ifodalaydi. **J.D. Salinger, The Catcher in the Rye** (1951): Salinger "between jobs" iborasini qo'llagan, bu evfemizm ishqolida bo'lган holatni yengilroq tarzda ifodalashga yordam beradi. **O'zbek Tilida:** O'tgan asr o'zbek adabiyotida, Sadriddin Ayniy, *Uyg'onish* (1929): Ayniy "ish bilan band emas" iborasini ishlataldi, bu evfemizm ish holatini yengilroq tarzda ifodalash uchun qo'llaniladi. Ya'ni ishsiz so'zini sal yengillatish orqali evfemizmlarning funksiyasini bajaruvchi so'zlardan foydalanib ma'noni yumshoqroq ifodalaydi. **Abdurauf Fitrat, G'aniy** (1924): Fitrat "moliyaviy qiyinchilikda" ifodasini qo'llaydi, bu moddiy holatni rasmiy va jiddiy tarzda ifodalashga yordam beradi hamda qashshoq, kambag'al kabi keskir so'zlarni qo'llashning oldini oladi. Bundan tashqari quyidagi so'z va iboralar ham evfemistik ma'noni qo'llashda ishlatiluvchi jumlalarga misol bo'la oladi: "**Under the weather**" — "Ill" (Kasal)- "Kasal" bo'lganini yumshatib ifodalaydi. "**Downsizing**" — "Firing employees" (Xodimlarni ishdan bo'shatish) Bu evfemizm "ishdan bo'shatish"ni yumshatadi. "**In a better place**" — "Dead" (Vafot etgan) "Vafot etgan"ni nazarda tutadi, ammo yumshatib aytildi. **Pre-owned**" — "Used" (Ishlatilgan)- "Ishlatilgan" bo'lishini yumshatadi hamda ikkinchi qo'l yoki avval egasi bo'lgan tarzda tarjima qilish mumkin. "**Qiyin holatda**" — "Moliya muammosi bor" (Moliyaviy qiyinchilik) — Moliyaviy muammolarni yumshatib ifodalaydi. "**Sabrli inson**" — "Sabr qilishga majbur" (Qiyin holatlarda bo'lishi). Bu ifoda "qiyin holatlarda bo'lish"ni yumshatadi.

Xulosa. Evfemizmlar til va madaniyatning muhim jihatlarini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillarida evfemizmlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar lingvistik va madaniy xususiyatlarni ochib beradi. Ingliz tilida evfemizmlar ko'proq pragmatik maqsadlar uchun ishlatiladi, o'zbek tilida esa madaniy an'analarga mos ravishda qo'llaniladi. Ushbu tadqiqot tilshunoslar va madaniyatshunoslari uchun til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va evfemizmlarning lingvistik va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini chuqurroq o'r ganish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. E. L. Collins. Euphemisms in Modern English. Routledge, 2010.
2. Abdulla Qodiriy. O'zbek tili va adabiyoti. O'zbekiston Noshirligi, 2020.

3. Bahrombek Kamilov. O'zbek tilida adabiy tahlil. O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi, 2015.
4. Collins English Dictionary. Dictionary. Retrieved from collinsdictionary.com, 2023.
5. Encyclopedia Britannica. Encyclopedia. Retrieved from britannica.com, 2023.
6. Geoffrey Hughes. The Oxford Dictionary of Euphemisms. Oxford University Press, 2006.
7. Gulnora Akhmedova. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent Universiteti Noshirligi, 2018.
8. Keith Folse. Business English Idioms. Pearson Education, 2006.
9. Philip Gooden. Euphemisms: A Dictionary of Subtle Words. Penguin Books, 2004.
10. Merriam-Webster. Dictionary. Retrieved from merriam-webster.com, 2023.
11. Oxford English Dictionary. Dictionary. Retrieved from oed.com, 2023.
12. Rahmatulla Xojayev. O'zbek adabiyoti: Ma'naviyat va tahlil. O'zbekistan Noshirligi, 2009.
13. Robert Allen. The Book of Euphemisms. HarperCollins, 1994.
14. Steven Knowles. The Pragmatics of Euphemism. Routledge, 1996.
15. Dilshodbek Sodiqov. O'zbek tilining uslubiyati. O'zbekiston Matbuot, 2021.
16. Muhammad Ali. O'zbek tilining lug'ati. O'zbekiston Matbuot, 2018.

UO'K 398.91

MAQOLLARNING JANRIY XUSUSIYATLARI VA O'RGANILISHI MASALALARI

R.X. Sobirova, dots., Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Qadimdan turkiy tilda so'zlashuvchi qirqga yaqin xalqlar bir-birlari bilan yonmayon, qo'ni-qo'shni bo'lib yashaganlar. Shuning uchun ularning yashash tarzi, urf-odatlari, marosim va udumlari, an'analarda uyg'unlik mavjud, shuningdek, badiiy tafakkuri, e'tiqodiy qarashlari, moddiy, madaniy boyliklari, adabiyoti, san'atida o'zaro o'xshashliklarni kuzatish mumkin. Turkiy xalqlar og'zaki poetik ijodining ibtidosi bilan bog'liq bo'lgan bunday mushtarakliklar bu xalqlar etnogenetik tarixining qadim zamonalarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: asotirlar, ertaklar, maqol-matalar, paremiologik meros, umumlashtiruvchi semantika.

Аннотация. С древних времён около сорока тюркоязычных народов жили бок о бок и по соседству друг с другом. Поэтому в их образе жизни, обычаях, церемониях, традициях и обрядах существует гармония. Также можно наблюдать сходства в их художественном мышлении, верованиях, материальном и культурном богатстве, литературе и искусстве. Эти общие черты, связанные с происхождением устного поэтического творчества тюркских народов, указывают на то, что этногенетическая история этих народов уходит своими корнями в древние времена.

Ключевые слова: мифы, сказки, пословицы, паремиологическое наследие, обобщающая семантика.

Abstract. Since ancient times, nearly forty Turkic-speaking peoples have lived side by side and as neighbors. As a result, there is harmony in their lifestyles, customs, ceremonies, traditions, and rituals. Additionally, one can observe similarities in their artistic thinking, beliefs, material and cultural wealth, literature, and art. These commonalities related to the origins of the oral poetic creativity of Turkic peoples indicate that the ethno-genetic history of these peoples dates back to ancient times.

Keywords: myths, fairy tales, proverbs, paremiological heritage, generalizing semantics.

Tarixiy sharoit va madaniy muhitning o'zgarishi, rivojlanishi jarayonida yonma-yon yashovchi xalqlarning maqollari o'rtasida ham turli tafovutlar yuzaga kelgan. Hozirgi kunda har bir xalqning o'z-o'zini anglash hissi shakllanayotgan bir davrda turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan maqollarni qiyosiy tadqiq etish bu xalqlar o'rtasidagi madaniy munosabatlar hamda ijtimoiy-adabiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy xalqlari o'zlarining asrlar davomidagi hayotiy tajribalarini maqollar shaklida kelgusi avlodlarga qoldirgan. Folklorning bu kichik janrida xalqlarning o'ziga xos tabiat, ruhiy olami, turmush tarzi, tarixiy, ijtimoiy, etnografik, etnopedagogik, falsafiy, diniy va badiiy-estetik qarashlari aks etgan. Maqollarda xalq ommasining real voqeahodisalar va kishilar o'rtasidagi turli xil ijtimoiy munosabatlar haqidagi mantiqiy xulosalari, shuningdek, ko'p yillik hayotiy tajribalari natijasida yuzaga kelgan purhikmat xulosalari mujassamlangan. Chunonchi, har bir xalqning voqelikka o'z estetik munosabati mavjud. Bunday

munosabat asotirlar, ertaklar, maqol-matalar va birinchi galda, yirik hajmli epik asar-dostonlarda o'zining badiiy ifodasini topgan bo'ladi.

Maqol janri shakliy ixchamlik, ko'p ma'nolilik, xalqning real voqelik haqidagi xulosalarini badiiy ifodalash, nasihatomuz fikr va muayyan hodisa haqidagi hukmning qat'iyligi kabi belgilari bilan boshqa paremiologik janrlardan farqlanadi. Ilm va hunar o'rganish, do'stlik va ahillik, kattalarga hurmat va izzatda bo'lish, mardlik va to'g'risozlik kabi masalalar o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining g'oyaviy asosi hisoblanadi.

Maqollar xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy va keng ommalashgan janridir. Maqollarda shu xalqning hayotiy tajribalari, izardirob va quvonchlari, falsafiy qarashlari zuhur topadi. Sharq xalqlari maqolni "so'z san'atining guli", yunonlar va rimliklar "fikrlar hukmdori", italyanlar "xalqning maktabi", ispanlar "qalb shifokori", nemislar "xalq donoligi" deb ataganlar.

Maqollarda xalqning tabiatini uning jamiyat va tabiiy hodisalarga, o'z ajdodlarining ijtimoiy va tarixiy tajribalariga munosabati, estetik ideali, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi aks etadi. Maqol va matallarda ayrim odamlarning mulohazalari emas, balki muayyan xalqning yaxlit qarashlari, muayyan voqealarga munosabati va donishmandona fikrlari ifodalanganadi. Ko'pchilikning fikri, his-tuyg'ulari orqali qabul qilinmagan qarashlar va xulosalar esa barqaror bo'lmay, hayotiy jarayondan tushib qoladi. Maqollar esa hamisha jonli nutqda mavjud bo'ladi hamda o'zida muayyan g'oya va fikrni aks ettirganligi uchun ham yashovchan bo'ladi.[1].

Asrlar davomida yaratilgan va avloddan-avlodga o'tib, sayqallanib kelgan maqol va matallar xalq hayotini ta'minlovchi ijtimoiy qonuniyatlar asosini mustahkamlash orqali xalqning ruhiy va ma'naviy olamini shakllantirib kelgan. Maqollar har bir inson hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar va mezonlar majmui bo'lib, badiiy so'z vositasida ifodalangan shakli hisoblanadi.

Maqollar umumlashtiruvchi semantikaga ega bo'lib, ixcham matn shaklini olgan. Maqollar qisqa, nutqda doimiy qo'llanuvchi, o'git, pand-nasihat mazmunini o'zida aks ettirgan, ritmik jihatdan shakllangan, xalqning ko'p asrlik tajribalarini mujassam etgan janrdir. Maqollar tugallangan mazmun ifodalaydi, tuzilishi jihatidan gap qurilishiga o'xshaydi, lekin gaplarning umumiyligi tizimida o'ziga xos mazmuni bilan ajralib turadi.

Maqolning an'anaviy mazmun-mundarijasi doimo ikki qismlik bo'ladi: bir vaqtning o'zida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda tushuniladi: "Suv berganga sut ber". Maqollar nutqda keng qo'llanish xususiyatidan tashqari keng semantikaga ega bo'lib, hayotiy hodisalarga tatbiq etish mumkin bo'lgan xalq donishmandligi ifodasidir. Maqollar mazmun-mundarijasiga ko'ra umumlashtirish xususiyatiga ega, hayotiy-maishiy qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi, har bir inson va hamma uchun "tavsiya" bera olish xususiyatiga ega. Maqollardagi obrazlilik uning keng miqyosda yoyilishiga sabab bo'ladi. Maqollar hayotda uchrovchi ayrim tipik holatlarni tavsiplaydi. Bu holatlar odatiy nutqiy vaziyatlardan keng qo'llanishi va turg'un ekanligi bilan farq qiladi. Ko'p ma'noli maqollarning qo'llanilishi ko'chma ma'noga ega bo'ladi va ritmik jihatdan shakllangan bo'ladi: "Sayoz daryo shovqin oqar, chuqur daryo sokin oqar".

Maqollarda xalq tomonidan asrlar davomida yig'ilgan tajribalar asosiga qurilgan lo'nda, pishiq va muxtasar xulosalar namoyon bo'ladi. Maqollar o'git-ta'lim beradi, lekin har doim ham tugallangan hukm bo'lavermaydi. Biroq har bir maqoldan kelib chiqadigan xulosani e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Tilshunoslikka oid lug'atlarda: "Maqol – hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham obrazli va hikmatli ibora, gap", – deyiladi. Xalq hayoti, turmush tarzi va dunyoqarashining o'zgarishi bilan maqol va matallarning yangi-yangilari paydo bo'lib (masalan, "Mehnatdan kelsa boylik, Turmush bo'lar chiroylik" kabi), eskilari unutiladi ("Qum yig'ilib tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas"), lekin ajdodlarning paremiologik merosi keyingi asrlar uchun ham ahamiyatlari bo'lib qolaveradi, chunki o'zining mazmuni va badiiy-estetik ahamiyatini yo'qotmaydi. Maqollarning keng tarqalishi va umrboqiyligining sabablaridan yana biri ayrimlarining o'z ma'nosini yo'qotib, faqat ko'chma ma'noda qo'llanishidir. Masalan, "O'tgan kuning unutma, eski chorig'ing quritma" maqolining ikkinchi qismi dastlab o'z ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda faqat ko'chma ma'noda qo'llanadi. Lekin shunday maqollar ham bo'lganki, ular yaratilgan davrdayoq ko'chma ma'noga kasb etgan. "So'z chumchuq emas, O'g'izdan chiqsa, tutib bo'lmas" yoki "Er – avra, xotin – astar" kabi maqollar yaratilgan davridaoq o'z

ma'nosida tushunilmagan, balki ijtimoiy hayot hodisalarining turfa ko'rinishlari haqidagi ibratli xulosani bayon etishda tatbiq etilgan.

Maqollar qaysi mavzuda yaratilmasin, hamisha umumlashma ma'no kasb etadi. Ya'ni bu janrga mansub namunalar real hayotning obrazli in'ikosi, turfa hayotiy hodisalarga estetik munosabat va bahoning badiiy ifodasidir. Shu bois maqollar turli pafos va mazmunda (quvnoq yoki g'amgin, taskin beruvchi yoki zaharxanda kulgi, achchiq kinoya va boshqa).

Xalq donishmandligining badiiy ko'zgusi hisoblangan maqol va matal atamalarining lug'aviy ma'nosi, istlohiy ma'nosi va poetik tabiatи haqida qanday ta'rif va izohlar mavjud? Birinchi galda mazkur masalalarga oydinlik kiritish, bu atamalarning ilmiy izohini berish maqol janrining evolyutsiyasi, funksiyasi, poetik tabiatи, analogik va aynan bir xil turlarini tasniflash tamoyillari va hokazo xususiyatlarni tadqiq etishda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Turdimov Sh. G. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari: Filol. fan. d-ri... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011. – B. 3
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2 tomlik, T.I., – 1982. – B.456.

UDC 808.3**INFLUENCE OF ANTHROPOCENTRIC APPROACH IN LINGUISTICS****A.R.Tagayeva, teacher, Navoiy State Pedagogical Institute, Navoiy**

Annotatsiya. Tildagi ijtimoiy vogelikning parametrlari ham global, ham xususiy xarakterdagи o'zgarishlarni aks ettiradi. Ekstralingvistik omillarning global harakati til quyi tizimining to'liq yoki muhim qismiga ta'sir qiladigan o'zgarishlarga olib keladi. Ilgari yozilmagan til uchun yozuv yaratish to'g'risida qaror qabul qilish, tilning muayyan sohalarda ishlashini qonuniy va moddiy qo'llab-quvvatlash kabi voqealar ushbu til mavjudligi yangi shakllarning, yangi funksional uslublarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: eksralingvistik, funksional, global, bolalar nutqi, ijtimoiy parameter.

Аннотация. Параметры социального контекста в языке одновременно отражают и влияют на изменения, как глобальные, так и локальные. Экстраграмматические факторы способствуют изменениям, которые влияют либо на всю систему языка, либо на его существенные аспекты. Принятие решения о создании текста на ранее неписьменном языке предполагает юридическое и материальное обеспечение функционирования языка в конкретных областях, что приводит к появлению новых форм и функциональных стилей.

Ключевые слова: экстраграмматический, функциональный, глобальный, детская речь, социальный параметр.

Abstract. Parameters of social context in language both reflect and influence changes, both globally and locally. Extralinguistic factors contribute to changes that impact either the entirety or significant aspects of the language system. Decision-making regarding creating text for a previously unwritten language involves legal and material support for the language to function in specific domains, leading to the emergence of new forms and functional styles.

Key words: extralinguistic, functional, global, child language, social parameter.

It is known that the anthropocentric approach in linguistics in recent years as a result of increasing attention to the human factor, interest is growing from language to speech, to the speech process. Therefore, live communication, which is the research source of linguistics, is focused on research. The overall complexity in the conversation process involves various factors such as the situation, familiarity or unfamiliarity of the interlocutors, diverse behaviors, and contextual factors, all of which collectively define the purpose of the conversation. Changes in word usage (such as dictionary completion, semantic structure development, altering word valency, among others) highlight more specific extralinguistic factors. Studying the relationships between extralinguistic factors and language elements is the task of sociolinguistic correlational analysis. The entirety of conditions surrounding interlocutors in a speech situation involves factors such as proximity or

distance, various behaviors, and extralinguistic elements. Creating a situation known to both the speaker and the listener in advance facilitates linguistic fluency.

In such cases, it is possible both to use and not to use additional nonverbal means in the situation. If verbal expression leads to ambiguity in the conversation, providing clarity through nonverbal expression is possible. For example, if the speaker simply says "Look" without any movement, the listener may not understand anything, not knowing which direction or whom or what to look at, or even whether the speaker is referring to themselves. However, if the speaker accompanies the sentence with a gesture or a glance, the listener understands the unsaid sentence and accepts the utterance with a structure containing situational ellipsis, usually resulting in "communication + subjectivity" or "communication + emotionality". Through this gesture, expressions like "Look towards the door", "Look at this person", "Look at this building", "Look towards the approaching dog", "Look at the bird flying in the sky", "Check what fell out of your bag, look at your feet", etc., are expressed. In this case, the speaker wants to direct the listener's attention to a specific object or subject, and the content is clarified when the object of attention is pointed out. Or if the speaker gestures outwardly and says "It started," the listener understands from the situation that something is happening outside, such as "It started snowing," "It started raining," or "It started bustling." In such cases, the unexpressed segment is considered a specific event or incident, which emerges in connection with the complete situation.

In addition, it should be emphasized that the segment that can be understood from the situation, indicated, filled, cut off, or suddenly redundant (the segment being inactive in speech to the extent that it is not filled) is closely related to the situation. Such segments are not understood outside the situation. In cases where the main factor identifying the sentence is considered to be the situation, indication becomes a crucial factor. The role of the situation and indication is so significant that the situation creates the possibility for indication as a means of conveying the event filling the situation, enriching the thought, and expressing a certain subject or event to the speaker, while limiting the speaker's ability to express a specific subject or event, as emphasized by A. Nurmonov, R. Dikson emphasizes only showing the complete and true meaning of each situation complex speech fragment. Furthermore, it should be noted that one of the reasons for the prevalence of multiple interpretations of extralinguistic factors in lively speech is the ability to convey concise thoughts in response to the situation, various impressions, and gestures, thereby compensating for the unexpressed segment. Generally, in lively speech, the tendency to express everything necessary for thought expression is strong. One characteristic feature of lively speech is the presence of interlocutors. It is necessary for each thought of the speaker to be owned by the listener and his attitude towards his own thoughts to be noted in the listener's reply, as this is lively speech. Usually, lively speech evolves based on the interlocutors' mutual understanding, impressions, situation, jest, and speech condition, and structurally and semantically correlates with each other.

Due to the fact that language is often intertwined with socio-psychological (social-psychic) aspects, the emerging field of sociolinguistics, which studies language as a social phenomenon, differs from social linguistics in that it focuses specifically on the conditions of linguistic units living in speech, which is a new field of linguistics called sociolinguistics.

In the coming years, due to the strengthening of interlingual and intercultural relations, attention is being paid to the study of language and social psychologists are focusing on the culture of communication, the signs, customs, and norms used therein.

The essence of sociolinguistics lies in studying the communication of society members without their mutual communication and the influence of one on another (information dissemination and information acquisition) cannot be imagined. It is possible to highlight and emphasize a number of aspects such as composition, purpose, and means in a conversation.

The term "conversation" is classified as verbal, through speech, and nonverbal, without words, through nonverbal means (gestures, various signs, symbols, signs, symbols) according to the information provided and its influence on each other as verbal or nonverbal communication.

T.A. Deik highlights paralinguistic activity in expressing ideas and emphasizes it by pointing out various expressions, facial expressions, body movements, and participants' physical movements.

In fact, non-verbal, non-verbal communication (nonverbal communication) is the most ancient form of human communication, and when referring to nonverbal means, gestures (body, hand movements), expressions (facial expressions), contact (handshaking, hugging, kissing, and others) the state of the body, the distance between people is understood.

According to the opinions of scholars, during interpersonal conversations, individuals express only 7% of the idea they want to convey through words, while 38% through tone of voice and 55% through nonverbal cues. Therefore, this type of conversation—verbal communication in the coming years—remains one of the main objects of study in linguistics, providing various means to ensure its emergence.

The quantity of extralinguistic tools varies in each language, and these tools can have both positive (e.g., showing respect) and negative (e.g., swearing) expressions. Nonverbal cues also indicate the worldview, cultural level, and intellectual abilities of both the speaker and the listener. If what the speaker is talking about through verbal cues is always understood, the listener cannot always grasp it when expressed through gestures or facial expressions.

Verbal cues, like nonverbal ones, are also imbued with national peculiarities when used. Similarly, such gestures may have a national character and contribute to the acquisition of national traits. These tools can also be used to test the wisdom of the elders or the intelligence of the listener.

Issues of verbal communication began to be studied in relation to nonverbal cues. At the same time, within the framework of communication theory, various disciplines such as sociolinguistics, pragmalinguistics, paralinguistics, text linguistics, and psycholinguistics are developing in specific content. Interest in paralinguistic issues has been growing day by day. It has been recognized that nonverbal cues are an integral part of linguistics, distinct from language at the surface level but serving as symbolic and emotive expressions in a manner consistent with linguistic units.

In nonverbal communication, communicants may exhibit "unique to themselves" characteristics, initially distinguishing this type of conversation, which has been recognized as the sole means of communication for humanity, from verbal communication, and fully acquiring the "communication + subjectivity" content within it.

If individuals wish to conceal their intentions or thoughts, they can manipulate their words, but they cannot easily change their nonverbal behaviors. Alternatively, in some instances during the conversation process, verbal cues may not be sufficient for communicants, and nonverbal cues come to their aid. The combination of real circumstances, time, and objectivity expressed by nonverbal cues forms the basis of communication.

Since nonverbal communication is expressed through the body parts of individuals, it can be referred to as gestures. Specific nonverbal cues that convey a certain meaning in a specific speech situation are depicted using certain linguistic units in the narrative process.

We pay attention to the use of nonverbal cues in children's literature works, where the process of verbal communication is observed and depicted with the etiquette movements of speech and conveyed. In children's speech, a certain piece of information is usually expressed briefly and vividly. Regardless of their age, children use various nonverbal cues to enhance the effectiveness of their expression, adapted to the situation at hand.

Nonverbal cues used in children's speech differ from those used in ordinary speech. They reflect the gender, social status, and especially the age of the communicants (children).

The differentiation of nonverbal cues based on age is unique to each culture and is also influenced by cultural norms and customs. Specifically, gestures such as pointing with the tongue, nose pointing, finger sucking, and finger biting are signals related to children, and they have various meanings in different cultures. For example, in Russia, tongue pointing is considered a gesture of mockery, while in Tibet, this movement is a gesture of greeting performed by both children and adults alike, and in Hungary, finger biting is considered a way to reduce tension in older individuals. As seen, nonverbal cues manifest uniquely in each culture and convey specific meanings and content.

Although research specifically on the age-specific characteristics of nonverbal cues in linguistics has not been conducted, it has been mentioned in the scientific work of Sh. Iskandarov. Due to the fact that nonverbal communication is expressed through the body parts of individuals, they

can be referred to as gestures. Through nonverbal cues such as gestures, objective events and actions in real life are reflected, and these conditionally-based indicators serve as a communication tool in clear speech situations. Indeed, if specific meanings are conveyed through nonverbal cues in a clear speech situation, they are integrated into the narrative process by occupying their place in linguistic units.

Entering into a conversation is a psychological process that involves mental, national, social, and regional characteristics. The conversation process is highly complex and diverse. This complexity arises from people directing their speech with specific movements and the psychological state of the communicants as they perform these actions. If psychologists are interested in the psychological state of communicants as they perform these actions, linguists are intrigued by the various linguistic tools used in lively and impactful speech expression, considering their national and cultural nuances.

Thereby contributing to the successful and expressive nature of communication. At the same time, nonverbal cues also help in managing time effectively. Through the nonverbal communication cues prevalent in some culture, we grasp the expression of sincerity, openness, kindness, mutual respect, and reverence, which are essential emotions without any ambiguity.

REFERENCES:

1. Немов Р.С. Психология. Книга 1: Основы общей психологии. – Москва: Просвещение, 1994. – С. 24.
2. Алексеева К.В., Панфилова В.М. Особенности невербального общения русского и немецкого народа [Текст]// Алексеева К.В., Панфилова В.М. // Международный журнал экспериментального образования. – Москва: Академия естествознания, 2014. -Вып. – №6. – С. 72.
3. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – Москва, 1974. – С. 59.
4. Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – Москва, 1989. – Б. 34.
5. Saidxonov M. Aloqa-aratashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – Б. 3.
6. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari doktori ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – В. 16.

УО‘К 811.161.1

METAFORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

X.S. Toshova, tayanch doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'chim turi bo'lmish metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlari aks etgan. Metaforaga olingan birliklarning til va madaniyat bilan uyg'unligi. Ularda milliy madaniyatning aks etishiб.

Kalit so'zlar: Ko'chim turi, metafora, konnotatsiya, til, madaniyat, tarixiy ildiz, tahvil.

Аннотация. В данной статье отражены лингвокультурные особенности метафоры, являющейся разновидностью переноса. Совместимость метафорических единиц с языком и культурой. Коннотативные особенности. Они отражают национальную культуру.

Ключевые слова: Метафора, коннотация, язык, культура, исторический корень, анализ.

Abstract. This article reflects the linguistic and cultural characteristics of metaphor, which is a type of transfer. Compatibility of metaphorical units with language and culture. Historical roots, connotative features of metaphor. They reflect national culture.

Key words: metaphor, proverb, language, culture, historical roots, analysis.

Olamning milliy-lisoniy manzarasi metaforalar orqali ham aks etadi. Metafora ko'chim turi bo'lib, bir predmet nomining boshqa predmetga ko'chishi demakdir; o'xshatish singari milliy madaniyat, urf-odatlar mahsulidir. Metafora voqelikni obrazlilik, badiiylik, ta'sirchanlik, ixchamlik, tejamkorlik prinsiplari bilan bog'liqlik asosida ifodalaydi. Shuning uchun metaforalarda nutqni ixcham ifodalash orqali keng ma'no anglashiladi. Metaforalar tafakkurning konseptual mahsuli hisoblanadi. XX asr so'ngida J.Lakoff hamda M.Jonson konseptual metaforalarni inson tafakkuri hosilasi sifatida o'rganib, faqat stilistik ifoda vositasi emas, balki konseptual lingvistik maqomga ega hodisa sifatidagi yangi tabiatini ochib berib, metaforalar nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib borgani, bizning kundalik konseptual tizimimiz, bizning fikrlashimiz va xatti-harakatimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforik ekanligini ta'kidlashgan[1]. Shuning uchun ham ular metaforalarni "metaforik konseptlar" yoki "konseptual metaforalar" deb atashgan.

Insonga xos xususiyat yoki nom boshqa bir narsaga yoki hayvonga; hayvon-ga xos xususiyat insonlarga, ma'lum bir holat, harakatlar narsalarga ko'chirilishi bu konseptual metaforalarga xosdir. Ana shunday milliylikni o'zida aks ettirgan metaforalar tilimizda ko'pchilikni tashkil etadi. Hayvon nomlari insonlarga ko'chi-shida ham tarixiy, milliy qarashlar mavjuddir. Turkiy xalqlar, jumladan, qadimgi ajdodlarimiz ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it kabi hayvonlarga, ayrim qushlarga va parrandalarga e'tiqod qo'yanlar. Shular orasida ot va bo'rini totem hayvon sifatida alohida e'zozlashgan. Totemlar bilan bog'liq bir qancha geneologik afsonalar ham mavjud. [2] Masalan, bo'ri nomi bilan bog'liq nomlarning insonlarga qo'yilishi oilada farzand vafot etaversa, oila boshi bolaga shu ismlardan birini qo'yib, sog' bo'lsin, yashasin deb bo'rini ovlab, uning terisini beshik tagiga to'shab, tishini esa beshikka ilib qo'yishgan. Bundan maqsad bolaning sog' bo'lishi. Bundan tashqari tish bilan tug'ilgan bolalarga yoki bola tug'ilganda quyosh chiqib yomg'ir yog'sa bo'ri bolalaydi deb bo'ri bilan bog'liq ismlar qo'yilgan. Shakllari: Bo'riboy, Bo'rijon, Bo'ribek, Bo'ritoy, Bo'riqul. Qora leksemasi esa o'ziga xos ijobjiy-salbiy mazmun ifodalaydi. *Qora niyat, qora kun, baxti qora* kabi iboralarda **qora** leksemasi **oq** leksemasiga nisbatan salbiy ma'no ifodalagan. Alisher Navoiy yashagan davrda, qoraxoniylar davrida **qora** leksemasi *buyuklik, ulug'lik* ramziy ma'nosini ifodalagan. Qora rang bilan bog'liq ismlar esa shu ramziy ma'no asosida qo'yilgan. O'xshatish asosida qo'yilgan ismlar metaforani yuzaga keltiradi. Masalan, Qoravoy, Qorajon, Qorabotir, Qoraxon va boshqalar: Masalan, *Qorajon qaradi, to'qqiz kampirni ergashtirib, enasi Chilbir cho'liga qarab borayotir* ("Alpomish"). *Bugungi davramizda vohamizga dong'i ketgan Bo'ri polvon o'tiribdi. Davraga bakovullik qilishni shu kishiga topshirsak, nima deysizlar?* (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi"). *Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi.* *Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin:* «*Bo'ri bolalayapti*», degandi. *Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi* (S.Ahmad "Qorako'z majnun"). Yuqoridagi parchalarda keltirilgan ismlar xalqimizning milliy madaniyatida aks etgan ramziylik asosiga qo'yilgan. Bundan tashqari hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari insonlarga xos yaxshi-yomon xususiyatlarni aks ettirishda ham metaforani yuzaga keltiradi. Masalan, it orqali, vafodorlik, ikkiyuzlamachilik yoki shu hayvonga nisbatlovchi haqorat, bo'ri misolida yovuz, qonxo'r, shafqatsiz odamni, ilon misolida mug'ombirlik, aldash, chayon orqali kishilarning achchiq tilliliqi bilan bir-birlarining ko'ngliga ozor berishi, zarar yetkazishi, arslon(sher) orqali bahodirlik, zabardastlik, dovyuraklik, qo'y orqali yuvoshlik, beozorlik, quyon orqali qo'rkoqlik, toshbaqa misolida sekin harakat qilishlilik[3] kabi xususiyatlar aks etadi. Masalan, *Azizbek qarshisida qo'l bog'lab turg'an darboza begig'a baqirdi:– Nega qarab turasan, darvoza ustiga chiq, kim ekan u it?!* *Darboza begi yugurib qo'rg'on devoriga chiqdi: –Taqsir, bir chol!* (A.Qodiriy "O'tkan kunlar"). Parchada shu hayvonga nisbatlovchi haqoratni ifodalagan, ya'ni odamning boshqa bir odamga mensimay munosabatda bo'lishi metafora orqali aks ettirilgan. *Soatning ro'parasida aynan To'laganning o'zi turar edi. Ulg'ayibdi. Soch qo'yibdi. Voy ilon-ey!* *Maktabda intelligent bo'lib yurasanda, uyingda aksilingilobiy faoliyat olib borasan!* Xex! Parchada insonga nisbatan mug'ombirlik, aldash xususiyatlarini ifodalash maqsadida ilon leksemasi insonga ko'chirilgan. (O'.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar"). *Mingboshining haligi so'ng savolida butun shu iztiroblarning mazmuni bor edi.* «*Epaqa laqabini tashiydigan tulki u savolning ostida yotgan behuda tashvishlarni darhol payqadi.* (Cho'lpon "Kecha va kunduz"). Ma'lumki, tulki o'z o'jasiga ayyorligi, mug'ombirligi orqali erishadi. *Tulkining shu xususiyati insonning ayyorligi, quvligini ifodalash uchun insonga ko'chirilgan.* Parchada **tulki** Miryoqub obrazining ayyorligi, mug'ombirligini ifodalashga xizmat qilgan. *«Politbyuro» a'zolariga Nuriddin ma'qul keldi. Unga qarshi e'tiroz bildirilmadi.* *Tarqalish paytida Koshak: – Uning tarbiyasini Qo'tsiga ber, –deb talab qildi. – Hozir emas, – dedi Tengiz, – Bu bola egar urilmagan asov ot.* Hurkib ketadi. *Uni o'zim egarlab, jilovlab beraman.* Ana undan keyin *Qo'tosning qo'liga tutqizaman* (T.Malik "Murdalar gapirmaydilar"). Bilamizki, o'rgatilmagan, insonga bo'ysunmaydigan otlarga nisbatan **asov ot** [3] birikmasi qo'llanadi. Parchada otning shu xususiyati insonga ko'chirilib, insonga xos qaysarlik, bo'ysunmaslik ma'nolarini ifodalamoqda. *Men chechenlar mard bo'ladi, deb eshitardim.* *Quyonyuraklari ham bo'larkan-da, dedi Hosilboyvachcha ijirg'anib* (T.Malik "Shaytanat"). Quyon o'zining qo'rkoqligi bilan boshqa hayvonlardan farq qiladi. Xuddi shu xususiyat insonga ko'chirilib, insonlarning qo'rkoqligini ifodalaydi. Insonning qaysidir xususiyatlarini

ifodalash uchun aynan quyon, ot, ilon, it, qo'y kabi hayvonlarning olinishida xalqimizning tarixiy, milliy madaniyati o'z aksini topadi. shu xususiyatlarni o'zida aks ettirgan. Hayvonlarning bu kabi xususiyatlari o'xshatishlarni ham yuzaga keltiradi, lekin metaforalar o'xshatishlardan yanada ixchamligi, vositaning bo'lmasligi bilan farqlanadi, ya'ni to'g'ridan to'g'ri qiyoslashdir. Jumladan, *Ilon kabi o'xshatish*, *ilon* metafora. Hayvon konseptli metaforalar, nafaqat, bizning xalqimizda boshqa xalqlar madaniyatida ham aks etadi. Turk, rus xalq madaniyatida ham qo'y, bo'ri, quyon, arslon, it, ilon, chayon kabi hayvon nomlari o'zidagi xususiyatlari insonga ko'chirilishi asosida metaforalarni yuzaki keltiradi. Masalan, *qo'y(баран, койун)* bu xalqlar madaniyatida landavur, mustaqil ish qilolmaydigan, birov nima desa shuni qiladigan insonlarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni ko'chma ma'no ifodalaydi. Bundan tashqari, quyon (кролик, tavşan) qo'rroqlik, bo'ri (волк, курт) shafqatsizlik, it (köpek, собака) vafodorlik, ilon (змея, yilan) avrash, chayon (акреп, скорпион) yomon so'z bilan chaqish, arslon (аслан, лев) dovyuraklik, tulki (tilki, лиса) ayyorlik [4] kabi xususiyatlari bilan metaforalarni yuzaga keltiradi. Xalqlar madaniyati o'rtasida mushtaraklik mavjud, ayniqsa, turkiy xalqlar madaniyatida o'xshashliklar anchagini.

Milliyligimiz, tariximizni o'zida yaqqol aks ettirgan metaforalar tilimizda o'ziga xos o'ringa ega. Milliy bayramlarimiz, islomiy oylarimiz, kunlarimiz asosida qo'yilgan ismlar ham Jumagulmilliyligimiz bilan bog'liq. Jumladan, Mavluda, Ramazon, Navro'z, Navro'za, Hayit, Ro'zimurod, Jumagul, Jumavoy, Odina, Qurbonboy [5] kabi ismlar milliy bayram, muqaddas oy va kunlarda tug'ilgan bolalarga qo'yiladi. «Qurbonoy emish! Xo'p topibsanmi qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug'ilgan. Maktabda o'qituvchilik qilasan, uyingda Qur'on o'qiysan... Ilon! Munofiq!» (O'Hoshimov "Tushda kechgan umrlar"). Parchada Qurbon hayitida tug'ilgan qizga Qurbonoy ismi qo'yilgan. Qani, tanishib qo'yaylik: mening otim *Hayitvoy*, yettinchi sinfda o'qiyan. — Mening otim Hoshimboy, — deb qo'limni cho'zdim, — oltinchi sinfning a'lachi o'quvchi-laridan bo'laman(X.To'xtaboyev "Sariq devni minib"). Ramazon hayiti, Qurbon hayiti butun musulmon olamining muqaddas bayramlaridan biri. Shuning uchun shu kunlarda tug'ilgan bolalarga Ro'zimurod, Ramazon, Qurbonboy, Qurbonoy, Hayitvoy kabi ismlari qo'yiladi. Odina, Jumagul, Jumavoy islomdagisi muqaddas, xosiyatli kunda tug'ilgan insonlarga qo'yiladi. Navro'z, Navro'za ismlari islomiy milliy bayram, ya'ni Navro'z kuni tug'ilgan insonlarga, Mavluda ismi esa Mavlud oyida, ya'ni payg'ambarimiz tug'ilgan oyda tug'ilgan qizlarga qo'yiladi. Bu ismlar ham metafora asosida yuzaga kelgan.

Bundan tashqari iboralar, ayrim maqol va matallar ham metafora asosiga qurilgan. Chunki iboralarni hosil qilgan so'zlar ko'chma ma'no asosida yuzaga keladi. Masalan, *do'ppisi osmonda, to'nini teskari kiymoq, kovushini to'g'rilib qo'ymoq, baxti qaro, oq ko'ngil* [6] kabi iboralar ham ko'chma ma'no asosiga qurilgan bo'lib, ularda ham milliyligimiz aks etib turibdi: do'ppi xalqimizning milliy bosh kiyimi to'n(chopon) o'zbek xalqining milliy ust kiyimi, kovush ham xalqimizning milliy oyoq kiyimi, oq va qora rang leksemalar esa azaldan xalqimizda yaxshilik va yomonlikni, ezhulik va yovuzlikni ifodalashi konseptual olamimiz mahsulidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'xshatishlar, metaforalar, iboralar, o'zbek xalq maqollari ham ma'lum bir milliy madaniy, tarixiy ildizga ega. Ularda ma'lum bir tarixiy voqelik yotadi. Metaforalar ham insonning konseptual olami mahsulidir. Ular ham o'zining lingvomadaniy xususiyatiga ega. Maqol, matal va iboralarda ham metafora aks etib turadi. Ularning deyarli har birida o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlari, madaniyati aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Qarang: Yusubova R. Antroposentrik tilshunoslik. Uslubiy qo'llanma. Navoiy, 2022. – B. 115.
2. Safarov O. Xalq og'zaki poetik ijodi// Toshkent: 2007. – B.34.
3. Mahmudov N.va boshqalar O'zbek tilining izohli lug'ati// Toshkent: 2022.
4. Yuldashev I, T.Özturk, Y. Özturk O'zbek va turk maqollari, iboralar// Toshkent: 1998. – B. 137, 143, 169, 185,
5. Internet sahifa: Ismlar.com
6. Rahmatullayev Sh. Va boshqalar O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati// Toshkent: 2022. – B. 64, 146, 342, 517.

INGLIZ TILIDA ANTONIMIK FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING TURLARI

E.N.Toshtemirov, katta o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilida antonimik frazeologizmlar va ularning turlari borasida fikr-mulohazalar berilgan. Antonim komponentli frazeologik birliklarda komplimentar, kontrar, konversiv va vektor qarama-qarshilik kabi turlarni kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari frazeologik antonimlar bir uslubli va ko'p uslubli bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, antonimiya, antonimik frazeologizmlar, grammatik-morfologik tushunchalar.

Аннотация. В статье даются комментарии по антонимическим фразеологизмам и их типам в английском языке. Во фразеологических единицах с антонимическим компонентом можно наблюдать такие типы, как комплементарный, контрапарный, конверсивный и векторный контраст. Кроме того, фразеологические антонимы могут быть одностилевыми и разностилевыми.

Ключевые слова: фразеологизмы, антонимия, антонимическая фразеология, грамматико-морфологические понятия.

Abstract. The article gives comments on antonymic phraseology and their types in English. In phraseological units with an antonym component, we can observe such types as complementary, contrarian, conversive and vector contrast. In addition, phraseological antonyms can be single-style and multi-style.

Key words: phraseological units, antonymy, antonymic phraseology, grammatical-morphological concepts.

Kirish. Frazeologizmlar uzoq vaqt davomida mahalliy va xorijiy tilshunoslar tomonidan turli nuqtai nazar va jihatlarga ko'ra o'rganilib kelingan va kelimoqda. Ona tilida so'zlashuvchilarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi frazeologizmlarni xorijiy tildagi frazeologizmlarni har tomonlama chuqur solishtirib o'rganilganda ular orasidagi o'xshash va farqli xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Har qanday tilning ulkan fondiga kiruvchi frazeologiyaning keng doiradagi lingvistik muammolari olimlardan murakkab va tizimli tadqiqot ishlarini olib borish talab qilinadi.

Frazeologik birlik til tizimidagi murakkab lingvistik birlik sifatida tilshunoslik tadqiqotlarida keng ko'rib chiqilgan. Tillarning frazeologik birliklarini, ayniqsa, turli tuzilishga ega va o'zaro bog'lanmagan frazeologik birliklarni har tomonlama qiyosiy o'rganish qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb va istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

O'zaro bog'liq bo'lмаган tillarning frazeologik birliklarini qiyosiy tahlil qilish katta qiziqish uyg'otadi, chunki bunday frazeologik birliklar madaniy hodisalarini, dunyoqarashning xususiyatlarini va ma'lum bir til xalqining mentalitetini aks ettiradi. Tilning ushbu sohasini o'rganish juda muhim va turli jihatlar bo'yicha tadqiqot ishlarini talab qiladi.

Dunyoning aksariyat tillarida antonimik frazeologik birliklarni o'rganishda sezilarli o'xshashliklarni ko'rishimiz mumkin – taqqoslanadigan tillar ma'lum darajada voqelikning bir xil tomonlari haqida bir xil bilimlarni o'z ichiga oladi va unga o'xshash tasavvurni aks ettiradi. Dunyo tillarida lingvistik o'xshashlik nafaqat antonimik tarkibiy qismlarga ega bo'lgan frazeologik birliklarning kognitiv ma'no darajalari va ichki shaklini tahlil qilish natijasida, balki chuqurroq, umumlashtirilgan darajalarda ham aniqlanadi, bu esa bir xillikni o'rnatishga imkon beradi.

Turli tizimli tillarda frazeologik birliklarining bir qismi sifatida antonimlar qarama-qarshilik turlarida o'xshashlikni ko'rsatadi, shu bilan birga ma'lum bir tildagi qarama-qarshilikning mahsuldor va samarasiz turlari bilan bog'liq miqdoriy atamalardagi farqlarni ko'rsatadi.

Turli tizimli tillarda ham antonimik tarkibiy qismlarga ega frazeologik birliklarni tarkibiga ko'ra va grammatik jihatdan tasniflash taqqoslanayotgan tillardan biriga xos bo'lgan bir xil – fe'l, sifat, ravish, ot kabi grammatik guruhlarni aniqlashga asoslanadi.

Turli tizimli tillarda antonimik tarkibiy qismlarga ega bo'lgan frazeologik birliklar semantik darajada o'xshashlikni ko'rsatadi va frazeosemantik guruhlarga birlashtirilishi mumkin, har xil

tuzilgan tillarga xos bo'lgan tushunchalar esa odamlarning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Tillararo frazeologik parallel turlarining ekvivalentligi jihatidan mavjudligi ham ekstralolingistik, ham lingvistik omillar bilan belgilanadi. Leksik atamalarda frazeologik birliklarning antonimik komponentlar bilan tillararo munosabatlari frazeologik ekvivalentlar va frazeologik o'xshashliklar bilan ifodalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Antonimlar — qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlar. Ular turli tillarda ko'plab tadqiqotlar obyekti hisoblanadi. Turli tizimdagи tillardagi frazeologik antonimlarni alohida ko'rib chiqsak, ularni u yoki bu darajada o'rgangan quyidagi olimlarning tadqiqotlarini qayd etishimiz mumkin: G.B. Antrushina, I.V. Arnold, V.Kunin, S. Jons D.A. Kruz, J. Lyons, O.N. Lixacheva, M.L. Merfi, E.N. Miller, U.Rahmatullayev, M.Umarxo'jayev kabi tadqiqotchilarining asarlarida o'z aksini topgan.

Adabiyotlarni o'rganish asosida shuni aytishimiz mumkinki, so'zlearning va hatto frazeologik birliklarning antonimik juftlik hosil qilishda ishtirok eta olishi tilning barcha leksik va frazeologik birliklari antonimlarning hosil bo'lishida ishtirok etishi mumkinligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, frazeologik antonimlarning ta'rifi ularning strukturaviy xususiyatlaridan kelib chiqib emas, balki yaxlit ma'no qarama-qarshiligi natijasida vujudga keladi, chunki ularning ma'nosi yaxlit tushunchada aniqlanadi, komponent tarkibi esa ularning mazmunini shakllantirish va ekspressivlik xususiyatlarini mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi. Ko'rib chiqilayotgan turli tizimli tillarda frazeologik antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, ushbu tillardagi antonimik tarkibiy qismlarga ega frazeologik birliklar yetarli darajada qiyosiy o'rganilmagan. Antonimik komponentli frazeologik birliklar deganda tarkibiy qismlarning to'liq yoki qisman ma'noga ega bo'lgan, ma'no yaxlitligi bilan tavsiflangan, tarkibida antonimik komponentlar bo'lgan alohida shakllangan birliklar tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Antonim komponentli frazeologik birliklarda komplimentar, kontrar, konversiv va vektor qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Komplimentar qarama-qarshilik deganda ular orasida oraliq elementlar qatnashishiga yo'l qo'ymaydigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar tushuniladi, bunda biri ikkinchisining mavjudligini istisno qiladi. Agar bir hodisa haqiqat bo'lsa, u yol'gon bo'lishi mumkin emas. Bunday antonimlarni turli tizimli tillarda frazeologik birliklar tarkibida kuzatishimiz mumkin, masalan: ingliz tilida calm before the storm, more dead than alive.

Kontrar qarama-qarshilik gradual zidlik deb ham atalishi mumkin va ular bosqichma-bosqich qarama-qarshilikni bildiradi, bu xususiyat yoki sifatning daraja bo'yicha o'zgarishini aks ettiradi: *hot – cold* (issiq — sovuq): *to make feel smb. hot and cold; high – low* (yuqori – past): *to search high and low for smth.*

Konversiv qarama-qarshiliklar – qarama-qarshi jarayonning yo'nalishi yoki belgisi orqali ko'rinadigan so'zlarga aytildi. Misol uchun, sotuvchi xaridorga mahsulotni sotadi va xaridor bu mahsulotni sotib oladi, bu holda sotuvchi va xaridor konversiyaga qarama-qarshidir. Ingliz tilida quyidagi antonimik komponentli frazeologik birliklarda konversiv qarama-qarshiliklar kuzatiladi: *give – take* (bermoq – olmoq): *give or take – taxminan*.

Vektor qarama-qarshiliklar ko'p yo'nalishli harakatlarning qarama-qarshiliklari, belgilari deb ta'riflanadi: *here – there: here and there* (bu yerda, anavi yerda).

Tahlil va natijalar. Ingliz tilida frazeologik antonimlarni tasniflashning tuzilishi va semantik xususiyatiga ko'ra 2ta turini kuzatishimiz mumkin. I.V Arnold tasnifiga ko'ra leksik-grammatik xususiyatlarga ko'ra, frazeologik antonimlarning quyidagi turlari ajratiladi. [2, 22]:

1. Fe'lli: *to miss the bus – to explore every avenue.*
2. Otli: *a bed of roses – a bed of thorns.*
3. Sifatli: *as weak as water – as strong as a horse.*
4. Ravishli: *under the weather – up to the mark.*

A.V. Kunin zamонавиј ingliz tilidagi frazeologik antonimlarning bir nechta semantik turlarini aniqlaydi. [3, 138].

1. “Boshlamoq” – “to ‘xtatmoq” turidagi frazeologik antonimlar: *to put (set) smth. on foot – to ring down the curtain.*

2. “Harakat” – “harakat natijasini yo‘q qilish” turidagi frazeologik antonimlar: *loosen one’s purse strings – tighten one’s purse strings.*

3. “Yaxshi” – “yomon”, “to‘g‘ri” – “noto‘g‘ri”, “adolatli” – “insofsiz” turidagi frazeologik antonimlar: *to come to the right shop – to come to the wrong shop; to earn an honest penny – to live by one’s wits; fair play – foul.*

4. “ko‘proq” – “kamroq” turidagi frazeologik antonimlar: miqdor: *(as) plentiful as blackberries – (as) scarce as hen’s teeth; masofa: at close quarters, cheek by jowl, at one’s elbow, (right) under one’s nose – a far cry from; og‘irlik, kuch, tezlik: (as) heavy as lead – (as) light as a feather, (as) strong as a horse – (as) weak as a cat, at a snail’s pace – at breakneck speed; mavhum sifatlar: child’s play – Herculean task, to make a mountain out of a molehill – to make little of smth.*

5. Har xil antonimlar: boylik – qashshoqlik: *(as) rich as Croesus – (as) poor as a church mouse; ma’naviy fazilatlar: a heart of gold – a heart of stone, stone heart, stony heart; go‘zallik – xunuklik: (as) pretty as a picture – (as) ugly as sin; odamning kayfiyat: to keep a stiff upper lip, to keep one’s chin (ulu pecker) up – to lose heart; tajriba — tajriba etishmasligi: old bird – spring chicken; hissiy va aqliy xususiyatlar: (as) gentle as a lamb – (as) hard as nails; (as) straight as a die – (as) crooked as a dog’s hind leg; kechikish yoki harakatlarning o‘z vaqtida bo‘lishi tushunchasi: to take time by the forelock – to hang fire; to lay on the table – on the dot, behind the time.*

Frazeologik antonimiya, ayniqsa, iroda, insoniy his-tuyg‘u, holat, istakni bildiruvchi frazeologik birliklar orasida keng tarqalgan: *with a good grace – with a bad grace; good faith – bad faith; to take heart – to look blue; to carry one’s head high – assume airs; to sing small – to eat dirt.*

A.V.Kinin so‘zlariga ko‘ra frazeologik antonimlar bir uslubli va ko‘p uslubli bo‘lishi mumkin [3, 140]. Bir uslubli frazeologik antonimlar bir xil funksional uslubga tegishli bo‘lib, ekspressiv-emotiv xususiyatlarda farq qilmaydi: *with a heavy heart – with a light heart.*

Turli xil uslubdagi frazeologik antonimlar turli funksional uslublarni bildiradi. Turli xil uslubdagi antonimlarga misol sifatida umumiylabiy frazeologik birlik *to lose heart* va so‘zlashuv uslubidagi frazeologik birlik *to keep one’s chin (ulu pecker) up* kabi frazeologizmlarni kiritish mumkin.

Frazeologik antonimlar antonimik uyalar, antonimik qatorlar va antonimik guruhlar tarkibiga kiradi [3, 141].

1. Antonimik uyaga ham antonimik, ham umumiylabiy komponentlarni o‘z ichiga olgan frazeologik antonimlar kiradi: *to be quick in the uptake – to be slow in the uptake.*

2. Antonimik qator tarkibiga faqat antonimik komponentlarni o‘z ichiga olgan, lekin yordamchi so‘zlarga ega bo‘lmagan frazeologik antonimlar kiradi: *(as) drunk as a lord – (as) sober as a judge; to smb.’s face – behind smb.’s back.*

3. Antonimik guruhga na antonimik komponentlar, na umumiylabamchi so‘zlarga ega bo‘lmagan frazeologik antonimlar kiradi: *at a snail’s pace – at breakneck speed; beat about (ulu around) the bush – to come to the point.*

4. Aralash sinonimik-antonimik guruhlar ham bo‘lishi mumkin: *to hold one’s tongue, to keep one’s mouth shut – to let the cat out of the bag, spill the beans; to sit on one’s hands, twiddle one’s thumbs – to sweat one’s guts out, to work one’s fingers to the bone.*

Sinonimik-antonimik guruhlarga ko‘pincha turli uslubdagi frazeologik antonimlar kiradi: *to come into the world – go over to the (great) majority, go the way of all flesh, go to one’s last (long) home* va hokazo.

Xulosa va takliflar. Demak, frazeologik antonimlarni tahlil qilish asosida ular bir uslubli yoki ko‘p uslubli bo‘lishi mumkin. Birinchi holda, frazeologik antonimlarda erkin foydalanishda antonim bo‘lgan komponentlar bo‘lishi mumkin. Ikkinci holda, ular umumiylabiy qismlarga ega emas va turli funksional uslublarga tegishli bo‘ladi. Frazeologik antonimlar leksik tarkibida qisman mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Frazeologik antonimlarning leksik tarkibi bir-biriga to‘g‘ri kelmasa, ularning lug‘at ta’riflarida antonimik elementlar ularning antonimligining formal ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

1. Алехина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке: автореф. дис. канд. филол. наук. — М., 1968. — 23 с.
2. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. — М.: 1959.
3. Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка : учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. / А. В. Кунин. — М. : Высшая школа, 1986. — 336с.
4. Марданова Г.Б. Сопоставительный анализ фразеологических антонимов в английском и татарском языках: автореф. дис.... канд. филол. наук / Марданова Г.Б.; [Казан. гос. пед. ун-т]. — Казань, 1998. — 21 с. — Библиогр.: с. 20-21.
5. Matkarimova, A., Toshtemirov, E., & Hamidov, B. (2019). Verbalization of the concept of faith/belief by means of lexemes and phraseological units in modern english and uzbek. *Интернаука*, (45-2), 69-71.
6. Миллер, Е.Н. Антонимия в лексике и фразеологии (на материале немецкого и русского языков) / Е.Н. Миллер. — Алма-Ата: [Б.и.], 1978. — 110 с.
7. Тоштемиров, Э. Н., & Абдулжабборова, Ш. А. (2017). Phraseologisms expressing intellectual abilities of the man in English, Russian and Uzbek languages. *Филология и лингвистика*, (2), 80-81.
8. Nuraliyevich, T. E., & Ergashevna, T. E. (2024). Some reflections on the phraseological units expressing mental abilities of the man in the system of languages. *Xalqaro ilmiy-amaly konferensiyalar*, 1(1), 214-216.
9. Nuraliyevich, T. E. (2022). Semantic organization of uzbek and english antonymic phraseological units. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 485-489.
10. Nuraliyevich, T. E., Ismoilovna, M. A., Abdurahimovna, Z. H., & Ergashevna, T. E. (2023). Some Peculiarities Of Semantic Organization Of Phraseological Antonyms In The English And Uzbek Languages. *Journal of Positive School Psychology*, 307-311.
11. Toshtemirov, E. (2023). The problem of the relationship of phraseologisms and proverbs in the language. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 285-287.
12. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. Volume 2: Phrase, Clause & Sentence Idioms. A.P. Cowell. R. Mackin & I.R. McCaig. Oxford University Press, 1984.

UO'K: 801.82

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORAT SEMANTIK KOMPONENTINI ANIQLASH

Sh.N.Turg'unov, tayanch doktorant, TTYSI, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada haqoratning semantik komponentlari va ularning kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Haqorat so'zlarining lug'aviy izohlaridagi semalarini aniqlash va ularning integral hamda farqlovchi semalarini o'rganish orqali haqorat tushunchasining lingvistik tahlili amalga oshiriladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi haqoratli so'zlarning ma'nolari taqqoslanib, ularning lug'aviy va kontekstual tahlili o'tkaziladi. Bu jarayon orqali haqoratning semantik strukturasidagi o'ziga xosliklar aniqlanadi va bu tillar orasidagi farqlar hamda o'xshashliklar yoriltiladi.

Kalit so'zlar: Haqorat, semantik komponent, kognitiv xususiyat, lug'aviy tahlil, kontekstual tahlil, eksplisit, implisit, sema.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические компоненты оскорблений и их когнитивные характеристики. Проводится лингвистический анализ понятия оскорблений через выявление семантических элементов в толковых словарях и изучение их интегральных и дифференцирующих сем. Сравниваются значения оскорбительных слов в английском и узбекском языках, проводится их лексический и контекстуальный анализ. Этот процесс позволяет выявить особенности семантической структуры оскорблений и показать различия и сходства между этими языками.

Ключевые слова: Оскорбление, семантический компонент, когнитивные характеристики, лексический анализ, контекстуальный анализ, эксплицитный, имплицитный, сема.

Abstract. This article examines the semantic components of insults and their cognitive characteristics. The linguistic analysis of the concept of insult is conducted by identifying the semantic elements in dictionary definitions and studying their integral and differential semes. The meanings of offensive words in English and Uzbek are compared, with their lexical and contextual analyses provided. This process reveals the distinctive features of the semantic structure of insults and highlights the differences and similarities between these languages.

Key words: *Insult, semantic component, cognitive characteristics, lexical analysis, contextual analysis, explicit, implicit, seme.*

Haqorat semantik komponentini aniqlash

Haqoratning kognitiv xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida, har bir so‘zning sema tarkibiga e’tibor qaratiladi. Buning uchun, tegishli so‘zlar lug‘aviy izohlarida qaysi semalar faollahganini va aktualizatsiyaga uchraganini aniqlash lozim. Har bir so‘zning semantik tarkibini chuqr o‘rganib, ularni boshqa so‘zlar bilan taqqoslash, leksik qatoridagi komponentlarni tahlil qilish orqali arxisema, integral va farqlovchi semalarni ajratib olish zarur. Bu jarayonda ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘atlardan foydalanib [2,3,5,6,7,8,9,10], semantik tahlil o‘tkaziladi.

Olib borilgan tahlil natijalari haqoratning kognitiv xususiyatlarini anglashga yordam beradi va lug‘atlardagi semantik ma’lumotlarning tahliliy qiymatini oshiradi. Ular orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi haqoratli so‘zlarning semantik tarkibi va ularning kognitiv ta’siri to‘g‘risidagi tushunchalarni kengaytirish mumkin.

Komponent tahlil natijasida, ingliz tilida mavjud so‘zlarning lug‘aviy izohlaridagi semalarni aniqlashtirishga oid bir necha misollar keltiriladi. Bu misollar orqali komponent tahlilning amaliy ahamiyati va qo‘llanilish usullari ko‘rsatiladi.

Jerk (ahmoq) - an **offensive** word for somebody who you think is stupid or often says or does the wrong thing;

Scum (iflos, pastkash) — an **offensive** word for people who you think are very bad.

Quyidagi berilgan tahlilda jerk va scum kabi so‘zlarning lug‘aviy izohida offense semasi eksplisit ifodalash yo‘li bilan aniqlandi. Mazkur misolda sema implisit ifodalash orqali aniqlandi.

Rat (kalamush) – 1) a small animal with a long tail, that looks like a large mouse, usually considered a pest; 2) an animal which is disliked because it destroys food or spreads disease; 3) an unpleasant person, especially somebody who treats their partner or friends badly, for example by leaving them or cheating them.

Berilgan misolda sema ikkinchi pog‘onda aniqlandi: rat- pest (animal)- unpleasant person.

Ingliz tilidagi *offense* semasi haqoratlashga kiruvchi leksik birliklarning lug‘aviy semantik izohlaridagi (definisiyasidagi) arxisemasi deb qabul qilinsa, *insult, swear, crazy, rude*, semalari hamda *angry, stupid* va *unpleasant* lug‘atlardagi pometalar integral semalar deb qabul qilindi. Semantik strukturasida mazkur integral semalarga ega bo‘lgan so‘zlar o‘z navbatida *offense* arxisemasi bo‘yicha bir guruhga birlashadilar. Masalan:

insult (ta’n, haqorat) – a remark or an action that is said or done in order to **offend** somebody to use rude or **offensive** language, usually because you are angry;

swear (so‘kmoq) – to use rude or **offensive** language, usually because you are angry;

crazy (aqldan ozgan) – (usually **offensive**) someone who is or acts mentally unsound;

rude (odobsiz) – connected with sex or the body in a way that people find **offensive** or embarrassing.

Ingliz tilidagi lug‘atlar yordamida to‘plangan misollar soni 132tani tashkil etdi. Ularning 46tasi (33%) eksplisit, 50tasi (52%) implisit ifodalash yo‘li hamda 36tasi (15%) pometalar yordamida aniqlandi. Komponent tahlil asosida aniqlangan integral sema va pometalar faollik darajasi quyidagicha:

swear – 41ta (31,5%), insult – 27ta (20%), rude – 17ta (12,5%), crazy – 11ta (8%), angry – 14ta (10,5%), stupid – 12ta (9,9%), unpleasant – 10ta (7,6%).

O‘zbek tilida olib borilgan komponent tahlil natijasiga ko‘ra, lug‘atlarda haqorat ma’nosini ifoda etuvchi 85 ta leksik birlik aniqlandi. Ushbu tahlilda haqorat asosiy sema (arxisema) sifatida qaraladi va *haqorat* va *haqoratli* kabi atamalar integral semalar sifatida tan olinadi. Izohlarida *so‘kish, tahqilamoq*, kabi belgilar mavjud bo‘lgan so‘zlar ham haqorat kategoriyasiga kiritildi. Bu integral semalar va belgilar haqorat bilan bog‘liq so‘zlardan tashkil topgan arxisemada birlashadi. Masalan:

Gadobachcha- 1) tilanchining bolasi; 2)kambag‘al, beva- bechoraga nisbatan **haqorat**, kamsitish so‘zi;

Padarlanat — Otasi la’natlagan, la’natining o‘g‘li; umuman, qarg‘ash, **haqorat** ifodasi;

Dashnom — so'kish; **haqoratl** so'z;

Dajjal — **so'kish**. Mal'un, iblis, shayton;

Yerga bukmoq — yerga kirib ketguday uylatirmoq yoki **tahqirlamoq**.

Ushbu misollardagi eksplisit ifodalash yo'li orqali aniqlangan *haqarat* va *haqoratl* kabi integral semalar tadqiqotimiz davomida to'plangan ayrim so'zlarning izohida yaqqol mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi.

Misollarning 43 tasi (50,6%) eksplisit hamda 42 tasi (49,4%) implisit ifodalash yo'li orqali topildi. Komponent tahlil asosida aniqlangan integral semalarning faollik darajasi quyidagicha:

haqarat (*haqoratlash*, *haqoratl*) – 43ta (50,6%), so'kish (so'kmoq) – 40ta (47%), *tahqirlamoq* – 2 tani (2,4%) tashkil qiladi.

Ingliz va o'zbek tillarida *haqarat* ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning lug'aviy izohlarida *haqoratni* ko'rsatuvchi semalar mavjud bo'lmasa-da, ularning kontekstdagi ma'nolariga asoslanib, *haqoratga* kiritildi. Masalan, Masalan, V. Shekspirning "Otello" tragediyasidan ingliz va o'zbek tillarida misollar keltiramiz. V. Shekspirning "Otello" tragediyasidan ingliz va o'zbek tillarida misollar keltiramiz. Unda Dezdemona Yagoga nisbatan *slanderer* (tuhmatchi) so'zini ishlataladi:

Desdemona (to Iago): O, fie upon thee, slanderer! [4, 53]

Dezdemona (Yagoga): — Bas, uyasiz, or-nomussiz, bachki, bo'xton gap [11,221].

O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda *pakana*, *imonsiz*, *semiz*, *ovsar*, *tenkat*, *bashara*, *shabko* r kabi bir nechta so'zlarning ko'chma ma'nolarda *haqoratni* ifoda etishi ko'rsatib o'tilmagan. Lekin, o'zbek tilida bu so'zlar *haqarat* ma'nosida qo'llaniladi. O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida quyidagi misollar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan:

– Ho've, **shabko'r!** Pishirib qo'yibdimi senga?! – U xatni burda-burda qilib Ochilboyning yuziga uloqtirdi.

– **Basharang** qursin! qayoqdan keldi bu so'xtasi sovuq!

– Hov **semiz**, ko'zingga qara!

– E, mehmon emas, **ovsar!** – Oqsaqol jahl bilan qo'l siltadi [1, 83,147, 165,48].

Quyida belgilab ko'rsatilgan so'zalar o'zbek tilining izohli lug'atida haqoratga oid ma'no ifoda etishi ko'rsatilmagan bo'lsa ham, ko'chma ma'noda ular ma'lum doirada haqorat va unga oid bo'lgan pametalarni ifodalashi mumkin ekanligini ko'rsatib beradi.

Komponent tahlil metodi yordamida so'zlarning semantik strukturasidan haqoratlash semasini aniqlash izlanishlarimiz jarayonida yetarlicha samara berdi. Lekin, izlanishlar jarayoni qiyoslanayotgan tillarda mavjud lug'atlardagi materiallar haqoratlashning chuqur lingvistik tahlil qilinishi uchun yetarli emasligini, ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy asarlar, gazeta-jurnallar, radio televide niye, Internetdan to'plangan materiallar, informantlardan olingan so'rovnomalari natijasi va boshqa manbalarga suyanib ish ko'rish o'rganilayotgan mavzuni to'g'ri yoritishga yordam berishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimov O'. Okki eshik orasi. — T.: O'qituvchi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Oxford Thesaurus of English (Second Edition). – Oxford: Oxford University Press, 2004. – PP. 802
3. Oxford English Dictionary
4. Shakespeare, W. (2024). *Othello*. Folger Shakespeare Library. <https://shakespeare.folger.edu/>
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 jildi. -T.:G'ofur G'ulom, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2022. J.1
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildi. -T.:G'ofur G'ulom, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2022. J.2
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3 jildi. -T.:G'ofur G'ulom, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2022. J.3
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4 jildi. -T.:G'ofur G'ulom, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2022. J.4
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildi. -T.:G'ofur G'ulom, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2022. J.5
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildi. -T.:G'ofur G'ulom, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2022. J.6
11. G'afur G'ulom. *Otello* (G', G'ulom tarjimas). T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1981.

**LAKUNANING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA MADANIYATLARARO
ALOQADAGI ROLI**

D.A.Tursunova, tayanch doktarant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Turfa tillar va ularning madaniyatini o‘rganish va tarjima qilish jarayonida biz hozirda "lakuna" terminiga tez tez duch kelmoqdamiz. Bugungi kunda bu tushuncha tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik, linguokulturologiya sohasidagi tadqiqotlarda faol qo‘llanilmoqda. Har bir sohada uni qo‘llashda farqlar va umumiyliklar mavjud. Bu farqlar tadqiqot sohasining ehtiyojlari va talablariga asoslangan tadqiqotchilarining turli talqinlarida aks etadi.

Kalit so‘zlar: lakuna, lakunosfera, kommunikativ doira, realiyalar, mentalitet, semantik quduq

Аннотация. В процессе изучения и перевода различных языков и их культур мы сейчас довольно быстро сталкиваемся с термином "лакуна". Сегодня это понятие активно используется в исследованиях в области лингвистики, переводоведения, культурологии, лингвокультурологии. В каждой области есть различия и общие черты в ее применении. Эти различия отражаются в различных интерпретациях исследователей, основанных на потребностях и требованиях области исследования.

Ключевые слова: лакуна, лакуносфера, коммуникативный круг, реалии, менталитет, смысловой колодец

Abstract. In the process of studying and translating different languages and their culture, we are now quickly faced with the term "lacune". Today, this concept is actively used in research in the field of linguistics, interpreting, cultural studies, linguoculturology. In each area, there are differences and commonalities in its application. These differences are reflected in different interpretations of researchers based on the needs and requirements of the research area.

Keywords: lacuna, lacunosphere, communicative circle, realities, mentality, semantic well

Tilshunoslikda tilning rasmiy tuzilishini o‘rganadigan tarkibiy tilshunoslikdan antropologik tilshunoslikka o‘tish shunisi bilan ajralib turdiki, bunda tilni inson, uning ongi va faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqish g‘oyasi ilgari surildi.

Til – madaniyat – inson shaxsiyati tushunchalari triadasiga asoslangan yangi tilshunoslik sohasining paydo bo‘lishi haqida bir vaqtlar fransuz olimi Emil Benvenist yozgan edi, u tilni odamdan ajaratilgan vosita sifatida ishlatishni bema’ni deb hisoblagan, til yordamida esa inson shaxs sifatida rivojlanadi [1;31].

Tilga antropotsentrik yondashuv g‘oyasi ko‘plab olimlar (yu. S. Stepanov, B. A. Serebrennikov, yu. N. Karaulov, Z. K. Axmetjanova va boshqalar) tomonidan bildirilgan bo‘lib, ular tilning mohiyatini uning ona tiliga murojaat qilmasdan tushunishning iloji yo‘qligini ta’kidladilar.

Tilshunoslikdagi ilmiy paradigmalarning o‘zgarishi uchun sharflar quyidagi dunyoviy o‘zgarishlar edi: globallashuv jarayoni va u bilan bog‘liq xalqaro aloqalarning rivojlanishi; turli davlatlar, xalqlar va madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini faollashishi, "til va madaniyat" o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga qiziqishni ortishi. Ushbu omillar madaniyatlararo aloqa jarayonini o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatib berdi.

Antropotsentrik paradigma doirasida zamonaviy tilshunoslikda tadqiqotning quyidagi jihatlari ajralib turadi: tilning inson ongidagi o‘rni va dunyoning lingvistik manzarasini shakllantirish, atrofdagi voqelikning bo‘linishidagi nomuvofiqliklarni va ma’no mavjudligini aniqlaydigan lingvistik-madaniy birliklarni o‘rganish. Bunday madaniy yorliqli til vositalari "lakuna" deb nomlanadi.

Lakunashunoslik mavzusiga xorijiy, Rossiya va Qozog‘iston olimlarining ko‘plab asarlari bag‘ishlangan: J. P. Vine, J. Darbelne, Y. A. Sorokin, E. M. Vereshchagin, S. Florin, S. Vlaxov, V. G. Kostomarov, V. L. Muravyov, S. G. ter-Minasova, Z. D. Popova, I. A. Sternin, V. I. Y. Markovina, G. V. Bykova, Y. S. Stepanov, V. G. Gak, O. A. Donskiy, O. A. Ogurtsova, E. A. Eynullayeva, A. A. Mahonina, T. Y. Danilchenko, E. G. Proskurin, E. V. Berdnikova, N. L. Glazacheva, L. K. Bayramova, K. M. Abisheva, B. T. Kulbaeva, N. M. Janpeisova, G. J. Bayshukurova. Ularning

asarlarida til va tafakkur, til va madaniyat, til va shaxs o'rtasidagi munosabatlar masalasini hal qilishda yangi yondashuvlar mavjud.

Kanadalik tadqiqotchilar J. P. Vine va J. Darbelne lakuna atamasini birinchi bo'lib fanga ilmiy foydalanishga kiritdilar [2]. Shuningdek mazkur K. Xeyl, C. Xokket, M. Shattluort, M. Koui, M. Dagat, B. Dallinger, L. Mayls, E. Grodskiy, S. Backer singari tilshunoslar tilshunoslik va madaniy tafovutlarni tavsiflash uchun "lakuna"(semantik bo'shliq, bo'sh joy) atamasini o'z asarlarida qo'llaganlar.

Hozirgi vaqtida ma'lum bir tilning leksik tizimidagi lug'at bo'shliqlari (lakuna-bo'sh joylar) masalasi tobora ko'proq tadqiqotchilarni jalg qila boshladi. Bunday muammo quyidagilar natijasida yuzaga keldi: alohida tillarda ma'lum leksemalarning yo'qligini aniqlagan qarama — qarshi va qiyosiy tadqiqotlar; tizimli tadqiqotlar (bo'sh hujayralarni postulatsiya qiluvchi nol va xususiy qarama-qarshiliklar bilan birlashtirilgan leksik guruhlarni, jins-turlarni, sinonimik, antonimik qatorlarni o'rghanish); aqliy jarayonlarning kognitiv tadqiqotlari, bu munosabatlar tarmog'i til tizimi inson miyasidagi asab aloqalari tarmog'ining aksidir. Chet el madaniyati (xorijiy madaniyat matni) bilan aloqada bo'lgan holda, qabul qiluvchi uni mahalliy madaniyati obyektivi orqali qabul qiladi, bu asosan chet el madaniyatining maxsus hodisalarini tushunmaslikni belgilaydi [6, 74-bet]. Ushbu holat kontseptual va terminologik vositalarni ishlab chiqishga zaruriyat yaratadi , uning yordamida boshqa madaniyat matnini tushunish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va o'rghanish mumkin bo'ladi.

Lakuna nazariyasining kontseptual va terminologik strukturasi "lakuna" asosiy tushunchasiga qo'shimcha ravishda quyidagi nomlarni o'z ichiga oladi: "lakunosfera", "lakunologiya", "lakunar birlik", "lakunarizm", "lakunar taranglik", "mahalliy madaniyat", "milliy madaniyat", "milliy ong (dunyo surati)", "madaniyatlararo aloqa", "mentalitet", "matn", "til", "kommunikativ doira".

Madaniyatlararo muloqot jarayonida lakunalar muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'zaro tushunish uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi tarjima usullariga murojaat qilamiz: tavsiflovchi tarjima, transkripsiya, transliteratsiya, izlanish [7, 12-bet].

So'nggi paytlarda fanda leksik, grammatik va boshqa tillar va madaniyat tizimlarida milliy belgilangan elementlar mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli xil atamalar yordamida tasvirlangan: lakunalar (J. P. Vine va J. Darbelne, V. L. Muravyov), dar-Space — lakuna (K. Xeyl), antislova, tilning semantik xaritasida oq dog'lar (yu. S. Stepanov), tarjima qilinmagan tabiat misollari (V. G. Chernov), ekvivalent bo'limgan, leksik nol, nol leksema (I. A. Sternin), ekvivalent bo'limgan yoki fon leksikasi (L. S. Barxudarov, E. M. Vereshchagin, V. G. Kostomarov), tillararo o'xshashlik va leksik parallelliklar (V. V. Dubichinskiy), semantik quduq (V. N. Komissarov), madaniyatlararo aloqa jarayonida "ko'tarilgan burmalar" (G. D. Gachev), ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar tomonidan yomon qabul qilingan matnli "qorong'u joylar" (R. A. Budagov), "tarjimasiz lug'at", "yetarli bo'limgan lug'at", "realiyalar" (S. Vlaxov, S. Florin), o'zgarmas, potentsial so'z va boshqalar (G. A. Antipov, I. Yu. Markovina, O. A. Donskiy, Yu. A. Sorokin).

Lingvistik adabiyotlarda lakunaning ko'plab ta'riflari mavjud, ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

V. L. Muravyov lakunalarga "bu tilda boshqa tilning yetishmayotgan so'zi" deb murojaat qiladi [5, 37-bet]. "...Biz faqat ma'lum bir tilning til normasida aniqlanmagan tushunchalarni ifoda etadigan va bu tilda etkazish uchun ko'proq yoki kamroq fazoviy perifraz – nutq darajasida yaratilgan erkin iboralarni talab qiladigan chet tilidagi so'zlarni (barqaror iboralar) lakunalar deb hisoblaymiz", deb yozadi olim [5, 39 – bet].

V. G. Gak lakunalarni "tilning leksik tizimidagi bo'shliqlar, uning aks ettiruvchi funktsiyasiidan (ya'ni obyektiv voqelik hodisalarini belgilash vazifasi) va tilning leksik tizimidan kelib chiqqan holda tilda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan so'zlarning yo'qligi" deb biladi [3, 161-bet]. Masalan, rus tilida mavjud *cymku* (kun) va *кияток* (qaynoq suv) leksemalarining ekvalentlari fransuz tilida uchramaydi.

V. I. Zelvis o'rganilayotgan lakuna hodisasi haqida shunday yozadi: "... lakunalar-bu ba'zi tillarda va madaniyatlarda "alohida" deb belgilangan, boshqalarida esa signal berilmagan, ya'ni

ijtimoiy jihatdan mustahkamlangan ifodani topmaydigan narsa" [4, 137-bet]. Z. D. Popova va I. A. Sternin lakuna tushunchasini quyidagicha shakllantiradilar: " turli tillarning denotativ sememlarining to'liq bo'limgan ekvivalentligi natijasida lakuna kabi hodisa vujudga keladi: bir-biri bilan taqqoslanadigan tillarning birida boshqa tilda mavjud bo'lgan u yoki bu tushunchaning nomi yo'qligi " [92, 44-bet].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика. М.: УРСС, 2002. 448 с.
2. Вине Ж.П., Дарбельне Ж. Сопоставительная стилистика французского и английского языков. Метод перевода. Париж: Наука, 1958. 102 с.
3. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. Л.: Просвещение. Ленингр. отд-ние, 1977. 300 с.
4. Жельвис В.И. К вопросу о характере русских и английских лакун // Национал.-культур, специфика речевого поведения. — М.: Наука, 1977. С. 136-146.
5. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). Владимир: Эпоха, 2005. 110 с.
6. Neuliep J.W. Human Communication Theory. Allan and Bacon, 1996. 366 с.
7. Эйнуллаева Е.А. Лакуны в структуре языковой личности и их заполнение в межкультурной коммуникации: (На примере англ. и рус. яз.): автореф. дис. канд. филол. наук. М., 2003. 24 с.

UO'K 81.23**LINGVISTIK MULOQOTDAGI PSIXOLINGVISTIK VA MADANIY OMILLAR***M. Tursunova, doktorant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand*

Annotatsiya. Berilgan maqolada lingvistik muloqot jarayonida psixolingvistik va madaniy omillarni, psixolingvistikaning muloqot jarayoniga bog'liqligini va madaniy omillar ham psixolingvistikaga bog'liqligini va o'xshashligini ko'rish mumkin bo'ladi. Izlanish jarayonlarida lingvistik muloqot jarayoniga ta'sir qiluvchi holatlarni va alohida jihatlarini ko'rsatib berishdan iborat edi. Ularning o'zaro bog'liqligini psixolingvistik omilning birlamchi va madaniy omilning ikkilamchi ekanligini ko'rsatib berish maqolaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Lingvistik muloqot jarayoni, omillar, psixolingvistika, madaniy, ong, nutq, fikr, psixologik.

Аннотация. В данной статье можно будет увидеть психолингвистические и культурные факторы в процессе языкового общения, зависимость психолингвистики от процесса общения, а также то, что культурные факторы также зависят от психолингвистики и схожи с ней. Одна из основных целей статьи – показать их взаимозависимость, что психолингвистический фактор является первичным, а культурный – вторичным.

Ключевые слова: Процесс языкового общения, факторы, психолингвистика, культурологическое, сознание, речь, мышление, психологическое.

Abstract. In this article, it will be possible to see psycholinguistic and cultural factors in the process of linguistic communication, the dependence of psycholinguistics on the communication process, and the fact that cultural factors are also dependent on and similar to psycholinguistics. It was to show. One of the main goals of the article is to show their interdependence, that the psycholinguistic factor is primary and the cultural factor is secondary.

Key words: Linguistic communication process, factors, psycholinguistics, cultural, consciousness, speech, thought, psychological.

Til muloqot vositasining asosiy birligidir. Muloqot jarayonida til orqali o'zimizning g'oyalarimizni, fikrlarimizni anglagan holda ifoda etamiz. Muloqot jarayoni nutq bor joyda sodir bo'ladi. Bunda so'zlovchi ozining psixolingvistik va madaniy omillariga tayangan holda amalga oshiradi. Lingvistik muloqot jarayoni bunda axborotni qayta ishlash, qabul qilish va uni muloqot jarayonida insonning psixologik va madaniy omillariga tayangan holda ishlatish tushuniladi. Spitsberg quyidagicha ta'riflagan "Muloqot jarayonida boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'ling".

Spitsberg “yaxshi” atamasini tushuntirishga harakat qiladi.Yaxshi atamasi muloqot jarayonida aniqlik, ravshanlik, tushunarlik, izchillik va dolzarblik ekanligini tushuntirib o‘tadi.[6,112]

Lingvistik muloqot madaniyati tilshunoslikda nisbatan yangi va lingvistik muloqot sohasida tobora ommalashmoqda. Zamonaviy tilshunoslik va lingvistik muloqot madaniyati sohalarida “til” va “madaniyat” tushunchalari to‘liq o‘rganilgan va ko‘plab ta’riflar berilgan. Madaniyat tilda rivojlanadi va aks etadi.Turli manbalarda ushbu atamaning turli talqinlari o‘z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi: qadriyatlar, shuningdek, nomlar, urf-odatlar, lingvistik belgilar, matnlar va boshqalar. Lingvistik muloqot madaniyati mustaqil semiotik tizim sifatida lingvistik madaniyat chorrahasida shakllanadi.

Ma’lumki, Lingvistik muloqot madaniyati til-madaniyat-inson o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muammolarini o‘rganadi va so‘nggi yillarda eng ko‘p o‘rganilayotgan sohalardan biridir. V.A.Maslovaning fikriga ko‘ra “Lingvistik muloqot madaniyati tilshunoslik sohasida fan sifatida vujudga kelgan va tilda madaniyatshunoslik va madaniyat aks ettirilgan va mustahkamlangan” [4, 28-bet].

A.V.Maslovaga o‘xhash fikrlarni V.N.Teliya ham bayon etgan.Uning fikriga ko‘ra “Lingvistik muloqot madaniyati- bu ilmiy fan hisoblanib, moddiy madaniyat va xalqning mentaliteti tilda aks ettirilgan”[5,284]

Lingvistik muloqot madaniyatida madaniyatdan tashqari psixolingvistika ham muhim o‘rin tutadi. Psixolingvistika va madaniyat o‘zaro bog‘liq bo‘lib lingvistik muloqot madaniyatida o‘zining o‘rniga egadir. Psixolingvistika sohasi XX asr o‘rtalariga kelib yangi fan sifatida rivojvana boshladи. Umuman olganda, psixolingvistika terminini birinchi bo‘lib amerikalik olim N.Pronko o‘zining Til va psixolingvistika deb nomlanuvchi maqolasida keltirib o‘tgan. Filologlar psixolingvistika bu lingvistikaning bir varianti ya’ni nazariy lingvistikaning bir turi deb hisoblagan bo‘lsalar faylasuflar esa psixolingvistika falsafa va psixologiyaning bir qismi deb hisoblashadi. Psixolingvistika aslida bu fanlar bilan o‘zaro bog‘liqidir ya’ni lingvistik nuqtai nazardan qaralsa bu insonning muloqot faoliyati, muloqotning ijtimoiy va psixologik jihatlari,muloqot jarayonida til va ongning bir biri bilan chambarchas bog‘liqligi tushuniladi.

Psixolingvistikaning tadqiqot predmeti eng avvalo muloqot jarayonidir, ushbu faoliyatning o‘ziga xos tuzilishi bu uning psixologik mazmuni, tuzilishi va muloqot jarayonida qaysi turlar va amallar orqali amalgalashadi va uning bajaradigan vazifalari nimalardan iboratligini ko‘rsatadi.

Psixolingvistika tilni birinchi navbatda psixikaning hodisasi sifatida o‘rganuvchi tilshunoslikning bir sohasi deb qaralsa, psixolingvistika sohasidan qaraladigan bo‘lsa til so‘zlovchi va tinglovchining ichki dunyosi mavjud bo‘lgan darajada qaraladi.

Psixolingvistika bu alohida fan bo‘lib, o‘zining murakkabligi bilan tilga va psixologiyaga ham tegishli bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda psixolingvistikani ham tilshunoslik yoki psixologiya sifatida qaralmasligi kerak. Til muloqotning asosiy kaliti hisoblanadi va jamiyatga xizmat qiluvchi bir negizdir, psixolingvistika esa muloqotning bir bo‘lagi deb hisoblanadi chunki ijtimoiy aloqalarni, muloqot jarayonlarini psixologik jihatdan bilimlarni loyihalash va ularni o‘rganuvchi fanlar qatoriga kiradi.

Inson tilni to‘liq o‘zlashtirish qobiliyati bilan tug‘iladi.Ammo, bu qobiliyatni amalgalashadi uchun lingvistik muloqot talab etiladi. Bu hodisaning qanday sodir bo‘lishini aniq mukammal tushunish uchun psixolingvistika muloqot jarayonini ya’ni nutq faoliyatini o‘rganadi. Bundan tashqari psixolingvistika lingvistik muloqotning rivojlantirish jarayonini va nima sababdan faoliyati me’yordan chetga chiqish sabablarini ham o‘rganadi. Tilni lingvistik jihatdan, muloqot jarayonida psixolingvistikaning va madaniyatning qanday ta’siri borligini va uning ahamiyatini o‘rganishni psixolingvistika atamasini fanga kiritishdan ancha oldin mavjud bo‘lgan degan qarashlar amerikalik olimlar orasida muhokamaga sabab bo‘lgan.

Shunday qilib, 19-asrda nemis faylasufi va tilshunosi V. fon Gumboldt “dunyoga qarash”da yoki bugungi kunda ta’kidlaganimizdek, subyektning tashqi muhitdan keladigan ma’lumotlarning tuzilishida eng muhim rolni tilga bog‘lagan.[2,34] Xuddi shunday yondashuv 19-asr rus filologining asarida A.A.Potebnyaning so‘zning “ichki shakli” haqidagi ta’limotida uchratish mumkin. Bu tushunchaning o‘zi faqat psixologik talqin qilish sharti bilan mazmun kasb etadi. So‘zning ichki

shaklini his qilish, shaxs so'zning tovushi va uning ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishini ko'rsatadi: agar ona tilida so'zlashuvchi so'z tikuvchi so'zining orqasida joylashgan portlarni tanimasa, u holda uning ichki shakli so'z tikuvchi yo'qolgan. Inson tilni to'liq o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lib tug'iladi. Biroq, bu imkoniyat hali amalga oshirilmagan. Bu qanday sodir bo'lishini aniq tushunish uchun psixolingvistika insonning muloqot jarayonini rivojlanishini o'rganadi. Psixolingvistika nutqni rivojlantirish jarayoni va uning faoliyati me'yordan chetga chiqish sabablarini ham o'rganadi.

Madaniyatning ajralmas qismi tildir. Tafakkur va xulq-atvorning milliy xususiyatlari til belgilarida mustahkamlanadi va shu orqali unda aks etadi. Til, o'z navbatida, dunyoni tushunishga ta'sir qiladi.

Madaniy tilshunoslik ham ko'p tarmoqli sohalardan biri hisoblanadi. Bunda til va madaniyat o'rtasidagi munosabat tushuniladi. Dastlab bu soha kognitiv lingvistikaga bo'lgan qiziqishdan kelib chiqqan. Madaniy tilshunoslik bir nechta sohalarga tayangan. Lingvistika tilning madaniy asoslarini tadqiq qilish imkonini berdi.

Madaniyatshunoslik va psixolingvistika o'rtasidagi munosabatlar bir-birini to'ldiradi, bu, albatta, bir-birini to'ldirishning mohiyatini va uning asosidagi aniqlikni ko'rib chiqish zarurligini inkor etmaydi.

Madaniyatshunoslik ham, psixolingvistika ham ma'lum bir etnik guruhga (ma'lum bir guruhga) xos bo'lgan og'zaki (psixomental) va noverbal (kinesikoproksemik va instrumental) xattiharakatlarni o'rganishga qaratilgan.

Madaniyatshunoslikda xalqlarning madaniyati, kelib chiqishi, urf odatlari muloqot jarayonida ularning ishlatilishi noverbal ko'rinishda bo'lsa ham keng qo'llanilishini o'rganadi. Psixolingvistikaning o'rganish mavzusi bu muloqot jarayonidir, unda so'zlovchining psixologik holati, qaysi holatda nimani so'zlashi, o'ziga bo'lgan ishonchi, o'z nutqini tushuntira olishi tushuniladi.

E.Sapir tilning tafakkurga ta'siri haqida shunday yozgan: "Odamlar ijtimoiy olamga ishonib yashaydi. Til ma'lum bir jamiyat uchun muloqot vositasi hisoblanadi. Dunyo ma'lum bir guruhning til me'yorlari asosida quriladi. Buni insonlar muloqot jarayonida eshitadilar, idrok etadilar va ko'radilar. Ayrim holatlar ya'ni muloqot jarayoni lingvistik me'yorlar bilan bog'liq bo'ladi.

Madaniyat lingvistik tushunchada, so'zda, iborada, mustahkamlanadi. Madaniyatning muloqot jarayonida qanday namoyon bo'lishi va madaniyatning so'zda qanday namoyon bo'lishi haqida ikkita nuqtai nazar mavjud. Til muloqot jarayonida yoki muloqot madaniyatida milliy madaniyatni aks ettiradi. Lingvistik nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak so'z ma'nosining madaniy tarkibi uning ekstralolingvistik tarkibidan iboratdir. Madaniyat go'yoki so'z ma'nosiga kiritilgan.

Lingvistik muloqot jarayonida psixolingvistika va madaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti turli xil bo'lishiga qaramay ular bir biri bilan o'zaro bog'liqdir. Lingvistik muloqot madaniyatida psixolingvistika birlamchi ya'ni asosiy deb hisoblansa, madaniyatshunoslik asosiy bo'lmagan ikkilamchi bo'lib xizmat qiladi. Lekin bu ikkala holatda ya'ni psixolingvistika va madaniyatshunoslik muloqot jarayonida muloqot jarayonini va ongni o'rganish asosiy maqsadi bo'lib qoladi. Lingvistik muloqot jarayonida bir nechta psixolingvistik omillarni ko'rish mumkin bo'ladi. Deylik, muloqot jarayonida inson hayajonlansa, o'z nutqini ifodalay olmasa psixologik jihatdan tayyor bo'lmasa, o'ziga bo'lgan ishonch, suhbatdoshini muloqot jarayoniga jalb qilolmasa albatta bu muloqot jarayoniga shubhasiz ta'sir qiladi. Madaniy omillarni aytib o'tadigan bo'lsak bu holatda inson muloqot jarayonida muloqot madaniyatini bilmasa, suhbatdoshining madaniyatiga e'tibor bermasa, muloqot jarayonida jargonlarni yoki madaniyatga to'g'ri kelmaydigan so'zlarini ishlatsa hamda imoshoralarni noto'g'ri ishlatsa albatta bu ham muloqot madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Lingvistik muloqot jarayonida inson ongli ravishda o'zining psixolingvistik va madaniy omillarini ishlatgan holatda muloqot qilganda muloqot jarayoni rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Белянин, В.П. Психолингвистика: Учеб. пособие / В.П. Белянин – М.: МПСИ, 2003. – 323 с.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по общему языкоznанию. — М., 1984.-450
3. Глухов В.П. Основы психолингвистики / В.П. Глухов. – М.: ACT: Астрель, 2008. — 351 с.

4. Залевская, А.А. Психолингвистические исследования. Слово. Текст : Избранные труды /А.А. Залевская. – М. : Гнозис, 2005. – 542с.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студ. высш. учеб. Заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2010. 208 с.
6. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996. 284 с
7. Spitzberg, B.H. and Cupach, W.R. 1988. Handbook of interpersonal competence research, New York: Springer-Verlag.-112
8. Steinberg D.D., Hiroshi Nagata and David P. Aline, ed. Psycholinguistics: Language, Mind and World. — Longman Linguistics Library, 2001

UO'K 81-13

ISAJAN SULTON ROMANLARIDA RAMZIYLIK IFODASI*I. Umarova, o'qituvchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

Annotatsiya. Ushbu maqolamiz O'zbekiston xalq yozuvchisi, Isajon Sultonning "Ozod", "Boqiy darbadar" romanlaridagi ayrim e'tiborimizni tortgan ramz va timsollarning sharhiga bag'ishlanadi. Zero, bu asarlarning g'oyasi chuqur umumbashariy mazmun kasb etadi, undagi ramz va timsollarning ortida chuqur ma'nolar goh pinhon, goh oshkora ko'zga tashlanadiki, insonni anglashga, o'qib va uqib olishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: ramz, timsol, badiyat, genom, sura, oyat, istidroj, roman, qissa, hikoya.

Аннотация. Данная статья посвящена обзору некоторых привлекших наше внимание символов и символов в романах «Озод» и «Бакий Дарбадар» народного писателя Узбекистана Исаджона Султана. Ведь идея этих произведений приобретает глубокий общечеловеческий смысл, глубокие смыслы за символами и символами иногда скрыты, а иногда и явно видны, что приглашает человека понять, прочитать и послушать.

Ключевые слова: символ, символ, искусство, геном, сура, стих, рассказ, роман, новелла, повесть.

Abstract. This article is devoted to the review of some of the symbols and symbols that attracted our attention in the novels "Ozod" and "Baqiy Darbadar" by the national writer of Uzbekistan, Isajon Sultan. After all, the idea of these works acquires a deep universal meaning, deep meanings behind the symbols and symbols are sometimes hidden and sometimes openly visible, which invites a person to understand, read and listen.

Key words: symbol, symbol, art, genome, sura, verse, istidroj, novel, short story, story.

Isajan Sulton romanlari to'la badiiy-falsafiy ruhda yaratilgan bo'lib, ramziylik ifodalari yaqqol namoyon bo'lib turadi. Isajon Sultonning ijodidagi alohidilik individual uslub, ramz tanlash mahorati, uning romanlari qiymatini oshiradi. Ayniqsa "Ozod" romani qahramoni Ozod lolaga erishish uchun maqsad sari chiqqan yo'lining mashaqqatlari-yu qiyinchiliklarga bardosh berib, yengib o'tgan. Ozod har tomonlama va ruhan poklanadi, ruhning turli g'uborlardan, illatlardan ozod bo'lishiga ishoradir.

Ozod lola uchun yo'lga chiqishi ma'lum maqsad bilan safarga otlanishi, qishlog'idan chiqishi chegarani buzish deb qaraladi. Ozodning qishlog'ida ota-onasi, ma'lum tartib qoidalar, mumkin, mumkin emas degan ishoralar bor. Bu yerda qishloq chegara sanalib undan chiqish Ozodni erkinlikka, kenglikka chaqiradi. Ushbu ramziylik ham yozuvchining mahoratini ko'z ilg'amas qirralarini ochib beradi. Asarda noreal makonlar Uch yong'oq, Iskandar devori, Tuz cho'li kabi joy nomlari tasviri uchraydi. Yozuvchi ularda Ozodning hayrat-u hayajonlari o'y-fikri, tushunish va anglatishlari orqali bugungi kun bilan tarix namoyon bo'layotganiga ishora bor. Adib butun koinot borligini ko'zguga o'xshatadi va unda aks etgan minglarcha narsalar nimalarnidir aks etishiga ishora qiladi. Masalan, tap-taqir yerda o'sgan go'yo qurg'oqchilikning aksi, qiyishiq imorat nobop ustaning aksi ekanligiga urg'u beradi. Ammo akslarning eng zo'ri so'z ekanligini, ba'zi akslar olamdag'i ajoyibotlar aksi bo'lsa so'z qalb aksi, ruh aksi ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Nima uchun baxt guli deb atayin lola tanlandi. Axir atirgul loladan chiroyli ham hidli-ku. Nega Nilufar guli tanlanmadidi. U loladan go'zalroq-ku. Buning sababi qilib adib boshqa gullar har joyda

topiladi, ammo lola tog‘ cho‘qqilarida, qorli va tishli joylarda o‘sadi. Uni uzish har kimga ham nasib etmaydi. Unga borish yo‘llari nihoyatda xatarli va og‘ir yo‘lni bosib o‘tish lozim.

Qiziq inson baxtli bo‘lish uchun lolaga muhtoj. Lola esa jonini saqlab qolmoq uchun insonga muhtoj. Ozod yer yuzidagi barcha narsalarni saqlab qolish insonga bog‘liq ekanligini bildi. Yozuvchi odam koinotni inqirozdan qutqara oladigan yagona kuch ekanligiga fikr qaratadi. Asar o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlovchi ramzlarga boy ekanligi bilan yuksak qadr qimmatga ega.

Adib Isajon Sultonning yana bir romani bo‘lmish “Boqiy darbadar” asaridan olingan quyidagi parcha fikrimizni yaqqol misoli bo‘la oladi: “Shahardagi qatl tomoshasi davom etmoqda edi...(Mahkum Iso allayhisalom) haddan tashqari holdan toygan edi. U shundoqqina etikdo‘zning devori yoniga kelib qoldi. Mana u bir daqiqa ko‘zlarini yumdi, holsizlikdan gandiraklab ketdi. Imillama, imillama!- deb chuvvoz solar edi olomon. Mahkum bir damgina nafas rostlash uchun etikdo‘zning devoriga suyandi. Hali sen mening devorimga suyanadigan bo‘ldingmi? Imillama!- deb qichqirdi etikdo‘z ham va shiddat bilan olg‘a intilib, uni ikki qo‘llab itarib yubordi... o‘zining qilgan ishidan mammun, tirjayib turar edi. Shunda Muborak Kishi (Iso allayhisalom)... etikdo‘zga qarab shunday dedi. Turgin va ravona bo‘lgan! (“Men-ku imillamayman, ammo sen mahshar kuni kelishini uzoq kutasan...”)- deyildi unga. “Endi sen to qiyomatga qadar yer yuzida betinim dayishga mahkum etilding”,- deyildi unga. “Hamda sening qiladigan ishing – hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa”, deyildi unga) [1]. Etikdo‘z shu tariqa boqiy darbadarga aylandi. Endi ramziy ma’nodagi etikdo‘zni bir qavm, yoki millat, boringki, insoniyat deb oladigan bo‘lsak romanning naqadar falsafiy ruh bilan sug‘orilgani, unda butun bashariyatning taqdirlari haqidagi fikrlar barq urib turganini his qilamiz.

Oollohni inkor etish maqsadida Genomalar yaratiladi. Ammo mukammal bo‘lmaydi. Bir marta yaratganni hammasi joyida bo‘ladi-yu ko‘r edi, keyingisi mukammal bo‘ldi degandi, ammo u haddan ziyyod egiluvchan edi, egilishini ta’minalash uchun bo‘g‘imlarga kerakli suyuqlikni yetkazib bera olmadi. Undan so‘ng yana bir mukammal Genoma yaratildi, ammo uning ham mukammal emasligi gapirganidan so‘ng ma’lum bo‘lib qoldi. U “Men kimman”, “ nega tug‘ildim” deya yaratilish maqsadini bilish uchun Oollohni izlab yo‘lga chiqdi.

Bu genoma ‘Asl men’ ini “Asl haqiqat” ini bilmoqni istagan odam timsoli bo‘lib ko‘rinaveradi. Genoma ham darbadar.

Ijodkor tabiat hodisalaridan ramziy ma’no axtaradi. Shamol – Parvardigorning qudrati ramzi sifatida tasvirlanadi. Darbadar insonlarni yo‘qlikka mahkum qiladi. “Ichida xas-xashaklar-u shox-shabbalar mayday chuyda cho‘l jonzotlariga qo‘shilib, chirpirak bo‘lib aylanayotgandan keyin, girdoblari ulkan jonli ilonlari kabi yerdan ko‘kka cho‘zilgan bo‘ron, sahroning har bir qadamini g‘oyatda sinchkovlik bilan “titib” chiqib, hozir nishonini “yo‘qotib” qo‘yan va bir-biriga tashlanishga shay turgan harbiy uchoqlar tomon shiddat bilan yaqinlashib bormoqda edi... Tyanshan yonbag‘irdagi g‘orda istiqomat qiladigan avliyo ham qo‘rquvga tushgan edi. Parvardigori olam kuch-qudratining bir timsoli bo‘lgan bu ofatning nima ekanini u yaxshi biladi. Birozdan so‘ng urilgan yanada shiddatliroq epkin g‘or ogzida o‘sgan anjirni – risq daraxtini tag-tomiri bilan sug‘urib oldi va pastlikka qarab xasday uchirib ketdi...” [3]

Asarning oziga xosligi shundaki, o‘zbek milliy intellektual romani bo‘lib dunyoga keldi. Muallif asar syujetini yoritar ekan unda mifologik motivlardan foydalanadi, folklor janriga murojaat qiladi. Bu bilan adib “Rivoyat roman”, yoki “mifologik roman” tarzidagi yaratganini isbotlaydi. Makon-u zamon munosabatlari yakkallik bilan yonashgani maqtovga sazovordir. Asardagi obraz yaratish usuli mo‘jaz hajmi G‘arb adabiyoti roman shakliga o‘xshab ketadi. Modern adabiyotida postmodern, g‘arb adabiy yo‘nalishdan mohirona foydalanishi “Boqiy darbadar” romanining rangin jilolar bilan boyitishda juda qo‘l kelgan.

Adabiyot inson omilining eng zarur va muhim jihatidir, har qanday inson o‘lishni istamaydi, boqiy yashashni istaydi, bu o‘rinda adibning mahorati shundaki yaxshilikdan xudbinlikni ixtiro qiladi. Yanayam soddarooq qilib aystsak, duo uchun bo‘lgan mavzudan, qarg‘ishda foydalanadi va bu ijodkorni nozik dididan xabar beradi. Etikdo‘z aslida umri tugashini istamaydigan zotlar toifasidan edi. U takabburlik, manmanlik, o‘zim bo‘lsam deydigan insonlar ramzi. Bunday insonlar go‘yo dunyo tugaguncha o‘lmayman, har doim oshig‘im olchi bo‘ladi deb o‘ylaydi. Asar qahramonlari ana shunday insonlar prototipidir. Bu qahramonlar bilan kitobxon yuzma-yuz kelar ekan ularning o‘zları

bilan emas tafakkuri va idroki bilan uchrashgandek go‘yo. U qahramonni yozuvchi yaratmagandek, qahramon o‘zini o‘zi ixtiro qilayotgandek tuyulaveradi. Bu esa yozuvchini mahoratiga yana bir bor tan bermay iloj yo‘qligiga ishora.

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidagi ramziylikka to‘xtalib o‘tamiz. Asar qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lib, adib kitobxonga ular bilan yuzma-yuz kelish imkonini beradi, bu hayajonni tuyish nechog‘lik yoqimlilagini his ettiradi. Asar qahramoni Hazrat Alisher Navoiy bo‘lib uning boshqa qahramonlar bilan bo‘ladigan ijobiy munosabati asar syujetining rivojida asosiy o‘rin tutadi. Alisher Navoiy o‘z davrining muhim timsoliga aylangan shoир, mutafakkir va fozildir. Uning boshqaruvchi shaxsiyati va g‘ayrioddiy tafakkuri ko‘plab ilm ahli, adabiyot ixlosmandlarini o‘ziga jalg etganligini hammamiz bilamiz. U o‘z so‘zi va ishi rost mutafakkir kishilar bilan muloqoti romanning mavzusiga aylangan. Uning ismining o‘zi ma’no sirini o‘z ichiga oladi. Alisher o‘zini san‘at, ma’rifat, xalq dardiga bag‘ishlagan faol va donishmand ijodkor timsolidir. Asarda ramziylik ufurib turganligi hech kimga sir emas. Romanda asosiy ramziy qahramon Alisher Navoiyning o‘zidir. U o‘zbek adabiyoti va madaniyati fidokori va payg‘ambari timsolida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Uning ma’naviyati xalq farovonligida xalq uchun fidoyiligida ko‘rinadi. U tafakkur va haqiqat ramzidir.

Asar syujeti asosida “Dumli yulduz siri” bobo ham ahamiyatlidir. “Oo ajab!-deb xitob qildi Mirsaид Kobuliy Dumli Yulduzning ko‘rinnmog‘i kishi o‘g‘liga saodat yo falokat olib kelishi kishining burji, burjlarning falak toqidagi vaziyati va yulduz dumining qay tarzda ekanligiga qarab bashorat qilinishidan xabardor edi. Iroq ahli yulduz dumi tepaga yoxud pastga qaraganiga, qalin yupqaligiga fol ochishardi.- qarang yuksalgandan yuksalmoqda. Barcha yulduzlarni quyida qoldirib uchmoqda” [4].

Bu voqeа ham Alisherning keljakda buyuk inson bo‘lib, yetishishiga bir ishora.

“Ka’baga yopinchiq yopish davlat kuch-qudratini bildiradi. Misr sultonlari ham har kimga izn beravermaydilar. Sulton Shohruh Mirzo 20 yil bu ishni uddalashga urinib keldi, xatto orada musulmon haqqini nega tan olmaysan deb, Misrga qo‘shin tortishga tayyorgarligini aytdi. Nihoyat bu qutlug‘ maqomga erishildi,- deb uning gapini quvvatladi oq taylasonli mudarissifat kishi” [4].

Shu satrlarni o‘qir ekan kishi qalbida sohibqiron bobomiz Amir Temurga, temuriyzodalarga nisbatan juda katta hurmat e‘zoz tuyadi. Bunday gaplarni aytgan shohni kishi bir ko‘rgisi keladi. Insonda faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Rostdan ham muqaddas Ka’ba ustiga o‘z qo‘li bilan tikilgan ka’bapo‘sh yopish, bu an’anani 10 yillab davom ettirish davlatni naqadar kuchli va farovonligidan dalolat beradi.

Xulosa: Isajon Sulton asarlari hamisha insonning ma’naviy dunyosi, ma’rifat yo‘lida yurgan qahramonlardan ruhiy-psixologik kechmishi, dunyosi muhim sanaladi. Isajon Sulton asarlarida ko‘lamdorlik va kengayish uchraydigan Xizr (a.s), Muso (a.s) yoki Iskandar Zulqarnayn, turli tarixiy shaxslarni epizodik obrazlarda kelishi evaziga ham yuz berishi mumkin. Darhaqiqat, adib asarlarida turli hikoyat, rivoyat, folklor obrazlari, shuningdek ayrim ijodkorlar asarlaridan olingan parchalar yoki ularning asarlariga ishoralar aynan ijodiy jarayonda obrazlarning shakllanayotgan dunyoqarashi ifodasi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qayumov Abduvahob Isajon Sultonning " Ozod" romanidagi ramziylik. Maqola 2022.
2. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yoxud Insoniyat quyoshi ta’rifida bitilgan roman to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z maqola
3. Isajon Sulton nasri badiiyati (ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar)- Toshkent: Turon zamin ziyo. 2017. 86-bet
4. Isajon Sulton Alisher Navoiy romani. Toshkent 2021

**PARALLEL KORPUSDA KONTEKSTUAL AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMON
DASTURLAR TIZIMINI YARATISH FUNKSIYALARI**

(Linguee tarjimon dasturi misolida)

Z.X.Xaitqulov, o'qituvchi, PhD, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Hozirda mashina tarjima tizimlarining ko'payishi va ularning ko'pgina jihatlari sifat nuqtai nazardan tobora oshib bormoqda. Shuning barobarida, ushbu tarjimon dasturlarining bir-biriga bo'lgan o'zaro raqobati ham ortib bormoqda. Boshqa tomondan, korpus va korpus lingvistikasi bosqichma-bosqich shakllana boshlagach, korpusni qo'llash doirasi ham muntazam kengayib boradi. Shuningdek hozirda tilshunoslik hamda tarjimashunoslik sohasida muhim o'rinnutib kelayotgan vositalardan biri, bu – parallel korpus hisoblanadi. Turli tillarda bir qancha avtomatlashtirilgan tarjimon dasturlari korpuslar orqali parallel tarzda ixtiro qilinayotganligini inobatga olsak, dunyo tillarining juda katta elektron bazasi shakllanib kelayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, ikki tilda elektron tarjimon dasturlarining yaratilishi va tarjima xotirasi (Translation memory) ma'lum bir baza sifatida shakllanishini alohida ta'kidlash o'rini. Qolaversa, tarjima jarayonining rivojlanib borilishiga raqamlı texnologik qurollar, dasturiy ta'minot va resurslarni yaratishga doir ixtiolar sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, tarjimaning yukini yengillashtirish, samaradorlik va sifatni oshirishga yordam beradi.. Ularning bir-biridan sifat nuqtai nazardan farqli jihatlari mavjud. Ushbu maqola avtomatlashtirilgan tarjimon dasturlari xususan kontekstual tarjimon dasturlarining parallel korpusda yaratilish tizimlarining funksional imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: tarjimon dasturlar, avtovatik tarjima, matn tarjimasi, korpus, parallel korpus, kontekst, Linguee, Google tarjimon, interfeys.

Аннотация. С каждым годом используется все больше систем машинного перевода, и многие из их функций улучшаются. Эти программы перевода становятся все более конкурентоспособными друг с другом в то же время. С другой стороны, спектр приложений для корпусов также неуклонно растет, поскольку корпусная и корпусная лингвистика постепенно обретают форму. Кроме того, одним из инструментов, который в настоящее время очень важен в области переводоведения и лингвистики, является параллельный корпус. Принимая во внимание, что с помощью параллельного корпуса изобретается несколько программ автоматизированного перевода на разные языки, стоит отметить формирование очень большой электронной базы данных языков мира. В частности, стоит также отметить создание программ электронных переводчиков на два языка и формирование памяти переводов как базы данных. Кроме того, развитие процесса перевода обусловлено изобретением цифровых технологических инструментов, программного обеспечения и ресурсов. Это, в свою очередь, способствует снижению нагрузки на перевод и повышению эффективности и качества. В данной статье рассматриваются функциональные возможности систем создания программ автоматизированного перевода, в частности, программ контекстного перевода в параллельном корпусе.

Ключевые слова: программы перевода, автоматический перевод, перевод текста, корпус, параллельный корпус, контекст, Linguee, Google переводчик, интерфейс.

Abstract. Currently, there are more machine translation systems in use, and many of their features get better. These translation programs are becoming more competitive with one another at the same time. On the other hand, the range of applications for corpora also grows steadily as corpora and corpus linguistics gradually take shape. Additionally, one instrument that is currently very essential in the field of translation studies and linguistics is the parallel corpus. Taking into account that several automated translation programs in different languages are being invented with the help of parallel corpus, It is worth witnessing the formation of a very large electronic database of world languages. In particular, it is also worth noting the creation of electronic translator programs in two languages and the formation of translation memory as a database. In addition, the development of the translation process has been caused by the invention of digital technological tools,

software, and resources. This, in turn, helps to reduce the burden of translation and increase efficiency and quality. This article deals with the functional capabilities of systems for creating automated translation programs, in particular, contextual translation programs in a parallel corpus.

Keywords: translation programs, automatic translation, text translation, corpus, parallel corpus, context, Linguee, Google translator, interface.


Kirish. Hozirgi davrga kelib amaliy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasidagi ulkan o‘zgarishlar bevosita texnologiya va internetning ixtiro qilinishi va uning bir-biriga chambarchas bog‘liqligini isbotlamoqda. Tarjima jarayoni ko‘pincha juda zerikarli ko‘rinishi mumkin, shu nuqtai nazardan ham tarjima jarayoni keng tadqiq qiladigan va kontekstual bilimlarni talab qiladigan ko‘plab mavzularni qamrab oladi. Tarjima jarayonining rivojlanib borilishiga raqamlı texnologik qurollar, dasturiy ta’minot va resurslarni yaratishga doir ixtirolar sabab bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, tarjimaning yukini yengillashtirish, samaradorlik va sifatni oshirishga yordam beradi. Hozirgi davrga kelib bir qancha elektron tarjimon dasturlar yaratildi. Ularning bir-biridan sifat nuqtai nazardan farqli jihatlari mayjud.

Moviefcultist veb sayti, hozirgi kunda dunyodagi eng yaxshi tarjimon, mashina tarjimon dasturi qaysi, degan savolga quyidagi statistik ma’lumotlarga tayangan holda javob beradi: “Dunyoda foydalanish mumkin bo‘lgan 10 ta eng unumli va samarali onlayn elektron tarjima dasturlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat: *google tarjimon* (*google translate*), *bing tarjimon* (*bing translate*), *translatedict* (*translatedict*), *translate.com* (*translate.com*), *deepl tarjimon* (*deepl translate*), *, babylon onlayn tarjimon* (*babylon online translator*), *promt onlayn tarjimon* (*promt online translate*), *collins lug‘ati tarjmoni* (*collins dictionary translator*), *reverso kontekst tarjmoni* (*reverso context translator*) shular sirasidandir. Darhaqiqat hozirgi vaqtda eng mashhur onlayn tarjima xizmatlaridan biri Google kompaniyasi tomonidan taklif etilgan Google tarjimon hisoblanadi”.

Dunyo olimlari va tarjimon dasturidan foydalanuvchi iste’molchilar statistikasiga qaraganda, eng aniq va ishonchli onlayn va oflayn tarjimon tizimlari ro‘yxatida hozirda *Linguee* tarjmoni uchinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Tarjimon bozoridagi ro‘yxatlar quyidagi jadvalda saralanib o‘tilgan.

1-jadval

Google tarjimon (google translator)	Wordlens (wordlens)
Bing tarjimon (bing translator)	Bobil tarjmoni (babylon translator)
Linguee (Linguee)	Reverso tarjmoni (reverso translator)



The screenshot shows the Linguee website interface. At the top, there's a navigation bar with links for 'О нас', 'Linguee in English', 'Войти', 'Реклама', 'Отзывы', and 'Помощь'. Below the navigation is a search bar with two language dropdowns: 'русский' and 'английский'. The search bar contains the word 'привет' and a magnifying glass icon. To the right of the search bar is a progress bar showing '11 из 11' and a download icon. Below the search bar, the text 'Англо-русский словарь' and 'На данный момент в разработке' are displayed. The main content area shows two examples of the word 'привет' in context: 'привет! междометие' and 'привет' (with a note it's a loanword from Swiss German). Below these examples is a section titled 'Непроверенные источники' (Unverified sources) containing several entries with small triangular icons and URLs. At the bottom of the page, a copyright notice reads '© Словарь Linguee , 2015'.

1-rasm. Linguee tarjimon dasturining interfeysi

Linguee – bu ikki tilli parallel korpus orqali yaratilgan kontekstual tarjimon dastur hisoblanib, bir qator til juftliklari, jumladan, ko‘plab ikki tilli matnlar uchun onlayn lug‘atlarni o‘z ichiga qamrab oluvchi tarjimon dasturlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarjimon dasturda 200 dan ortiq til birikmalari mavjud. Lug‘at 400 dan ortiq til mutaxassislari tomonidan yaratilgan va doimiy ravishda yangilanib boriladi. Qidiruv tizimi butun dunyo bo‘ylab inson tomonidan tarjima qilingan 1 milliarddan ortiq matnlarga kirish imkonini beradi *Linguee* aynan ushbu jihat bilan *Babelfish* kabi mashina tarjimasi tizimlaridan farq qiladi, biroq funksional nuqtai nazardan ushbu ikki tarjimon dasturlarning tarjima

xotirasi bir-biriga o'xshash emas. *Linguee* tarjimon dasturi lug'atni qidiruv tizimi bilan birlashtiradi, shuning uchun foydalanuvchi ma'nova va kontekstli tarjimalarni tekshirish uchun turli tillardagi ikki tilli matnlar, so'zlar va iboralar hamda so'z birikmalarni mazkur dasturdan qidirishi mumkin. Shuningdek, *Linguee* dasturi tarjima qilinadigan hujjalarni internet orqali avtomatik ravishda *eLibrary* (elektron kutubxonasi)ga murojaat qiladi, eLibrary esa iste'molchiga tarjimaning bir qancha variantlarini interfeysga uzatadi. Ushbu tarjimon dastur ko'pincha tarjimonlar va til o'rganuvchilariga ixtisoslashtirilgan holda *Google Images* bilan parallel tarzda xizmat ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Linguee kontekstual tarjimonining ixtiro qilish davri dastlab 2007-yildan boshlangan. Ushbu konsepsiya Google kompaniyasining sobiq xodimi doktor G.Frahlin tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik Leonard Fink bilan birgalikda kengaytirilgan. Ushbu biznes g'oya 2008-yilda Germaniyaning Federal Iqtisodiyot va texnologiyalar vazirligi (Federal Ministry of Economics and Technology -Germany) tomonidan tashkil etilgan tanlovning bosh sovrini etib tan olingan. Shundan so'ng, 2009-yilda Linguee veb-xizmati ommaga taqdim etildi. Bugungi kunda Linguee kompaniyasi Kölnda joylashgan bo'lib, *DeepL GmbH* (ilgari Linguee GmbH) tomonidan boshqariladi. 2017-yil Linguee jamoasi yetta asosiy Yevropa tillariga tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'lgan *DeepL Translator* tarjima xizmatini ishga tushirganligini ommaviy ravishda e'lon qildi.

Dasturchilar tomonidan mazkur tarjimon dasturining dizayniga alohida e'tibor berilgan. Unda inson ko'ziga zarar yetqazmaydigan och ranglar va qidiruvda berilgan so'zlarning natijasi sariq rangda ko'rsatilgan, bu esa, foydalanuvchilar uchun so'zlarning turli tarjimalarini ko'rish imkonini beradi. Quuyida Linguee lug'at tarjimonini kompyuterdag'i interfeysini ko'rish mumkin.

Linguee kontekstual tarjimon dasturining texnologiyasi. Linguee internetda mos ikki tilli matnlarni qidirish va ularni parallel jummalarga ajratish uchun ixtisoslashtagan veb-brauzerlardan foydalanadi. Aniqlangan juft jumlar tarjima sifatini baholaydigan, inson tomonidan tayyorlangan mashina o'rganish algoritmi tomonidan avtomatik sifatni baholashdan o'tadi. Foydalanuvchi kirish va qidiruv tizimi orqali tarjima so'zlarini sonini belgilashi mumkin hamda qidiruv natijalarining avvalgi variantlari ham saqlanib qoladi.

Shu bilan bir qatorda, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida *Linguee* o'zining sezgir va dinamik mobil versiyasini ishga tushirdi. Unda tizimli tarjimani tezroq hosil qilish imkoniyati mavjud. Linguee tarjimoni mobil versiyasining sezgirlik jihatni shundan iboratki, so'zlardagi imlo xatolarni tuzatadi, tizimda mavjud bo'lgan so'zlarni bir nechta tarjima variantini o'zi avtomatik ravishda ekranda ko'rsatadi.

Tarjima lug'atini avtomatik yaratish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) parallel korpusni oldindan qayta ishslash (iboralar jadvalini chiqarish, morfosintaktik tahlil, lemmatizatsiya, tarjima ekvivalentlarini filtrlash);
- 2) har bir so'z uchun tarjima ekvivalentlarini sinonimlar qatoriga birlashtirish grammatik belgilar qo'shish;
- 3) teskari tarjimalarni, ya'ni kirish so'zning sinonimlarini hosil qilish. Bunday holda, ushbu bosqich to'g'ridan-to'g'ri o'tkazmalar asosida amalga oshiriladi;
- 4) parallel korpusdan foydalanish misollari bilan tarjimalarning har bir guruhining illyustratsiyasi ko'rsatish;

Parallel korpusning sifati avtomatik tarjima leksikografiyasini rivojlantirishda yetarlicha muammoni keltirib chiqaradi. Shu sababli, ikki tilli lug'atlarni avtomatik qurish bo'yicha ba'zi ishlarda parallel korpus sifatida aniq manbalardan foydalaniladi. Masalan, mualliflar yetarli hajmdagi korpuslar mavjud bo'lмагan tillar uchun vikipedia maqolalari sarlavhalari asosida lug'at yaratish usulini qo'llab, undan foydalanishni taklif qiladilar. Ingliz tilida yetarli hajmdagi korpuslar mavjud bo'lмагan tillar "under-resourced languages" deb ataladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Linguee kontekstual tarjimon dasturi dunyo tarjimon dasturlari miqyosida top 10 likni egallab turuvchi parallel korpusda yaratilgan dastur hisoblanib, mazkur dastur yuridik, huquqiy, siyosiy kabi kontekstual tarjima materiallarini o'z ichiga oladi. Lingueening qidiruv tizimi butun dunyo bo'ylab inson tomonidan tarjima qilingan 1 milliarddan ortiq matnlarga kirish imkonini beradi. Shunga xos ravishda tarjimon dasturlarida ingliz va o'zbek tillari kontentini qo'shish natijasida kontekstual tarjima matnlaridan foydalanish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borishda

keng foydalanish mumkin. Tarjima dasturlarining soni yildan-yilga ortib borishi tarjimashunoslik sohasining rivojlanib ilm-fan tarmog'i uchun o'z hissasini qo'shibgina qolmay, shuningdek barcha sohalar ichida o'z o'rnni ham mustahkamlab kelayotgani muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotimiz jarayonida *Linguee* tarjimonining texnologiyasi, funksiyasi, mexanizmi va shu kungachon erishib kelayotgan yutuqlarini tadqiq qilishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Guerberof A., Ana M. Machine translation and post-editing training as part of a master's programme. The journal of specialised translation. 2019. – P. 21
2. Qarang X. Dictionnaires electroniques et traduction automatique espagnol-français. *langages*, Armand Colin 2001. – P. 49.
3. Seguin A. La Traduction automatique par opposition à la traduction humaine: analysé'un corpus de productions réelles. International journal of humanities and social science (IJHSS). – Nigeria, 2014. – P. 213.
4. Владимировны П. Параллельный конкорданс: поиск и ранжирование переводных контекстов для иллюстрации переводов в машинном словаре. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 15.
5. Владимировны П. Параллельный конкорданс: поиск и ранжирование переводных контекстов для иллюстрации переводов в машинном словаре. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 21.
6. <https://moviecultists.com/which-translator-is-the-most-accurate>.
7. <http://angelikasgerman.co.uk/linguee-new-improved-online-dictionary/>.
8. <https://gengo.com/community/15-online-translation-tools-translators/>.

UO'K 81'42

PUBLITSISTIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

Z.I.Xashimova, erkin tadqiqotchi, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Ushbu maqolada publitsistik uslub hamda uning xususiyatlari va unda ishlatalidigan janrlarga to'xtalib o'tilgan. Hamda uning ikki asosiy vazifasi, informativ va ta'sir ko'rsatuvchi funksiyalari haqida so'z yuritilgan. Maqolada uslub tushunchasi haqida turlicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: funksional-uslubiy differentsiatsiya, xabar, reportaj, hisobot, intervyyu, korrespondensiya, maqola, taqriz, sharx, xat, lavha, ocherk, felyeton.

Аннотация. Данная статья посвящена журналистскому стилю, его характеристикам и используемым в нем жанрам. А также две его основные функции - информативную и влиающую. В статье предлагаются различные взгляды на понятие стиля.

Ключевые слова: функционально-методологическая дифференциация, сообщение, репортаж, отчет, интервью, переписка, статья, обзор, комментарий, рецензия, письмо, листок, очерк, фельетон.

Abstract. This article focuses on the journalistic style and its characteristics and the genres used in it. As well as its two main functions, informative and influencing. The article offers different views on the concept of style.

Keywords: functional-methodological differentiation, message, reportage, report, interview, correspondence, article, review, comment, review, letter, sheet, ocherk, felyeton.

Kirish. Publitsistik uslub siyosat va ba'zi ijtimoiy sohalarda qo'llanuvchi uslub bo'lib, ikki asosiy vazifa, informativ va ta'sir ko'rsatuvchi funksiyalarni bajaradi[2,265]. Demak bu uslub axbotorni yetkazish bilan birga adresatga ma'lum darajada ta'sir o'tkazishda qo'llaniladi. Uslub tushunchasi haqida turlicha fikrlar mavjud bo'lgani singari vazifaviy uslublar va ularning tasnifi masalasida ham har xil qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslar tilning vazifaviy uslublarga bo'linishini uning aloqa, xabar, ta'sir etish, ijtimoiy xizmat vazifalaridan kelib chiqib tasnif qilinadi. Birinchi guruh olimlar uslublarning bo'linishining tilning vazifasidan kelib chiqib hal etgan bo'lsa, ikkinchi guruh ekstralningvistik faktorlarni hisobga oladi [1, 34].

Adabiyotlar tahlili. 1970-yillardayoq B.Kostomarov kitobiy va og'zaki til uslublari qatorida funksional-uslubiy differentsiatsiyaning o'ziga xos darajasini - ommaviy kommunikativ uslublarning turini ajratishni taklif qildi. [2,256] Publitsistik uslub tilining xususiyatlari kelsak, B.Kostomarov qayd etganidek, adabiy to'liq publitsistik uslub tilida namoyon bo'ladi va aynan mana shu uslubda milliy tilning hozirgi rivojlanish bosqichida enh muhim jihatlarini ko'rish mumkin. [1,34]

Tadqiqot metodologiyasi. Publitsistik asarlarning turli janrlari sifatida xabar, hisobot, intervyu, reportaj va reportaj asarlar guruhiga bo'lingan tadqiqotlar mavjud. Matbuot materialining asosini, u qaysi janrda yozilgan bo'lmasin, axborot ya'ni informatsiya tashkil etadi. Turli faktlar, voqeal-hodisalar haqida yangi bilimlarni gazetxonga yetkazish axborot janrlarining asosiy vazifasidir. Axborot gazeta materiallarni asosiy qismini bajarishda ushbu talablarga amal qilish talab etiladi:

- 1.Konkretilik va aniqlik
- 2.Operativlik ya'ni tezkorlik
- 3.Umumlashtirish
- 4.Ixchamlik
- 5.Ta'sirchanlik

Ayrim ishlarda gazeta, radio va televiedeniya materiallari tahlil qilinib, informatsion janrlarga xabar, hisobot, radio, televiedeniya va gazeta matbuot obzori kiritilgan.[3, 6]

JANR NOMI	JANRNING TURI
Xabar	Xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy yoki satirik xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabar.
Reportaj	Shu kungi voqealar haqidagi reportaj, rematik reportaj, muammoli reportaj, mavzuli reportaj.
Hisobot	Oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot.
Intervyu	Intervyu-monolog, intervju-diaolog, intervju-lavha, davra-suhbat, matbuot konferensiysi, portret- intervju, satiric va yumoristik intervju.

O'rta Osiyo xalklari tarixida publitsistika ancha qadimiyyidir. Publitsistika xususiyatlari "Qobusnoma"da yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiyning "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Mahbub ul-qulub" asarlarida publitsistikaning tugal xususiyatlari uchraydi. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Sayid Hasan Ardasher va boshqa adabiy portretlarini publitsistik ocherklar, deb atash mumkin. Navoiy nasriy asarlarini chuqur tadqiq etish uni o'zbek badiiy publitsistikasining asoschisi, deb atashga imkon beradi. Publitsistik xususiyat o'zbek mumtoz adabiyoti asarlari tarkibiga ham singib ketgan.

O'zbekistonda ijtimoiy hayotga doir dastlabki publitsistik maqolalar "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida chop etilgan. Biroq milliy uyg'onish (jadidchilik harakati)ning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan milliy matbuot o'sha davrdagi jamiyatning kamchilik va illatlarini ochiq-oshkora bayon etgan, hatto xalqaro hayotga oid muammolarni tezkor sharhlaganligi bilan ham qadrlidir. Ayniqsa, bunday maqolalar "Taraqqiy" gazetasidan boshlab keng ko'lamda ko'rina boshlaydi. I. Obidiy, M. Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, U. Xo'jayev, A. Avloniy, M. Abdurashidxonov, va boshqa hurfikr jadid ziyolilari qalamiga mansub o'lka va xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy, fan va ta'lim, madaniyat va san'at, milliy siyosat va boshqa masalalarga bag'ishlangan publitsistik maqolalar "Shuhrat", "Xurshid", "Osiyo", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Najot", "Turon", "Hurriyat", "Yurt" kabi gazeta va jurnallar sahifalarida chop etilgan. Xususan, Beh-budiyning o'zi tomonidan nashr etilgan va bosh muharrirlik qilgan "Samarqand" gazetasi hamda "Oyna" jurnalida chop qilingan maqolalari o'sha davr jamoatchiligi tomonidan zo'r qiziqish bilan qarshilangan ("Sayohat xotiralari", "Til masalasi", "Bizni kemirguvchi illatlar", "Ehtiyoji millat" va boshqalar). 90-yillardan so'ng o'zbek milliy jurnalistikasida ham o'ziga xos o'zgarishlar kuzatildi. An'anaviy sharplash jurnalistikasi o'rniga yangiliklar jurnalistikasi paydo bo'ldi. Natijada publitsistik janrlar axborot janrlariga ko'proq o'rin bera boshladи. Publitsistika keyingi yillarda yuqori bosqichga ko'tarildi. Ozod Sharofiddinov, O'tkir Hoshimov, Ibrohim G'afurov, Naim Karimov, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Sultonmurod Olim va boshqa o'zlarining dolzarb publitsistik maqolalari bilan o'zbek publitsistikasiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Ayrim gazeta janrlari asosini tahlil tashkil etadi. Tahliliy janrlar gazeta materiallari orasida muhim va asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu janrda voqeal-hodisalar journalist nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va tegishli baho beriladi. Bu nuqtai nazar hamisha ham barcha gazetxonlar qarashlariga mos kelavermasligi mumkin. Tahliliy janrlar jamiyatdagи turli muammolarni yoritish, uni jonli, faktlarga boy tarzda ifodalash, tahlil asosida umumlashtirish va xulosalar chiqarishda eng qulay usullardandir. Tahliliy janrlarda ham

axborot janrlari singari konkretlik, haqqoniylik, tezkorlik, ixchamlik, ta'sirchanlik, umumlashtirish kabi me'zonlarga amal qilinadi. Ularga qo'shimcha ushbu talablar qo'yilgan:

- 1.Tahliliylik
- 2.Umumlashtirish
- 3.Xulosalash

Tahliliy janrlarning turlari:

JANR NOMI	JANRNING TURI
Korrespondensiya	Tahliliy korrespondensiya, axborot korrespondensiya, muammoli korrespondensiya, portret korrespondensiya, ijobjiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, mulohaza- korrespondensiya.
Maqola	Bosh maqola, nazariy maqola, tashviqot harakteridagi maqola ,muammoli maqola, tanqidiy maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola, jurnalist tekshiruvi.
Taqriz	-
Sharx	Umumi sharx, mavzuli sharx, axborot sharxi, matbuot sharxi.
Obzor	Mavzuli obzor, umumi obzor, axborot obzori.
Xat	Gazetxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati.
Kuzatish	Umumi kuzatish, mavzuli kuzatish.

Gazetada belletristika va publitsistika bir-biri bilan uzviy bog'langan va uyg'unlashgan materiallar ham bosiladi. Ularda publitsistik ruh bilan badiiy adabiyot, ya'ni badiiylik qonuniyatlariga mos ravishda til vositalaridan foydalangan holda ma'lum shaxs, voqeа-hodisa haqida hikoya qilinadi.[4.52] Ular bugungi kungacha, o'zbek tilshunosligi va jurnalistikasida maxsus o'rganilgan emas. Usbu materiallar adabiyotshunosligimizda keng tadqiq etib kelinmoqda. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida ocherk, felyeton, pamphlet bir muncha yaxshi o'rganilgan. Ammo lavha esa, deyarli tadqiq etilmagan. Mazkur janrlarni tasnif qilish, o'rganish(ayniqsa, tolshunoslik nuqtai nazaridan) sohasida qator muammolar mavjud.

JANR NOMI	JANRNING TURI
Lavha	-
Ocherk	Portret ocherk, safarnoma(yo'l ocherki), muammoli ocherk, ocherk-lavha.
Felyeton	Hujjatli felton, adabiy felton.

Tahlillar va natijalar. Publitsistik uslub haqida gap ketganda ko'p olimlar bu uslubda barcha funksional uslublarga xos birliklar namoyon bo'lishi haqida to'xtaladilar. M.Mukarramov publitsistik uslub o'zida yozma va og'zaki nutq elementlarini jamlanishini ta'kidlasa [4, 58], R.Qo'ng'unov publitsistik uslub til birliklarining obrazlilikni, emotsiyal-ekspressivlikni yuzaga keltirishga xizmat qilishiga ko'ra badiiy nutq uslubiga, ifodalanishidagi lo'nda va aniqligi hamda atamalarning faol qo'llanishi bilan esa ilmiy uslubga yaqin turishini ta'kidlaydi [5,85].Publitsistik uslubda boshqa funksional uslublarga xos xususiyatlarni namoyon bo'lishiga qaramasdan, boshqa funksional uslublardan tubdan farq qiluvchi bu uslubni tashkil qiluvchi o'ziga xos terminologiya, mifologik kategoriyalari va leksik qatlamiciga ega uslubdir. "Publitsistika emotsiyal, ta'sirchan, ifodali soxadir, biroq bu ta'sirchanlik tabiatini badiiy adabiyotdan farq qiladi, chunki u obrazli emas. Badiiy adabiyotning estetik ideali – vogelikni obrazli tarzda aks ettirish, publitsistikaning estetik ideali esa – fikr va nutqning chuqurligi, mazmunan boyligi, ehtirosli va emotsiyal bo'lishidir. Publitsistika va badiiy adabiyotda vogelikning o'ziga turlicha yondashiladi" [7, 109].Muayyan vazifaning bajarilishi uslub tomonidan butun uslubga o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Har bir vazifa bayon etishning ma'lum usuliga bir ko'rsatma bo'lib, ana o'sha ko'rsatma asosida har bir funksional uslub adabiy tildan ana shu uslubning ichki vazifasini yuqori darajada bajara oladigan so'z va iboralar, shakl va konstruksiyalarni tanlab oladi. Ammo uslub bu nafaqat bayon etish usuli, balki har bir uslub o'ziga xos mavzu, o'ziga xos mazmunga egadir. Publitsistik uslubning yana bir o'ziga xosligi shundaki, u qisqalikni asosiy o'rnlardan biriga qo'yadi va ushbu uslubda lo'nda va tushunarli tilde yozish asosiy talab hisoblanadi.Ushbu uslub badiiy, ilmiy va rasmiy ish qog'ozlari uslubiga yaqinlashtirilgan holatlarni kuzatish mumkin. Bunda publitsistik va badiiy uslubning o'xshash tomonlari quyidagicha izohlanadi: "Har ikkala uslubda ham emotsiyonallik, ekspressivlik, obrazli ifodalar, tasviriy vositalar, badiiy til priyomlaridan foydalanish o'z aksini topgandir" [6, 32].

Xulosa. Publitsistik uslub matnlarida ta'sir etish funksiyasi undash, ekspressivlik, ifolashning yangicha usuli, baholash, munozara kabi xususiyatlarni namoyon qilsa, axborot funksiyasi esa

mantiqiylik, rasmiylik, aniqlik va standartlashuv kabi xususiyatlarni namoyon etadi. Ularni amalga oshirish uchun ko'pincha bir tipdagi til standartlari qo'llaniladi. Bu esa, xabar tayyorlovchilarga axborotni operativ ravishda yetkazishga, o'quvchiga esa ularni tez qabul qilishiga yordam beradi. Demak, publisistik uslub ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qiluvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi orqali keng ommaga ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Samarqand, 2005 - P.34.
2. A.I.Gorshkov. Russkaya stilistika. Moskva, AST Astrel, 2006- P265
3. Kovalchuk N Sintakticheskaya struktura predlojeniya v informatsionix tekstax. Dnepropetrovsk 1980- P6
4. Mukarramov M. Funksional stillarning klassifikatsiyasi. T,1977. P58
- 5.Qo'ng'uров R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari- T,1992. P85
- 6.Qo'ng'uров R., Karimov S, Qurbanov T. O'zbek tilining funksional stillari – T.,1977. B32
- 7.Teshaboyeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi. T., 2012- B 109
- 8.[https.wikipedia.uz](https://wikipedia.uz)

UO'K 81.133**O'ZBEK TILI LEKSIKOGRAMMATIKASI VA UNING KORPUSGA ASOSLANGAN
METODOLOGIK ASOSLARI***Q.N. Xoshimjonova, stajyor tadqiqotchi, Namangan davlat universiteti, Namangan*

Annotatsiya. Ushbu maqola so'z va grammatick strukturalarni bir -biriga bog'liq holda o'r ganilishining nazariy-metodologik asosini korpus lingvistikasida aks ettirilishi hususiga bag'ishlangan

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, leksikogrammatika, darajalab o'qitilish metodi, statistik tahlillar

Аннотация. Данная статья посвящена отражению теоретико-методологических основ взаимообусловленного изучения слова и грамматических конструкций в корпусной лингвистике.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, лексикограмматика, поэтапный метод обучения, статистический анализ.

Abstract. This article is devoted to the reflection of the theoretical and methodological foundations of the interdependent study of word and grammatical structures in corpus linguistics.

Key words: corpus linguistics, lexicogrammar, graded learning method, statistical analysis

Kirish. Har qanday jamiyatda ham ma'lum bir sohalar rivojlanishi, zamon talablariga moslashishi uchun ilmiy tadqiqotga ehtiyoj sezadi. Shu jumladan, til ta'limi masalasida ham tilshunoslikning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish va ularni qo'llash, sohaga doir muammolarni yechishga yo'naltirish dolzarb vazifa sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-dekabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatini, nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 2-dekabrdagi 87-06- 52 sonli xatida "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi" (O'z R Prezidentining 20.10.2020 y. PF-6084son Farmoniga 1-ilova) va "Yo'l xaritasi" loyihasida davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, vazifalari sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'z ifodasini topgan. Bu hujjatlar davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini yanada takomillashtirish uchun xizmat qilmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Texnologiyalar asrida taraqqiyot sur'atining tezlashgani, intellektual salohiyat, texnikaning yuqori darajada yuksalganligi kishilik jamiyatni oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda. Mintaqamizdag'i globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, jadal taraqqiyotni talab etmoqda. Kompyuter tizimi qulayliklar, imkoniyatlar majmuyiga va tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, kompyuter lingvistikasining kirib kelishi til bilan bevosita bog'liqdir. Kompyuter lingvistikasi kompyuterdan unumli foydalanish hamda lingvistika va tilshunoslikka doir

masalalar (axborot uslubini o'zlashtirish, tilning funksional doirasi haqida bilimga ega bo'lish, tillarni o'qitish, bilimlarni baholash, matnlarni tahrir va tahlil qilish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish)ni kompyuter vositasida hal qilish yo'llarini belgilash, kompyuter savodxonligi darajasini oshirish, mantiqiy to'g'ri, izchil fikrlashga o'rgatish, nazariy bilimlarni shakllantirish va muayyan yo'nalişlar bo'yicha amalda qo'llashga oid ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi [1]. Bizningcha, o'zbek tilini yanada takomillashtirish va jahon talablariga javob berishi uchun bugungi kunda, aynan, kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi sohasida ko'plab ishlar olib borishimiz zarur. Jumladan, maktab darsliklarida ona tili va adabiyot fanlarining o'qitilish tizimini korpusda aks ettirilishi va buni maktablarda joriy etilishi bilan bog'liqidir. N.Abdurahmonovaning "O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining lingvistik ta'minotini ishlab chiqishda ayrim masalalar tadqiqi" nomli maqolasida so'z turkumlari, tinish belgilari, arab va rim raqamlarini yozish va o'qishda uchrovchi bir qator kamchiliklar sifatida keltiriladi. Bunda bazaga ma'lumot kiritishda matnning qaysi bandida *chiziqcha*, qaysi birida *tire* ekanligi va -*inchi* qo'shimchalariga ham e'tiborli bo'lish kerak. Yaratiladigan dastur esa buni tushunib olishi lozim. Tinish belgilari yozilgan paytda qo'yiladigan belgililar ovozli matnda o'qilmaydi. O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining har qanday o'zbek tilidagi matnlarni hech qiyinchiliksiz o'qib berishda uning lingvistik ta'minotining qay darajada mukammal ishlab chiqilgani katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'zbek tiliga boshqa tillardan, asosan, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan ruscha internatsional so'zlarni tadqiq etish va bunday so'zlarni dastur lingvistik ta'minotiga kiritish masalalarini o'rganish vazifasi ham oldimizda ko'ndalang turibdi. O'zlashma so'zlarning talaffuzi o'zbek tili so'zları talaffuzidan farq qilgani bois ham ularning audio formatdagi va yozma shaklini lingvistik ta'minotga kiritish dasturning bunday so'zlarni xatosiz o'qishiga imkon yaratadi[2].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Leksikogrammatikada muloqot jarayonida so'z ma'no qurshovi hamda grammatik belgilarga ko'ra bir vaqtida tahlil qilinadi. Pedagogikada mazkur yondashuv o'quv jarayoni uchun muhim metodologik asos sanaladi [3]. O'zbek tili leksikogrammatikasining rivojlanishi xususida maktablarda statistik tahlillar uchun tajriba – sinov jarayonlari olib borilmoqda. Bunga ko'ra, ikkita sinf tanlab olindi ularning bilim darajalarini aniqlash maqsadida bir xil mavzu yuzasidan tajriba sinov ishlari olib borildi. Ularning biriga (1-guruh)an'anaviy usulda dars o'tilib, "Olmoshlar" mavzu o'zlashtirildi (bunda avval qoidalar tushuntirildi, mashqlar ishlandi so'ng, o'quvchilarga kelajakda qanday kasb egallashlari afzal ekanligi muhokama mavzu qilib o'rta ga tashlandi bu bahsdan so'ng o'quvchilarga "Kelajakda kim bo'lsam ekan" mavzusida esse yozishlari topshiriq qilib berildi. Tajriba — sinov sinfiga esa(2-guruh) mavzu turli ko'rinishda taqdim etildi. Ya'ni tinglab tushunish, o'qish, va test ko'rinishida dars olib borildi va so'ngida "Kelajakda kim bo'lsam" mavzusida esse olindi. Dars jarayonida 1-guruhdan farqli ravishda tajriba -sinov guruhida audio matn tinglandi va bolalarning o'zları berilgan javoblar varaqasiga to'g'ri javobni belgilashdi. Turli kasblarga oid audio matn 5min ni tashkil etib 2 marta takror eshitildi. Olmoshlarga bag'ishlangan savollar soni 6talik test taqdim etildi va 10 minut vaqt ajratildi. O'quvchilar bilan dars davomida hozirgi kunda faol ish olib borayotgan O'zbek tili korpusi uzbekcorpus.uz platformasi yordamida turli tayyor matnlar orqali bizga kerakli, mavzuga oid kalit so'zlar bilan tanishib chiqildi. Biz birgina **kelajak** so'zining ma'no qirralari va uslubiy jihatlari xususida bahs olib bordik.

O'ZBEK TILI KORPUSI

USLUB DAVR English Русский Ozbek Yangi versiya

Kelajak	<input checked="" type="radio"/>
IZLASH	<input type="radio"/>
TOZALASH	<input type="radio"/>

8 ta hujadta 12 ta so'z uchradit.

Asqad Muxtor «Chinor»
1969

garadi. Tinmay siljib ketayotgan bu suruviar endi uning yuragini hovliqtirmadi, kelajak boylik bo'lib emas, qora ofet bo'lib ko'rindi. Oldinda mana shu [_ko'proq](#)...

Asqad Muxtor «Chinor»
1969

armonim yo'q emas, – Bearmon – Qarilikda odam [_ko'proq](#) xotiralar bilan yashaydi. Kelajak yo'q. Ba'zan yolg'iz xotiralar bilan qolasen. Bordi-yu, xotiralaring ham arzigulik [_ko'proq](#)...

Asqad Muxtor «Chinor»
1969

beriladi deb. Umr esa qisqa. Shunday bolgandan keyin o'zgalar uchun, kelajak uchun, avlodlar uchun yashash kerak. Biz ilmni, texnikani qaysi darajaga [_ko'proq](#)...

Asqad Muxtor «Chinor»
1969

qaysi darajaga ko'tardik, olam sirlarini o'rganishga qanday hissa qo'shdik – kelajak bizdan shuni so'reydi. Yo'q, aka, yashashning qiziq'i, tub ma'nosi – [_ko'proq](#)...

Odil Yoqubov
«Muzzaymoq»

sahifalarni to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarash- ni shakllantirish, begunoh qurban bolgan insonlar xotirasini [_ko'proq](#)...

Zulfiya «O'g'lim sira
bo'lmaydi urush»

so'z ochadi. O'g'lining qaddu bestiga boqib, umid va ishonchga to'liq kelajak orzularidan so'laydi. Xalqimiz orasida tarqalgan go'zal bir tushunchaga ishora qilib, [_ko'proq](#)...

Pirimqul Qodirov
«Yulduzli tunlari»

lab badiiy va ilmiy aserlar yaratiladi. Ularning dunyoga kelishida esa kelajak mualliflariga Pirimqul Qodirov tajribasi xizmat qilishi YULDUZLI TUNLAR (romandan Bobur [_ko'proq](#)...

Tog'ay Murod «Yulduzlar
mangu yonadi»

bora berdi! Bor diqqat-e'tibori esa oyog'ida bo'ldi. Bo'lajak vaziyat to'lishib kelajak soyin [_ko'zlar](#) yonada besaranjom boqdi, bejo Xo'jasontliklar Tilovberdi polvon beparvoligi [_ko'proq](#)...

G'afur G'ulom «Bilib
qo'yki, seni vatan
kutadi»

Hammasidean a'lo, barchadan oldin, Bilib qo'yki, seni Vatan O'tmishni o'rgansang, kelajak porloq, Ona yurt tarixi yo'lingda A'lo mamlakatning a'lo farzandi, [_ko'proq](#)...

Ustmon Nosir «Nil va
rim»

Yuragimda go'yo sel Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon O'tmish, hozir va [_kelajak](#) ko'rinxur har on. Tirishaman, butun kuchim [_ko'zimga](#) kellar, Chirog'imga parvonadek [_ko'proq](#)...

1

2 ...

2 »

1-rasm

So'ng o'quvchilarga "Kelajakda kim bo'lsam ekan" mavzusida esse yozishlari topshiriq qilib berildi. Natijada 1-guruh o'quvchilari o'rtacha 80-100 tagacha so'z qo'llay olgan. 2-guruh o'quvchilari o'ratacha 90-130 tagacha so'z qo'llagan. Olingen esse natjalari yuzasidan induktiv metod grammatik va leksik jihatidan ham o'zini oqlaydi. (masalan: kelajak — da, -gim,-ni, uchun ; kasb- im, -ini, -da, -ga kabi uslublar ko'plab uchraydi). Morfologik analizator har bir birlikni kontekstualogik jihatdan to'g'ri aniqlab berishi kerak. O'zbek tilida fe'lga qo'shilishi mumkin bo'lgan qo'shimchalar quyidagilar:

Inkor shakl-N {-ma| -mas| -may}

Shart mayli-CF {-sa}

Zamon -T {-a| -y| -yap| -moqda| -yotir...}


Kesimlik shakllari -PF {-man| -san| -dir...}

Nisbat -VF {-t| -tir| -giz, |-kiz...}

Fe'lning vazifadosh shakllari -NF {-gan| -kan| -qan| -b| -ib...}

Shaxs-son P {-im| -ing| -k| -ngiz| -lar| -man| -san| -k| -ngiz}

Maqsad -PS {-moqchi} [4] Yuqoridagi pedagogik tadqiqotimizning afzallik jihatlari quyidagi jadvalda bergilab o'tilgan:



Bundan tashqari, bu tadqiqotimizda o'quvchilarda darajalab o'qitish ko'nikmasi hosil qilindi. uzbekcorpus.uz platformasi yordamida leksikogrammatik jihatdan tahlillar olib borildi. Ya'ni yuqoridagi ro'yxatlar bular sodda ro'yxatlar emas, bunda so'zlar kontekstlar bilan birgalikda beriladi. Bu formatda so'z shakllarining chastotasi mavjud, matnda so'zning o'ng va chap tomondan boshqa birliklar bilan birikib kelish imkoniyatlarini ham tahlil qila olamiz. 1-rasmida "kelajak" so'zining korpusda konkordans formatdagi tahlili ko'rsatilgan. Uslub jihatdan:badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy; davr jihatidan:jadidlar davri, sovet davri hamda mustaqillik davri adabiyotiga ajratilgan va bu orqali tilshunoslik jihatidan ham adabiyotlar tahlili jihatidan ham bahs yuritish va tahlillar olib borish yuqori natijaga olib boradi. Masalan, kelajak baxt emas qora ofat bo'lib ko'rindi; kelajak yo'q; kelajak uchun avlodlar uchun yashash kerak; qanday hissa qo'shdik, kelajak bizdan shuni so'raydi; bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarash; umid va ishonchga to'liq kelajak orzularidan so'ylaydi; kelajak ko'rinxur har on.. kabi birliklarni uslub, davr, leksik- grammatic jihatidan yaxlitlab sinfda tahlil qilish ko'nikmasi hosil qilindi. Tadqiqotimizning keyingi oldimizga qo'ygan vazifalarimizdan biri maktab darsliklari 50dan ziyod bo'lsa-da, bu adabiyotlarni to'liq holatda kirdizishdan iborat hamda o'zbek tilining leksikogrammatik jihatdan tahlillarni o'tkazishdan iborat.

Milliy til korpusi — o'zbek tilidagi ilmiy, badiiy, publitsistik, so'zlashuv va rasmiy uslubga doir shuningdek, zamonaviy, tarixiy, she'riy, nasriy, dramatik va shevaga doir matnlardan iborat milliy kontentdir. Milliy til korpusi yaratilsa, ta'limiy korpus yanada takomillashadi. Milliy til korpusi tadqiqiy, tahliliy xarakterdadir. Ta'limiy korpus esa tatbiqiy, amaliy maqsadga yo'nalgan elektron resursdir[5].

Xulosa va takliflar. Til korpusi esa elektron kutubxonadan farqli o'laroq, tilni o'rganish va tadqiq qilish uchun zarur, foydali va qiziqarli matnlarni to'plashni nazarda tutadi. Korpus turli ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflangan... Til korpusidan o'qituvchi, talaba va maktab o'quvchisi ham ancha unumli foydalanishi mumkin. Chunki faqat korpus orqali juda osonlik bilan kam ishlataladigan so'z, ibora va birikmani topish, qo'llanishi va yozilishi (orfografiyasi)ni o'rganish mumkin. Ta'kidlash joizki, til korpusida til grammatica va darslik muallifi tavsiflaganidek emas, balki jamiyatda qanday yashasa va ishlasa, shunday aks etadi. Bu esa o'quvchining o'zini o'rab turgan muhit — umumxalq tili va adabiy tilni o'rganishida eng sermahsul vosita bo'lib xizmat qiladi [6]. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, agar tilimizni jahon andozalariga mos ravishda qulaylik jihatidan takomillashtirmasak kelgusida o'rganish va o'rganilish darajasi sustlashishi mumkin. Shu sababli, biz jahon andozalariga mos ravishda o'zbek tilining mukammal korpusini yaratmog'imiz lozim. 2003-yilda A.Po'latov va boshqalarning "Dunyoviy o'zbek tili" kitobi bosmasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, unda o'zbek tilidagi 1 ta ishlamoq fe'lining taxminan 100000 ta shakli (leksik grammatic paradigmalar) rus va ingliz; tillariga o'girilgan. Ingliz tilida esa

fe'l taxminan 100 ta shakli borligi hammaga ma'lum. Kompyuter uslubida ushbu 100 000 ta shakldan faqat eng zaruriy eng maqbul (optimal) varianti tanlab olinadi, qolganlari esa imkoniyat tarzida saqlanadi. [7]. Shuning uchun, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish hayotimizda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasi bo'yicha mutaxassislar – kompyuter dasturchilari va filologlar (lingvistlar) hamkorligida yaratilgan kompyuter lingvistikasining ijobiy jihatni ham aynan shunda ko'rindiki: u filolog va kompyuter mutaxassislarini birlashtiradi.. O'zbek tilini chet tili sifatida o'rganilishi bizningcha, darajalab o'qitilish tushunchasini osonlashtiradi, ikkinchidan, o'zbek tilini o'rganuvchilarga qulayliklar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, 2020. B.2; 8
2. N.Abduraxmanova O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining lingvistik ta'minotini ishlab chiqishda ayrim masalalar tadqiqi //Turklang-2018 xalqaro konferensiya, Toshkent, 2018.
3. H. Dadaboyev,N.Abdurahmonova. O'zbek tili leksikogrammatikasi hamda o'quv lug'atchiligini rivijlantirishda electron korpusning ro'li. Til va adabiyot ta'limi.
4. Abdurakhmonova N., Tuliiev U. and Gatiatullin A., "Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670043.
5. Raupova L., Zaripboyeva N. Ta'limiy korpus: tatbiqiy, amaliy elektron resurs vositasi sifatida. O'zbek milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari. Vol.1.2021
6. D.Maxammadiyeva.Til korpuslari muhim lingvistik manbaa sifatida. Kompyuter lingvistikasi muammolari, yechimi va istiqbollar.2022(01),
7. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi Toshkent – 2009
8. [Uzbekcorpus.uz](#)

UO'K 811.161.1'373.7(035.3)**PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TADQIQI XUSUSIDA****O.I. Xudoyberdiyeva, tayanch doktorant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov**

Annotatsiya. Bu maqola maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish kabi bugungi kundagi juda muhim mavzuning ahamiyati haqida so'z boradi. Bu "gavhar" nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillarini ham qiziqtirib qo'ygan: etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar. Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig'isi, shodligi va sevinchi, qayg'usi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni to'g'ri yo'lgan eltuvchi mayoqdir. "Xalq asrlar mobaynida to'plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebafo meros namunasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Maqol, matal, etnograf, folklorshunos, kollektivizm, aforizm, madaniyatshunoslar, lingvokulturologiya, semantika, leksika.

Аннотация. В данной статье говорится о важности сегодня очень важной темы изучения и исследования пословиц, в частности, народного творчества. Эта «драгоценность» заинтересовала не только лингвистов, но и представителей самых разных сфер: этнографов, культурологов, фольклористов, литературоведов, лингвистов, психологов, философов и других. Пословицы – это опыт народа, его дыхание, плач, радость и счастье, печаль и горе, правда народа, маяк, ведущий его на правильный путь. «Накопленный веками жизненный опыт народ передает будущим поколениям с помощью различных средств. Пословицы являются примером такого бесценного наследия.

Ключевые слова: Пословица, пословица, этнограф, фольклорист, коллективизм, афоризм, культурологи, лингвокультурология, семантика, лексика.

Abstract. This article talks about the importance of today's very important topic of studying and researching proverbs, in particular, folk art. This "jewel" has interested not only linguists, but also representatives of various fields: ethnographers, cultural scientists, folklorists, literary experts, linguists, psychologists, philosophers, and others. Proverbs are the experience of the people, their breathing, crying, joy and happiness, sadness and sorrow, the truth of the people, a beacon that leads them to the right path. "The people pass on the life experience they have accumulated over the

centuries to the future generations with the help of various means. Proverbs are an example of such an invaluable heritage.

Key words: Proverb, proverb, ethnographer, folklorist, collectivism, aphorism, cultural scientists, linguo-cultural studies, semantics, vocabulary.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari singari har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy – madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me’yor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini to‘liq ifodalaydi”. O‘zbek maqollarining o‘rganilish tarixi: o‘zbek xalq durdonalarini, o‘zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni to‘plash va o‘rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning o‘z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, XI asrning buyuk olimi M. Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar yolg‘iz o‘sha davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtida butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni, Yuqori Chindan tortib Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan urug‘, qabilalari, xalqlar, ularning tillari, o‘sha davr xalq og‘zaki ijodiy maqollari to‘g‘risida ham ma’lumot beruvchi noyob filologik asardir. Demak, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og‘zaki ijodining butun yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ayniqsa, xalq maqollarini o‘rganuvchi ilmiy fiqrarni 8 sharhlashda xalq maqollariga katta e’tibor bergen, birinchi marta xalq maqollarini yig‘uvchi asar hamdir. Bu haqida M. Koshg‘ariyning o‘zi shunday yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, sahlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim”.[1] Demak,

o‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan boshlab berilgan. Uning “Devoni lug‘otit turk” asarida 275 ta maqol keltirib o‘tilgan. Olimlar qadimgi shohlardan Abbas Safoviyning amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida ma’lumot beradilar. Afsuski, bu majmua bugungi kungacha yetib kelmagan. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tamiz. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq o‘zbek xalq maqollarini bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiv o‘zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir.

Xalq maqollarini ilm obyekti sifatida o‘rganish va to‘plash XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostromovning xizmati katta. Bir necha o‘zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonovning maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqoti yuzaga keldi. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq.

B.A.Soatov o‘zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she’riy xususiyatlarini aniqlagan.[2] X. Sharafiddinova o‘zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan. I. Begmuratov, R. A. Latipova, E. V. Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan maqol va matallar qiyosiy planda ko‘rib xalq maqollarining janr chiqilgan. Rus maqollari V.D. Chernelevaning tadqiqotida qiyosiy aspektida o‘rganilgan. Xalq tajribasi ma’naviy qadriyatlarning yaratilishida favqulodda muhim rol o‘ynaydi. “Insonlarda xotiralar tufayli tajriba paydo bo‘ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san’at bilan deyarli bir xildir. Fan va san’at, gapga esa insonlar tajriba tufayli erishadilar. Chunki, V.Pol aytganidek, tajriba san’atni yaratgan va to‘g‘ri aytgan, tajribasizlik – hodisa”.[3]

Paremik janrlar munosabati kompleks holda tadqiq etilmagan. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o‘rganilgan. Xususan, M.Z.Sadriddinovaning ilmiy tadqiqoti o‘zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan.[4] Maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya’ni maqollarga turg‘un birikmalar sifatida ta’rif berish oz bo‘lsa-da dissertatsiyalarda o‘z aksni topdi. Bunday qilingan ishlar orasida Bibish Jo‘rayevanining “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy uslubiy qo‘llanilishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olima maqol va ibora, maqol va matal

o'rtasidagi o'xshash va farqli belgilarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritishga harakat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, maqollarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilingan ishlari juda kam. Til madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida o'ziga xos yo'naliishi va predmetiga ega bo'lган yangi soha — lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy sohadir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ikki tildagi bir xil ma'noni ifodalaydigan maqollar aynan bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Maqollarning, ayniqsa, mazmun nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etilishi madaniyatshunoslik, etnolingvistika va etnografiya singari fan sohalari bilan bevosita bog'liqdir. Madaniyat, odatda, til vositasida bir avloddan boshqasiga o'tadi. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichlarida bu og'zaki shaklda, jumladan, xalq og'zaki ijodi, xususan, bunday ijodning eng ko'zga ko'ringan janrlaridan biri bo'lган maqollar vositasida amalga oshirilgan. "Maqollar – xalq og'zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan emas, eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko'rsa, ming yillar bo'yli tirk jon kabi saqlanadi. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o'zining obrazli qudrat bilan ming yillar bo'yli saqlanib kelaveradi". Shuni unutmaslik kerakki, maqollar, ularni yaratgan xalqning donoligini o'zida mujassam etadi. Xalq donishmandligi haqidagi – yirik bir fan. Buyuk tajribaga ega bo'lган kishilar unga ega bo'ladilar. Davrining va undan keyingi asrlarning buyuk donishmandi, eramizdan oldingi IV asrning yirik faylasufi Aristotel shunday degan edi: "Donishmandlik ba'zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandir... Donishmandlikni, adolat nuqtayi nazaridan ilohiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o'xshaydi...".[6] Hozirgi paytda maqol deganda: "Kundalik nutqda qisqa, turg'un, ohang jihatdan uyushgan, xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi aks etgan, tugallangan jumla (sodda yoki qo'shma gap)" tushuniladi. Maqol — jamiyat "parchasi"ning modelidir. Shu bois uni o'rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma'nosi yo'q. "Nutqda muqobililik tamoyiliga ko'ra ko'p ma'noda qo'llanila oladigan qisqa, nutqda mustahkam o'rnashgan, ritmik tashkillashgan obrazli nutqqa maqol deyiladi. Mazkur ta'rifda ko'rsatib o'tilgan belgi va alomatlar – qisqalik, turg'unlik, ritm, ko'p ma'nolilik va b. Shuningdek, maqollar to'g'risida ularning xalqning ijtimoiy-tarixiy va turmush tajribalarini umumlashtirishi ham ta'kidlanadi".[7] ularning fikricha, maqolning janr sifatidagi yagonaligi, agar uning tarixiy kelib chiqishi xalq turmushi, tili va san'atining o'ziga xos hodisasi sifatida tahlil etiladigan bo'lsa, yanada oydinlashadi. Ilk maqollar qadim zamonalarda paydo bo'lgan. "Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko'philigi insonlar orasidagi ishlab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikrning she'riy ifodasi voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir". Maqoldan farqli o'laroq, "matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo'lgan va bir qator o'xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobililik tamoyiliga ko'ra qo'llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo'lsa, matal bir tugal fikr (jumla), xulosa ich iga to'laqonli bir bo'lak sifatida kiritiladi".[8]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqollar lingvokulturologiyaning obyekti sanaladi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro tutashgan nuqtasini o'rganadi, buning markazida esa maqollar turadi. Maqollarda xalqning tarixiy tajribasi, o'tmishi aks etadi. Maqollar xususida folklorshunoslikda va tilshunoslikda semantik jihatdan o'rganilgan. o'zbek xalq maqollarida mazmunni ochib berishda bir qancha vositalar muhim rol o'ynaydi. Maqolda metaforalik, obrazlilik, ta'sirchanlik, hissiy bo'yqodorlik, qisqalik, majoziylik ahamiyatga egadir. Maqollarning ma'no-

mazmuni ularni tashkil etuvchi komponentlar (so'zlar) ma'nosidan bevosita "kelib chiqmaydi, u ma'no bo'lak obraz orqali bog'liq bo'ladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qoshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" 1Tom. -Toshkent: 1960-yil, 44-45-bet.
2. Soatov B.A. O'zbek xalq maqollarining janr va she'riy xususiyatlari.-T.:1990, 53-bet.
3. Аристотель. Метафизика. -Л.: 1999. 6-с
4. Sadreddinova M. Z,O'zbek maqol va matallari leksikasi.-T.: 1984, 128-bet.
5. Узбекские народные пословицы, поговорки и загадки.-М.: 1985, -С.86.
6. Горький А.М. История русской литературы.-М.:1957,-С.38.
7. Аниkin В.П, Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество.-Л.: 1983, -С.116
8. Аниkin В. Круглов.А, Русское народное поэтическое творчество.-Л.:1983, -С.129

UO'K 800

FONEMATIK TA'RIFLARNING SUBSTANSIONAL TOMONIDA "SHAXS" KONSEPTINING IFODALANISHI

(antroposentrik aspektida)

*U. Yigitaliyev, dots., Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon
Sh. Umidjonov, magistrant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent
X. Solijon-zoda, talaba, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon*

Annotatsiya. Mazkur maqolada lisoniy tizimning fonologik birligi – fonema va unga berilgan ta'riflar substansional semantikasida "shaxs" konseptining antroposentrik aspektida ifodalanishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: fonema, fonematik ta'rif, substansional tomon, shaxs, antroposentrik aspekt, konsept.

Аннотация. В данной статье исследуется представление концепт «человек» в антропоцентрическом аспекте в фонологической единице языковой системы – фонеме и содержательной семантике ее определений.

Ключевые слова: фонема, фонематическое определение, содержательная сторона, человек, антропоцентрический аспект, концепт.

Abstract. This article examines the representation of the concept "person" in the anthropocentric aspect in the phonological unit of the language system — the phoneme and the content semantics of its definitions.

Key words: phoneme, phonemic definition, content side, person, anthropocentric aspect, concept.

Kirish. Lison insonning muhim atributlaridan biri sanaladi. Zeroki, odam xilqati mohiyatan o'zini fahmlagandan buyon lisonni insonning hayvondan farqlovchi belgilaridan biri sifatida uqqanligi bilan dalillanadi.

Eski o'zbek adabiy tilining asoschilaridan biri Nizomiddin Alisher Navoiy bu holatni "Muhokamatul-lug'atayn" asarida shunday sharhlaydi:

*Ey so'z ila qilgan ofarinish og'oz
Insonni aroda aylagay mahrami roz
Chun kun faya kun sahfasiga bo'ldi tiroz
Qilg'on ani nutq ila baridin mumtoz [10].*

XX asrning to'rtinchisi choragida yuzaga kelgan antropotsentrik paradigma qator fanlar tadqiqot yo'nalishining o'zgarishiga olib keldi. Jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, mantiqshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlarda til, adabiyot, ruhiyat, mantiqni tekshirishda, xalq milliy-madaniy qadriyatlarini o'rganishda *inson omili* muammosi markaziy o'ringa qo'yildi.

Tilda inson omili muammosini tekshirish tadqiqotchilar e'tiborini til sistemasini undan foydalanuvchi so'zlovchi shaxsi bilan uyg'unlashgan holda o'rganishni taqozo etdi. Tilni o'rganishga bunday yondashuv uni real kommunikatsiya sharoitida tadqiq etishga olib keldi. M.Salomatina bu holatni hozirgi kommunikativ lingvistikada "shaxsning personallashuvi" bilan izohladi[6.25].

Antropotsentrik aspektida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda lisoniy birliklar sof grammatik qonun-qoidalar asosida emas, balki turli fanlar hamkorligida inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Jumladan, til birliklarini kognitiv nuqtai nazardan konseptual tahlil qilish orqali lisoniy hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e’tibor qaratiladi.

Mavzuning dolzarbliji va hozirgi holati. Bugungi kunda jahon tilshunosligida tilda inson omilining o‘rni masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlarda inson omilining barcha fanlar, shu jumladan, tilshunoslikning ham o‘rganish predmeti ekanligi g‘oyasi ilgari surildi[6.31]. Shuningdek, turli tillarda “shaxs” konseptining ifodalanishi[6.32], xususan, shaxsning baho sifatlarini ifodalovchi maqollar, zoonimik va fitonomik leksik birliklar orqali voqelanishi masalasini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi[6.35]. Darhaqiqat, *konsept* mental tuzilma bo‘lsa-da, uning moddiylashuvi bevosita lisoniy tizim bilan bog‘liq, bundan anglashiladiki, konseptni inson ongi va til tizimi o‘rtasidagi hamkorliklikning mahsuli sifatida o‘rganish o‘rinli hamda ilmiy asoslidir.

O‘tgan asrda o‘zbek tilshunosligida ham tilda *shaxs kategoriyasi* muammosiga munosabat bildirildi. Xususan, tilda shaxs otlarining ifodalanishi, yasalishi, semantik xususiyatlari, shaxs aktantining sintaktik sathda voqelanishi masalasi leksik-semantik, derivatsion, sintaktik va stilistik aspektlarda tadqiq etildi. Biroq tilshunosligimizda til egasi (inson)ning shaxs sifatidagi xususiyatlari (ruhiyati, kasb-kori, assotsiativ tafakkuri, jinsi, ijtimoiy mavqeい kabilar)ning tilda aks etishi masalasi, “shaxs” konseptining o‘zbek tilida voqelanishi, *lisoniy shaxs*, lisoniy shaxsning nutqiy muloqot jarayonidagi o‘rni, *lisoniy shaxs tiplari* muammosi etarlicha tadqiq etilmadi.

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish). Ilmiy adabiyotlardan anglashiladiki, lisonning funksional mohiyati aloqa-arahashuv vositasi sifatida quruq axborotni uzatishdan iborat bo‘lmasdan, kommunikativ muloqot elementlari, ya’ni so‘zlovchining muloqot maqsadi, uzatilayotgan axborotning sifati, adresat tomonidan qabul qilib olinishi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zar munosabat, muloqot amalga oshgan vaziyat kabilarni ham qamrab oladi. Bu o‘rinda axborotning qay tarzda uzatilayotgani va tinglovchining axborotni qabul qilib olishi ham katta ahamiyat kasb etadi. SHunga ko‘ra til inson tafakkuri va hayot tajribalarining lisoniy verballahuvi, kishilar o‘rtasidagi hamkorlikdagi faoliyat mahsuli deb qaralmoqda.

N.Mahmudov tilda inson omili muammosi xususida fikr yuritar ekan, “Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibridoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi», -deb ta’kidlaganida bu muammoning qanchalik murakkabligini e’tirof etgan edi”[6.33].

Anglashiladiki, tilda inson omili muammosi tadqiqotchidan tildan foydalanuvchi shaxsga xos xususiyatlarning tilda voqelanishini aniqlashdek murakkab vazifalarni o‘rganishni taqozo etadi. Negaki tilshunoslikda *shaxs* tushunchasi, birinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning natijasi sifatida qaralib, kishining *kasbiy*, *ijtimoiy*, *jinsiy*, *yosh*, *irqiy*, *etnik*, *diniy*, *huquqiy* va boshqa munosabatlari natijasida ro‘yogba chiqadi.

Tilda *inson* omili muammosini konseptual tadqiq etishda konseptning til vositalari orqali ifodalanishi masalasini o‘rganish muhim o‘rin tutadi.

Konsept antropotsentrik paradigmanning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi zamon tilshunosligida konseptning ifodalanishi xususida deyarli fikrlar bir xil. Cpunonchi, konsept lisoniy tizimda, asosan, leksik hamda leksik-frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyot bosqichida sintaktik konseptlar haqidagi nazariy qarashlar, monografik tadqiqotlar ham maydonga keldi.

Konseptning tub mohiyatida inson omili yotar ekan, u tafakkurning ifoda vositasi – tilning barcha sathlarida til vositalari orqali bevosita yoki bilvosita voqelanishi, shubhasiz. Jumladan, nutq tovushi ma’no ifodalamaydi, biroq ma’noni farqlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, muayyan nutq sharoitida “shaxs” konseptining verballahuviga ham xizmat qiladi. Til egasi nutqida kuzatilgan o‘ziga xos nutq tovushi bevosita «odam» konseptiga assotsiativ tarzda ishora qila oladi.

Ilmiy gipotetik omillarga ko'ra lisoniy sistemaning fonetik-fonologik sathda "shaxs" konseptining voqelanishini aniqlashda bevosita fonemalarga berilgan ta'riflarga suyanish ham mumkin. Hozirgi davr tilshunosligida fonemaga berilgan yuzlab ta'riflar mavjud. Chunonchi: "...fonema tildagi ma'nodor birliklar – so'z va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, o'zi mustaqil ma'noga ega bo'limgan birligidir" [1.12]. "Fonema – til moddiy tomoni (substatsiyasi)ning eng kichik birligi bo'lib, aloqa quroli uchun ahamiyatli bo'lgan farqlovchi fonologik belgilarning barqaror yig'indisidir" [3.25]. "Fonema – so'z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi" [4.35]. "So'z, so'z formalari va morfemalarni tashkil etuvchi va ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo'laklarga bo'linmoqchi til birligi fonema (grekcha *phone* – tovush, ovoz ma'nosida) deyiladi. Masalan, *til – tol, kel – kul* so'zlari unli fonemalar yordamida farqlanadi"»[2.48].

Olingen natijalar tahlili va xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlillar, fonemaga berilgan ta'riflarni o'zbek va jahon tilshunosligining fonetist mutaxassislari ishlaridan yana bir qanchasini iqtibos sifatida keltirib o'tish mumkin. Biroq, fonemalarning semantik-substantsional tomonida "shaxs" konseptining assotsativ-verbal ifodalanishini isbotlash uchun mazkur dalillarning o'zi yetarli. Bu o'rinda bizning asosiy maqsadimiz, ushbu keltirilgan ilmiy ta'riflar negizida "shaxs" lingvistik konseptining assotsativ-verbal ifodalanishi ko'lamlarini ochish.

Anglashiladiki, yuqorida qayd etilgan ilmiy ta'riflarga e'tibor qaratilsa, har birida "*ma'no farqlashga xizmat qiluvchi*" degan differential belgini uchratish mumkin. Bundan shunday ilmiy xulosa chiqarish mumkinki, faqat *shaxsgina* ma'noli, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan nutq tovushlarini hosil qila oladi. Demak, "*ma'no farqlashga xizmat qiluvchi*", "*nutq tovushi*" tavsiflari bevosita *shaxsga* ishora qilib turadi. Modomiki, nutq ijtimoiy hodisa bo'lib, u orqali faqat odamlarga nisbat beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Abdurazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: OzMU, 2010.
3. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 120 b.
5. Yigitaliyev U. O'zbek tilida konseptining assotsativ-verbal tadqiqi (Monografiya). –Toshkent: "Lesson press", 2023. – 130 b.
6. Yigitaliyev U., Umidjanov Sh. The Role Of The Concept "Man" In The Functional-Semantic And Associative-Verb Expression Of The Forms Of The Category Of Cases. *Journal for Educators, Teachers and Trainers*, Vol. 14(5). 18-22.
7. Yigitaliyev U. Gapning kommunikativ qurilish jarayonida "shaxs" tushunchasining deyktik ifodalanishi// – Toshkent, 2020. Jurnal: O'zbek tili va adabiyoti, 5-son. –B. 99-103.
8. Yigitaliyev U. Grammatik shakllar paradigmaси va unda "shaxs" lingvistik zarrasining ifodalanishi. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. –Qo'qon, 2022. 2-son. –B. 104-107.
9. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. –М.,1960. –C.18.
10. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-muhokamat-ul-lugatayn.html>

UO'K: 82.09

REY BREDBERINING "PIYODA" VA ISAJON SULTONNING "MEGA INTELLEKT" HIKOYALARIDA TEXNOKRATLASHGAN OLAM TASVIRIDA MILLIY-MADANIY MOTIVLAR TALQINI

Sh.A.Yuldasheva, mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tashkent

Annotatsiya. Maqolada amerikalik fantast yozuvchisi Rey Bredberining "Piyoda" (*The pedestrian*) va o'zbek yozuvchisi Isajon Sultonning "Mega intellekt" hikoyalariida texnokratlashgan olamning tasviri, mashina va robotlar taffakkurining insoniyat onggi, taffakkuri, his-tuyg'ulari va qadriyatlaridan qanchalar farqli ekanligining badiiy tasviri tahlil etiladi. Fan-teknika asrida inson omili va uning qadr-qimmati sharqona va g'arbona qarashlardagi tasvirlari tahlil qilinadi. Mualliflar yozuv uslubidagi xususiy va universal tomonlariga qisqacha to'xtalib o'tiladi. Hikoyalardagi olam va jamiyat qanchalar tekniqa va suniyy intellect asosida rivojlanishiga qaramay

odam o'z milliy negizi va qadriyat va ma'daniyatiga muhtojligi va bog'liqligi kabi tushunchalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: fan-texnika taraqqiyoti, sun'iy intellekt, qadriyat, texnakratlashgan olam tasviri, tafakkur, milliy-madaniy motivlar, ilmiy fantastika, ramziylik, qahramon ruhiyati.

Аннотация. В статье рассмотрен образ технократического мира в рассказах американского писателя-фантаста Рэя Брэдбери «Пешеход» и узбекского писателя Исаджона Султана «Мега Интеллект», насколько мысли машин и роботов отличаются от сознания, анализируются мысли, чувства и ценности человечества. Анализируются образы человеческого фактора и его значения в век науки и техники в восточных и западных взглядах. Кратко обсуждаются специфические и универсальные аспекты стиля письма авторов. В рассказах выделены такие понятия, как то, что мир и общество развиваются на основе технологий и искусственного интеллекта, и что человек нуждается и зависит от своей национальной основы, ценностей и культуры.

Ключевые слова: развитие науки и техники, искусственный интеллект, ценности, образ технократического мира, мышление, национально-культурные мотивы, научная фантастика, символика, психология героя.

Abstract. The article investigates the image of technocratic world in the stories of American science fiction writer Ray Bradbury's 'The Pedestrian' and Uzbek writer Isajon Sultan's 'Mega Intellect', how thoughts of machines and robots differ from consciousness, analyses thoughts, feelings and values of mankind. The images of the human factor and its significance in the age of science and technology in Eastern and Western viewpoints are analyzed. Specific and universal aspects of the authors' writing style are briefly discussed. The stories highlight concepts such as the fact that the world and society are evolving on the basis of technology and artificial intelligence, and that human beings need and depend on their national foundation, values and culture.

Keywords: scientific and technological progress, artificial intelligence, values, image of technocratic world, reasoning, national-cultural motives, science fiction, symbolism, psychology of the hero.

Kirish. Ilmiy-badiiy fantastika (sci-fi) insoniyat uchun mumkin bo'lgan oqibatlarni o'rganish maqsadida ilmiy tamoyillar va o'zgarishlarning rivojlanishi va yoki ba'zida aksincha pasayishiga (yomonlashuvi) asoslangan bo'lsa-da, ko'pincha ilmiy bo'lmanan janr hisoblanadi. Shunga qaramay, ilmiy fantastika ilg'or texnologiyalar tomonidan boshqariladigan va texnokratik tizimlarga bo'ysunadigan jamiyatning potentsial oqibatlari va murakkabliklari haqida tushuncha beradigan texnokratik dunyoni o'rganish uchun noyob obyektivni taklif qiladi. (Straussfogel D., 1997) Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy dunyo tizimi o'z o'tmishining cho'qqisi va kelajagi uchun muqaddima bo'lib qolayotir. Texnologik va avtamatlashtirish taraqqiyotning axloqiy oqibatlarini muhokama qiluvchi Ray Bredberining "Piyoda" va Isajon Sultonning "Mega intellekt" hikoyalarida texnokratik jamiyatning insoniy bahosining umumiy mavzusi yoritiladi.

Asosiy qism. Rey Bredberining "Piyoda" hikoyasida texnokratik dunyo tasviri hikoyaning umumiy ma'nosini shakllantiradigan, jamiyat va uning qadriyatları haqida chuqur fikr yuritadigan muhim milliy-madaniy motivlarni o'z ichiga oladi. Hikoyadagi milliy-madaniy motivlarni texnokratik jamiyatdagi individuallikning muvofiqligi va chegaralanishining tanqidi sifatida talqin qilish mumkin, bu esa Amerikaning erkinlik va individualizm ideallariga mos keladi (Schmalgolz D., 1999). Ushbu motivlarni mahsuldarlik va bir xillik tamoyillariga berilib ketgan jamiyatga nomunosib autsayder sifatida tasvirlangan bosh qahramon Leonard Midning xarakteristikasi orqali ko'rish mumkin. Buni hikoya syujetining boshida, Mid sayrga chiqqan yagona odam sifatida tasvirlanganida ko'rish mumkin, boshqalar esa, tumanli, salqin noyabr oqshomi bo'lishiga qaramay, ichkarida, uylarida televizor tomosha qilayotgan bo'ladilar. (Kadar & Toth, 2013).

"Piyoda" hikoyasidagi madaniy motivlarning yana bir talqini shundaki, u texnologiyaga haddan tashqari tayanib, tabiiy dunyo bilan aloqani yo'qotgan jamiyatning xavf-xatarlarini ko'rsatadi. Buni Midning tabiatni qadrlashi bilan, u bosib o'tadigan vayrona va jonsiz shahar manzarasi o'rtasidagi qarama-qarshilikda ko'rish mumkin. Shaharda tabiat va odamlarning o'zaro munosabatining yo'qligi

Midning yolg'iz sayrlari va haqiqiy insoniy muloqotga muhtojligi va intilishi bilan keskin farq qiladi. “...On this particular evening he began his journey in a westerly direction, toward the hidden sea. There was a good crystal frost in the air; it cut the nose and made the lungs blaze like a Christmas tree inside; you could feel the cold light going on and off, all the branches filled with invisible snow.” (Bredbery R., Pedestrian)- “O'sha kuni kechqurun u g'arbga, yashirin dengizga qarab yo'l boshladi. Havoda chirolyi billur ayoz bor edi; burningni kesib, o'pkangni Yangi yil bezatilgan archasidek, ichidek porlatib yubordi va sovuq yorug'lik yonib, keyin o'chib ketganini va barcha shoxlar ko'rinas qor bilan to'lib qolganini his qilasan.”(Y.Sh.)

Bundan tashqari, “Piyoda”dagi milliy-madaniy motivlarni ham ommaviy axborot vositalari va texnologiyalarning jamiyatga ta’siriga izoh sifatida ko‘rish mumkin. Bredberining hamma ekranga yopishib qolgan, haqiqiy insoniy muloqotdan mahrum bo‘lgan jamiyatni tasvirlashi texnologiyaning ijtimoiy xulq-atvor va munosabatlarga ta’siri haqida savollar tug‘diradi. Bundan qariyb yetmish yillar ilgari, endigina ilmiy-texnikaviy taraqqiyot soxalarga kirib kelayotgan paytda yozilgan bu hikoyada jamiyat bilan xozirgi biz yashayotgan jamiyat o’rtasida ko’pgina o’xshashliklar topamizki, bu muallifini futurolog va fantast yozuvchi sifatidagi mahoratidan ekanligi shubhasiz.

Hikoya syujeti davom etar ekan, Midning politsiya bilan uchrashuvi chog’ida u yashayotgan jamiyat individuallik va insoniy munosabatlarga nisbatan bir xillik va konformistlikni (Izoh: Konformizm - bu narsalarning mavjud tartibini tanqidiy tahlil qilmasdan va o‘z pozitsiyasini ishlab chiqmasdan, boshqalarning ta’siri ostida qabul qilish.) ko’proq qadrlashini oshib beradi. Bu milliy-madaniy motivlar ijtimoiy me’yorlar va umidlarni qanday shakllantirishi, shaxsga qanday zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini yaqqol aks ettiradi. “Where are you taking me?” The car hesitated, or rather gave a faint whirring click, as if information, somewhere, was dropping card by punch-slotted card under electric eyes. “To the Psychiatric Center for Research on Regressive Tendencies.” (Bredbery R., Pedestrian)- “Meni qaerga olib ketyapsan?” Mashina tebranib qoldi, to‘g’rirog‘i, elektr ko‘zlari ostida bir joyda ma’lumot kartadan keyin teshiklari bo‘lgan kartochkalarni tashlab ketayotgandek, xira shivirladi. “Radikal o’zgarishlarga moyillikni o’rganish bo'yicha psixiatriya markaziga.(Y.Sh.)” Leonard Mid sayr qilib yurganida politsiya mashinasi to‘xtatib so‘roq qiladi, Mid suxbat oxirigacha mashinada odam politsiyachi bor deb kutadi, ammo mashinaga chiqqanda bu haydovchisiz, suniyy intellekt orqali boshqariladigan politsiya mashinasi ekanligini ko‘radi. Jamiyatning zolim tabiatini ifodalaydigan bu mashina muvofiqlik va bir xillikni ta’minlaydi va me’yordan chetga chiqqanlarni jazolaydi. Bu texnologiya taqdim etadigan nazorat va kuzatuvni, shuningdek, individuallik va nomuvofiqlikka nisbatan qo‘rquvini ifodalaydi. Hikoyada texnologiya insoniylikdan mahrum qiluvchi, odamlarni inson qiladigan mohiyatini yo‘qotish sifatida taqdim etiladi. Qorong‘i uylardagi televizor ekranlarining miltillovchi yorug‘ligi bu texnokratik dunyoda odamlarning o‘zaro ta’sirining sun’iy va yuzaki xarakterini anglatadi. Odamlar o’rtasidagi haqiqiy suhbat va aloqaning yo‘qligi texnologiyaning jamiyatga noinsoniy ta’sirini ko‘rsatadi.

Isajon Sultonning “Mega intellekt” hikoyasi esa hamkasbidan sal kam olmish besh yildan so’ng yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ularda texnokratlashgan olam tasvirida o‘zaro o’xshash bo‘lgan tasvirlar ko‘zga tashlanadi. Rey Bredberidan farqli ravishda Isajon Sulton hikoyani uchinchi shaxs tilidan emas birinchi shaxs tilidan hikoya qiladi. Uzoq safardan uyiga qaytayotgan haydovchining avtomabildagi suniyy intellekt bilan qiladigan suhbatni ko‘rinishadi boradigan asar syujeti odamni o‘ziga boshidanoq jalb qiladi. Ayoli telefon orqali, ”Yo’lda zerikmaysizmi?” deya so‘raganda – Zeriksam, “Viki” bilan gaplashib ketarman.” - deganida ayolining suniyy intellekt bilan juda qadrdon bo‘lib ketayotgani iddao qilishini ta’kidlab ketadiki, sharqona oilaviy qadriyatlar suniyy texnologik ilovalardan ancha yuqori saviya ekanligida namoyon bo‘ladi. Yo’lda ketayotganda qizining otasiga nima ovqat tayyorlash haqidagi savoliga javob berish uchun, protagonistning kechga qanday taom tayyorlash haqidagi savoliga “Viki” “– Italian, frantsuz, ingliz kechki taomlari. Steyk, barbekyu... Qay biri ma’qul? – Ularga yo’l bo’lsin, – deb kulimsirayman. – Uy raqamini ter-chi. Qizim go’shakni ko’taradi: – Oy qizim, jambil-rayhon solib achchiqqina mastava qilaqol. – Xo‘p bo‘ladi. – “Viki”, mastava tayyorlash yo‘riqnomasi bormi? – Albatta bor. Do‘lmali, go‘shtli, jazli, qiyimali, qaysi biri zarur? Eron, afg‘on, turkman xalq taomlari orasidan... Xayolim o’tmishta yetaklab ketadi...

Enam juda shirin mastavalar pishirardi. Qo'rada eski o'tinlarni opkelsam, qoraygan cho yan qozon tagiga olov yoqib, birpasda ajoyib taom tayyorlab qo'yardi. O'zim necha martalab o'shanday mastava qilishga urindim, qaniydi o'xshasa! Tandirga sig'may qolgan bir-ikkita xomni "pushti" deb yopardi, ya'ni olovi so'na boshlagan tandir chetiga, pushtasiga yopilgan degan ma'noni bildirardi. U non zich, berch bo'lib, to'q-qizil tusda rosa singib pishardi. O'shandan quyoshda quritib qo'yganlarini dasturxonga opkelardi. "Mastavaga qo'shib yeyaqolinglar, xudoyimni ne'mati, isrof bo'lmasin", derdi. (Sulton I., 2015)

Parchadan ko'rinish turibdiki, muallif qanchalar rivojlangan, fan-texnika va suniyy intellektlar zamonida yashashiga qaramasdan o'z ildizlari, ma'naviy negizlarini xurmat bilan qumasaydi. Badiiy asarlarda texnologiya ko'pincha kengroq mavzular yoki g'oyalarni aks ettiruvchi kuchli ramz yoki metaforik rol o'ynaydi. Bu hikoyada ham yozuvchi o'zbek xalqining qanchalar mehnatkashligi, isrof va taomga bexurmatlik qilmasligi, katta avlodning yoshlarga milliy an'analar va qadriyatlarni oddiy kundalik hayot tarzi orqali singdirib borishi mastava razmi orqali timsollanadi. *"– Sen u mastavani bilsayding... – deyman "Viki"ga. – Bironta millat taomiga o'xshamaydi. – Qanaqa xususiyatlari bor ekan? – Bolalarimning rizqi deb pishirardi, o'shan-chun ozgina mehrini ham qo'shvordi. "Viki" jim qoladi. Mastavaga qo'shiladigan narsalar haqidagi ma'lumotlar orasidan mehr degan masalliqni topolmagan bo'lishi mumkin. – Yo'rignomalar orasida siz aytgan modda topilmadi. Umumjahon entsiklopediyasidan qarab ko'raymi? – Qarayqol. Saldan keyin "Viki"ning ovozi keladi: – Entsiklopediyada mehr degan mezon topilmadi. Boshqa tillardagi ma'lumotlarga o'taman. Ingliz, ispan, frantsuz manbalaridan izlandi. Sinonimlari: sevgi, muhabbat, ishq." (Sulton I., 2015)*

Sovuq temirlar, turli dasturlardan iborat, inson mantiqiy fikrlashini imitatsiya qiladigan elektron qiyofa bolajon o'zbek xalqini, rizq deb taomga xurmat bilan munosabatda bo'lishini, bolalariga mehr qo'shib taom tayyorlashini ratsional manbalardan qidirib topolmasligi aniq ham edi. Glaballahuv davrida hamma narsa tezlashgan, inson mushkulini yengillashtirishga xizmat qilishi kerak bo'lgan maishiy texnika-yu, asbob uskunalariga mukkasidan ketish, hedonism (Hedonizm - bu aksiologik ta'llimot bo'lib, unga ko'ra zavqlanish va lazzatlanish eng yuqori yaxshilik va hayotning ma'nosi, yagona yakuniy qiymati ekanligiga ishonish.) va isrofarchilikka tomon ketayotgan jamiyatga bu tushunchalar qanchalar dolzarb ekanlidiga ko'rindi.

Yana bir parchada yozuvchi o'zbek tili va undagi tushunchalarning xalqimiz qon qoniga singib ketgani "chet eldan kelgan" bu aqli dastur ular haqida fikrashi, mantiqqa asosan ishlab bo'lmasligini yaqqol ko'rsatadi. *"– "Viki", oqibat nima? – Bir soniya... Sodir etilgan biror harakat, voqeahodisaning natijasi oqibatdir. – Oqibatli kishi-chi? – Oqibatli kishi degan jumla topilmadi. "Natijali kishi" bo'lishi mumkinmi? – Yo'q, bo'lmaydi. Mehrga javoban ko'rsatilgan mehrni oqibat deydilar. Bir-biringizga oqibatli bo'ling degan gapning ma'nosi shu. – Mening lug'atimda unaqa so'z yo'q. O'xshash so'zlar bo'limida "uqubat" bor ekan, mos kelmaydim? Arab tilidan kelib chiqqan, juda uzoq davom etadigan azobli, mashaqqatli mehnatni bildiradi. "Uqubat" dedingmi? Dunyoda shunaqa narsalar bor-ki, aql qamrab ololmaydi. Har so'z o'zi bilan manzara tashiydi. U manzaralar o'sha so'zni bilgan kishining kimligiga qarab o'zgaradi." (Sulton I., 2015)* Badiiy asarda qahramonlarning texnologiya bilan o'zaro munosabatlarini tasvirlash ularning shaxsiyatini, motivlarini va munosabatlarini ochib berishiga xizmat qiladi, bu orqali o'qirman hikoya davomida qahramonlarning texnologiyaga munosabati ularning xatti-harakatlari va qarorlarini qanday shakllantirishini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiy asarning hikoya tuzilishiga texnologiyaning integratsiyalashuvi ham ilmiy tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkinligini yuqoridagi asarlar misolida ko'rib chiqdik. Adabiyotshunoslar texnologiya hikoyaning syujeti, tezligi va tematik rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini shu orqali tahlil qilishadi.

Umuman olganda, adabiy asarda texnologiya, texnokratlashgan olam tasviri adabiyotshunos olimlar uchun boy talqin va tahlil manbasini beradi. Badiiy matnda texnologiya va uning oqibatlari qanday tasvirlanganligini o'rganish orqali olimlar chuqurroq ma'no qatlamlarini ochib, muallif niyatlarini va ijtimoiy sharhlariga oydinlik kiritishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Piyoda" va "Mega intellekt" texnokratlashgan olam tasvirida milliy va madaniy motivlarni har tomonlama yoritilgan bo'lib, muvofiqlik, konfirmizm mavzulariga,

texnologiyaning jamiyatga ta'siri va insoniy aloqalar qiymatiga to'xtalib o'tadi. U o'quvchilarga madaniyat, texnologiya va individualizmning kengroq ijtimoiy kontekstdagi o'zaro ta'siri haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Straussfogel, Debra. (1997) A Systems Perspective on World-Systems Theory. *Journal of geography*
2. Schmalholz D. W. (1999) American Pathfinders: Using Ray Bradbury's Martian Chronicles to Teach Frontier History, *Magazine of history*.
3. Zoltán Kádár and J. Tóth (2013) The Critique of Technology in 20th Century Philosophy and Dystopias. *Procedia: social & behavioral sciences*.
4. Bradbury, Ray (1951). Ascoli, Max (ed.). "The Pedestrian". *The Reporter*. 5 (3). New York: Fortnightly Publishing Company.
5. Sulton, Isajon. (2015) "Mega intellekt." "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 31-sont

UO'K 808.3

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURIZM TERMINHLARI VA ULARNING TASNIFI

D.Yulchiyeva, mustaqil izlanuvchi, Farg'onan davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmga oid bo'lgan bir qator atamalar ingliz va o'zbek tillarida qiyoslangan va tahlil qilingan. Turizm- bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining muhim jabhalaridan biri bo'lib kelmoqda. Turizmning yangi turlarini paydo bo'lishi bilan yangi terminlari ham vujudga kelmoqda. O'tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o'zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, to'g'ridan to'g'ri chet tillaridan o'zlashmoqda.

Kalit so'zlar: turizm, tur, xizmat, bonus, motel, mehmonxona, sertifikat, brend.

Аннотация. В данной статье сравнивается и анализируется ряд терминов, связанных с туризмом, на английском и узбекском языках. Сегодня туризм является одним из важных аспектов экономики страны. С появлением новых видов туризма возникают новые термины. В прошлом веке термины, относящиеся к различным областям, были заимствованы в узбекский язык из европейских языков через русский язык, а сегодня они заимствуются непосредственно из иностранных языков.

Ключевые слова: туризм, тур, услуга, бонус, ботель, гостиница, сертификат, бренд.

Abstract. The article analyzes the comparative features of terms related to tourism in English and Uzbek. Nowadays tourism is one of the most important sectors of the country's economy. New terms are appeared with the advent of new types of tourism. In the last century, the terms which related to various fields were borrowed from Russian into Uzbek through European languages, but today they are directly borrowed from foreign languages.

Key words: tourism, tour, service, bonus, boatel, hotel, certificate, brand.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga oid ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining 18- iyul 2019 yildagi O'RQ-549-son "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida"gi 2022 yil 15-yanvardagi PF-52-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-sonli qaroriga muvofiq bir qator dastur, loyiha va ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Turizmga oid terminlar tizimlarini aniqroq tavsiflash uchun ushbu fan sohasidagi atamalarning tasnifini ishlab chiqish kerak va shunga ko'ra, tasnif asoslarini tanlash kerak. Bunday asoslardan biri so'zning ma'lum bir faoliyat sohasiga bog'liqligi bo'lishi mumkin. Oldin ishlab chiqilgan turizmga oid atamalarning tasniflari to'g'risida ko'proq to'xtalib o'tamiz.

Turistik xizmat – tourist service - xizmat ko'rsatuvchi va uning iste'molchisi (turisti) o'rtaqidagi bevosita o'zaro munosabatlар natijasi, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchining sayohatni

(sayohatni) tashkil etish va uni amalga oshirish va boshqa tegishli ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyati.

Moddiy xizmatlar – financial (material) services - fuqarolarning (sayyohlarning) buyurtmasi bo'yicha mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini tiklash (o'zgartirish, saqlash) yoki yangi mahsulot ishlab chiqarishni, shuningdek, tovarlar va odamlarni tashish, iste'mol qilish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydigan xizmatlar.

Ijtimoiy va madaniy xizmatlar – social and cultural services - jismoniy salomatlikni saqlash va tiklashni, shaxsnинг ma'naviy rivojlanishini, kasbiy mahoratini oshirishni ta'minlaydigan xizmatlar. Xususan, ushbu xizmat turiga tibbiy xizmatlar, madaniy xizmatlar, turizm, ta'lif va boshqalar kiradi.

Turistlarga xizmat ko'rsatish tartibi – service order for tourists - iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchi provayder o'rtasida tomonlarning huquqiy, iqtisodiy va texnik munosabatlarini belgilaydigan dastlabki kelishuv.

Turistik xizmat tavsifi – description of tourist service - turistik xizmatlarning asosiy xarakteristikalari, xizmat ko'rsatish shartlari va narxi haqida ma'lumot.

Turistik xizmat iste'molchisi – tourist service consumer - daromad olish bilan bog'liq bo'lgan turistik tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni faqat shaxsiy ehtiyojlari uchun buyurtma qilish yoki sotib olish yoki buyurtma berish, sotib olish yoki ulardan foydalanish niyatida bo'lgan fuqaro (turist, ekskursionist).

Turistik xizmatlar ko'rsatuvchi – tourist service provider - iste'molchiga xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdag'i tadbirkor.

Xizmat — service - pudratchining xizmat ko'rsatuvchi iste'molchi bilan bevosita aloqada bo'lgan faoliyati.

Turistlarga xizmat ko'rsatish sifati – quality of service for tourists - turistlarning shartli yoki kutilayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko'rsatish sifati va xizmat ko'rsatish madaniyati bilan tavsiflangan turistik xizmatlar xususiyatlari va xizmat ko'rsatish jarayonlari majmui.

Turistik xizmatlar sifati — quality of tourist service - turistik xizmatning turistning belgilangan yoki kutilayotgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini belgilovchi xususiyatlari majmui.

Xizmat sertifikati – service certificate - xizmatlarning standartda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha faoliyat. Turizm xizmatlarini sertifikatlash majburiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy sertifikatlash – optional certification - ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini sertifikatlashtirish yuridik shaxslar va yakka tartibdag'i tadbirkorlarning tashabbusi bilan ariza beruvchi va sertifikatlashtirish organi o'rtasidagi kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Xizmat etishmasligi – lack of service - xizmat ko'rsatishning standartlarning majburiy talablariga, shartnomaga shartlariga, shuningdek pudratchi yoki xizmat ko'rsatuvchi sotuvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga alohida nomuvofiqligi.

Turistik mahsulot sifati bo'yicha shikoyatlar — Complaints about the quality of tourist products - turistning xizmatlar ko'rsatishdagi kamchiliklar va buzilishlar (turistik xizmatlar to'g'risidagi shartnomani buzish) to'g'risidagi rasmiy bayonoti, shartnomaga muddati tugagan kundan boshlab 20 kun ichida turoperator yoki turagentga yozma shaklda yuboriladi.

Turistik mahsulot – tourist product (turistik xizmatlar to'plami)- turoperator tomonidan ilgari tashkil etilgan kompleks turistik xizmat, shu jumladan kamida ikkita xizmat: turistni vaqtincha bo'ladigan mamlakatga (joyga) tashish va joylashtirish; bir martalik narxda sotilayotgan yoki sotuvga taklif qilingan. Bunday holda, xizmatlarni ko'rsatish muddati 4 soatdan oshadi yoki bir kechada qolishni o'z ichiga oladi. Paketga sayohatni (sayohatni) rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa sayohat xizmatlari ham kiritilishi mumkin. Ekskursiyalarning eng keng tarqalgan turlari (xizmat paketlari):

Individual sayohat (FIT — xorijiy mustaqil sayohat) **individual travel** — mijozning iltimosiga binoan turoperator tomonidan maxsus ishlab chiqilgan sayohat;

Rag'batlantiruvchi sayohat — incentive trip - korxona mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining malakasini oshirish maqsadida tegishli korxonaga tashkil etilgan rag'batlantiruvchi sayohat;

Orientatsiya sayohati — Orientation tour - turoperator xodimlari, uning savdo agentlari va jurnalistlarining mezbon davlat faoliyati bilan tanishish va sayyoqlik xizmatlarini ilgari surish maqsadida sayohati.

Bonus — **Bonus** (lot. yaxshi) — qo'shimcha mukofot, bonus; qo'shimcha chegirma.

Botel — **Boatel** (inglizcha boat-qayiq) — suv turistlariga xizmat ko'rsatadigan mehmonxona. Odadta muzsiz suv ombori qirg'og'ida joylashgan.

Brend — **Brand** - tovar belgisi, ma'lum bir tovar belgisi bo'lgan mahsulotning reklama, sotish va bozordagi barcha faoliyati natijasida erishadigan obro'si. Brendni qayta joylashtirish — reklama siyosatidagi o'zgarish.

Kafolat — **guarantee** (fr. garantie) — biror narsani ta'minlovchi shart, kafolat.

Turizm geografiyasi — **Geography of tourism** - rekreatsion geografiya'ning rekreatsiya turlaridan biri sifatida turizmni hududiy tashkil etish qonuniyatları va omillarini va iqtisodiyotning tegishli tarmog 'ini o'rghanuvchi bo'limi.

Qo'llanma — **instruction** (frantsuz guide) — xorijlik sayyoohlarga mamlakat bo'ylab sayohatda hamrohlik qiluvchi gid-tarjimon

Tog' kasalligi — **Mountain sickness** - katta balandliklarga (3000–3500 m dan ortiq) ko'tarilishda kislorod ochligidan kelib chiqadigan og'riqli holat.

Taxlit natijalaridan shuni anglash mumkinki, O'zbek tilida turizm terminologiyasi ilk shakllanish bosqichida bo'lib, soha rivoji natijasida uning tarkibi yangi maxsus birliklar bilan boyib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2011.
2. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2009. – 444 с.
3. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2009. – 240 с.
4. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O'quv qo'llanma. – T: Talqin, 2003. – 245 b.
5. Akobirov S.F, Til va terminologiya, T., O'zbekiston. 1968y. 22-23 betlar
6. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes/ International Scientific Conference.- December 18-19, 2021. p.47
7. Longman dictionary. – <http://global.longmandictionaries.com>
8. <http://en.wikipedia.org>.
9. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38589354>
10. www.uzbekturizm.uz

UO'K 81-13

BADIY AXBOROT VA IJODKOR INDIVIDUAL YONDASHUVI R.N. Yusubova, f.f.d., NavDPI, Navoiy

Annotatsiya. Maqolada leksemaning kodlashtirilishi o'ziga xos, yangi ma'no qirralarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, muallif individual yondashuvini ochib berishi lingvopoetik tahlil asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kod, dekod, kommunikatsiya, metafora, badiiy axborot, badiiy matn, lingvopoetika, poetizm.

Аннотация. В статье на основе лингвопоэтического анализа освещается, как кодификация лексемы выявляет свои, новые смысловые грани, а также выявляет индивидуальный подход автора.

Ключевые слова: код, декод, коммуникация, метафора, художественная информация, художественный текст, лингвопоэтика, поэтизм.

Abstract. The article highlights the codification of the lexeme on the basis of linguopoetic analysis, which reveals the individual approach of the author, in addition to opening specific and new edges of meaning.

Key words: code, decoding, communication, metaphor, artistic information, artistic text, linguopoetics, poeticism.

Har bir til jamoasi (tabiiy tillar ham, sun'iy tillar ham) aloqaning ma'lum vositalaridan – til, ya'ni uning xilma-xil birliklaridan foydalanadi, ushbu birliklar kod deb ataladi, demak, kod kommunikatsiya vositasidir. D.Xudayberanova keltirishicha, kod [fr. code < lot. codex – qonunlar majmui] muloqot vositasi vazifasini bajaruvchi har qanday til va uning turli ko'rinishlaridir [1]. Yoki V.P.Gluxov ta'kidicha, axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlashda vosita bo'luvchi shartli belgilar, ramzlar va ularning kombinatsiyalari tizimi [2].

Kommunikatsion ehtiyoj yagona sistemaga aylangan o'zaro ta'sir qiluvchi kodlarning shakllanishiga sabab bo'ladi: til – tovushli nutq – ichki nutq – ong. Ushbu tizim o'zini o'zi tartibga solish va o'zini o'zi takomillashtirishga qodir. Til ongda ikki diskret kodning qarama-qarshiligidan aralash kodni — ichki nutqni keltirib chiqaradi, uni nafaqat til va ong o'rtasida, og'zaki va yozma nutq o'rtasida, balki milliy tillar o'rtasida ham vositachiga aylangan universal – predmet kodi deb hisoblash mumkin [3]. I.N.Gorelov universal – predmet kodi tafakkurning tilga aylanish bosqichida vositachilik vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [4]. Axborot beruvchi har qanday "ma'lumot" tilning ma'lum bir vositasi yordamida kodlashtiriladi, qabul qiluvchi ushbu axborotni dekodlaydi. "Kod haqida gapirganda muhim bir jihat e'tiborga olinishi lozim – kodlashtirilgan axborot – shifrlangan axborotdir, bunda deshifrovka bosqichi bo'lishi shart [5]. Qoidaga asosan kod yechilishi lozim, masalan, milliy-madaniy mansublik yoki madaniy bilimlarga egalik lozim. Kommunikatsiyada lisoniy birliklarning, ayniqsa, fikrlashning keng qo'llanuvchi oddiy ko'rinishlarini tanlash ma'noring individualligini rad etishga imkon beradi. Masalan, Faxriyor bir she'rida "*qarilikni yengib bo'lmaydi*" mazmunini mahorat bilan "*Erimas uning ham boshidagi qor*" misrasi orqali ifodalandaydi. Nasriy matnda esa qarilik belgisini ifodalashda milliy bo'yoq, masalan, yozuvchining individual metaforasi (qor) orqali betakror tarzda ifodalanganligini A.Qahhorning "Asror bobo" hikoyasida kuzatish mumkin. Haydar ota Asror otaga nazar solganda do'stining qariganini anglaydi, buni o'zi ham sezgan Asror ota do'stiga "*Ozibmanmi, qorayibmanmi?*" deganda, Haydar ota "*Mayiz bo'libsan*" deb lutf qiladi. Avvalo, inson so'zning o'zigacha yaratilgan ma'nolarini o'zlashtiradi, shundan keyingina ushbu ma'nolar tizimini yanada rivojlantirish jarayonida ishtirot etadi. Fikr yakka kishi tomonidan emas, balki kishilarning hamkorlikdagi faoliyatida rivojlanadi. N.I.Jinkin ta'kidicha, muayyan fikrlar tizimini yanada rivojlantirish uchun bir shaxsning intellektual mehnati natijalarini boshqasining ongiga "ko'chirish" kerak, ya'ni o'zlashtirilishi kerak. Bunda til fikrning «*transportyori*» bo'lsa, nutq uning realizatoridir. Nutq tilga qaraganda behisob ma'lumotni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, kodni ikki ma'noda tushunish mumkinligini ta'kidlaydi, agar belgilar sistemasiga nisbatan qo'llansa, bunday holda, til – koddir. Ammo kodni tilni yuzaga chiqaruvchi usul deb ham atash mumkin [6]. Shu tarzda fikrlar yangi-yangi semantik strukturalar, ifodalar bilan boyib, kengayib boraveradi.

Konseptning verballahuvi jarayonida muallif o'zi tanlagan birliklar vositasida badiiy axborotni kodlashtiradi. Ijodkor ko'zlagan badiiy axborotini doim kodlaydi. Til madaniyat kodi sanalar ekan, keltirilgan intertekstual elementni badiiy matnda signalga aylantiradi va bu signal o'quvchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo'lib, mazmunni dekodlaydi. Ijodkor o'z badiiy niyatini retsipientga badiiy asar orqali uzatadi, demak, kodlaydi. Albatta, ijodkor, birinchi navbatda, retsipient tushunadigan tarzda kodlashi kerak, so'ngra retsipient uni tushunish uchun asarni dekodlaydi. Retsipient badiiy voqelikni har doim ham muallif istagiga ko'ra badiiy idrok etmaydi. Borliqda mavjud barcha narsalar falsafiy kategoriya atalmish butun-qism munosabati nisbatiga asoslangan, shu ma'noda, matn va uni tashkil etuvchi birliklar munosabati ham. Matnni tashkil etgan qismlarning mazmuniy yaxlitlik va mantiqiy izchillik tartibida joylashuvi matnni tushunishga xizmat qiladi.

Lingvopoetika har bir til birligi nutqiy ahamiyatga egaligini, kontekstda qo'shimcha ma'nolar olish orqali semantik xarakteri kengayib borishini o'rganadi. Ijodkorlikni o'rnatish – eng muhimidir, poetik til, har qanday ijodkorlik estetik bahoni belgilashi mumkin, bunday paytda til ijodkorlikni estetik nuqtai nazardan ifodalashga yo'naltiriladi [7]. Badiiy matn o'zida murakkab sistemalar yig'indisini jamlagan bo'ladi. Bir tomonidan, bu badiiy matnda umummilliy til vositalarining xususiy tizimi, boshqa tomonidan. badiiy matnda maxsus kodlashtirilgan sistema vujudga keltiriladiki, o'quvchi matnni tushunishi uchun ana shu kodlarni ochishi kerak bo'ladi [8]. Badiiy matnda qo'llangan har bir til birligi ma'no qiymatini oshirib borish xizmatiga ega ekan, har bir til birligining ichki (semantik) strukturasi to'laligicha ochib berilgan emas, har doim yangi ma'no tovlanishlarining yuzaga kelishi sababi ham shundan. Masalan, poetik so'z – g'ayriixtiyoriy so'zdir, u doim kodlangan bo'ladi. Shoir so'zdan etimologik mazmunni emas, balki obrazli qo'llanish imkoniyatlari bo'lgan "yangi etimologik ma'nolarini" izlaydi va kashf etadi. Bunday poetik tafakkur tildagi "jonsiz" ma'nolarni "tiriltiradi", quvvatsiz so'zlarni quvvatlantiradi [9]. Masalan: *Odamga qarayman, so'zlar uchadi, shabboda qo'ynida kuy chalar so'zlar. Maysalar tanini suyib quchadi, O'zini yo'qotib dovdirar ko'zlar.* Shoir nazdida, so'zlar – insонning o'zi kabi tirik, insон bu dunyodan o'tsa-da, yaxshi so'zi, ezgu amali qoladi, shoir individual kognitiv metaforalarni qo'llash orqali bu ma'noni kodlaydi: *so'zlar uchadi, kuy chaladi yoki maysalarni suyib quchadi* kabi.

Badiiy matn – insон nutqiy faoliyatining noyob turi, ijodkor g'oyaviy-badiiy maqsadini amalgalashirish uchun badiiy asarda foydalangan til vositalarining yig'indisi lingvopoetikaning predmeti bo'lib xizmat qiladi. Asarning estetik ta'siri birgina matnda nima haqida gapirilayotganiga emas, balki qay yo'sinda bayon qilinayotganligiga ham bog'liq. Muallif tomonidan badiiy ijod jarayonida u yoki bu til birligiga qay tarzda individual yondashilganlik, estetik samarani qay tarzda hosil bo'lganligini aniqlashtirish aynan lingvopoetik tahlil maqsadini belgilaydi. Lingvopoetikani filologiyaning badiiy kontekstda lingvistik birliliklarning estetik xususiyatlarini o'rganadigan bo'limi sifatida ko'rsatilishidagi ilk qadamlar sababi ham shundan.

Ma'lumki, estetik ta'sir nafaqat asarda aytilganlarga, balki qanday aytilganiga ham bog'liq. Lingvopoetik tahlilning maqsadi aynan u yoki bu til birligi (bizning holatimizda so'z) muallif tomonidan og'zaki va badiiy ijod jarayonida qanday ishtirot yetishi, so'zlarning u yoki bu birikmasi ushbu estetik effektni yaratishga olib kelishini aniqlashdir. Yu.M.Lotman har qanday matnni bir vaqtning o'zida belgi va belgilarni sistemasi sifatida tekshirish lozimligini ta'kidlagan. Matnda belgi, birinchi navbatda, axborotning minimal birligi, axborot yadrosi sifatida belgilanadi [10].

Badiiy matn olamning individual, ijodiy yaratilgan ko'rinishini tashkil etadi. Estetik vazifa bilan shartlangan so'z g'oyaviy-badiiy jihatdan mazmunan boyiydi, murakkab estetik yaxlitlik qonuniyatlarini bilan yashay boshlaydi. So'z o'zining mayjud barcha bo'yog'i, ohorlari bilan namoyon bo'lib, obrazli tafakkur quroliga aylanadi. A.A.Potebnya ta'kidlaganidek, istalgan tilga xos so'zlarni semantik tahlil qilish orqali so'zning qabul qilingan ma'nosi butun fikrni emas, balki uning ma'nolaridan birini ifoda etishini anglash qiyin emas [11].

Ma'lumki, so'zning o'zi kabi uning ma'nosi – muayyan ijtimoiy omillar sabab so'zning dastlabki ma'nosi yo'qolib, etimon ma'noga aylanadi. To'g'ri, bu xususiyatni barcha so'zlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, milliy tilga xos bo'lgan, millatning ma'naviy dunyoqarashini aks ettiruvchi shunday so'zlar borki, ular o'z o'rmini boshqa so'zlarga bermaydi yoki o'z ma'nosining unutilishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, "Devonu lug'otit-turk" asarida keltirilgan *qut-baraka* juft so'zi tarkibida qo'llanuvchi, "baxt", "davlat" ma'nolarini anglatuvchi turkiycha *qut* [12] so'zini olaylik. Hozirgi o'zbek tilida aynan shu shakl alohida qo'llanmasa-da, juft so'z tarkibida, masalan, *qo'r-qut, qut-baraka* tarzida ishlataladi yoki ushbu so'z asosida yasalgan *qutlamoq, qutlug'* kabi yasalmalar qo'llanadi. O'zbek tilining izohli lug'ati'da *qo'r-qut* juft so'zining birinchi qismining ma'nosi alohida izohlangan, demak, *qo'r* so'zi omonim so'z bo'lib "mayda cho'g' aralash issiq kul" (1) hamda "yig'ib, to'plab, g'amlab qo'yilgan kerakli narsa; zaxira, boylik" (2) ma'nolarida qo'llangan. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy asarlarida esa so'zning "issiq kul" va "miltiq dori (porox)" ma'nolarida ishlataliganligi aytildi. Xalq dostonlarida "boylik" ma'nosida qo'llanilganligini ko'rish mumkin: *Shunda yangi bo'lgan podsho emasmi, olti ming lashkarni qo'r-u qo'rxonasi bilan, to'p-u to'pxonasi*

bilan, yov-yarog'i bilan «shu o'g'rilarini topasan-da, kelasan, bo'lmasa kelmaysan», - deb jo'natib yuborib edi [13].

“Yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan kerakli narsa; zaxira, boylik” ma’nosini ifodalovchi qo‘r so‘zi “baxt”, “davlat” ma’nosini anglatuvchi *qut* so‘zi bilan birikib, *qo‘r-qut* tarzida juftlashgan, bugungi kunda ikkala so‘z ham deyarli yakka holda qo‘llanmaydi. *Qo‘r-qut* juft so‘zining ma’nosini ham “O‘TIL”da “yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan kerakli narsa; boylik, zaxira; qut-baraka” deb keltiriladi, demak, bu shakl bugunda keng iste’molda bo‘lgan *qut-baraka* so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanadi. O‘tgan asrning o‘rtalarida ushbu juft so‘z badiiy matnda qo‘llanilgan, masalan, S.Ahmadning “Hukm” qissasida *Eshon ayaning birdan-bir niyati qo‘lda qolgan qo‘r-qutlarni saqlab qolish, pishib hilvirab turgan eshonni o‘z maskaniga qo‘yib, boyliklariga ega bo‘lish...* Bilamiz, ozarbayjon xalqining «Kitobi Dada Qo‘rqut» eposi mavjud, “*hazrati Rasul alayhissalom zamoniqa yaqin paytda Bayot naslidan Qo‘rqut ota degan er dunyoga keldi. U kishi O‘g‘uzning bilguvchisi edi, o‘g‘uz ichida uning bir karomati zohir bo‘lmish edi, ne desa bo‘lardi, g‘oyibdan turli xabar so‘ylardi, Yaratganning o‘zi uning qalbiga ilhom solardi*” [14]. Qo‘rqut ota obrazi o‘g‘uz qavmining mushkulini hal etuvchi, qavm maslahatboshisi, oqsoqli, muxtasar aytganda, o‘lmas, abadiy hayot kechiruvchi qahramon sifatida gavdalantirilgan. Demak, *qo‘r, qut* so‘zlari nafaqat juft so‘z, *qo‘shma* so‘z shaklida antroponomi hoslil qilgan. O‘zbek xalqining “*Hut kirdi – qut kirdi*” xalq maqolida so‘z ma’nosini aniq anglashinib turibdi.

Badiiy asarning qimmati shundaki, ijodkorlar poetizm yaratish maqsadida iste’molda bo‘lмаган, unutilgan (eskirgan) so‘zlarga ehtiyoj sezishadi, natijada unutilgan ma’nolarning ulkan, cheksiz imkoniyatlari ko‘zga tashlanadi, ijodkor konseptual olami obrazlilikni yanada rivojlantirishning muayyan nuqtalarida ularni yodga oladi va so‘zlar yangi kontekstda yangi hosila ma’no bilan “hayotga qaytadi”. Hech narsa mutlaqo jonsiz emas: har bir ma’no o‘zining qaytadan jonlanganligini nishonlaydi, faqat o‘rtada vaqt muammosi bor [15]. Ajdodlarimiz qo‘llagan, biroq bugun unutilgan ayrim so‘zlar so‘z ustalari sabab badiiy adabiyotga olib kirilib, qayta jonlanib, o‘tmish va bugunni bog‘lamoqda. Ulug‘bek Hamdam “*She‘r – sog‘aymoq qasdida ichilgan iloch*” misrasida qo‘llagan *iloch* so‘zini “Ota” romanida ham qo‘llaydi (*Illochning ta’sirida Sevinch tuni bilan qotib uxladi*), har ikki o‘rinda ham *iloch* so‘ziga “dori” deb izoh beradi. Ma’lumki, ushbu so‘zning omonimi mavjud bo‘lib, o‘zbek urug‘-qabilalaridan birining nomi sanaladi (X.Doniyorov «O‘zbek xalqining shajara va shevalari»). U.Hamdam bugungi turk tilida “dori” ma’nosini beruvchi *ilaç* (*iloch*) so‘zini qo‘llagan, vaholanki ushbu arxaik so‘z turkiy qavmlar tilida qo‘llangan.

Badiiy matnni yaxlit filologik tadqiq etish uchun badiiy matnda lingvistik vositalarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning estetik vazifasi masalasi juda muhimdir. Til sathlarida mavjud har bir birlikning matnni g‘oyaviy-estetik tashkil etishdagi ahamiyatini pasaytirmsandan aytish mumkinki, eng asosiy o‘rinni har doimgidek leksika, ya’ni leksik birlik egallaydi. Badiiy ta’sir kuchining so‘zda mujassamligi badiiy kontekstda so‘z nafaqat real voqelikka, yozuvchining badiiy maqsadi bilan shartlangan holda, matnni estetik ma’no bilan boyitadi, murakkab estetik butunlik qonunlariga muvofiq yashay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Xudoyberanova D. Antropsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B.42.
2. Глухов В.П. Основы психолингвистики. – М.: ACT: Астрель, 2005. – С.61.
- 3.Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – Москва: Наука, 1982. – С.18-19.
- 4.Xudoyberanova D. Matnning antropsentrik tadqiqi. –Т.: Fan, 2013. – В.16.
- 5.Usmanov F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.b-cha fals. d-ri (PhD). ...diss. avtoref. –Т., 2020. –B.16.
- 6.Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Вопросы языкоznания. №6. – М.:Наука, 1964. – С.29.
- 7.Григорьев, В.П. Поэтика слова. На материале русской советской поэзии. – М.: Наука, 1979. – 344 с.
- 8.Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Ленинград: Просвещение, 1972. – Б.69.
- 9.Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. –М., 1959. –С.248.
- 10.Шелковников А.Ю. Метафизика семиосферы // Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. Вып. 7. / Под ред. В.А. Пищальниковой. – М.: МГЭИ, 2004. -С. 205.
11. Потебня А.А. Мысль и язык // Поли. собр. соч. Одесса, 1922. Т. 1.– С. 82.

- 12.Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1960. -B.311.
- 13.Yo'dosh Fozil o'g'li. Shirin bilan Shakar. Kuntug'mish. Orzigel. Dostonlar. Nashrga tayyorlovchi M.Shayxzoda. – T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – B.251.
- 14.Ulug'ov A. Qo'rqt ota hikmatlari // *Jahon adabiyoti*. –T., 2020. №12.
- 15.Бахтин М.М. Творчество словесного искусства. –М.: Искусство, 1986. – С.373.

UO'K 811.112.2'276.6:81'27 (430+575.1)

GENDER TILSHUNOSLIK MASALALARI: NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA
G.Yusupova, o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Maqolada nemis va o'zbek tillaridagi gender tilshunosligi masalalari tahlil qilinadi. Ta'riflangan tadqiqot natijalari ikki tildagi gender nutqining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Kalit so'zlar: gender tilshunoslik, nemis tili, o'zbek tili, gender nutqi, lingvistik tadqiqot, til va jamiyat, madaniy ta'sirlar

Аннотация. В статье анализируются вопросы гендерной лингвистики в немецком и узбекском языках. Результаты исследования выявляют особенности гендерной речи в обоих языках.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, немецкий язык, узбекский язык, гендерный дискурс, лингвистические исследования, язык и общество, культурные влияния

Abstract. The article analyzes gender linguistics issues in German and Uzbek languages. The research results reveal specific features of gendered speech in both languages.

Key words: gender linguistics, German language, Uzbek language, gender discourse, linguistic research, language and society, cultural influences.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatda gender rollarini aks ettiruvchi va shakllantiruvchi muhim ijtimoiy vositadir. Gender tilshunoslik, ya'ni til va jins masalalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish, tilning jinsn qanday aks ettirishi va bu jarayonning ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida qanday rivojlanishini tahlil qilishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida gender tilshunoslik masalalari tahlil qilinadi. Gender tilshunoslik – sotsiolingvistikaning bir bo'limi bo'lib, u tildagi jinsiy farqlarni o'rganadi. Bu soha erkaklar va ayollarning nutqida kuzatiladigan farqlarni aniqlash, tildagi jinsiy kansitish va diskriminatsiya shakllarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu boradagi tadqiqotlar tilning grammatikasi, leksikasi va pragmatikasi kabi turli jihatlarida gender farqlarini aniqlashga qaratilgan.

"Gender" atamasi, A.V.Kirilina yozganidek, tilshunoslikdan (inglizcha gender – grammatic rod kategoriyasidan) olingan va ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, antropologiya, tarix, shuningdek siyosiy munozara kabi fanlarning tadqiqot maydoniga ko'chirilgan. Ko'chirish uni sexus (sex) (jins) atamasi – biologik jins bilan taqqoslash uchun amalga oshirildi, chunki bu tushuncha nafaqat tabiiy determinizm bilan, balki erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlar bilan, mehnatning jinslararo taqsimoti, teng bo'limgan talablar va jamiyatning erkaklar va ayollarga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir [4, 12].

Gender tilshunosligi til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til orqali ijtimoiy rollar va stereotiplar yaratiladi va mustahkamlanadi. Gender tilshunoslik — bu til va jinsiy identifikasiya o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganadigan ilmiy soha. Tilning jinsiy identifikasiya qanday ta'sir qilishini aniqlash, turli madaniyatlarda til va gender o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Globalizatsiya jarayonida turli madaniyat va tillarning bir-biriga ta'siri kuchayib bormoqda. Bunda tilshunoslik fanining roli ortib, til va gender o'rtasidagi aloqalarni o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda. Nemis va o'zbek tillari orasidagi farqlarni o'rganish orqali har ikki tildagi gender nutqining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Masalan, nemis tilidagi genderlikni ifodalovchi fe'l va otlar, o'zbek tilida esa leksik elementlar orqali genderlikning ifodalanishi tilshunoslarni qiziqtirib keladi.

Gender tilshunoslik, til va jins o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan soha sifatida, jahon tilshunoslida nisbatan yaqinda shakllangan ilmiy yo'nalishdir. Ushbu soha tilshunoslik, sotsiolingvistika va gender tadqiqotlari singari turli yo'nalishlarning kesishmasida joylashgan. Gender tilshunoslikning rivojlanishi va tadqiqot obyekti sifatida tan olinishi jarayoni XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Gender tilshunoslikning asoslari 1970-yillarda Amerika va Yevropa akademik doiralarida shakllana boshladi. Bu davrda feministik harakatlar va sotsial adolat masalalariga qiziqish ortishi bilan birga, tilshunoslikda ham yangi yo'nalishlar yuzaga keldi. Robin Lakoffning 1975 yilda nashr etilgan *"Language and Woman's Place"* (Til va unda ayolning o'rni) asari gender tilshunoslikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi [3]. Lakoff o'z asarida ayollar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, til orqali jinsiy kamsitish masalasini ko'taradi.

1970-yillarning oxiri va 1980-yillarda gender tilshunoslikda bir qator muhim tadqiqotlar o'tkazildi. Deborah Tannenning 1990-yilda nashr etilgan *"You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation"* asari bu sohadagi muhim ishlardan biri hisoblanadi. Tannen ayollar va erkaklar o'rtasidagi muloqot uslublarini tahlil qilib, jinslararo kommunikatsiyadagi farqlarni aniqlaydi.

Judith Butlerning gender nazariyasi ham gender tilshunoslik rivojida katta ta'sir ko'rsatdi. Uning *"Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity"* asari genderning ijtimoiy va madaniy konstruksiya ekanligini va tilning bu jarayondagi rolini yoritadi [2].

XXI asr boshida gender tilshunoslik yangi yo'nalishlar va metodologik yondashuvlar bilan boyidi. Bugungi kunda gender tilshunoslikda leksik birliklarning jinsga tegishliligini o'rganish, turli tillarda genderga oid leksikaning qo'llanilishi va milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, Janet Holmes va Penelope Eckert, gender va til o'rtasidagi munosabatlarni turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda o'rganmoqda. Ularning ishlarida tilning jinsiy farqlarni qanday aks ettirishi va bu farqlar jamiyatdagi gender tengsizliklariga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi.

O'zbek tilshunos olimlari ham gender tilshunoslik sohasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, D.U. Ashurova, M.I. Rasulova, I.M. To'xtasinov, N.Z. Nasrullayeva, G.I. Ergasheva va boshqalar turli tizmga xos tillar materiallari asosida gender aspektini o'zbek tili bilan qiyosiy jihatdan o'rganganlar [1, 6]. Hozirgi kunda ham mamlakatimizda yosh olimlar va tadqiqotchilar tomonidan qardosh va qardosh bo'limgan tillarning gender aspekti qiyosiy jihatdan o'rganilmoqda.

Nemis tilida jinsiy ajratish grammatik va morfologik vositalar orqali amalga oshiriladi va otlarning jinsini belgilash uchun aniq grammatic kategoriylar mavjud:

1. Artikllar: Nemis tilida jinsiy ko'rsatkichlar otlar oldida qo'llaniladigan artikllar orqali ifodalanadi. Masalan, „der Mann“ (erkak) va „die Frau“ (ayol) so'zlarida „der“ va „die“ artikllari jinsni bildiradi.

2. Jinsni aniq farqlovchi otlar: Kasb-hunar va lavozimlar uchun erkak va ayol shakllari mavjud: „Lehrer“ (o'qituvchi erkak) va „Lehrerin“ (o'qituvchi ayol). Bu jinsiy shakllar odatda *-in* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi.

O'zbek tilida jinsiy ajratish ko'proq leksik darajada namoyon bo'ladi:

1. Jinsni farqlovchi otlar: O'zbek tilida otlarda jinsiy ko'rsatkichlar kamroq, ammo leksik darajada jinsiy farqlar mavjud. Masalan, „o'g'il“ (erkak) va „qiz“ (ayol).

2. Jinsiy shakllar: Kasb-hunar va lavozimlar uchun jinsiy farqlanish kamroq, lekin ayrim sohalarda mavjud: „o'qituvchi“ (umumiyl), „maktab direktori“ (umumiyl).

Kasb-hunar nomlari o'zbek tilida asosan *-chi*, *-soz*, *do'z*, *-furush*, *kash*, *-paz*, *gar*, *voy*, *-kor* kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi. O'zbek tilida ayol kasb-korini bildiruvchi otlar son jihatidan kamchilikni tashkil qiladi. Misol sifatida *chevar*, *kotiba*, *hamshira*, *muallima*, *aktrisa*. Ko'pchilik kasb-kor nomlari erkak kishini ifodalashda qo'llaniladi: *duradgor*, *kosib*, *mexanik*, *elektrik*, *nonvoy*, *bog'bon*, *fermer*, *quruvchi*, *dasturchi*, *rassom*, *sartarosh*, *banker*, *tadbirkor* va boshqalar. *o'qituvchi*, *tikuvchi*, *to'quvchi kabi* kasblar haqida gap ketganida, ko'pchilik hayolida ayol siyomosi gavdalananadi lekin bu kasblar erkaklarga ham xosdir. O'zbek tilidagi kasb-kor nomlarini sintaktik yo'l

bilan yasash orqali ya'ni kasb-kor nomi yoniga **ayol** yoki **erkak** kabi so'zlarni qo'shish orqaligina jinsni aniq ko'rsatish mumkin. Masalan: *tadbirkor ayol, fermer ayol, o'qituvchi erkak*.

Nemis tilida o'zbek tilidan farqli ravishda erkak va ayol kasb nomlari aniq ifodalanadi. Bunda yuqorida ta'kidlangandek, kasb-hunar bildiruvchi otlarga -in qo'shimchasi qo'shiladi. ***Der Pilot-die Pilotin, der Verkäufer-die Verkäuferin, der Polizist-die Polizistin.*** Nemis tilidagi otga qo'shiluvchi -in qo'shimchasidan tashqari ot oldidan keluvchi **der** hamda **die** artikellari ham otning qaysi jinsnifodalayotganligini ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari ba'zi kasb-korni ifodalovchi der Kameramann, der Feuerwehrmann, die Hotelfachfrau, Bankkauffrau kabi otlar tarkibidagi -mann va -frau so'zları kasbning ayol va erkaklik oppozitsiasini aniq ifodalaydi. Nemis va o'zbek tillarida gender tilshunoslikning namoyon bo'lishida bir qator o'xshashliklar va farqlar mavjud. Nemis tilida jinsiy ajratish ko'proq grammatik va morfologik vositalar orqali amalga oshirilsa, O'zbek tilida bu ko'proq leksik darajada namoyon bo'ladi. Har ikki til ham gender neytral til ishlatalish tendensiyasini kuzatmoqda, lekin bu tendensiya nemis tilida ko'proq rivojlangan.

Frazeologizmlar har qanday tilning muhim qismi bo'lib, ular xalqning tarixini, madaniyatini va mentalitetini aks ettiradi. Frazeologizmlarda gender ifodasi o'sha til sohiblarining jinsiy rollar va stereotiplarga bo'lgan munosabatini ham ochib beradi. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarda genderning ifodalanishi, ularning o'xshashlik va farqlari tahlil qilinadi.

Nemis tilida frazeologizmlar gender jihatdan ko'pincha aniq ajralib turadi. Bu tilda ko'p hollarda erkaklar va ayollarga oid aniq ifodalar uchraydi. Misol uchun:

1. Ein Mann für alle Fälle – "Har qanday holat uchun erkak" – Bu ibora erkakning universal qobiliyatlarini ta'kidlaydi. **2. Alte Jungfer** – "Qarigan qiz" – Bu ibora ayollarning yoshi o'tgani sari ularning turmush qurmaganligini tanqid qiladi. Nemis tilida ayollarga nisbatan ishlataladigan frazeologizmlar ko'pincha ularning ijtimoiy mavqeい yoki tashqi ko'rinishiga oid bo'ladi. **1. Zungen wie ein Weib** – "Ayol kabi tilga ega" – bu ibora ayollarni gapdon sifatida tasvirlaydi. **2. Kleider machen Leute** – "Kiyim odamni yaratadi" – bu ibora ayollarning tashqi ko'rinishiga e'tibor berishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida frazeologizmlar gender jihatidan ko'proq urf-odatlar va an'analar bilan bog'liq. Bu tilning frazeologik boyligi erkaklar va ayollarning jamiyatdagi rollarini aks ettiradi. Misol uchun:

1. Uy bekasi – bu ibora ayolning uyda boshqaruvchi rolini ta'kidlaydi.

2. Arslon yigit – bu ibora erkakning kuch va jasoratini anglatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nemis tilida gender stereotiplari ko'proq grammatik elementlar orqali ifodalansa, o'zbek tilida leksik elementlar va ma'noviy izohlar orqali ko'proq namoyon bo'ladi. Nemis tilida gender nutqining o'ziga xosligi ko'proq aniq grammatik vositalar orqali ifodalangan.

Xulosa sifatida aytish mumkin, gender tilshunoslikning jahon tilshunoslida o'rganilishi XX asrning ikkinchi yarimida boshlangan bo'lsa-da, bu soha hozirgi kunga kelib ko'plab ilmiy tadqiqotlar va yondashuvlar bilan boyidi. Bu yo'nalish til va jins o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, tilning gender stereotiplarini qanday shakllantirishi va aks ettirishini chuqur tahlil qiladi. Gender tilshunoslik nafaqat tilshunoslik, balki kengroq ijtimoiy fanlar doirasida ham dolzarb masalalarni o'rganishga xizmat qiladi.

Nemis va o'zbek tillaridagi gender nutqining o'ziga xosliklarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda gender munosabatlarini ifodalashda turlicha til vositalari qo'llaniladi. Bu tillarning o'z madaniy va ijtimoiy muhitlaridan kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ch.M. Chutpulatov. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender leksikasining semantic va lingvistik xususiyatlarining qiyosiy tahlili: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2021. 166 b.
2. J.Butler. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York, 1990. 170 p.
3. R.T. Lakkof. Language and Woman's Place. Cambridge University Press, 1975. 328 p.
4. Кирилина А.В. Некоторые итоги гендерных исследований в российской лингвистике // Гендер: Язык, Культура, Коммуникация. Материалы Третьей Международной Конференции. – М., 2003.

ASSESSING ENGLISH PROFICIENCY AMONG MEDICAL STUDENTS: A COMPREHENSIVE APPROACH

N.Zaripbayeva, magistrant, Webster universiteti, Tashkent

Annotatsiya. Mazkur ishning maqsadi Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialining (TMA) birinchi kurs talabalari uchun ingliz tili bo'yicha imtihonlar qanday yaratilganini va o'zgartirilganini o'rganishdan iborat. Talabalar guruhi 19 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan o'n kishidan iborat. Ularning IELTS ballari 5,5 dan 6,0 gacha. Ingliz tilini formal o'qitish va qo'shimcha til tayyorlash ularning turli ta'limining bir qismidir; Ularning aksariyati professional ingliz tili (OET) va IELTS imtihonlarini topshirishga tayyorlanmoqda.

Kalit so'zlar: Imtihonlar, ingliz tili, formal ta'lim, til tayyorlash, (OET) va IELTS.

Аннотация. Цель данной работы - изучить, как были созданы и изменены экзамены по английскому языку для студентов первого курса Ташкентской медицинской академии Ургенчского филиала (ТМА). Группа студентов состоит из десяти человек в возрасте от 19 до 20 лет. Их баллы IELTS варьируются от 5,5 до 6,0. Формальное обучение английскому языку, и дополнительная языковая подготовка являются частью их разнообразного образования; большинство из них готовятся к сдаче экзамена по профессиональному английскому языку (OET) и IELTS.

Ключевые слова: Экзамены, английский язык, формальное обучение, языковая подготовка, (OET) и IELTS.

Abstract. The purpose of this thesis is to examine how English language exams were created and altered for Tashkent Medical Academy Urgench Branch (TMA) first-year medical students. The student group consists of ten persons who are between the ages of 19 and 20. Their IELTS scores range from 5.5 to 6.0. Formal English instruction and supplementary language training are part of their varied educational backgrounds; most are getting ready for the Occupational English Test (OET) and IELTS assessments.

Keywords: Examinations, English language, formal learning, language training, (OET) and IELTS.

The study's goal is to improve the efficacy of English examinations by emphasizing speaking, listening, and reading abilities—all of which are essential for the participants' future professional and medical endeavors.

Introduction. For medical students, especially those getting ready for international exams and career chances, strong English proficiency is crucial given the growing globalization of medical education and practice. To excel in their studies and future professions, first-year medical students at the Tashkent Medical Academy Urgench Branch (TMA) must acquire high English language proficiency. Ten students in this cohort, ages 19 to 20, come from a variety of linguistic backgrounds, with IELTS scores ranging from 5.5 to 6.0. Their range of intermediate to upper-intermediate English proficiency levels reflects a variety of educational backgrounds and approaches to language learning. While some students have benefited from receiving formal English instruction in their schools, others have taken extra language programs to augment their education. Their English language instruction primarily focuses on getting them ready for the Occupational English Test (OET) and IELTS tests, which are essential for achieving their goals in school and the workplace. In light of this, the current study attempts to improve the efficacy of English language tests customized to these medical students' requirements. Speaking, reading, and listening are the three main language skills that are tested in the tests created and adjusted for this study. These talents are crucial for the students' academic success as well as their future employment in medicine, which call for specialist terminology, medical communication skills, and general English ability. The speaking assessment measures students' ability to communicate clearly and empathetically with doctors; the reading assessment concentrates on their comprehension of medical texts and vocabulary application skills; and the listening assessment measures students' ability to understand and interpret medical discussions.

In addition to addressing the unique difficulties these students encounter, this thesis aims to offer focused criticism that can direct the students' language development. The study is to further the field of English language assessment in medical education by examining the efficacy of various assessment tasks and rubrics. Ensuring that students possess the communication skills required

for their future careers in the medical industry and are well prepared for their international tests is the ultimate goal.

Methodology: This study's methodology, which focuses on listening, speaking, and reading comprehension, aims to evaluate and improve the first-year medical students at Tashkent Medical Academy Urgench Branch (TMA)'s English language competency. A mixed-methods strategy was used in the study to combine quantitative and qualitative techniques in order to provide a thorough picture of student performance and areas that needed improvement.

First, students participated in an open-ended, communicative listening evaluation that involved a two- to three-minute audio recording about a medical issue. The selection of this tape was based on its applicability to the language requirements of international medical exams as well as general medical knowledge. Students responded to comprehension questions and took part in a group discussion after the listening exercise to demonstrate their understanding of the audio material.

A gap-filling task was also provided to evaluate their comprehension of and application of important language from the recording. To assess students' listening comprehension, a comprehensive rubric was created, with an emphasis on their performance in the gap-filling assignment and their capacity to understand primary ideas, details, and nuances.

Second, there were comprehension questions and a reading passage about medical subjects in the reading assessment. The assignment given to the students was to identify the text's key concepts, supporting information, and facts. Students had to take part in a group discussion and rephrase the content in their own terms in order to gauge their comprehension even more. The evaluation sought to gauge not only reading comprehension but also vocabulary application and the incorporation of secondary skills like writing and speaking. Students' performance was assessed using an analytical rubric that focused on their capacity to understand literature, draw conclusions, and have insightful conversations.

Finally, a role-playing exercise that mimicked a conversation between a patient and a doctor was used for the speaking evaluation. Students were assigned to diagnose and discuss treatment choices based on specified symptoms, acting as either doctors or patients. This task was created to evaluate their ability to communicate, their understanding of medicine, their empathy, and their flexibility in different patient situations. Students were given detailed feedback on their performance, which was then examined using an analytical rubric that assessed the students' use of medical knowledge, professionalism, clarity, empathy, and adaptability in communication.

The methodology employed customized examinations that were in line with the language competency levels and professional objectives of the students. The study sought to identify areas of strength and improvement in order to shape future teaching practices and support students in preparing for their medical careers and international tests. Performance data was analyzed, and individualized feedback was given.

Assessment Tasks and Results.

1. Listening Evaluation Task Overview

Students responded to comprehension questions while listening to an audio recording of a medical discussion. Following that, they took part in a group discussion and finished an exercise that involved filling in the gaps in the tape.

Rubric Assessment

Excellent (5): Actively participates in discussions while demonstrating a deep comprehension of the material and its underlying meanings.

Proficient (4): Participates in discussions well and demonstrates a strong grasp with only a few small omissions.

Basic (3): Limited participation in discussions; grasps basic concepts but finds details difficult.

Limited (2): Difficulty connecting with and comprehending the material.

Results:

Students demonstrated varying degrees of involvement and language usage, but they generally did well in recognizing core ideas and specific details.

2. Reading Assessment**Task Description**

In addition to reading and responding to comprehension questions, students also paraphrased a medical article and took part in a group discussion.

Rubric Assessment

Excellent (5): Identifies details and important concepts accurately; participates actively in conversations.

Proficient (4): Relates to most major ideas with only a few small blunders; participates in conversations appropriately.

Basic (3): Limited engagement; considerable gaps in basic understanding.

Limited (2): Has trouble understanding important ideas and specifics; little involvement.

Results:

Students showed a good understanding of the basic concepts and specifics, but their critical discussion and paraphrasing still needed work.

3. Speaking Assessment**Task Description**

Students engaged in role-playing exercises that mimicked exchanges between a patient and a doctor, with an emphasis on medical knowledge, empathy, and communication.

Rubric Assessment

Advanced: Effectively adjusts communication style, demonstrates excellent empathy and medical understanding, and communicates in a clear and professional manner.

Competent: Good empathy and communication skills; sufficient medical knowledge; considerable flexibility.

Developing: Limited empathy and medical understanding; difficulties with adaptation; basic communication.

First: Inadequate medical knowledge; lack of empathy and communication skills; lack of flexibility.

Results: Students showed differing degrees of empathy and professionalism. Many shown growth in their use of medical information, but they still needed more practice being flexible in their communication.

Discussion: The results of this study demonstrate how first-year medical students at Tashkent Medical Academy Urgench Branch (TMA) have different competency levels and different learning demands. The results of the listening evaluation showed that although students generally showed a high knowledge of the core ideas and particular details from medical conversations, there were observable gaps in their capacity to correctly complete gap-filling exercises and infer subtle meanings. This suggests that although students can understand the fundamentals, they still require additional practice interpreting more complicated data and using sophisticated vocabulary. The significance of enhancing students' speaking abilities, particularly in terms of successfully and clearly explaining their ideas, was also highlighted in the group discussions that ensued after the listening assignments.

According to the reading evaluation, students' outstanding reading comprehension skills were demonstrated by their exceptional ability to recognize important ideas and supporting information in medical books. The difficulty, though, was in summarizing the information and using terminology in their answers. This shows that even if children can comprehend and remember knowledge, they need more help processing it and using it to communicate it in their own words. Through peer contact and chances for deeper analysis and thought, the ensuing group discussions assisted in filling in these gaps.

Through role-playing exercises, the speaking assessment showed that students could use their medical knowledge to realistic patient contacts. But the assessment also pointed up areas that needed

work in terms of empathy, flexibility, and using formal medical language. Students displayed differing levels of assurance and lucidity in their discourse, with a few finding it difficult to uphold a formal demeanor and modify their strategy for distinct patient situations. In order to improve their communication skills and professional demeanor, role-playing exercises and real-world simulations require more focused practice, according to the feedback and observations from these assessments.

In conclusion, the study emphasizes the need for a comprehensive method of language evaluation that takes into account the interactions between speaking, reading, and listening skills in addition to assessing individual proficiency. In order to support students in reaching their language proficiency objectives and address specific areas of difficulty, tailored feedback and focused instructional tactics are crucial.

Conclusion: This study underscores the need of efficient language evaluation in medical education and offers insightful information about the English language ability of Tashkent Medical Academy Urgench Branch (TMA) first-year medical students. The customized tests for speaking, listening, and reading provide a thorough assessment of pupils' abilities and highlight critical areas for development. The study is in line with the academic and professional objectives of the students and equips them for the demands of international exams and future jobs in medicine by concentrating on particular language tasks related to medical situations.

The results indicate that although students possess a strong foundation in English, they still require ongoing assistance in enhancing their advanced language abilities, namely in the areas of sophisticated reading replies, professional speaking engagements, and nuanced listening comprehension. Targeted interventions and individualized learning have been made possible by the use of analytical and holistic rubrics, which have shown to be successful in offering thorough feedback and directing instructional strategies.

The study concludes by emphasizing how crucial it is to incorporate assessment tasks that offer relevant feedback and mirror real-world medical circumstances in order to improve language ability. To ensure that medical students are prepared for both academic success and professional practice in a worldwide medical sector, future research and practice should keep investigating cutting-edge assessment techniques and instructional methodologies that meet the changing demands of medical students.

Review of the Literature:

1. Language Evaluation in Medical Education. In order to guarantee that medical students gain the English language proficiency required for their career success, effective language assessment is crucial. Prior research (Brown, 2004; O'Sullivan, 2012) has emphasized the significance of incorporating task-based learning (TBL) and communicative language teaching (CLT) into language evaluations.

2. Conceptual Structure. A framework for classifying educational objectives is provided by Bloom's Taxonomy (1956), which is important when creating tests that focus on different cognitive abilities. This approach is in line with the use of holistic and analytical rubrics to assess students' language proficiency in a complete way (Ayhan & Türkyılmaz, 2015).

REFERENCES:

1. Ayhan, Ü., & Türkyılmaz, M. U. (2015). Key of language assessment: Rubrics and rubric design. *International Journal of Language and Linguistics*, 2(2), 82–92.
2. Brown, H. D. (2004). *Language assessment: Principles and classroom practices*. Longman
3. Buck, G. (2009). Challenges and Constraints in language test development. In J. C. Alderson (Ed.), *The politics of language education: Individuals and institutions* (pp. 166–184). Multilingual Matters.
4. Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., & Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. David McKay Company.
5. Freeman, M., & Johnson, K. E. (1998). Reconceptualizing the role of assessment in a task-based framework. *Modern Language Journal*, 82(4), 537-556.
6. Lee, O. (2018). English language proficiency standards aligned with content standards. *Educational Researcher*, 47(5), 317–327.
7. Nation, P. (2017). Timed reading for fluency2. Seed Learning.
8. O'Sullivan, B. (2012). Assessing speaking. In C. Coombe, P. Davidson, B. O'Sullivan, & S. Stoynoff (Eds.), *The Cambridge guide to second language assessment* (pp. 234–246). Cambridge University Press.
9. Puspawati, I. (2014). Fairness issues in a standardized English test for nonnative speakers of English. *TESOL Journal*, 5(3), 555–572.

10. Sawaki, Y. (2016). Norm-referenced vs. criterion-referenced approach to assessment. In D. Tsagari & J. Banerjee (Eds.), *Handbook of second language assessment* (pp. 45–60). De Gruyter, Inc
11. Tomlinson, C. A. (2014). The differentiated classroom: Responding to the needs of all learners. ASCD
12. Taylor, L., & Chen, N. N. (2016). Assessing students with learning and other disabilities/special needs. In D. Tsagari & J. Banerjee (Eds.), *Handbook of second language assessment* (pp. 377–395). De Gruyter, Inc
13. <https://www.ielts.org/en-us/for-organisations/ielts-scoring-in-detail>
14. <https://youtu.be/o1z2DfZBS4?si=ujUOn7XKS4QDt0c>

УЎК: 811.512.133

ЎЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСИКАСИГА ОЛМОН ТИЛИДАН ЎЗЛАШГАН АЙРИМ СЎЗЛАР ТАҲЛИЛИ

